

**«O'ZBEKISTON TARIXI» FANIDAN CHOR ROSSIYASI,
SOVET MUSTAMLAKACHILIGI VA MILLIY ISTIQLOL»
DAVRLARI BO'YICHA USLUBIY QO'LLANMA**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI**

**«O'ZBEKISTON TARIXI» FANIDAN CHOR ROSSIYASI,
SOVET MUSTAMLAKACHILIGI VA MILLIY ISTIQLOL»
DAVRLARI BO'YICHA USLUBIY QO'LLANMA**

*(SamQXI, Ilmiy kengashining
_____dagi sonli yig'ilish qarori bilan
(bayonnoma №____) nashrga tavsiya etilgan)*

Samarqand – 2012 y

UDK
BBK

«O'zbekiston tarixi» fanidan «Chor Rossiyasi, Sovet mustamlakachiligi va Milliy Istiqlol» davrlari bo'yicha uslubiy qo'llanma. Samarqand, 2012.

Milliy mustaqillik barcha sohalar kabi Vatan tarixini keng qamrovli har qanday mafkuraviy bosimlardan holi o'rganishga keng imkoniyatlar yaratdi. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'qligi, tarix xalq ma'naviyatining asosi ekanligi, haqqoniy tarixni bilmasdan esa o'zlikni anglash mumkin emasligi ma'lum bo'ldi.

Vatan tarixini chigal va muammoli qismlari hisoblangan Chor Rossiyasi, sovet mustamlakachiligi davrlari hamda zalvorli tarixiy voqyealarga boy bo'lgan milliy istiqlool davrini keng qamrovli manbalari asosida oydinlashtirish borasida tarixchi olimlar chuqur ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Sovet tarixshunosligida soxtalashtirilgan tariximizni eng yangi manbalar asosida yoritish, jumladan, Vatanimiz xududini Chor Rossiyasi mustamlakachilari tomonidan bosib olinishi unga qarshi olib borilgan xalq qo'zg'olonlari, sovet hokimiyatining mustabidlik, shovinistik xususiyatini eng yangi manbalar asosida fosh etish, tarixiy haqiqatni tiklash hamda ajdodlarimiz asrlar davomida orzu qilgan milliy mustaqillikni Prezident I.A.Karimov rahnamoligida qo'lga, kiritilishi, bu boradagi qiynchiliklar, O'zbekistonda barpo etilayotgan huquqiy demokratik davlatning mazmun mohiyatini yoshlar ongiga singdirish, boy tariximiz asosida yoshlarni vatanparvarlik, milliy istiqlool g'oyasi ruhida tarbiyalash dolzarb masalalardan bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlangan o'quv dasturi asosida yozilgan uslubiy qo'llanma barcha oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan. Shuningdek, undan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari ham foydalanish mumkin.

Tuzuvchi: t.f.n., katta o'qituvchi A.E.Toyirov

Mas'ul muharrir: t.f.n. dotsent X.Normurodov

Taqrizchilar: t.f.n. dotsent M.M.Hoshimova
t.f.n. dotsent O.R.Turg'unboyev

Samarqand qishloq xo'jalik instituti, 2012

SO'Z BOSHI

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan tarix fanida ham yangilanish jarayoni boshlandi. Xaqqoniy tarixni yaratish davr talabi sifatida davlat siyosati darajasiga kutarildi. Prezident I.A.Karimovning 1998 - yil 26 iyunda Respublikamizning bir guruh tarixchi olimlari bilan uchrashuvi hamda uning mantiqiy davomi bo'lgan Vazirlar Mahkamasining 1998 - yil 27 iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish tuo'g'risidagi qarori O'zbekiston tarixini xolisona o'rganish uchun keng imkoniyatlar ochish bilan biga konseptual va nazariy jihatdan yangicha qarashlar uchun muhim asos bo'ldi.

Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalqi o'zining ko'p asrlik tarixi davomida aksariyat chet el bosqinchlari zulmi ostida yashagan. Ayniqsa so'nggi mustamlakachilar hisoblangan Chor Rossiyasi va sovet mustamlakachiligi davrida milliy o'zlik, milliy madaniyatni, yo'q qilish millatni asoratda ushlab turishda muhim ahamiyatga ekanligini anglagan holda bu borada keng qamrovli ishlar olib borishgan. Bu borada Chor Rossiyasining Skoblev degan generali shunday deb yozgan edi: «Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi»¹ Chor Rossiyasi mustamlakachilarini davomchilari hisoblangan sovet mustamlakachilari, yagona «Sovet xalqi»ni shakllantirish siyosati shiori ostida milliy ma'naviyatni taqdirlash borasidagi faoliyatlarini yanada kuchaytirdilar. XX asrning 80-- yillar oxirlari, 90 - yillarning boshlarida sovet mustabid tuzumining inqirozga uchrashi va barham topish jarayoni, o'ta murakkab bir davrda respublikaning birinchi rahbari lavozimiga Prezident I.A.Karimovning kelishi, milliy ma'naviyat tiklash, milliy mustaqillik sari tashlangan dastlabki qadamlar, nihoyat milliy mustaqillikni qo'lga kiritilishi, uning tarixiy ahamiyati, Prezident I.A.Karimov asarlari, nutqlarida O'zbekistonda barpo etilayotgan huquqiy demokratik davlatning nazariy asoslari ishlab chiqilganligi kabi masalalar keng qamrovli jumladan eng yangi manbalar asosida ushbu uslubiy qo'llanmada atroflicha yoritilgan.

Ushbu uslubiy qo'llanmada talabalarning mavzularni o'zlashtirish oson bo'lishi uchun mavzularga tegishli yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish uchun tavsiyalar, reja, shuningdek, tayanch iboralar mavzularga oid adabiyotlar ro'yxati va test topshiriqlari bilimlarni mustahkamlash uchun savollar berilgan.

Mazkur uslubiy qo'llanma Prezident I.A.Karimov asarlari nutqlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, boshqa huquqiy me'yoriy hujjatlar, keng qamrovli turli tarixiy manbalar jumladan, respublikamizning yetuk tarixchi olimlari tomonidan mustaqillik - yillarida Chop etilgan darsliklari, o'quv uslubiy qo'llanmalari, ilmiy tadqiqot ishlari, ilmiy maqolarini o'rganish asosida tayyorlandi. Uslubiy qo'llanmani tayyorlashda Q.Usmonov, M.Sodiqov,

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. Sharq, 1999. – B. 24.

S.Burhonovlar tomonidan 2006 - yilda nashr ettirilgan O'zbekiston tarixni darslik asos bo'lib xizmat qildi. Bundan tashqari uni yozishda tarixchi olimlardan H.Ziyayev, D.H.Ziyayeva, Q.Rajabov, D.Alimova, Sh.G'afforov, A.A.Golovanov, R.Shamsutdinov, R.M.Abdullayev, S.S.A'zamxo'zjayev, B.Ergashev, A.E.Toyirov va boshqalar tomonidan yaratilgan hamda ularning tahrini ostida nashr etilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy tadqiqot ishlari, ilmiy maqolalaridan foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlangan o'quv dasturi asosida yozilgan ushbu uslubiy qo'llanma barcha nomutaxasis oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan. Shuningdek, undan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va umumiy o'rta ta'limi o'qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Ushbu uslubiy qo'llanma ayrim kamchiliklardan xoli bo'lmasligi shubhasiz. Qo'llanma tuzilishi va mazmuni sifatini ko'tarish bo'yicha sinchkov mutaxasislar bildirgan taklif va istaklarini mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

Mavzu: CHOR ROSSIYASINING TURKISTONNI BOSIB OLISHI, CHORIZM ZULMIGA QARSHI TURKISTON XALQLARINING MILLIY OZODLIK KURASHI, JADIDCHILIK

1.1. Mashg'ulot topshiriqlar rejasi

O'quv vaqti: 2 soat ma'ruza, 2 soat seminar mashg'uloti

Mashg'ulot turi: ma'ruza, o'tilgan mavzularni takrorlab, bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash.

Darsning maqsadi: Talabalarga Chor Rossiyasi tomonidan Turkistonni bosib olish jarayoni, Chor Rossiyasini Turkistondagi mustamlakachilik siyosati, Buxoro amirligi va Xiva xonligining Chor Rossiya vassalliga aylanirilishi, unga qarshi Turkiston xalqlari tomonidan amalga oshirilgan milliy ozodlik kurashining mazmun mohiyati haqida tushuncha berish, ularni erkin fikrlashga, shu mavzu to'g'risidagi bilimlarini yuzaga chiqarish, vatanparvar insonlarni Chor Rossiyasi mustamlakachilariga qarshi kurashini yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalashdagi o'rni haqidagi bilim va ko'nikmalarini hosil qilish.

Ilmiy mashg'ulotning vazifasi:

O'rgatuvchi: mashg'ulot ishtirokchilarini faol qatnashshilarini tashkil etish, yangi olingan bilimlarini mustahkamlash, talabalarni Chor Rossiyasini Turkistonni bosib olish, Buxoro amirligi va Xiva xonligini yarim mustamlakaga aylantirilishini sabab va oqibatlari hamda unga qarshi olib, borilgan milliy-ozodlik harakatining keltirib chiqaruvchi sabablar haqidagi fikrlarini rivojlantirish, mavzuning alohida jihatlarini, boshqa mavzular bilan aloqadorligini, tushuntirish.

- **rivojlantiruvchi:** o'quv adabiyotlaridan to'g'ri foydalanish, mavzuga oid muhim muammolar bilan ishlashni o'rgatish, mavzuga doir eng yangi ilmiy natijalar bilan tanishtirish, tushuncha va iboralarni izoxlash, talabalarga Turkistonni bosib olish masalasida ingliz-rus raqobati, Chor Rossiyasi mustamlakachilarini Turkistonni bosib olishdan ko'zlagan maqsadlari, milliy ozodlik harakatining yengilish sabab va oqibatlarini keng qamrovli jumladan, eng yangi manbalar asosida tushuntirish, talabalarda vatanparvarlik his-tuyg'ularini rivojlantirib borish.

- **tarbiya beruvchi:** talabalarni mustaqil ishlashga jalb qilish, Vatan mustaqilligini uchun jonini fido qilgan yurt farzandlari haqida aniq faktlar asosida ma'lumot berish, Chor Rossiyasi mustamlaka boshqaruv tizimini mustabidlik xususiyatini ravon til bilan talabalar uchun sodda usulda tushuntirish. Mavzu mohiyatini ochib berish jarayonida yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga e'tibor qaratish.

O'rganish texnologiyalar:

- **o'qitish usullari:** ma'ruza, aqliy hujum klaster, skarbey usullaridan, foydalanish jonli muloqot, plakatlari, tarqatma materiallar, fotosuratlar, ilmiy va badiiy adabiyotlar asosida mavzu mohiyatini talabalarga yetkazish;

- **o'rganish turlari:** og'zaki testlar orqali tushuntirish, jamoaviy savol-javoblar, oldindan mavzu bo'yicha qisqacha konspektlar tuzish;

- **o'rganish yo'nalishlari:** ma'ruza matni, mavzuga doir ko'rgazmali qurollar Vatan tarixini haqqoniy o'rganishni qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydigan Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi milliy-ozodlik kurash olib borgan vatanparvar insonlar hayoti va faoliyati haqida ma'lumot beruvchi eng yangi adabiyotlar slaydlar.

- **o'rganish talablari:** auditoriyalarning texnik vositalar bilan ta'minlanishi, texnik vositalardan unumli foydalanish.

- **monitoring va baholash:** og'zaki nazorat, savol-javoblar, blis-so'rov.

Pedagogik jarayonlar

- o'quv jarayonida mavzuning ahamiyati va uning o'rni bilan tanishtirish;

- mavzuning tuzilishi va tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar tafsiloti haqida tushuntirishlar berish;

- mavzuning ishlashning uslubiy va tashkiliy xususiyatlarini ochish, baholash muddati va shakli, o'qitish jarayonini tashkilashtirish jarayonining sxemasini tasniflash;

O'quv faoliyati natijalari:

- mavzuning nomlanishi va vazifalarni belgilash;

- faoliyatdagi alohida usuli va tashkiliy jihatlarini ochib berish;

- mavzuning umumiy va tashkiliy tuzilishlari to'g'risida atroflicha tushuncha berish;

- Vatanimiz xududi sovet tarixshunosligida talqin etilganidek, Chor Rossiya ixtiyoriy ravishda qo'shib olinmasdan balki minglab vatanparvar insonlarning jismoniy yo'q qilinishi oqibatida zo'rlik bilan bosib olinganligini aniq dalillar asosida yoritib berish, talabalarga tarixiy haqiqatni turli manbalar asosida yetkazish, mavzuning asosiy yo'nalishni belgilab berish;

- nazariy bilimlarning tizimlilik, amaliyligi

- amaliy topshiriqlarni bajarishda nazariy bilim va shakllangan ko'nikmalardan foydalana olish;

- mavzuning asosiy mazmuni, yo'nalishi bo'yicha, ularning boshlang'ich bilimlarga ega bo'lishi;

1.2. Ma'ruzaning xronologik kartasi 1 – bosqich. O'quv mashg'ulotlarga kirish – 15 daqiqa.

- **o'rgatuvchining faoliyati:** tayyorgarlikni tekshirish, kerakli tarixiy manbalar haqida ma'lumot, ma'ruza haqida tushuncha berish o'quv rejasi bilan tanishtirish, adabiyotlar to'g'risida ma'lumotlar berish, dars davomida talabalar bilimni baholab borish usullari haqida tushunchalar berish;

- **talabaning faoliyati:** darsga tayyorgarligi, ma'ruza matni bilan va mavzuga oid rejalar bilan tanishganligi (talabalar soni, tashqi ko'rinish, o'quv qo'llanmalar va kurgazmali qurollar);

- **uslublar, shakllar, usullar:** yo'riqnoma, oldindan so'rash, topshiriq kartochkalari

2-bosqich. Asosiy qism – 55 daqiqa

- **o'qituvchi faoliyati:** mavzuni yoritishga kirishish, o'tgan mavzularni takrorlash, ma'ruza matnining tarqatish, uni yaxshi o'zlashtirib olishni ta'kidlash, mavzu rejalarining har biriga alohida tushuncha berish, aqliy hujum, klaster, bumerang usullaridan foydalanish, jonli muloqot, tarixiy atamalarga izohlar berish, ma'ruza matnini o'qish mobaynida slaydlar orqali atroflicha tushuncha berish;

- **talabani faoliyati:** bilimlarini mustahkamlab olish, ma'ruzani qunt bilan eshitish, muhim joylarini konspekt qilib olish tushunmagan iboralar bo'yicha savollarni berish, mavzuni tahlil qilish.

- **uslublar, shakllar, usullar:** oldindan so'rash, blis-so'rov, aqliy hujum, bumerang usulidan foydalanish.

3-bosqich. Yakunlovchi qism – 10 daqiqa

- **o'qituvchi faoliyati:** mavzuni yakunlash, talabalar diqqatini mavzuga qaratish; dars jarayonida faollik bilan ishtirok etgan talabalar faoliyatini baholash, mavzuga doir mustaqil ish mavzusini berish, baholash.

- **talabani faoliyati:** o'tilgan mavzuni tahlil qilish, dars jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish, mustaqil ish mavzusini yozib olish;

- **uslublar, shakllar, usullar:** guruhlarda ishlash, topshiriq kartochkalari.

1.3. O'quv – uslubiy materiallar

1.3.1. Ma'ruza matni

Kim bo'lishdan qat'i nazar jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishni yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish har xil oqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi.

I.A.Karimov

Mavzu: Chor Rossiyasining Turkistonni bosib olishi, Chorizm zulmiga qarshi Turkiston xalqlarining milliy-ozodlik kurashi, jadidchilik

Ma'ruza rejasi:

1. Chor Rossiyasining Markaziy Osiyoni bosib olishi, Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya vassaliga aylantirilishi, Qo'qon xonligining tugatilishi.

2. Chorizmning Turkistonda siyosiy iqtisodiy hukmronligini amalga oshirish sohasidagi tadbirlari, Turkistonni xom-ashyo makoni va sanoat mollari bozoriga aylantirilishi.

3. Chorizmning Turkistonda mustamlakachilikni kuchaytirishga qaratilgan madaniy va ma'rifiy tadbirlari, jadidchilik.

4. Turkiston xalqlarining chorizmning mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatlarining boshlashishi, uning bosqichlari.

Tayanch iboralar: Oqmasjid qal'asi, Perovski fort, Turkiston viloyati, Avliyoota, general Chernyayev, Fon Kaufman, General Krijanovskiy, General Romanovskiy, Turkiston General-gubernatorligi, Toshkent, Xudoyorxon, Amir Muzaffar, Said Muhammad Rahimxon II (Feruz), Zirabuloq, Samarqand, Gandamiyon, Jadidchilik, Mahmudxo'ja Behbudiy, Dukchi Eshon, 1916 - yilgi qo'zg'olon.

1. Chor Rossiyasining Markaziy Osiyoni bosib olishi, Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya vassaliga aylantirilishi, Quqon xonligining tugatilishi

Turkiy xalqlar yashovchi bapoyon xududlarni bosib olish Rossiya podsholarining azaliy orzusi edi. Bu boradagi amaliy harakat Ivan Groznyy zamonidan boshlangan edi. U. Qozon. (1552), Astraxon (1556), Sibir (1581-1590) xonliklarini bosib oladi va endi Turkiston xonliklari to'g'risida ma'lumot to'plashga kirishdi. Shu maqsadda 1558-1559 - yillarda Antoniy Jenkinson boshliq elchilarni Buxoroga yuborib josuslik ma'lumotlarini to'planganlari ma'lum. Rossiya hukumati XVII asr davomida 9 marta elchi yuborib Buxoro va Xiva xonliklarini ahvolini o'rgandi.

Rossiya podshohi Petr I zamonida «sharqni egalla» siyosati yuritildi. Bu siyosatning tarkibiy qismlaridan biri Turkistonni egallash edi. Turkistonni bosib olish rejasi tuzildi. Xiva, Buxoro, Qo'qon xonliklarining g'arbiy, shimoliy va sharqiy chegaralarida harbiy istehkomlar qurish, xonliklarni Rossiya tobeligiga olish maqsadida katta harbiy ekspedisiyalar uyushtirildi. 1715 - yilda sharqiy chegaralarda Buxgols rahbarligida, 1716-1717 - yillarda Xiva xonligida Bekovich-Cherkasskiy rahbarligida harbiy ekspedisiyalar tajovuzkorona harakat qildilar. 1721-1724 - yillarda Flario Beneyev boshliq elchilar Buxoroda josuslik faoliyatini yuritdi. XVIII asr davomida Rus davlati qozoq va qirg'izlarning Kichik jo'z, O'rta Jo'z, Katta Jo'z xududlarini o'ziga bo'ysundirdi. Ularning xududida o'zbek xonliklariga bostirib borishda foydalanish uchun 46 ta katta va 96 ta kichikroq harbiy qal'a va istehkomlar qurdirdi, ularga qo'shinlarini joylashtirdi.

XIX asr o'rtalarida ikki yirik mustamlakachi imperiya-Buyuk Britaniya va Rossiya davlatlari manfaatlari Turkistonda to'knashdi. Ikki davlat ham bir – biridan yashirin ravishda O'rta Osiyoga kirish, xonliklardagi hukmron sulolalar bilan til topish yo'llarini qidirar, shu maqsadda harbiy missiyalar yuborar edi. Masalan, 1831-1833 - yillarda «Ost-Indiya» kompaniyasi leytenant Aleksandr Byorns Hindistondan Afg'onistonga undan Buxoroga go'yo sayyoh sifatida keladi. U yig'ilgan dalillar va shaxsiy kuzatishlari asosida uch jildlik «Buxoroga sayohat» nomli kitob yozadi.

Rossiya va Angliya o'zaro munosabatlarini yaxshilash va rahobatchilikni yumshatish uchun 1856 - yilning 19 martida o'zaro bitim tuzdi. Rus gsheneral-leytenant Xrulevning fikricha, bu bitim o'zaro munosabatlarni o'zgartirmadi, chunki u mahalliy savdo va hukmronlik qilish masalalarini to'liq qamrab olmagan edi.

«Ost-Indiya» kompaniyasi O'rta Osiyo bozorlariga kirish va egallab olish, bozorlarda ingliz tovarlarining Rossiya tovarlarini siqib chiqarishini ta'minlashga zo'r berdi. Bu borada ular hind va fors savdogarlaridan keng foydalandi.

Buyuk Britaniyaning O'rta Osiyoga kirishi va uni egallashga intilishi Rossiyani tashvishga soldi. U xonliklarga bevosita chegaradash bo'lganligi uchun harbiy harakatlarni boshlab yubordi.

Xonlikning shimoli-g'arbiy hududida Orenburg general-gubernatori V.A.Perovskiy katta qo'shin bilan hujumga shailanib turar edi. U 1834 - yilda Kaspiy dengiz qirg'og'idagi Mang'ishloqda harbiy istehkom qurib, unga Novo-Aleksandrovskiy deb, nom berdi. 1845 - yilda Orenburg va Yoyiq, 1847 - yilda Sirdaryoning Orol dengiziga qo' - yilish joyida Raim (Oral) harbiy istehkomlari qurildi. Perovskiy qo'shinlari 1852 - yilda Qo'qon xonligining strategik ahamiyatga ega bo'lgan Oqmasjid qal'asini zabt etolmagan bo'lsada, 1853 - yildagi ikkinchi o'rinish natijasida qal'ani zabt etdi va u yerda mus'hkam o'rnamashdi.

Xonlikning shimoliy-sharqiy tomonida G'arbiy Sibir general-gubernatori G.Gosford hujumga tayyorlanish uchun 1847 - yilda Yettisuvdagi Ulutov yaqinida ikkita harbiy istehkom, 1848 - yilda Qorabuloq qal'asini, 1854 - yilda Olmati ovuli yonida Verniy istihkomini qurib, harbiy kuchlarini joylashtirdi, 1860 - yilda Qo'qon xonligi hududida qarashli harbiy istihkomlarga hujum qilib, Tuqmoq, Pishpak va boshqa qal'alarni birin-ketin bosib ola boshladi.

Perovskiy va Gosfordning harbiy harakatlari amalda Rossiyaning O'rta Osiyoga e'lon qilinmagan bosqinchlik yurishlarining boshlanishi edi.

Shuni ta'kidlash kerakki, rus aholisini O'rta Osiyo hududiga joylashtirish 1886 - yildagi Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi yangi nizomdagi «rus aholisini O'rta Osiyoga kuchirish»ni qonuniy belgilashdan ham oldin. XIX asrning birinchi yarmidayoq boshlangan. Masalan, turkmanlar yerlarida ruslar 1849 - yildayoq Aleksandrovsk portini va Nikolayevskoye nomli baliqchilar posyolkasini barpo erishgan. Ushbu davrdagi ko'chirish harbiy gubernator va uyezd boshliqlari buyruqlari bilan amalga oshirilgan².

1864 - yil may oyida Qo'qon xonligi hududiga Sharq tomondan polkovnik Chernyayev qumondonligidagi Rossiya qo'shinlari, G'arbdan polkovnik Verpevkin qo'shinlari bostirib kirdi. Ular tomonidan Qo'qon xonligining muhim tayanch shaharlari Avliyoota, Suzoq, Turkiston shaharlari egallandi. Bosqinchlar 1864 - yil 14-iyulda Chimkentga yurish boshlaydilar. Ammo, Turkiston yaqinidagi

² G'afforov Sh. Tarix va taqdir: Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko'chirilganlar. T., Fan, 2006. – B. 54.

Iqon qishlog'i yaqinidagi uch kunlik jangda Mulla Alimqul boshchiligidagi Qo'qon xoni qo'shinlari g'olib chiqdi.

Lekin, Mulla Alimqul Qo'qon xonligi xududiga bostirib kelayotgan amir Muzaffar qo'shinlari bilan jang qilishga ketganidan foydalangan Chernyayev Orenburg otryadlari bilan Sayramda qo'shib 1864 - yil 14 sentyabrda Chimkentga yangidan yurish uyushtirdi va shaharni bosib oldi.

Chernyayev 1864 - yil 2 oktyabr kuni Toshkentga hujum boshladi. Toshkent Qo'qon xonligining eng yirik muhim strategik ahamiyatga molik shahari bo'lib, uzunligi 25 chaqirim, eni 2-3 metr, balandligi 5-7 metr bo'lgan devor bilan o'rab olingan edi. Devor tepasining kengligi 2 m bo'lib, mudofaa minoralari, o'q otadigan shinaklari bo'lgan, devor atrofi suv bilan to'ldirilgan.

Toshkent mudofaachilarining mardona harakati tufayli Chernyayev qattiq ma'lubiyatga uchradi. 72 zobit va askarini yo'qotdi. Chimkentga qaytishga majbur bo'ldi.

Chernyayev 1864-1865 - yil qishida harbiy tayyorgarlik ko'rib, Sibir va Orenburgdan qo'shimcha qurol yarog' yangi batalonlar, sapperlar rotalari uning qo'shinini kuchaytirdi. Mahalliy aholi orasida o'z Vataniga xiyonat qiluvchi, dushmandan ponoh-izlovchilar topildi. Abdurahmonbek, Saidazimboy, Soatboy kabi sotqinlar Toshkentni egallashda Chernyayevga ko'maklashdilar. 1865 - yil bahoridan Chernyayevning yangi hujum boshlandi. 28-aprel kuni Chirchiq daryosi qirg'ogidagi Niyozbek qal'asini egallab, Toshkentni suv bilan ta'minlab turuvchi Kaykovus anhoriga Chirchiq daryosidan suv chiqarib beruvchi to'g'onni buzib tashlab shahar aholisining suvsiz qoldirdi. Amirlashkar Alimqul katta qo'shin bilan Qo'qondan Toshkentga yetib keldi, 9-may kuni Salar arig'ida bo'yida bo'lgan jangda Alimqul halok bo'ldi. Nihoyat shahar himoyachilarini qarshiligi sindirilib, 15 iyun kuni Toshkent zabt etildi. Orenburg general – gubernatorligi tarkibidagi Turkiston viloyati tuzildi, uning harbiy gubernatori etib, M.Chernyayev tayinlandi.

1865 - yil 6 avgustda podsho Aleksandr II tomonida Turkiston viloyatining boshqarish to'g'risidagi muvaqqat nizom qabul qilindi. 1865 - yilda Orenburg general-gubernatorligi tarkibida bo'lgan Turkiston viloyatini tashkil etilishi, ayniqsa Toshkent shahrining egallanib, viloyat ma'muriy markaziga aylantirilishi keyingi bosqinchlik rejalarining amalga oshirilishini aniq qilib qo'ydi. Rus aholisini ushbu hududga ko'chirish bo'yicha turli takliflar, tavsiyalar ishlab chiqildi³.

Chernyayev 1866- yil yanvarida Jizzaxga hujum qildi va mag'lubiyatga uchradi. O'zboshimchaligi uchun Chernyayev Sankt-Peterburgga chaqirib olinadi. Uning o'rniga general D.Ramonovskiy tayinlandi.

Ramonovskiy Sibir va Orenburgdan yordam olib Buxoro amirligiga qarshi yurish boshladi. 1866 - yil may oyida Erjarda bo'lgan jangda amir Muzaffar qo'shinlari yengildi, amir Jizzaxga qochdi. Ramanovskiy yurishni Xo'jand tomonga yo'naltirdi, 1866 - yil 19-22 may kunlari bo'lgan qattiq janglar natijasida

³ G'afforov Sh. Tarix va taqdir: Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko'chirilganlar. T., Fan, 2006. – B. 64.

Xo'jand egallandi. Orenburg general-gubernatori Krijanovskiy, Romanovskiy bilan birgalikda 1866- yil oktyabrida O'ratepa viloyati va Zomin qal'asini bosib oldi. Endji Jizzax shahri uchun janglar boshlandi. Shahardagi 10 ming himoyachini qattiq qarshiligiga qaramay 11-18 oktyabr kunlari bo'lib o'tgan janglar natijasida shahar zabt etildi. Jizzax shahri bosib olinishi bilan 1866 - yilgi harbiy yurishlar nihoyasiga yetdi.

Rossiya imperatori Aleksandr IIning 1867 - yil 11 iyuldagi farmoni bilan tarkibiga markazi Toshkent bo'lgan Sirdaryo viloyati hamda markazi Verniy (Olmaota) bo'lgan Yettisuv viloyatlari asosida poytaxti Toshkent deb, shahri belgilangan bo'lgan Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. General – gubernator va okrug qo'shinlari qumondoni etib, general-adyutant K.P.Kaufman ta- yilandi. Unga juda keng vakolat berilganligi uchun xalq tomonidan «yarim podsho» deb, atalar edi. O'rta osiyoni bosib olish yo'lidagi harakatda yangi bosqich boshlandi.

Fan Kaufman Samarqand tomon yurish boshladi, 1868 - yil 1-2 may kunlari Samarqand uchun Zarafshon yonidagi Cho'ponota jangi natijasida Samarqand shahri egallandi. Chor Rossiyasi qo'shinlari va Buxoro amiri Muzaffar sarbozlari o'rtasidagi 1868 - yil 2-iyundagi jangda ham amir qo'shini yengildi. Bu orada istilochilarga qarshi Samarqandda Shahrizabz, Kitob beklari Jo'rabek va Bobobek yetakchiligida qo'zg'olon ko'tarildi. Ammo 8 kun davom etgan qo'zg'olon Fon Kaufman tomonidan bostirildi. Qadimiy noyob moddiy va ma'naviy yodgorliklar Peterburga olib ketildi.

1868 - yil 23-iyunda Samarqand shahrida Kaufman bilan amir Muzaffar o'rtasida sulh bitimi imzolandi. Buxoro amirligi Rossiyaning vassaliga ya'ni xorijiy davlatlar bilan mustaqil aloqa qilmaydigan davlatga aylantirildi. Sulhga binoan, Xo'jand, O'ratepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi, amir oltin hisobida 125 ming tilla (500 ming rubl) tavon tulaydigan, rus savdogarlari uchun amirlikda qulay sharoit yaratish majburiyatini oldi. Rossiyaga o'tgan xududlar asosida markazi Samarqand bo'lgan Zarafshon okrugi tuzilib, unga general Abramov boshliq ergib tayinlandi. Bundan norozi bo'lgan amir Muzaffarning o'g'li Abdumalik To'ra, Shahrizabz, Kitob beklari Jo'rabek va Bobobek boshchiligida qo'zg'olon bo'ldi, ammo bostirildi.

Angliya bilan munosabatlarini yilqlashtirishga erishgan Chor Rossiyasi 1873 - yil bahorida 12 mingdan ortiq zobit va askar, 56 ta to'p va zambarak bilan Xiva xonligiga yurish boshladi. Ayni vaqtda Xivaga qarshi Orenburg, Mang'ishloq, Krasnovodsk, shuningdek, Kavkaz okrugi qo'shinlari ham yurishga kirishgan edi. Xiva qo'shinlari tezda yengildi. Xon xazinasi, moddiy-ma'naviy boyliklar Peterburgga jo'natildi.

1873 - yil 12-avgustdagi «Gandamiyon shartnoma»siga binoan Xiva xonligi Rossiya vassaliga aylantirildi. Amudaryo qo'yi oqishning o'ng tomonidagi yerlar Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritilib, u yerda markazi Petro-Aleksandrovska (hozirgi To'rtko'l) bo'lgan Amudaryo bo'limi tuzildi. Xonlikka 20 - yil mobaynida

2 million 200 ming so'm tavon to'lash yuklatildi. Rossiya savdo-sanoatchilari xonlik xududida bojsiz savdo qiladigan bo'ldi.

1873 - yilda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan Chor Rossiya o'rtasida yana bitta tuzilgan «Do'stlik shartnomasi»ga ko'ra bu davlatlarning boshqaruv tizimi o'zgarishsiz qoldi. Shartnomaga ko'ra Buxoro amirligi Rossiya hukumati tomonidan tayinlangan nazoratchi vakilni qabul qildi. Xiva xonining faoliyati ustidan nazorat qilish amudaryo bo'lishi boshlig'iga topshirildi⁴.

Kaufman Xiva xonligi taqdirini, hal qilgach Qo'qon xonligini tugatishga kirishdi. Bu vaqtda Qo'qon xonligida hokimiyat uchun kurash avjga chiqqan edi. 1868 - yil 13 fevralda Kaufman va Qo'qon xoni Xudoyorxon o'rtasida shartnoma imzolangan bo'lib, xonlikning istilochilar bosib olgan xududlari Rossiya tasarrufiga o'tganligi e'tirof etilgan edi. Bundan norozi bo'lganlar 1873 - yilda Farg'ona vodiysida Xudoyorxonga qarshi qo'zg'olon boshladilar. Qo'zg'olonchilarning bir qismiga qirg'izlarning boston urug'idan bo'lgan mulla Is'hoq Hasan o'g'li Qo'qon xoni Olimxonning nevarasi Po'latxon nomi bilan boshchilik qildi. Qo'zg'olon keyinchilik Chor Rossiyasiga qarshi milliy-ozodlik harakatiga aylanib 1876 - yil fevralgacha davom etib, chor Rossiyasi tomonidan bostirildi.

1876 - yil fevralida Rossiya imperatori Aleksandr II ning maxsus farmoni bilan qo'qon xonligi tugatildi, uning o'rniga Farg'ona viloyati tuzilib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi. Viloyatga M.D.Skobeyev harbiy gubernator etib tayinlandi. Tez orada Oloy vodiysi ham uning tasarrufiga o'tdi. Shundan so'ng bosqichlar turkmanlar yashaydigan hududlarni istilo qilishga kirishdilar. 1877 - yilda Qizil Arvot, 1881 - yilda Ashxobod, 1884 - yilda Marv bosib olindi. Bosib olingan yerlarda Kaspiyorti viloyati tuzilib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi.

Shunday qilib Rossiya imperiyasi 20 - yil davom etgan qonli urush bilan butun O'rta Osiyoni bosib oldi. Xududni bosib olinishiga xonliklarni harbiy va iqtisodiy qoloqligi bilan bir qatorda Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «avvalambor o'sha paytda mavjud bo'lgan siyosiy bosh-boshdoqlik, hukmron kuchlarni uzoqni ko'ra olmasligi, ma'naviy zaifligi oqibatida ro'y berganligini tarixiy misollar isbotlab turibdi»⁵.

2. Chorizmning Turkistonda siyosiy, iqtisodiy hukmronligini amalga oshirish sohasidagi tadbirlari. Turkistonni xom-ashyo makoni va sanoat mollari bozoriga aylantirish

Rossiya harbiy vaziri, graf D.Milyutin, podshoh maslahatchisi V.Girs 1867 - yilda «Turkiston o'lkasini boshqarish tartibi haqida Nizom» loyihasini tuzdilar, u Vazirlar Kengashi tomonidan tasdiqlandi va amaliy kuchga kirdi. O'lkada mutloq

⁴ Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at. A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahririda, ikkinchi nashri. T.: Sharq, 2000. - B. 281.

⁵ Karimov I.A. Yuksak ma'naviya yengilmas kuch. T.: Ma'naviya, 2008 -B. 52.

hokimiyat general-gubernato qo'lida to'plandi. General-gubernatorlik Kengashi va 4 bo'limdan iborat mahkama tuzildi. Birinchi bo'lim ma'muriy va nazorat, ikkinchisi moliyaviy-xo'jalik, uchinchisi soliq va shahar mablag'lari ishlarini boshqargan. To'rtinchisi maxsus bo'lim deb atalgan. General-gubernator bir vaqtda podshoh noibi, harbiy okrug qo'shinlari qumondoni, bosh mirshab, bosh prokuror bo'lgan. U Buxoro amiri faoliyatini Rossiya imperatori agentligi orqali, Xiva xonini esa Amudaryo bo'limi boshlig'i orqali nazorat qilgan. Sankt-Peterburg oliy harbiy siyosiy doiralari hohishi bilan tashkil etilgan boshqaruv tizima ko'ra Turkiston o'lkasi viloyatlarga, viloyatlar uyezdlariga, uyezdlar volostlarga, volostlar uchastkaldarga, uchastkalar esa oqsolliklarga bo'lingan. Joriy etilgan qoidalarga binoan viloyat, uyezd volostlar uchastkalarni rus zobitlari boshqarishi, oqsoqolliklarni esa rus ma'muriyatiga boysunuvchi mahalliy xalq vakillari boshqarilish belgilangan. Rasman «Haryuiy halq boshqaruv» deb, nomlangan ushbu boshqaruv tizimida butun hokimiyat to'laligicha mustabid harbiylar qo'lida edi.

Mustamlakachilar Toshkent shahrini Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy markazi etib tanlashdi. Bosqichlar Toshkentning sharqiy qismidan joy tanlab, tanlangan joydagi mahalliy aholini ko'chirib, Rossiyadan kelganlar yashaydigan uylar, ko'chalar, oromgohlar ko'rdirdilar. Shaharning bu qismi yangi shahar deb ataldi. Shaharni hokim boshqargan. Toshkent shahrini Nizomi ishlab chiqildi va 1877 - yilda Sankt-Peterburgda tasdiqlangach, kuchga kirdi. Nizomga ko'ra Toshkent shahar dumasini va boshqarma saylash nazarda tutilgan. Toshkent shahar Dumasi noiblarining uchdan ikki qismi yangi shahardan uchdan bir qismini esa eski shahar aholisidan saylangan.

Toshkent shahar Dumasi sa'iy harakati tufayli 1892 - yilda shaharda telefon aloqasi yo'lga qo'yildi, 1912 - yilda elektr toki bilan yuruvchi tramvay yo'li barpo etildi. Ushbu ishlarni Toshkent shahar Dumasining ijobiy ishlari qatoriga kiritish mumkin.

1886 - yildagi Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi yangi Nizom loyihasiga qadar Chor Rossiyasi ma'muriyati Turkistondagi agrar sohani tartibga keltiruvchi aniq huquqiy-me'yoriy hujjat qabul qilmagan. 1886 - yildagi yangi nizom loyihasiga ko'ra Turkistondagi barcha tabiiy boyliklar jumladan yer-suv davlat mulki ya'ni Rossiya mulki deb e'lon qilindi. Vaqf mulkini ham davlat ixtiyoriga olinishi masjid, madrasalarni qarovsiz holatga kelishiga olib keldi. Ushbu hujjat Turkistonda asrlar davomida shariat asosida tartibga solingan yer-suvni taqsimlanishni bekor qildi. Turkistonda yer-suvdan foydalanish Chor Rossiya bosqinidan ancha oldin shariat qonunlariga binoan adolatli hal etilganligini, ushbu holat mehnatkashlar o'rtasida tinch totuvlikni ta'minlab turganligini Turkistonda yer-suv munosabatlarini o'rganib chiqqan senator K.K.Palen ham e'tirof etgan⁶. 1886 - yildagi Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi yangi nizomda Turkistonga rus aholisini ko'chirishni kuchaytirish

⁶ Ergashev B. Turkistonda irrigasiya ishlarining o'rganilishi va manbashunosligi (Turkiston general-gubernatorligi mahkamasi hujjatlari asosida). SamDU axborotnomasi, 2004 - yil, 2-son. -B. 23.

to'g'risida alohida modda kiritilgan bo'lib, Chor Rossiyasi Turkistonda rus aholisi nufuzini oshirib borishga jiddiy kirishganligini ko'rsatadi. Yangi Nizomga muvofiq ko'chirib keltirilgan oila 20 desyatinadan 40 desyatinagacha yer olish mumkin edi. Bu esa Turkiston mustamlakaga aylantirilgan dastlabki - yillarda Rossiyada ko'chirib keltirilganlar uchun ajratilgan yer maydonidan ancha ko'p edi⁷. Umuman, 1886 - yildagi Yangi Nizom loyihasini qabul qilishdan asosiy maqsad yerli aholi zodagonlarini ziaflashtirish, Turkistonda rus aholisi nufuzini oshirish va mustamlakachilarni kuchaytirishdan iborat edi.

Mustamlakachilar o'lkada, xususan, Farg'ona viloyatida paxta plantasiyalari tashkil etdi, sug'oriladigan ekin maydonlarini kengaytirdi. 1886-1916 - yillarda paxta ekiladigan yer maydoni 40 ming tanobdan 550 ming tanobga ko'paydi. Hosildorlikni oshirish maqsadida 1884-yilda tajriba-urug'chilik stansiyasi ochildi. Tolasi sifatli urug'chilik chigiti yaratildi. Paxtachilikda pishiq tolali va hosildor «Amerika» navini ekish keng tarqaldi, boshqa ekin maydonlari - yildan- yilga qisqarib bordi. Qishloq xo'jaligida pilla yetishtirish ko'paytirildi, qand lavlagi, kartoshka, qaram ekindari o'zlashtirildi. Vinochilik, asalarichilik paydo bo'ldi. 1867-1896 - yillarda Rossiya imperiyasi xazinasiga 150 million so'm sof daromad tushdi.

Rossiyalik sarmoyadorlar o'lkada paxta tozalasha yog' va spirt ishlab chiqarish pivo, tamaki, un, qand, sovun, g'ishit, qun mis eritish, jun yuvish, ohak qizdirish zavodlari va oziq-ovqat korxonalari qurib, undan mo'may daromad olishni yo'lga qo'ydilar. 1908 - yilda o'lkada 378 ta sanoat korxonalari faoliyat kursatgan bo'lsa 1917 - yilda ularning soni Buxoro amirligi Xiva xonligi kurayotgan korxonalarni xam qushib xisoblaganda 1200 taga yetgan. Bu jarayon axolini tabaqalanishiga tasir kilib, umumiy burjuaziya sinfi vujudga keldi. Ammo umumiy burjuaziya tarkibi asosan vositachilik bilan shug'ullanadigan savdogarlardan iborat edi. 1914- - yilgi malumotlarga ko'ra o'lkada 49,5 ming ishchi bulib, ulardan 25,5 minggi sanoatda, 24 ming temir yul va unga xizmat kiluvchi ustaxonalarda ishlagan. Maxalliy millatga mansub ishchilarga rossiyalik ishchilarga nisbatdan 2,5-3,5 barobar kam ish xaki to'langan.

Turkiston general- gubernatoriligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligida mustamlakachilik siyosati xukm surib, maxsulotlar sotiladigan bozorlarga aylantirilgan edi. B. Kosimovning etirof etishicha: «XX asrda Turkistonda ham Rossiyada bo'lgani kabi yirik siyosiy hodisalar bilan boshlandi. 1900- yillardan iqtisodiy buhronga kirgan Rossiyada Yaponiya bilan urushdagi (1904-1905) muvaffaqiyatsizlikdan so'ng tanazzul yanada chuqurlashdi. Natijada mustamlaka xalqlarni ezish avj oldi. Turkiston xalqlarining moddiy ahvoli yanada og'irlashdi. Yangi qurib bitkazilgan Krasnovodsk (1898) va Orenburg (1905) temir yo'li o'lkani har ikki tomondan siqib qo'ydi. Turkistonning adoqsiz tabiiy boyliklari ortilgan keti uzulmas vagonlar Rossiyaning markaziga oqar edi. Xususan, paxtaga

⁷ G'afforov Sh. Tarix va taqdir: Rossiya imperiyasidan ko'chirib keltirilganlar. T.: Fan, 2006. - B 76.

zo'r berildi. Qorakul, ipak, qo'ruq meva ham chetda qolmadi. Rossiya Turkistonni asosiy xom ashyo manbayiga aylantirdi»⁸.

Turkiston Rossiyaning jaxon bozorida o'tmaydigan tovarlari sotiladigan bozorga aylantirildi. 1895- - yilda Turkistonda Rossiya korxonalarida tayyorlangan 6 million so'mdan ortiqroq so'mmada temir, mis, chinni buyumlar, gazlama, yog'och, choy, oziq- ovqat va boshqa buyumlar sotilgan bo'lsa, 1914-yilda sotilgan sanog'i 243 million so'mdan oshib ketdi. Sotilgan mahsulotlarni 40 foizni o'lkadan tashib ketilgan paxtadan Rossiya to'qimachilik korxonalarida to'qilgan gazlamalar tashkil etar edi. Rossiya savdo-sanoatchilari yetakchilari Turkistonda sanoat mahsulotlari sotishdan ham, Turkistondan xom ashyo sotib olishdan ham katta daromad olar edilar.

Shunday qilib, Turkiston nafaqat Rossiya davlatining, shuningdek, rossiyalik savdo-sanoatchilar manfaatiga hizmat qiladigan o'lkaga aylantirildi.

3.Chorizmning Turkistonda mustamlakachilikni kuchaytirishga qaratilgan madaniy va marifiy tadbirlari, jadidchilik.

Rossiya imperiyasi Turkiston xalqini manaviy-madaniy jihatdan tutqunlikka solish, o'zining uzoqqa muljallangan manfaatiga bo'ysundirish siyosatini yuritdi. Uning mohiyati, mazmuni mahalliy xalqni, uning milliy, tarixiy ildizlaridan uzib tashlash, xalqning manaviy, tarixiy, merosini yo'q qilish, ruslashtirishdan iborat edi. Turkiston general-gubernatorligining Farg'ona viloyati harbiy- gubernatori Skoblev shunday deb yozgan edi. «Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi»⁹. Turkistonda ana shunday yovuz qarashlarga mos siyosat va amaliyot yuritildi.

Turkistonning noyob tarixiy, ma'naviy, madaniy boyliklari talan-taroj qilindi. 1870- yilda Toshkentda ochilgan kutubxona va 1876 - yilda tashkil etilgan muzeyda o'lkaning ma'naviy-madaniy hayotini aks ettiruvchi oltin, kumush, misdan yasalgan qimmatbaho buyumlar, oilaviy san'at namunalari, tarixiy yodgorliklar, arxiv hujjatlari, qo'lyozma kitoblar to'plandi. Ular ko'rikdan o'tkazilib, qimmatbaho va nodir deb baholanganlari Peterburg va Maskvaga tashib ketildi. Sanat darajasida ishlangan Muhammad Rahimxon taxti, Amir Temur maqbarasining naqshinkor darvozasi, undagi bitiklar, oynalar, oltin qoshiqlar, Ahmad Yassaviy maqbarasidagi naqshinkor katta qozon, turli tarixiy byumlar, noyob kitoblar va boshqalar shular jumlasidandir.

Islom diniga etiqod, ruxoniylar, masjid va madrasalar oyoq osti qilina bordi. Rossiya mamurlari musulmon talim muassasalari, madrasa ishlariga aralashib, ularning faoliyatini tobora cheklabqo'ydi. Vaholanki, bu o'lkaga birinchi qadamini qo'ygan ruslar, hudud xalqlarining savodxonligidan, bu yerdagi o'qishga bo'lgan

⁸ Rabbimova N. Toshquvvatova R. Turkistonda jadidchilikni vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy omillar. SamDU axborotnomasi. 2011 y. – son. – B. 32..

⁹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: Sharq, 1998. -B. 24

ishtiyonning balandligidan hayratga tushganlar. 1878 - yilda Farg'ona vodiysiga tashrif buyurgan akademik. A. Meddendrof «Bu o'lkaning saodxonlik darajasini Rossiyaning xalq talimi bilan shug'ullanuvchilariga namuna qilib ko'rsatish kerak» deb etirof etishi fikrimizni isbotlaydi. Darhaqiqat, XIX-asrning ikkinchi yarmida Turkistonda juda ko'plab maktablar, madrasalar, xonaxohlar mavjud bo'lib, ularda Yevropa talim tizimidan farq qiluvchi, o'ziga xos tarzda o'quv mashg'ulotlari olib borilgan¹⁰.

Maorif va madaniyat sohasida ruslashtirish siyosati yuritildi. Turkistonlik bolalarni ruslar bilan aralashtirib o'qitish va tarbiyalash g'oyasi ilgari surildi va 1884 - yilda Toshkentda dastlabki rus tuzem¹¹ maktabi ochildi. XIX asr oxirida ularning soni yuztadan oshib ketdi. Bunday maktablarda rus va o'zbek muallimlari dars mashg'ulotlari o'tkazadigan bo'ldi. Maqsad o'zbek yoshlariga rus tilini o'rgatish va rus turmush tarzini singdirish edi. Rossiya mamurlari yerli aholi bolalarini «rus tuzem maktablari» ga jalb qilish, qiziqtirish uchun o'lkadagi mahalliy mamuriyat boshqaruvida rus tilini bilganlar ishlaydigan, talabni qo'ydilar. Bu talabdan maqsad «yerlilarda mansabga qiziqib» rus tilini o'rganish, ruslashtirish manfaatini o'yg'otish edi Rus tilini bilgan mahalliy aholi vakillariga imtiyozlar yaratildi. Shu tariqa, o'lkada ish yuritish asta- sekin rus tiliga o'tkazila bordi.

1884 - yil general- gubernatorlikning buyrug'iga ko'ra, rus- tuzem maktablarining boshliqlari uchun maxsus ko'rsatmalar ishlab chiqildi. Mazkur ko'rsatmalarda maktab boshliqlariga bu maktablarning vazifasi mahalliy xalqning ruslar bilan yaqinlashtirishga xizmat qilish bo'lgani uchun, mahalliy millat bolalari bilan yumshoqroq muomalada bo'lish, ularni jazolamaslik va juda bo'lmaganda yolg'ondan ularning diniga hurmat bilan qaraydigandek ko'rsatish mahalliy til va odatlarini o'rganish, yerli aslzoda bolalar bilan yaqindan tanisha borish tavsiya etiladi¹².

Ammo, mahalliy aholi xatto mulkdorlar tabaqasi ham mustamlakachilar kutganidek o'z farzandlarini «rus-tuzem maktab» lariga berishga shoshilmadi. Bunga mahalliy aholini o'z dini etiqodiga, an'analarga sodiqligi sabab bo'ldi.

1870 - yilda Turkiston general- gubernatorining rasmiy nashri bo'lgan «Turkestanskiy vedemosti» va unig o'zbek tilidagi nashri «Turkiston viloyatining gazetasi» mustamlakachilik siyosatining targ'ibotchilaridan bo'lgan N.Ostroumov muharrirligida chiqq boshladi. Turkistonda teatr sanatin rivojlanishida 1910 - yilda Rossiyadan gastrolga kelgan N. Kamissarjevskaya turuppasi hamda 1910- 1912 - yillarda Turkistonga tashrif buyurgan tatar va ozarboyjon teatri muhim rol o'ynadi. XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida Turkiston, Buxoro amirligi, Xiva xonligi hududiga qrim-tatar farzandi Ismoilbek G'aspralibey asos solgan jadidchilik

¹⁰ G'afforov, Sh. Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va marifiy hayoti tarixidan (XIX-XX asrla) Samarqand, 1996. - B.33

¹¹Tuzem so'zi rus tilidan «begona» degan manoni anglatadi. Mustamlakachilar mahalliy aholini «tuzem» deb atashgan. Rus va mahalliy bolalar qo'shib o'qitiladigan maktablar «rus- tuzem» maktablari deb atalgan.

¹²G'affarov, Sh. Turkistonning ijtimoiy- siyosiy va marifiy hayoti tarixidan (XIX-XX asrlar) Samarqand 1996 y- B. 65.

(arabcha- yangi usul) harakati vujudga keldi. Ushbu harakat feodalizm va mustamlakachilikka qarshi harakat sifatida, mamlakatda hukm surgan adolatsizlik, o'zboshimchalik, iqtisodiy va madaniy qoloqlikka nisbatan aholi orasida kuchaygan norozichilikni ifodalovchi hamda shu illatlarga qarshi kurashuvchi kuch sifatida maydonga keldi. Jadidchilik o'z oldiga qo'ygan vazifalarni maktab, matbuot, adabiyot va teatr sanati yordamida hal etishga urindi¹³. Jadidchilarning maqsadi islom dini asoslarini to'la saqlab qolgan holda uni islohatlar orqali zamonga moslashtirishdan iborat edi.

Turkistonlik ziyolilar jadidchilikni yoqlab maorifni isloh qilish «usuli jadid» maktablarini tashkil etishga kirishdilar. 1898 - yilda Qo'qonda Saloxiddin domla, 1899 - yilda Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktablariga asos soldilar. 1903 - yilda Turkistonda 102 ta boshlang'ich va 2ta o'rta jadid maktabi faoliyat ko'rsatdi.

Talabalarga Turkiston, turkiylar tarixini o'rganishga alohida etibor berildiki, bu ularning milliy ongini o'yg'otishga, jamiyatni etnik jihatdan birlashtirishga xizmat qildi. Bu borada Turkiston jadidlarining «bayroqdori» Mahmudxo'ja Behbudiyning «Hayot haqiqatini anglash, adolatli bo'lish uchun tarixni o'qish zarur... Podshoh, vazir, davlat amaldorlari siyosiy arboblal albatta tarixni bilishlari shart»¹⁴. «O'z o'rug'ini otini bilmagan, yetti otasini tanimagan, qul- manqurtdir» degan so'zlari talabalarni milliy o'zligini anglashga chaqirar edi.

Jadidlar iqdidorli yoshlarni chet elga yuborish tashabbusi bilan chiqdilar. Boy tabaqaning ilg'or vakillari jadidlarning bu harakatini ma'qullab, mablag' bilan ko'maklashdilar. Ko'pgina umidli yoshlar Germaniya, Misr, Turkiya va Rossiyaning markaziy shaharlariga o'qishga yuborildi. 1910 - yilda Buxoroda Mudarris hoji Rafiy va boshqalar «Bolalar tarbiyasi» hayriya jamiyatini tashkil etib 1911 - yilda 15 ta, 1912- - yilda 30 ta talabani Turkiyaga o'qishga junatdi. 1909- - yilda Munavvar Qori tuzgan «Jamiyati- hayriya» ham miskin va ojiz talabalarga yordam berar, yoshlarni chet elga o'qishga yuborishga yordamlashar edi. Ayni paytda malakali milliy kadrlarni tayyorlash rejasini tuzib, Buxorodagi «Ma'rifat», Toshkentdagi «Kumak» kabi hayriya jamiyatlari orqali ham iste'dodli yoshlarni ichki Rossiyaning Peterburg, Saratov, Qozon, Ufa, Orenburg shaharlaridagi oliy maktab va madrasalar bilan birga Istambul, Qohira kabi xorijiy shaharlardagi dorulfununlarga o'qishga yubordilar. Keyinchalik, shunday talabalar orasidan Fitrat, G'ozi olim Yunisov, Hamid Said, Eson Afandi Musayev kabi yozuvchi va olimlar, Mustofo Chuqayev, Ubaydulla Xujayev, Norbutabekov kabi huquqshunoslar yetishib chiqdi¹⁵. 1908 - yilda Istambulda o'qish davrida Buxoro jadidlari Fitrat boshchiligida «Buxoro talimi maorifi jamiyati» tashkilotini tuzgan bo'lib, Buxoro xalqini ma'rifatli va savadli qilishni o'zlarining bosh maqsadlari

¹³Karimov. N. Jadidchilik xarakatining vujudga kelishi va jadidchilikning marifatparvarlik faoliyati. Tarix va o'zini anglash II – qism. O'zbekiston va Germaniya XX asrda, Toshkent, 2007, - B. 76.

¹⁴ Алимova Д. Историческое мировоззрение джадидов и их проекция будущего Туркестана «Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш» саҳифаларидан. Т.: Фан, 1996. – Б. 13

¹⁵ Turdiyev Sh. Jadidlarning yoshlarni Germaniyaga o'qishga yuborishi. Tarix va o'zlikni anglash II.qism O'zbekiston va Germaniya XX asrda. Toshkent, 2007. - B. 77

qilib belgilab oldilar. Ularning sa'yi-harakati bilan Buxoroda «Ma'rifat» nomli kutubxona hamda «Barakat» jamiyatlari tuzilgan bo'lib, milliy g'oyani shakllantirishga xizmat qiluvchi chet ellarda nashr etilgan gazeta, jurnal va kitoblarni keng yo-yilishiga xizmat qilishgan¹⁶. Jadidlar Turkistonda milliy matbuotga asos soldilar. Munavvar qori 1906- yilda «Xurshid» (Quyosh) jurnalini tashkil etib, unga o'zi muharrirlik qildi. Jurnal xalqning o'z haq-huquqlarini tanishga, milliy uyg'onishiga xizmat qildi. Ammo mustamlakachi ma'murlar tezda jurnalni chiqarishni man etdilar. M.Behbudiy 1913- yilda «Samarqand» gazetasi va «Oyna» jurnalini chiqara boshladi «Nashriyoti-Behbudiya» xususiy nashriyotini, uning huzurida «Kutubxonai Behbudiya»ni tashkil etdi. Gazeta va jurnalda millat va ona yurt dardi, xalqni ma'rifatli qilish, erkinligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan dolzarb maqolalar chop etilar edi. Ular Rossiya imperiyasidagi turkiy xalqlarga, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Turkiyagacha yetib borar edi.

Jadidlar milliy teatrga asos soldilar Munavvar qori rahnamoligida 1913 - yilda musulmon drama san'ati havaskorlari jamiyati – «Turon» truppasi tuzildi. 1914 - yil 27-fevralda Toshkentdagi «Kolizey» teatri binosida o'zbek milliy teatrining birinchi rasmiy ochilish marosimi bo'ldi. Munavvar qori o'zbek milliy teatrining birinchi pardasini ochdi. O'sha kuni sahnada M.Behbudiyning «Padarkush» pyesasi namoyish etildi. Unda islom dinining Turkistondagi buzilishlari tasvirlanib tamoshabin e'tiborini najot yo'li-maorif, maorifni esa, poklangan din» bera oladi, degan g'oyaga qaratadi. «To'y», «Zaharli Hayot», «Juvonboz», «Baxtsiz kuyov» pyesalarida xotin-qizlarning huquqsizligi, ko'pxotinlik majburiy niqoh oqibatlarini kabi muammolar yoritiladi. Milliy teatr san'ati odamlarga millatda mavjud bo'lgan qusurlar va ijobiy tomonlarni tushuntiruvchi oyna bo'lib xizmat qildi.

Jadidlarning buyuk tarixiy xizmatdari shundaki, ular o'tilib qolgan ijtimoiy muammolarni hal yetish prinsiplarini evalyusion- islohat yo'li asosida ishlab chiqishga harakat qildilar «Jadidlar tomonidan jamiyatda pishib etilgan ijtimoiy vazafalarini evalyusion- islohatchilik asosida hal etish ishlab chiqilganligi, ularning farmasion- institutsional o'zgarishlarni: mustamlaka tuzushini tubdan yuqotishning maksimal darajasida samarali yo'llarini tanlay bilganliklari, shubhasiz ularning tarixiy xizmatlaridir. Jadidlarning konseptual g'oyalari hozirgi o'zgarishlar amaliyotining manaviy darajasi, bugungi kundagi strategiya va keng qamrovli islohat kursining genetik asosi bo'lib xizmat qiladi», deb yozadi tarixchi olim Dilorom Alimova¹⁷.

Umuman olganda jadidlar o'z vatani, kelajagi uchun qayg'uradigan, uning ozod va farovon bo'lishi uchun moli, jonini ayamaydigan jasur vatanparvar insonlar edi. Prezident I.A.Karimov takrorlaganidek «XX-asr Marifatchilik harakatining namoyondalari boylik uchun, shon- shuhrat uchun chiqishdimi? Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori, Fitrat, Tavallolarga maktab ochganlari

¹⁶ Ражабов Қ.К. Вооруженные движения в Туркестанском крае против советского режима (1918-1924) Автореф.дисс.докт.ист.наук Ташкент, институт История АНУз, 2005, - С. 34

¹⁷ Rabbimova N., Toshquvvatova R. Turkistonda jadidchilikning vujudga kelishida ijtimoiy- iqtisodiy. SamDU axborotnomasi. 2011 - yil, 2-son. –B. 33

xalqni o'z haq- huquqlarini tanishga davat etganlari uchun birov maosh to'laganmi? Albatta yo'q! Ular o't bilan o'ynashayotganini, istibdodga qarshi kurashayotganlari uchun ayovsiz jazolanishlarini oldindan yaxshi bilishgan. Bilaturib, ongli ravishda shu yo'ldan borganlar. Chunki vijdonlari, iymonlari shunga da'vat etgan¹⁸.

4. Turkiston xalqlarining chorizmning mustamlakachilik zulmiga qarshi ilmiy- ozodlik harakatlarining boshlanishi, uning bosqichlari

Rossiya imperiyasining Turkistonda joriy etgan ma'muriy-boshqaruv tizimi xalqning boshiga solingan siyosiy sirtmoq bo'ldi. Bosqinchlar, avallo Turkiston boyliklarini talon-taroj qildi, so'ngra o'lkan xom- ashyo bazasiga aylantirib, iqtisodiyotni o'z manfaatlari yo'lida jilovlab oldi. Og'ir soliqlar, g'ayriqonuniy majburiyatlar, aholini toboro qashshoqlashtirib yubordi. Mustamlakachilar mahalliy aholini milliy qadryatlari, urf-odatlarini oyoq osti qilar edi, manaviy zug'um kuchayib borar edi.

Rossiya Turkistonni o'z mustamlakasiga aylantirgach, uning siyosiy. iqtisodiy, ma'naviy-madaniy zulmi kuchayib bordi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi xalq noroziligi, nafrati oshib, qo'zg'olon ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Qo'zg'olonning harakatlantiruvchi kuchi dehqonlar, shahar hunarmand-kosiblari, kambag'allari edi. Bu harakatlarda vatanparvar ruhoniylar, milliy g'ururini yo'qotmagan boy zamindorlar ham ishtirok etdilar.

1880-1883 - yillarda mustamlakachilik zulmiga qarshi qator chiqishlar bo'lib o'tdi. Xujand, O'ratepa, Namangan, O'sh va Chustda ko'tarilgan qo'zg'olonlar bunga misol bo'la oladi. Manbalarda 1885-1892 - yillarda Farg'ona viloyatida xalqning 205 marta siyosiy chiqishlari yuz berib, g'alayon ko'tarilganligi qayd etilgan.

Farg'onadagi vaziyatdan cho'chigan viloyat harbiy gubernatori Vrevskiy aholidan ko'z-qo'loq bo'lib turish uchun markaziy hukumatga maxfiy siyosiy polisiya xizmati tashkil etish taklifini ilgari surdi. U Farg'ona viloyatining har bir tumanida maxfiy ayg'oqchilar tarmog'ini vujudga keltirish uchun o'z ixtiyoridagi mablag'dan foydalandi. O'lkaning oliy, harbiy-siyosiy doiralari toboro kuchayib borayotgan norozilik to'lqinini pasaytirish uchun ta'sirchan vosita izlay boshladi. Qurolli kuchlar va polisiya xizmatini kuchaytirish tadbirlari uchun - yiliga 5,5 mln.so'm sarflandi, Xolbuki undan ham muhim hisoblangan temir yo'l uchun bor yo'g'i 190000 so'm ajratilganini hisobga olsak. Rossiya imperiyasi huqumatining xalq harakatidan naqadar xavotirga tushgani aniq bo'ladi¹⁹.

1892 - yilning yozida Turkiston markazi Toshkentda mustamlakachilarni tashvishga solgan va tarixga «Vabo isyoni» yoki «toshotar voqyeasi» sifatida kirgan qo'zg'olon bo'ldi. Iyun oyida Toshkentda vabo tarqaldi. Shahar

¹⁸Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: Sharq, 1999. – B. 8.

¹⁹ O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. //Ilmiy muharrir M.Jo'rayev. T.: Sharq, 2000. -B. 344-348

ma'muriyati shoshilinch choralar ko'rdi. Vabo kasali bilan o'lganlarni shahar ichkarisidagi 12 ta qabristonga etildi, 4 ta yangi qabriston ochilishi, e'lon qilindi. Shahardan chiqish va kirish nazorat ostiga olindi. Shaharda, «Vabo kasaliga chalinganlar yo'q qilinar ekan» degan mish-millar tarqaldi.

Toshkent shahar ma'muriyati tibbiyot nutqai – nazaridan to'g'ri bo'lgan bu tadbirlar haqida aholi orasida tushuntirish ishlari olib bormadi, musulmonchilik odatlari, marosim qonun-qoidalarini hisobga olinmadi. Va'da qilingan 4 ta yangi qabriston o'rniga faqat bittasi ochildi. Boshqa kasallik bilan o'lganlarni shahar ichkarisidagi qabristonlarga ko'mish ishlarini rasmiylashtirish ham cho'zilib ketdi. Mansabni suiste'mol qilish hollari kuchaydi. Odamlar, noiloj, o'liklarni eski qabristonlarga olib borib ko'mishga majbur bo'ldi. Polisiya qoidagi xilofish to'tganlarni topib hibsga ola boshladi. «Qabrlar ochilib o'lganlarning ruhi haqorat qilindi.

Shaharning eng taniqli kishilaridan hisoblangan Azizyor Eshon, Abulqosim xo'ja, bozor oqsoqolli Ziyomuhammad va boshqa kishilar boshchiligidagi mingga yaqin kishi 24-iyunda shahar boshlig'i mahkamasi tomon yo'l oldi. Ularga hokim to'ra-shahar boshlig'i polkovnik S.R.Putinsev va eski shahar oqsoqoli Muhammad Yoqub to'qnash keldi. Oqsoqol xalqning arz-dodini tinglash o'rniga ularga dog'dag'a qila boshladi. Xalq uning boshiga toshlar yog'dirdi. Mashhur «Toshotar» voqyeasi boshlanib ketdi. Polkovnik Putinsev ham muzokara o'rniga kuch ishlatinini afzal ko'rib to'pponchasi g'ulofidan chaqirib dog'dag'a qildi. Sabr kosasi to'lgan xalq, uzoq uylab o'tirmay hokimga hujum boshladi.

Qurollangan soldatlar yetib kelgach, xalq-ayamay o'qqa tutildi. Noiloj qolgan olomon Anhor suviga o'zini tashlaydi, ko'p kishi halok bo'ldi va yaralandi. O'lganlar va yaradorlarning miqdori haqida aniq ma'lumotlar saqlanganmagan. Chunki xalq jasadlar va yaradarlarni qoldirmay, yig'ib olib ketgan. Keyingi kunlari anhordan topilgan mayitlar soni 80 taga yetgan. Qo'lga olingan 60 kishi turli muddatlarga qamoq jazosi va surgunga hukm qilindilar. Mustamlakachilarning zo'ravonligi xalq ozodlik harakatini to'xtatib qololmadi.

Turkistonda ko'tarilgan ozodlik harakatining eng yirigi 1898-yilgi Andijon qo'zg'olonidir. Qo'zg'olonga Andijon yaqinidagi Mingtepa qishlog'ida yashovchi Muhammadali eshon boshchilik qildi. U otasining kasbini davom ettirib duk yasardi. Shuning uchun Muhammolini Dukchi Eshon deb atashardi. Ushbu qo'zg'ol tarixini turli manbalar asosida o'rgangan Allanazar Egamberdiyev maxsus kitob yozgan²⁰.

1898-yil 14-may kuni Muhammadali Eshon xaloyiqni qo'zg'olonga da'vat etdi. Shu kun xufton paytida har kim qo'lga tushgan narsani olib Andijon shahriga yo'l oldilar. Eshon boshliq qo'zg'olonchilar Qo'nji qishlog'iga kirishganda yana 200 kishi qo'shilgan. Qoraqo'rg'on va O'qchidan o'tib, Qo'yliga yaqinlashganda, ularga mingbosh» G'oyibnazar o'z yigitlari bilan qo'shiladi. Qo'zg'olonchilar

²⁰ Qarang: // Egamberdiyev A. Siz bilgan Dukchi Eshon. T, 1994.

Andijonga yaqinlashganda ularga boy savdogar Azimboy qurollangan 190 yigiti bilan qo'shildi. Qo'zg'olonchilar soni 2000 kishiga yetdi.

Qo'zg'olonchilar Andijondagi mustamlakachilarning harbiy garnizoniga bostirib kiradi. Yarim soat davom etgan otishmadan so'ng qo'zg'olonchilar 11 nafar o'lgan va 8 nafar yarador bo'lgan sheriklarini tashlab chekinadilar. Harbiy garnizondagilardan 22 kishi o'ldiriladi, 24 tasi yarador bo'ladi.

Andijonda, ayniqsa, rossiyaliklar yashaydigan yangi shaharda mustamlakachi amaladorlardan tartib to'oddiy fuqarogacha vahimayaga tushib uylariga berkingan va musulmonlar yalpi hujumini kutgan edi. Qo'zg'olonchilarni tartibsiz harakat qilayotganligi ma'lum bo'lganidan keyin tumanboshi polkovnik Konshevskiy askar chaqirdi. Askarlar yangi shahardan boshlab ko'zga ko'ringan musulmonlarni otadi. Bu voqyeadan mutlaqo bexabar minglab dehqon va hunarmandilar mustamlakachilar o'qidan nobud bo'ldilar. Harbiy qo'shinlar shaharni o'rab olib, qo'zg'olonni harbiy kuch bilan shafqatsizlarcha bostirdi.

Mustamlakachilar Muhammadali eshonni tutish uchun Mingtepaga bostirib bordilar, uch soatcha otishma va tintiv o'tkazdilar. Nihoyat eshon Arslonbob yaqinidagi Toshko'prikda qo'lga tushirildi. Podshoh Nikolay 2 buyrug'i bilan qo'zg'olonchilardan shafqatsiz o'ch olindi. Eshon va uning muridlari, tanish-bilishlari, maslakdoshlariga nisbatan dahshatli qatag'on uyushtirildi. 1898 - yil 12 – iyunda Muhammadali eshon va uning yaqin maslakdoshlaridan 5 nafari osib o'ldirildi, yuzlab kishilar qamoq jazosiga hukm etildi, 18 kishi Sibirga surgun qilindi. Jami 388 kishi jazolandi.

Dukchi eshon qo'zg'oloni iza ketmadi. Butun Farg'ona vodiysida mustamlakachilarga qarshi harakat davom etdi. Yakkatut, Namangan, Beshariq, Marg'ilon va boshqa tuman va qishloqlarda bosqinchilarga qarshi harakatlar bo'ldilar. 1898 - yilgi qo'zg'olon chorizmga qattiq zarba berdi, uning negizini titratdi, qo'zg'olonchilar Vatan ozodligi uchun kurash tarixi sahifalaridan munosib o'rin egalladilar.

Birinchi jahon urushi unda ishtirok etayotgan Rossiya imperiyasini toboro holdan toymoqda edi. O'n minglab askarlar jangda qurbon bo'ldilar. Talvasaga tushgan Rossiya oliy bosh qo'mondonlik shtabi harbiy vazirlikdan «armiya ehtiyojlari uchun salmoqli miqdorda kuch ajratishini» zudlik bilan talab qiladi. Bu kuchni harbiy vazirlik mustamlakalardan tuplashga umid qiladi. Natijada Rossiya imperatori Nikolay 2 1916 - yil 25-iyunda Turkiston, Sibir va Kavkazdan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklarni front orqasidagi xizmatlar uchun safarbar qilish to'g'risidagi farmon e'lon qildi.

Ushbu farmon Rossiya дума majlisida yopiq eshiklilar ovtida muhokama etilayotganda. (Shuning uchun ham deputatlar Turkistonda olib borilayotgan siyosat haqidagi fikrlarini yashirmay bayon etishga imkon bergan) deputatlar A.Kerenskiy, Ja'farovlar Imperatorning 1916 - yil 25-iyunda imzolagan mardikorlikka (Xalq bu tadbirga «Mardikorlikka olish deb nom bergan») safarbarlik haqidagi farmoni Rossiya imperiyasi asosiy qonunlariga zid holda qabul qilinganligini ko'rsatib o'tadilar. Podsho Rossiyasi qonunlarida Turkiston

aholisi manfaatlari himoya qilinmagan, albatta. Bu o'rinda qanday holat yoki vaziyatda kimlar va qaysi tartibda front orti ishlariga safarbar etilish haqidagi, qonun nazarda tutilgan bo'lib, 1916 - yil 25-iyun farmoni shu qonunga zid holatda, asossiz qabul qilinganligi haqida so'z borgan. Biroq bunday qonunbuzarlik haqida deputat Ja'farov ta'qidlagan qo'yidagi fikrlar mustabid hukumatning Turkistonga nisbatan munosabatini ko'rsatuvchi ma'lumot sifatida alohida e'tiborga loyiq: «Men shuni qayd etmoqchimanki, qirg'iz, sart, turkmanlarga kelganda qonun hamisha e'tiborga olinmay qoladi. Hamma narsaga hokimiyat kuchi bilan erishladi, buning uchun ma'murlar mirshablardan iborat katta kuch mavjud»²¹.

Ammo, Turkiston general-gubernatoriga zudlik bilan farmonni amalga oshirish buyurilib, Sirdaryo viloyati zimmasiga 87 ming, Samarqandga 38 ming, Farg'ona zimmasiga 50 ming kishi yuborish majburiyati yuklandi. O'lkada safarbar qilinuvchilarni ro'yxati tuzildi boshlandi. Mahalliy ma'muriyat mardikorlikka chaqirishni boylik orttirish vositasiga aylantirdi. Boylarning o'g'li pul bilan qutilib qolar, kambag'al oilalar esa yolg'iz o'g'lidan, boquvchisidan ayrilar edi. Bu hol xalqning kuchli noroziligiga olib keldi. Petrograddan ba'zi tabaqadagilar tovon evaziga mardikorlikdan ozod qilinishi mumkinligi to'g'risidagi qo'shimcha ko'rsatmalar yetib kelganidan keyin xalq noroziligi qo'zg'olonga aylanib ketdi.

4-iyulda Xo'jand shahrida dastlabki norozilik namoyishlari boshlanib ketdi. Unda dehqonlar mardikorlar, chorakorlar, ayollar-jami 3000 dan ortiq kishi qatnashib namoyish «Mardikor bermaymiz» ishari ostida o'tdi. Polisiya namoyishni bostirishga kirishdi, ular ustiga tosh yog'ildi. Harbiy qismdan soldatlar yetib kelib, polisiyachilar bilan birgalikda namoyishni bostirdi, ikki kishi o'ldi, bir kishi yarador bo'ldi. Xo'jand voqyeasi haqidagi xabar butun Turkistonga yoyildi. Bu voqyeadan g'azablangan Samarqand uyezdining Urgut qishlog'ilik 2000 tacha dehqon 5 – iyul kuni volost boshqaruvchining mahkamasi oldiga to'plandi. Mahkama xodimlari kaltaklandi. O'sha kuni Samarqand uyezdining namoyishlar bo'lib o'tdi.

Qo'zg'olon butun Turkiston buylab keng tarqalib 9 iyul kuni Andijonda, 10 iyul kuni Eski Marg'ilonda, 11 iyul kuni Toshkentda bo'lib o'tdi. Toshkent qo'zg'olonida 5 kishi jumladan, qo'zg'olonni faol ishtirokchisi Zuhribibi Musayeva ham halok bo'ldi, 15 kishi yarador qilindi. Polisiya bilan to'qnashuvlar 12 iyul kuni Toshkent atrofidagi Yangibozor, To'ytepa qishloqlarida, 14 iyulda esa Trosk, Xonobod, Pekent qishloqlarida ham bo'lib o'tdi.

1916- yilgi qo'zg'olonning eng kuchli nuqtasi Jizzax qo'zg'oloni bo'ldi. Jizzax shahri aholisi 13-iyul kuni safarbarlikka chaqirilganlar ro'yxatini talab qilib oqsoqol va mingboshi mahkamasiga to'planadilar. Oqsoqolni o'ldirib, mingboshi mahkamasini vayron qildilar ro'yxatini topib olib, yondirib tashadilar. Jizzax qo'zg'oloniga Nazir Xo'ja Eshon va Abdurahmon Jevachi yetakchilik qildilar. Qo'zg'olonchilar telefon simlarini o'zib, neftli, baklarni yondirib, binolarni vayron

²¹ Ziyayeva D. Turkiston milliy ozodlik harakati. Toshkent, 2000. - B. 11-12.

qildilar. Lomakino bekatida temir yo'l ko'prigi repklar buzib tashlandi. Obruchev, Kuropatkin, Rostovsevo temir yo'l bekatlari ham vayron qilindi. 21 iyul kuni Jizzax yaqinida qo'zg'olonchilar bilan jazo otradi o'rtasida to'qnashuv sodir bo'ldi. Pulemyotlardan o'qqa tutilgach, qo'zg'olonchilar yengildi. Abdurahmon Jevachi va Nazir Xo'ja eshonlar qo'lga olinib, o'lim jazosiga hukm etildi. Jizzax ishi bo'yicha 1000 kishi hibsga olindi, 151 kishi sud qilinib, turli muddatlarga qamaldi.

1916 - yil qo'zg'olon butun Turkistonga yo-yildi, dehqonlar va kambag'allar qo'zg'olonni harakatga keltiruvchi asosiy kuchi bo'ldi. Qo'zg'olon bostirilgan bo'lsada mustamlakachilar ham anchagina kuchlaridan ajrالدilar. Shuning uchun ham 1916 - yil 13-dekabrda IV-davlat Dumasida so'zga chiqqan A.F.Kerenskiy «Urush frontiga yangi bir front – Turkiston fronti qo'shildi» deb vaziyatga jiddiy va xolis baho bergan edi.

Mustaqillik yillarida ushbu muammoni ham xolisona tadqiq etilishiga keng imkoniyatlar yaratildi. Tadqiqotchi O.Suyunovning Sirdaryo viloyatdagi qo'zg'olonlar tarixiga bag'ishlangan rasolasida 1916 - yil voqyealari ilk bor xolisona atroflicha talqin etilib, yoritib berildi. Muallif Sovet davrida atayin e'tiborsiz qoldirilgan muhim ma'lumotlarni aniqlash asosida boshqa viloyatlar kabi Sirdaryo viloyatida ham 1916 - yil qo'zg'oloni nihoyatda keng ommaviy va keskin tus olganini alohida uyezdlar misolida ko'rsatib beradi²².

Ushbu qo'zg'olon o'lkadagi Rossiya mustamlakachilik tizimining tagi bo'sh zaminda ekanligini va uning ustunlari qimirlay boshlaganini hamda Turkiston xalqlarining vatanparvarligi, g'ururi so'nmaganligini namoyon etdi.

Mavzu yuzasidan nazorat uchun savollar

1. Chor Rossiyasini O'rta Osiyoni bosib olish orzusi qaysi Rossiya imperatoriga armon bo'lib qolgan edi?
2. 1839 - yildagi Orenburg general-gubernatori graf Perovskiyni Xivaga yurishi nima uchun barbod bo'ldi?
3. Birinchi ingliz – afg'on urushi (1838-1842y) nima uchun Rossiyani tashvishga soldi?
4. Nima uchun Toshkent shahri Turkiston general-gubernatorligi markazi sifatida tanlandi?
5. O'rta Osiyo masalasida Angliya nima uchun Rossiyaga yon bergan deb, o'ylasiz?
6. Rossiyani O'rta Osiyodagi mustamlakachilik tizimi Angliya yoki Fransiya mustamlakachilik tizimidan nimasi bilan farq qiladi?
7. Rossiya mustamlakachilari nima uchun jadidlarni ta'qib etganlar?
8. Mustamlakachilar nima uchun Buxoro amirligi va Xiva xonligini to'liq mustamlakaga aylantirmadi?
9. Mustamlakachilar Turkistonda qanday boshqaruv usulini joriy etdilar?

²² Ziyayeva D. Turkiston milliy ozodlik harakati. Toshkent, 2000. - B. 137-138

10. Mustamlakachilarni iqtisodiy siyosati va amaliyoti haqida nimalarni bilasiz?

11. Mustamlakachilar ma'naviy-madaniy sohada qanday siyosat yuritdilar?

12. Turkiston xalqlarining chor Rossiyasi mustamlakachilariga qarshi olib borgan milliy-ozodlik harakati haqida nimalarni bilasiz?

Testlar:

1. 1853 - yilda Orenburg general-gubernatori graf Perovskiy qaysi qal'ani zabt etdi?

- A. Pishpek
- B. Choldevor
- S. Oqmasjid
- D. Olmaota

2. Buxoro amirligi Chor Rossiyasining yarim mustamlakasiga aylantirilganda Buxoro amiri kim edi?

- A. Abdulahad
- B. Muzaffar
- S. Olimxon
- D. Shohmurod

3. «Gandamiyon» shartnomasiga ko'ra Xiva xoni qancha tovon to'lashi kerak edi?

- A. 500 ming rubl
- B. 1 mln 200 ming rubl
- S. 800 ming rubl
- D. 2 mln rubl

4. Turkiston general-gubernatorligi tashkil topganda uning tarkibida dastlab qaysi viloyatlar bor edi?

- A. Zakaspiy, Yettisuv
- B. Sirdaryo, Samarqand
- S. Farg'ona, Kaspiyorti
- D. Yettisuv, Sirdaryo

5. Turkistonni «ruslashtirish» siyosati tashkilotchisi bo'lgan general-gubernatorni aniqlang?

- A. Kaufman
- B. Chernyayev
- S. Kuropatkin
- D. Rozenbah

6. 1916 - yildagi qo'zg'olonni eng kuchli nuqtasi bo'lgan xududni aniqlang?

- A. Jizzax
- B. Toshkent
- S. Xo'jand
- D. Andijon

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

- takrorlash va mashqlar: takrorlash, o'z-o'zini sinash, tahlil qilish, qayta tayyorgarlik ko'rish, eslab qolish.

- yangi materiallarning mustaqil asosi: yangi adabiyotlar, internet materiallari, qo'shimcha konspekt, mustaqil fikrlar bildirish.

- ilmiy xarakterdagi ishlar: muammoli vaziyatlar, testlar, savollar, topshiriq va slaydlar tuzish.

Mavzu: **TURKISTONDA MUSTABID SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI VA UNGA QARSHI QUROLLI HARAKAT**

1.1. Mashg'ulot topshiriqlar rejasi

O'quv vaqti: 2 soat ma'ruza, 2 soat seminar mashg'uloti.

Mashg'ulot turi: ma'ruza, o'tilgan mavzularni takrorlab, bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash.

Darsning maqsadi: talabalarda Turkistonda sovet hokimiyatning o'rnatilish jarayoni, unga qarshi milliy vatanparvar kuchlar tomonidan amalga oshirilgan qurolli haraktning mazmun-mohiyati haqidagi bilimlar berish, ularni erkin fikrlashga, shu mavzu to'g'risidagi bilimlarni yuzaga chiqarish, vatanparvar insonlarni mustabid tuzumga qarshi olib borgan qonli kurashini yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalashdagi o'zni haqidagi bilim va ko'nikmalarini hosil qilish.

Ilmiy mashg'ulotning vazifasi:

O'rgatuvchi: mashg'ulot ishtirokchilarini faol qatnashishlarini tashkil etish, yangi olingan bilimlarni mustahkamlash, talabalarni Turkistonda sovet hokimiyatni o'rnatilishi hamda unga qarshi vatanparvar insonlar tomonidan olib borilgan qurolli harakatni mazmun, mohiyatini fikrlarini to'g'risidagi, rivojlantirish, mavzuning alohida jihatlari, boshqa mavzular bilan aloqadorligini tushuntirish.

- **rivojlantiruvchi:** o'quv adabiyotlaridan to'g'ri foydalanish, mavzuga oid muhim muammolar bilan ishlashni o'rganish, mavzuga doir eng yangi ilmiy natijalar bilan tanishtirish, tushuncha va iboralarni izohlash, talabalarga Turkistonda Sovet hokimiyatini o'rnatilish jarayonida bolsheviklar va ularning dohiysi V.I.Lenin tomonidan amalga oshirilgan makkarona siyosatda ko'zlangan maqsad, mustabid tuzumning milliy vatanparvar insonlar tomonidan amalga oshirilgan qurolli harakatni zaiflashtirish borasida chora-tadbirlarini eng yangi manbalar asosida tushuntirish, talabalarda vatanparvarlik his-tuyg'usini rivojlantirib borish.

- **tarbiya beruvchi:** talabalarni mustaqil ishlashga jalb qilish, Vatan mustaqilligi uchun jonini fido qilgan yurt farzandlari, jasur qo'rboshilarni Sovet tarixshunosligida nima uchun "bosmachi" deb ataganlari, aslida kimni "bosmachi" deb atash lozimligini aniq faktlar asosida talabalarga etkazish, mavzuni ravon til bilan talabalar uchun soda usulda tushuntirish. Mavzu mohiyatini ochib berish jarayonida yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga e'tibor qaratish.

O'rganish texnologiyalari:

- **o'qitish usullari:** ma'ruza, aqliy hujum, klaster, skarbey usullaridan foydalanish jonli muloqot, plakatlari, tarqatma materiallar, fotosuratlar, ilmiy va badiiy adabiyotlar asosida mavzu mohiyatini talabalarga etkazish;

- **o'rganish turlari:** og'zaki testlar orqali tushuntirish, jamoaviy savol-javoblar, oldindan mavzu bo'yicha qisqacha konspektlar tuzish;

- **o'rganish talablari:** auditoriyalarning texnik vositalar bilan ta'minlanishi, texnik vositalardan unumli foydalanish.

- **monitoring va baholish:** og'zaki nazorat, savol-javoblar, blits-so'rov.

Pedagogik jarayonlar:

- o'quv jarayonida mavzuning ahamiyati va uning o'rnini bilan tanishtirish;

- mavzuning tuzilishi va tavsiya etinadigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar tafsiloti haqida tushuntirishlar berish;

- mavzuning ishlashning uslubiy va tashkiliy xususiyatlarini ochish, baholash muddati va shakli, o'qitish jarayonini tashkillashtirish jarayonining umumiy sxemasini tasniflash;

O'quv faoliyati natijalari:

- mavzuning nomlanishi va vazifalarini belgilash;

- faoliyatidagi alohida usuli va tashkiliy jihatlarni ochib berish;

- mavzuning umumiy va tashkiliy tuzilishlari to'g'risida atroflicha tushuntirish berish;

- Turkistonda sovet hokimiyatining zo'rlik bilan o'rnatilganligini, mustabid tuzumga qarshi olib borilgan qurolli harakatni mazmun-mohiyatini ochib berish, talabalarga tarixiy haqiqatni aniq faktlar asosida yetkazish, mavzuning asosiy yo'nalishini belgilab berish;

- nazariy bilimlarning tizimlilik, amaliyligi;

- amaliy topshiriqlarni bajarishda nazariy bilim va shakllangan ko'nikmalardan foydalana olish;

- mavzuning asosiy mazmuni, yo'nalishi bo'yicha, ularning boshlang'ich bilimlarga ega bo'lishi:

1.2. Ma'ruzaning xronologik kartasi

1-bosqich. O'quv mashg'ulotlariga kirish – 15 daqiqa

- **o'qituvchining faoliyati:** tayyorgarlikni tekshirish, kerakli tarixiy manbalar haqida ma'lumot, ma'ruza haqida tushuntirish berish, o'quv rejasi bilan tanishtirish, adabiyotlar to'g'risida ma'lumot berish, dars davomida talabalar bilimini baholab borish usullari haqida tushuntirishlar berish;

- **talabaning faoliyati:** darsga tayyorgarligi, ma'ruza matni bilan va mavzuga oid rejalar tanishganligi (talabalar soni, tashqi ko'rinishi, o'quv qo'llanmalar va ko'rgazmali qurollar);

- **uslublar, shakllar, usullar:** yo'riqnoma, oldin so'rash, topshiriq kartochokalari

2-bosqich. Asosiy qism – 55 daqiqa

- **o'qituvchi faoliyati:** mavzuni yoritishga kirilishi, o'tgan mavzularni takrorlash, ma'ruza matnini tarqatish, uni yaxshi o'zlashtirib olishni ta'kidlash, mavzu rejalarini mavzularining har biriga alohida tushuntirish berish, aqliy hujum,

klaster, bumerant usullaridan foydalanish, jonli muloqot, tarixiy atamalarga izohlar berish, ma'ruza matnini o'qish mobaygida slaydlar orqali atroflicha tushuntirib berish;

- **talabaning faoliyati:** bilimlarni mustahkamlab olish, mavzuni qunt bilan eshitish, muhim joylarini konspekt qilib olish, tushunmagan iboralar bo'yicha savollar berish, aniqlashtirib olish, mavzuni tahlil qilish;

- **uslublar, shakllar, usullar:** oldindan so'rash, blits-so'rov, aqliy hujum, bumerant usulidan foydalanish.

3-bosqich. Yakunlovchi qism-10 daqiqa

- **o'qituvchi faoliyati:** mavzuni yakunlash, talabalar diqqatini asosiy mavzuga qaratish; dars jarayonida faollik bilan ishtirok etgan talabalarning faoliyatini baholash, mustaqil ish mavzusini berish, baholash;

- **talabaning faoliyati:** o'tilgan mavzuni tahlil qilish, dars jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish mustaqil ish mavzusini yozib olish;

- **uslublar, shakllar, usullar:** guruhlarda ishlash, topshiriq kartochkalari

1.3. O'quv-uslubiy materiallar

1.3.1. Ma'ruza matni

Mavzu: Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilish va unga qarshi qurolli harakat

Ma'ruza rejasi:

1. Rossiyadagi 1917-yil fevral inqilobining Turkistonga ta'siri. O'lkada inqilobiy harakatlar. Mahalliy xalqlarning siyosiy faollashuvi.

2. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi va uning shovinistik siyosati.

3. Turkistonda qarshilik ko'rsatish harakatining boshlanishi, uning mohiyati va harakatlantiruvchi kuchlari.

4. Xiva xonligi va Buxoro amirligining tugatilishi. Yosh xivaliklar va Yosh buxoroliklar tashkilotlari.

Tayanch iboralar: 1917-yil fevral inqilobi ikki hokimiyatchilik, jadidlarning faollashuvi, «Sho'roi Islomiya», «Sho'roi O'lamo», Oktabr davlat to'ntarishi, Shovinistik siyosat, Turkiston Muxtarligi, TASSR, qurolli harakat, qo'rboshi Madaminbek, Yosh xivaliklar, Yosh buxoroliklar, inqilobiy tribunal.

1. Rossiyadagi 1917-yil fevral inqilobining Turkistonga ta'siri, O'lkada inqilobiy harakatlar. Mahalliy xalqlarning siyosiy faollashuvi

Rossiyada 1917-yil fevralida burjua-demokratik inqilob sodir bo'ldi, ko'p asrlik Romanovlar sulolasi hukmronligi ag'darildi. Mutloq monarxiya siyosiy

tuzumning barham topishi Rossiya imperiyasi va uning turli hududlarida ham ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskin o'zgarishga olib keldi. Buning natijasida Rossiyada tarixda kamdan kam uchraydigan hodisa – ikki hokimiyatchilik vujudga keldi.

- burjuaziya vakillaridan iborat Muvaqqat hukumati.
- ishchi, askar, dehqon deputatlari soveti.

Agar burjuaziya Muvaqqat hukumati mamlakatni yuqoridan turib boshqaradigan organ sifatida faoliyat yuritib, asta-sekinlik bilan hokimiyatni o'z qo'liga olib borgan bo'lsa, ishchi, askar, dehqon deputatlari sovetlari esa hokimiyatni qo'yidan boshqarishda qatnashib bordilar. Ularning hokimiyat organi – Petrograd soveti xuddi shu yo'nalishda faoliyat yuritdi.

Rossiya imperiyasining mustamlakachilik asorati ta'sirida bo'lib kelgan Turkiston o'lkasi hayotida ham bu davrga kelib sezilarli tarixiy voqealar sodir bo'ldi. Mustamlakachilik boshqaruv organi Turkiston general-gubernatorligi tugatildi. Uning o'rniga Muvaqqat huqumatning 1917-yil 7-apre-lidagi qaroriga binoan kadet (Konstituttsion demokratik partiya 1905-yilning 17-oktabridagi podsho Nikolay II manifestidan keyin tuzilgan) burjuaziya partiyasi bo'lib, Muvaqqat hukumat shu partiya a'zolaridan tuzilgan edi. N.N.Shchechkin raisligida 9 kishidan (4 nafari yerli aholi) iborat Rossiya Muvaqqat hukumatining Turkiston qo'mitasi tashkil etildi. Viloyatlarda harbiy gubernatorlik tizimi barham topib, viloyat komissarligi instituti vujudga keldi. Shuningdek, Rossiyada faoliyati yuritayotgan bolsheviklar, menshiviklar (RSDRPning Martov tarafdorlari bo'lgan ozchilik qismi), eserlar (sotsial-inqilobchilar) partiyalarining Turkistondagi mahalliy tashkilotlari yetakchiligida o'lkaning bir qator yirik shaharlarida ishchi, askar deputatlari sovetlari tashkil topdi. Tez orada mahalliy aholi vakillaridan musulmon ishchi, askar deputatlari sovetlari ham tuzila boshladi. Muvaqqat hukumatning 1917-yil may oyi boshlaridagi farmoniga binoan, Turkistondan birinchi jahon urushi frontiga jalb qilingan mardikorlar o'z ona yurtlariga qaytib kela boshladi.

Fevral inqilobi Turkiston aholisi tomonidan zo'r hayajon bilan kutib olindi. Turkiston qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan Ozodlik, Tenglik, Birodarlik shiorlari Rossiyaning mustamlakachilik siyosatidan norozi musulmonlar qalbida yorqin kelajakka umid uyg'otdi. O'sha paytda nashr etilgan «Hurriyat» gazetasida shunday yozilgan edi. «Biz so'z erkinligi, matbuot erkinligiga egamiz. endilikda haqiqatni aytgan va yozgan paytlarimizda og'zimizni yopishmaydi. O'z huquqlarimizni talab qilgan paytda quloq solishadi»²³. Biroq keyingi voqealar ko'rsatganidek fevral inqilobi natijasida hokimiyatga kelgan Muvaqqat hukumat bergan va'dalarini to'liq amalga oshirmadi. Muvaqqat hukumat o'lkada nafaqat boshqaruvning eski harbiy mustamlakachilik tizimini saqlab qolishga urindi, (ko'pgina organlar nomi o'zgarsada mohiyati o'zgarmadi, masalan politsiya, militsiya deb, ataldi) balki eski ma'muriyatni ham daxlsizlikda qoldirdi. Sovet

²³ Qarang: Hurriyat. 1917-yil 16-aprel

tarixshunosligida 1917-yil mart oylaridagi musulmon aholisining siyosiy harakati haqida ayrim ma'lumotlarga kiritiladi, mahalliy aholini mustamlakachilarning imperiya tuzilmalariga qarshi kurashi, Turkistonning milliy uyg'onishidagi safarbarlik roli kamsitiladi. Jadidlar tomonidan mahalliy aholining siyosiy ongini o'stirish, hal qiluvchi kurashlarga etaklab borish maqsadida o'lkaning ko'plab shaharlarida vaqtlilik matbuot nashrlari chiqarila boshlandi. Masalan Toshkentda «Xurshid», «Sadoi Turkiston», «Turk eli», «Samarqandda», «Oyna», «Hurriyat», Buxoroda «Turon», «Buxoroi Sharif», Qo'qonda «Sadoi Farg'ona» nomli kabi matbuot nashrlari o'z sahifalarida markazdagi siyosiy vaziyatni joylardagi ahvolni yoritishda, mahalliy aholi ommasini siyosiy-g'oyaviy jihatdan tayyorlashda muhim rol o'ynadi. Abdulla Avloniy tomonidan Toshkentda 1917-yil aprelidan chiqarila boshlagan «Turon» gazetasining ilk sonida «Yashasin xalq jumhuriyati» shiori birinchi bor yangragan edi.

Munavvar qori Abdurashidxonov boshchiligidagi jadidlar harakati bilan 1917-yil 14-martda «Sho'roi-Islomiya» tashkiloti tashkil etildi. Toshkentning o'sha kuni bo'lib o'tgan birinchi yig'ilishida tatar va qozoq xalqi vakillarini ham hisoblaganda 61 kishi qatnashdi. Yig'ilishda tashkilotning 15 kishidan iborat boshqaruv kengashi tasdiqlandi. Kengash tarkibiga Munavvar qori Abdurashidxonov (yetakchi), Abduvohid Qori, Kattaxo'ja Boboxo'jaev, Mulla Rizo Oxun Yo'ldoshxo'jaev, Abdusami Qori Hidoyatboyev, Ubaydulla Xo'jaev va boshqalar kiritildi. Bir vaqtning o'zida jadidlar sa'yi harakati bilan 1917-yilning aprel-iyul oylarida Samarqandda – «Klub Islomiya», Qo'qonda «Mirvajum Islom», Andijonda – «Ozod xalq», Kattaqo'rg'onda – «Ravnaqul islom» kabi bir qancha boshqa siyosiy tashqilotlar ham tashkil etildi²⁴.

Turkiston istiqloli uchun kurashga bel bog'lagan va «Sho'roi Islomiya» ta'sirida faoliyat yuritgan jadidlarning bir qismi «Qadimchilar» nomi bilan atalar edi. 1917-yil iyuniga kelib «Qadimchilar», «Sho'roi Islomiya» tarafdorlari bilan uzil-kesil aloqani uzib, «Sho'roi Ulamo» tashkilotini tuzdilar (uning rahbarlari Sherali Lapin va boshqalar, tashkilotga tegishli «Al - izoh» jurnali muharriri Abdumalik Hoji Nabiev). Bo'linishning asosiy sabablari Turkistonning milliy mustaqilligiga erishish yo'lidagi ikki xil qarama-qarshi taktik kurash masalasi edi. Konservativ, mutassib qarashlar nuqtayi nazaridan yondashgan «Qadimchilar» o'lka mustaqilligini hukmron mustamla-kachilarga qarshi faqat g'ozovat, ya'ni qurolli kurash yo'li bilan qo'lga kiritishni yoqlar edilar. Jadidlarning ilg'or nomoyandalari esa Rossiyada yuzaga kelgan qulay inqilobiy shart-sharoitlardan foydalanib, yurt mustaqilligini siyosiy vositalar orqali behuda qon to'kmasdan, bosqichma-bosqich qo'lga kitirishni istar edilar. Ularning demokratik Rossiya Federatsiyasi tarkibida Turkiston muxtoriyati tuzish talabi ham shu maqsadni ko'zda tutar edi. «Sho'roi Islomiya tashabbusi» bilan 1917-yilning 16-21 aprel kunlari Toshkentda Butunturkiston musulmonlarining 1-qurultoyi bo'lib o'tdi.

²⁴ Абдуллаев Р.М и др. Туркестан в начале XX вв. К истории истоков национальной независимости. -Т.: Шаρκ, 2000. - С. 22-24.

Unda o'lkani barcha tub xalqlariga mansub 150 nafar delegat ishtirok etdi²⁵. Qurultoyda kun tartibiga 16 ta masala qo'yilishning o'zi ham uning katta ahamiyatiga ega ekanligidan darak beradi. Qurultoyda – «Turkiston o'lka musulmonlari sho'rosini tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi». Turkiston o'lka musulmonlar Sho'rosining birinchi yig'ilishida uning markaziy organi-Markaziy Sho'ro tuzildi. Mustafa Cho'qayev Markaz raisi, Munavvar qori Rais muovini, Ahmad Zaki Validi kotib, M.Behbudiy, U.Asadullaxo'jaev va boshqalar a'zolar etib saylandilar. Markaziy Sho'ro zimmasiga o'lkadagi barcha tarqoq, o'z holicha ish yuritayotgan nizom va dasturlarga ega bo'lmagan uyushma va tashkilotlarni birlashtirish, faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi yuklandi. Buni uddalashda Markaziy Sho'roning joylarda tashkil etilgan sho'balari muhim rol o'ynadi. Jumladan, Toshkent sho'basini M.Abdurashidxonov, Samarqand sho'basini M.Behbudiy, Farg'on sho'basini esa Nosirxon To'ra Kamoloxon To'ra o'g'li boshqardi. Shu tariqa Turkistonda uchinchi hokimiyat, Turkiston o'lka musulmonlari Sho'rosi paydo bo'ldi. O'lka musulmonlari vakillari 1917-yilning 1-2-mayida Moskvada bo'lgan Butunrossiya musulmonlari 1 qurultoyida ishtirok etdilar. Qurultoyda Butunrossiya Musulmonlari Sho'rosi, uning Ijroiya Qo'mitasi ta'sis etildi. Ijroiya Qo'mitasiga ulkamiz vakillaridan U.Asadullaxo'jaev va I.Shoahmedovlar a'zo etib saylandilar.

1917-yilning 17-20-sentabr kunlari, Toshkentda bo'lib o'tgan Umum-turkiston musulmonlari vakillarining 3-qurultoyi o'lka xalqlari hayotda muhim rol o'ynadi. Unda 500 nafar vakil ishtirok etdi. Qurultoyda tarkibi 12 kishilik Turkiston o'lka Qo'mitasi, 24 kishilik «Mahkamai Sha'riya» (parlament) tashkil etildi. Qurultoyida «Sho'roi Islomiy», «Sho'roi Ulamo», «To'ron», «Ittihod» va shu kabi boshqa mahalliy milliy tashkilotlarni birlashtirib, ular negizida yagona «Ittifoqi Muslimin» siyosiy partiyasi tuzildi. Qurultoyida M.Behbudiy otashin nutq so'zlab, hammani jipslashishga da'vat etdi.

Shunday qilib Turkistonning ilg'or ziyolilari milliy istiqlolga erishish yo'lida o'lkadagi barcha vatanparvar kuchlarni birlashtirib, jipslashtirib harakat qilishga da'vat etgan edilar. Turkistonda ayrica faoliyat yuritgan, o'z nafsiga berilgan hamda muxolifatchilik ustuvor bo'lgan ayrim mahalliy milliy tashkilotlar mana shu yuzaga kelgan imkoniyatlardan unumli foydalana olmadilar. Bu esa shubhasiz, vaziyatni ustamonlik bilan o'z izmiga so'lib yuborishga intilayotgan bolsheviklarga qo'l keldi.

2. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi va uning shovinistik siyosati

Muvaqqat hukumatning mamlakatni jahon urushidan olib chiqa olmaganligidan bolsheviklar (RSDDRPning Marks g'oyasi asosida kommunistik jamiyat qurishni maqsad qilib qo'ygan V.I.Lenin tarafdorlari bo'lib, ular ko'pchilik

²⁵ Там же. С. 30

bo'lganliklari uchun bolsheviklar deb atalgan. Leninga muxolifatda bo'lgan Martov tarafdorlari ozchilik bo'lganliklari uchun menshiviklari deb atalgan) ustamonlik bilan foydalandilar. Bolsheviklar ilgari surgan «Butun hokimiyat sovetlarga», «Yer dehqonlarga», «Xalqlarga tinchlik» shiorlari ularning hokimiyat tepasiga kelishlariga imkoniyat yaratdi. Rossiya poytaxti Petrogradda 1917-yilning 24-25-oktabrda davlat to'ntarishi sodir bo'ldi. Ushbu Davlat to'ntarishini Lenin boshchiligidagi bolsheviklari partiyasi amalga oshirdi. Petrogradda Butunrossiya sovetlarining 2 qurultoyi chaqirilib, unda Lenin boshchiligidagi Sovet hukumati – Xalq Komissarlari Soveti tuzildi. “Sulh va Er to'g'risida”gi dekretlar qabul qilindi. Sovet hukumati nafaqat Markazda, balki shu bilan birga, sobiq Rossiya imperiyasi tasarrufidagi barcha hududlarda jumladan, Turkistonda ham o'z hokimiyatini o'rganitish harakatida bo'ldilar. Turkistonda sovet hokimiyatini o'rnatish g'oyatda murakkab jarayonda kechdi. Buning boisi, avvalo Kommunistik g'oyaning mahalliy tub aholining qalbi va shuuriga singib ketmaganidir. Negaki bu zamin aholisi, bolsheviklar partiyasi dasturida nazarda tutilgan sotsialistik o'zgarishlar orqali hamma narsani umumlashtirishni yoqtirmasdi. Mahalliy xalq o'zining tarixan tarkib topgan, asrlar davomida shakllangan o'ziga xos turmush tarzini, yashash sharoitini, xo'jalik yuritish, idora qilish tartib-qoidalarini bir lahzada tubdan o'zgartirishni xohlamadi. Bu narsa uning ongi, tafakkuriga, milliy o'zligi va ma'naviy qiyofasiga mos kelmasdi. Ayniqsa, bolsheviklarning mafkurasi, (dinni inkor etish) uning hujumkor yo'nalishi, islom qadriyatlari doimo e'zozlanib kelingan bu yurt odamlarining ruhiyati va dunyoqarashi bilan singisha olmasdi. Bir so'z bilan aytganda, mahalliy aholi tabiiy ravishda kommunistik g'oyani qabul qilmadi va unga moyillik ko'rsatmadi. Biroq begona maslak va g'oyalar bolsheviklar partiyasi va uning Turkistondagi “yalovbardarlari” tomonidan kuch va zo'rlik bilan o'lka xalqlariga majburan singdirildi.

1917-yilning 27-oktabrida Petrogradda Muvaqqat hukumat ag'daril-ganligi haqida xabar yetib keldi. Turkistonda general Korovichenko boshchiligidagi Muvaqqat hukumatni ag'darib tashlash uchun temiryo'l ishchisi bolshevik V.S.Lyapin boshchiligidagi inqilobiy qo'mita tuzildi. Qo'zg'olon natijasida 1917-yilning 1-noyabrida Toshkentda Sovet hokimiyati g'alaba qozondi. General P.A.Korovichenko boshchiligidagi Muvaqqat hukumatning Turkiston Qo'mitasi a'zolari qamoqqa olindi. Ammo g'alaba shahar aholisiga qimmatga tushdi, ko'cha janglarida faqat sovet hukumati tafdorlaridan 79 kishi o'ldirildi. Milliy demokratiya (jadidlar) nomoyandalari bolsheviklarni zo'rlik bilan hokimiyatni egallashlariga salbiy munosabatda edilar. Milliy demokratiyaning taniqli vakillari Ubaydulla Xo'jayev va Sultonbek Xo'janovlar musulmonlarni milliy demokratik tashkiloti nomidan bolsheviklarni Toshkentda hokimiyatni zo'rlik bilan egallashlariga norozilik bildirishdi. Ular Turkiston xalqlari o'z taqdirларini o'zlari belgilashlari zarurligini bildirishdi²⁶. Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatini

²⁶ Абдуллаев Р.М и др. Туркестан в начале XX вв. К истории истоков национальной независимости. Т.: Шарк, 2000, С. 64-68

oʻrnatish jarayoni qonli, fojiali voqealar bilan bogʻliq holda kechdi. Jumladan, Fargʻona viloyatida sovet hokimiyatini oʻrnatish jarayonida. Margʻilonda 7 ming, Andijonda 6 ming, Namanganda 2 ming begunoh kishilar qirgʻin qilindi. Samarqand, Kattaqoʻrgʻon, Yangi Buxoro (Kogon) va boshqa shaharlarda ham sovet hokimiyati oʻrnatildi. Jumladan, 1917-yilning 1-dekabridan 2-dekabriga oʻtar kechasi Samarqand viloyatida ham sovet hokimiyati toʻliq oʻrnatildi²⁷.

Turkistonda sovet hokimiyati organlarini tuzish vaqtida ham bolshe-vik yoʻlboshchilarining ulugʻdavlatchilik va shovinistik siyosati toʻla kuch bilan nomoyon boʻldi. 1917-yilning 15-noyabrida Toshkentda Turkiston ishchi, askar va dehqon deputatlari sovetlarining 3 qurultoyi ochildi. Qurultoyi oʻng eserlar vakili K.Ya.Uspenskiy kirish soʻzi bilan ochdi. Unda turli partiya vakillari boʻlgan 114 delegat ishtirok etdi. Unda bolshevik F.I.Kolesov boshchiligidagi Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tuzildi. Hukumat tarkibida 8 oʻrin eserlarga, 5 oʻrin bolsheviklarga, 2 oʻrin maksimalistlarga berildi. Turkistonni birinchi sovet hukumati tarkibiga Turkiston aholisini 95 % tashkil etuvchi tub joy aholisidan birorta ham vakil kiritilmadi²⁸. Ushbu holatni musulmon aholisini ishchi, askar va dehqon deputatlari soveti bilan mustahkam aloqada emasligi hamda yerli aholi orasida ishchilar sinfi deyarli yoʻq ekanligi bilan izohlashdi. Turkiston jadidlarini taniqli vakili Mahmud-xoʻja Behbudiy Oktabr davlat toʻntarishdan oldin bolsheviklar partiyasini «byurokratiya mustabid» deb atab, bolsheviklar qurmoqchi boʻlgan tuzum Turkiston uchun nafaqat yaroqsiz, balki xavfli ekanligin bildirgan edi²⁹.

Sovet hokimiyati Rossiyada boʻlgani singari Turkistonda ham inqilobiy aqidalarga eng avvalo sinfiylik tamoyillariga amal qilishdi. Asosiy inqilobiy kuch – proletariat va kambagʻal dehqonlar, aholining boshqa qatlamlari esa reaksiya va ekspluatator guruhlar deb eʻlon qilindi. Sovet hokimiyatning mahalliy aholining xususiy mulklarini tortib olish, hamma narsani Sovetlar manfaati yoʻlida umumlashtirish yoʻlida amalga oshirgan gʻayritabiiy faoliyati pirovard oqibatda oʻlka xalqlarining keskin norozilik harakatlarining kuchayishga sabab boʻldi.

1917-yilning 2-noyabridagi RSFSR Xalq Komissarlari Sovetining «Rossiya xalqlari huquqlar Deklaratsiyasida «Rossiya xalqlarining oʻz taqdirini oʻzlari ham qilishlari» eʻlon qilingan edi. Mana shu Deklaratsiya asosida 1917-yilning 20-noyabrida RSFSR Xalq Komis-sarlari Soveti Rossiya va Sharqning musulmon aholisiga murojatnoma eʻlon qildi. Unda shunday deyilgan edi. «Biz sizga Rossiya va Sharqning mehnatkash va mazlum musulmonlari, Volgaboʻyi va Qrim-tatarlari, Sibir va Turkiston qirgʻizlari va sartlari, Kavkazorti turklari va tatarlari, Kavkaz

²⁷ Samarqand Viloyat Davlat arxivi, 1685-jamgʻarma. 1-roʻyxat, 397-yigʻma jild, 1-2 varaqlar.

²⁸ Абдуллаев Р.М и др. Туркестан в начале XX вв. К истории истоков национальной независимости. Т.: Шарк, 2000, С. 70-76

²⁹ Алимova Д.А., Голованов А.А. Узбекистан в 1917-1990 годы: противоборство идей и идеологий. -Ташкент, 2002. С. 19-20..

chechenlari va tog'liklari bundan buyon sizning e'tiqod va urfodatlarinigiz, milliy va madaniy muassalarinigiz erkin va daxlsiz deb, e'lon qilinadi»³⁰.

Turkistonning vatanparvar rahnomalari tashabbusi bilan 1917 yilning 26-noyabrida Qo'qonda o'lka musulmonlarining IV qurultoyi chaqirildi. Qurultoyining dastlabki kunida Farg'onadan 150, Sirdaryo viloyatidan – 22, Samarqand viloyatidan – 21, Buxorodan – 4, Kaspiyorti viloyatidan 1 ta delegat qatnashdi. Keyinchalik delegatlar soni oshib 203 taga etdi. Qurultoyda viloyatlardan tashqari «Sho'roi Islomiy», «Sho'roi Ulamo» tashkilotlaridan, musulmon harbiylari Sho'rosidan, yahudiylarning «Paoley-Sion» tashkilotidan hamda mahalliy yahudiylardan ham vakillar qatnashdi³¹.

Qurultoy Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Fedaretiv Rossiya respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb, e'lon qiladi, shu bilan birga muxtoriyatning qoror topishi shakllarini ta'sis majlisiga havola etadi, deb qaror qildi. Shundan so'ng qurultoy «Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik aholi huquqlarining muttasil himoya qilinishini tantanali ravishda e'lon qiladi. Yangidan tarkib topayotgan davlat «Turkiston Muxtoriyati» deb ataladigan bo'ldi. Qurultoyda Turkiston Muxtoriyatining hokimiyat organi Muvaqqat Kengash tuzildi. Muvaqqat Kengash tarkibi 12 kishidan iborat etib belgilandi. Dastlab unga quyidagi nomzodlar kiritildi: M.Tinishbayev – bosh vazir ichki ishlar vaziri, mutaxassisligi muhandis³², Islom Sultan Shoahmedov – bosh vazir o'rinbosari, mutaxassisligi huquqshunos; Mustafa Cho'qaev – tashqi ishlar vaziri (keyinchalik bosh vazir) mutaxassisligi huquqshunos; Ubaydulla Xo'jaev – harbiy vazir, mutaxassisligi huquqshunos; Yurali Agayev – yer va suv boyliklari vaziri, mutaxassisligi agronom; Obidjon Mahmudov – oziq-ovqat vaziri; siyosat va davlat arbobi; Abdurahmon Urazayev – ichki ishlar vaziri o'rinbosari mutaxassisligi huquqshunos; Salomon Abramovich Gertsfel'd (Gershfel'd) – moliya vaziri, mutaxassisligi huquqshunos. Hukumat tarkibiga yevropalik aholi orasidan yana to'rtta vakil kiritilishi belgilab qo'yilgan edi. Qurultoyining yana bir xizmati, bu uning tomonidan Turkiston Milliy Majlisi (parlament) tuzilganligi bo'ldi. Milliy Majlis tarkibiga Muvaqqat Kengash a'zolaridan tashqari o'sha davrning atoqli arboblari: T.Norbutabekov, S.Sharifxo'jev, Nosrxonto'ra Kamolxonto'ra o'g'li, Mahmudxo'ja Behbudiy, Ali-xonto'ra Shokirxonto'ra o'g'li, Sobirjon Yusupov, Odiljon Umarov singari yurt peshvolari ham saylangan edilar. 1917-yil 13-dekabrida Toshkentda muxtoriyatni yoqlab o'tkazilgan katta miting qizil askarlar tomonidan bostirilib, 16 kishi otib o'ldirilgan edi. Bu Turkiston muxtoriyatiga nisbatan uyushtirilgan dastlabki suiqasd edi.

³⁰Абдуллаев Р.М и др. Туркестан в начале XX вв. К истории истоков национальной независимости. -Т.: Шарк, 2000, С. 81..

³¹Там же. С. 80-81

³² Qozoq taraqqiyparvarlari. 1917.

1917-yilning 25-dekabrida Qo‘qonda o‘lka musulmon ishchi, askar, dehqonlarning favqulodda qurultoyi boshladi. Unda 200 ga yaqin kishi ishtirok etdi. Qurultoy o‘zining 27-dekabrda so‘nggi ish kunida Petrogradga, Xalq Komissarlari Soveti raisi V.I. Lenin nomiga telegramma yo‘lladi. Unda Turkiston muxtoriyatini e‘tirof etilishi Toshkent Xalq Komissarlari Sovetiga hokimiyatini Turkiston muxtoriyati Muvaqqat Kengashiga topshirish to‘g‘risida farmoyish berishi so‘ralgan edi. Ammo 1918-yilning 19-26-yanvarida bo‘lib o‘tgan Turkiston o‘lka Sovetlarining V s‘ezdi V.I.Lenin tavsiyasi asosida muxtoriyat hukumatini, uning a‘zolarini qonundan tashqari holatda deb hisobladi va muxtoriyat rahbarlarini qamoqqa olishga hukm qildi. Turkiston Muxtoriyatga qarshi amaliy tajavuz 1918-yil 31-yanvarda boshlandi. Muxtoriyat hukumatida ham o‘zaro kelishmovchiliklar yuz berdi. 18-fevralda «Ulam» jamiyati tashabbusi bilan davlat to‘ntarishi sodir etildi. Mustafa Cho‘qayev boshchiligidagi hukumat ag‘darildi. Hukumat boshqaruvi Qo‘qon shahar militsiyasi boshlig‘i Kichik Ergash qo‘liga o‘tdi. 1918-yilning 19-21-fevral kunlari Qo‘qon xalqiga qarshi uch kunlik qirg‘in amalga oshi-rildi. Ushbu qirg‘in oqibatida Qo‘qon shahrida 10 mingga yaqin kishi o‘ldirildi. «Ulug‘ Turkiston» gazetasining o‘sha kunlardagi sahifasida «Qo‘qon hozir o‘liklar shahridir» degan jumlani uchratishimiz mumkin³³. 1918-yilning 22-fevralida Rus-Osiyo banki binosida Turkiston Muxtoriyatini taslim bo‘l-ganligi haqida shartnoma imzolandi. Kelishuvga binoan barcha qarshilik ko‘rsatuvchi fuqarolar qurol-yarog‘larini topshirib, O‘lka Xalq Komissarlari Soveti va uning mahalliy organlarini tan oladigan bo‘ldi. O‘z navbatida Sovet hukumati harbiy harakatlar natijasida vayron etilgan muassalarni tiklash va kambag‘al aholiga yordam berishga va‘da berdi. Qizil askarlar Qo‘qondan bir eshelon talon-taroj etilgan moddiy boyliklar va asirga olinganlarni olib ketishdi. Shaharda Harbiy Sovet qarori bilan to‘plar bilan ta‘minlangan harbiy qismlar qoldirildi³⁴. Shunday qilib Turkiston xalqlarining milliy mustaqil davlati Turkiston Muxtoriyati Sovet hokimiyati tomonidan yo‘q qilindi. Ammo, ushbu holat Turkistonni vatanparvar ug‘lonlarini mustabid tuzumga qarshi keng qo‘llaniladigan qurolli qarshilik harakatidan biri bo‘ldi.

3. Turkistonda qarshilik harakatining boshlanishi, uning mohiyati va harakatlantiruvchi kuchlari.

Turkistonning yaqin o‘tmishi tarixida yorqin sahifa yozgan hamda xiyla uzoq davom etgan, fojiali voqealarga to‘lib-toshgan sovet hokimiyatiga qarshi ko‘tarilgan qurolli harakatning mazmun-mohiyatini sovet mustamlakachilari muttasil buzib, soxtalashtirib keldilar. U sovet tarixshunosligida «bosmachilar harakati», «aksil inqilobiy kuchlar bosqini», «bur to‘da yurt buzg‘unchilari

³³Алимова Д.А., Голованов А.А. Узбекистан в 1917-1990 годы: противоборство идей и идеологий. Ташкент, 2002. С. 22..

³⁴ Абдуллаев Р.М и др. Туркестан в начале XX вв. К истории истоков национальной независимости. Т.: Шарк, 2000. С. 108

harakati» singari nomlar bilan ta'riflab kelindi. Biroq xalqimizda «oyni etak bilan yopib bo'lmaydi» deyilganidek, ulug' ajdodlarimizning Vatan, el-u yurt erki, ozodligi va mustaqilligi uchun olib borgan mardona kurashi to'g'risidagi tarixiy haqiqat milliy istiqlol sharofati bilan to'liq tiklanib, o'z haqqoniy, xolis bahosini oldi. Bu harakat sovetlar mafkurasi to'qib chiqargan shunchaki «bosmachilar» harakati emas, balki sovet hokimiyatining zo'ravonlikka asoslangan siyosati va amaliyotiga qurolli qarshilik ko'rsatish harakatidir.

Ushbu harakatning Turkiston zaminida yuzaga, kelishinig muhim ijtimoiy omillari, sabablari nimalardan iborat edi? Nega 1918-yil bahorida Farg'ona vodiysida boshlangan bu qurolli harakat asta-sekin alanga olib, Turkiston (O'zbekiston)ning keng hududlari bo'ylab yoyildi?

Xalqimiz 1917-yilda sodir etilgan fevral va oktabr o'zgarishlarga katta umid bog'lagan edilar. Turkistonni milliy vatanparvar kishilari bolsheviklar va'dalariga ishonib o'lkada mustaqil davlat tuzishni rejalashtirgan edilar. Biroq sovet hokimiyati o'rnatilib, mustahkamlana borgan sayin bolsheviklar dohiylarini ikkiyuzlamachilik, munofiqlik qiyofasi ham ochilib borganligi, mahalliy xalqqa butunlay yot kommunistik mafkurani bayroq qilib olgan Sovet hokimiyati amaldorlarining aholi milliy qadriyatlari, udumlari, diniy e'tiqodlarini tahqirlanishi; o'lka xalqlarining xohish-irodasi bilan vujudga kelib ularning milliy manfaatlari yo'lida ilk qadamlar qo'yib borayotgan Turkiston Muxtoriyatining qonga belanishi, Sovet hokimiyatining aholi xususiy mulkini tortib olish va davlat tasarrufiga olishga qaratilgan iqtisodiy siyosati va boshqa omillar sabab bo'lgan. Turkiston Muxtoriyati yo'q qilingandan keyin Kichik Ergash yana turt kun mobaynida qizil askarlarga qarshi jang olib bordi va yengilib Qo'qondan 20 km uzoqlikdagi Bachkir qishlog'iga yashirinishga majbur bo'ldi. U bu yerda mustahkamlanib qizil askarlarga qarshi kurashni davom etkazdi. Shunday qilib, 1918-yil fevral oyining so'nggi o'n kunligida qariyb yigirma yil davom etgan Turkiston xalqlarini bolsheviklar va sovet rejimiga qarshi olib borgan qurolli kurashi boshlandi. Ushbu harakatning g'oyaviy jihatdan musulmon ruhoniylarning vatanparvar qismi hamda "jadid"lar qullab-quvvatlab turgan. Qurolli harakatni har tomonlama qullab-quvvatlashda, faoliyatlarni tartibga solishda jadidlar va musulmon ruhoniylarning vatanparvar qismi tomonidan tashkil etilgan "Sho'roi Islomiya", "Milliy ittihat" kabi tashkilotlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan"³⁵. 1918-yilning mart oyiga kelganda Farg'ona vodiysida 40 ga yaqin mustaqil qo'rboshilar faoliyat yuritgan. Marg'ilon atroflarida SHermuhammadbek va Nurmuhammedbek; Namangan uyezdida – Omon Pahlavon, Qobil, Sotiboldi Qozi Rahmonqul; Ush atroflarida – Xolxo'ja; Andijon uyezdida – Oxunjon; Andijon shahar atrofida – Parpi va boshqalar qizil armiyaga qarshi qurolli harakatni avj oldirganlar, 1918-yilning kuzida Kichik Ergash nazoratida har birida 20 tadan 1800 tagacha yigiti bo'lgan 70 ta qo'rboshi otryadlari mavjud edi. Boymirza Xayitning ta'kidlashicha 1918-yilda Ergash qo'rboshida 18 ming yigit, Madaminbekda – 5

³⁵Qarang: // Ражабов К.К. Вооруженные движения в Туркестанском крае против советского режима.[1918-1924]. Автореф.дисс...докт.ист.наук. Ташкент, Институт История АНУз, 2005.

ming, Shermuhammadbekda – 6 ming, Xolxo‘jada – 3 ming, Omon Pahlavonda – 2,5 mingdan ko‘p, Parpida – 3,6 ming, Muhiddinbekda – 4,5 ming, Nurmammedbekda – 3,8 ming, Jonibekda – taxminan 5,7 ming yigit mavjud edi. Umuman o‘sha davrda 9 ta yirik qo‘rboshida 52 ming yigit mustabid tuzumga qarshi janglar olib borgan³⁶. Umumiy maqsad va vazifalarni birgalikda aniqlash asosiy harakatlarni muvofiqlashtirish yo‘li bilangina tish-tirnog‘igacha qurollangan sovet qushinlarini yengish, yurt mustaqilligini qo‘lga kiritish mumkin edi. Shu bois jang-u jadallar davrida qo‘rboshlarning bir necha bor qurultoylari chaqirilib, ularda muhim hayotiy masalalar muhokama qilindi. Dastlab shunday qurultoy 1918-yil martida Qo‘qon uyezdingining Bachqir qishlog‘ida o‘tkazildi. Unda Katta Ergash butun Farg‘ona vodiysi qurolli harakatning rahbari etib saylandi. Madaminbek va Shermuhammadbek esa uning o‘rinbosarlari etib saylandi. Harakat ko‘lami o‘sib kengayib, borishi, uning safiga yangi ijtimoiy tabaqa vakillarining kelib qo‘shilishi, tabiiy sur‘atda, uning oldiga o‘lkan mas‘ul vazifalarni qo‘yib yangi muammolarni keltirib chiqardi. Ularni hal etish esa kurash rahnomalaridan katta matonat, kuchli iroda, yuksak harbiy mahorat, tashkilotchilik qobiliyati va uzoqni ko‘ra bilish salohiyatini nomoyon qilishni taqozo etar edi. Farg‘ona qo‘rboshlari ichida Madaminbek Ahmadbek o‘g‘ligina mana shunday noyob fazilatlar sohibi ekanligi bilan ajralib turar edi. Navqiron yoshda yurt kezgan, yuksak harbiy sarkardalik iste‘dodiga ega Madaminbek (1892-1920) tez orada vodiy kurashchilari sardoriga aylandi. Sovetlarning rasmiy hujjatlarida ta’kidlanishicha o‘z oldiga sovet hokimiyatini ag‘darish va Farg‘ona muxtoriyatini tiklash vazifasini qo‘ygan Madaminbek tadbirkor siyosatchi va uddaburon tashkilotchi fazilatlariga ega edi».

Sovet Turkistoni va Rossiya ma’murlari 1918-1919-yilning o‘rtalariga qadar qurolli qarshilik harakati namoyondalarni «qaroqchilar to‘dasi», «banditlar» kabi nomlar bilan atashgan. Ammo keyinchalik mustabid tuzumni ag‘darib tashlashni oldiga maqsad qilib qo‘ygan keng qamrovli harakat ekanligini angellanlaridan keyin sovet rasmiy hujjatlarida ushbu harakatga nisbatan «bosmachilar harakati» degan nom qo‘llanila boshlandi. Ushbu harakat nomoyandalari esa o‘zlarini ozodlik kurashchilari, o‘z vatanlarini bosqinchlardan ozod etuvchilar deb hisoblashgan. Masalan, Farg‘ona vodiysi qo‘rboshilarining yetakchilaridan biri Shermuhammadbek «Ushbu harakat Temur, Ulug‘bek, Navoiy vatanini Moskva hukmronligidan ozod etish uchun qilinayotgan harakatdir» degan edi. Qurolli harakat qatnashchilari «Turkiston – Turkiston xalqlarining vatani. Dushmanni mamlakatdan haydab chiqaramiz», «Turkiston – bizning vatanimiz», «Turkistonni dushmandan turkistonliklar ozod etishadi» kabi shiorlar ostida jang olib borishgan³⁷. Manbalarda qurolli harakatda qancha odam qatnashganligi haqida bir-biriga qarama-qarshi ma’lumotlar keltiriladi. Sovet tarixchilari ma’lumotlarida keltirilishicha, ularning soni 6 mingdan 60 ming kishigacha yetadi. Angliyalik

³⁶ Абдуллаев Р.М и др. Туркестан в начале XX вв. К истории истоков национальной независимости. Т.: Шарк, 2000, -С. 164-165

³⁷ Там же. С. 165-166.

taraxchi Glenda Frezerning ta'kidlashicha, 1922-yilning noyabrida Turkistondagi Qizil armiya jangchilarining soni 100 ming kishi bo'lib, ularga qarshi 60 ming yigit, jumladan Farg'ona vodiysida – 26 ming yigit jang olib borgan. 1918-1923-yillarda Farg'ona vodiysida qurolli harakat qo'atnashchilarining 10 ta quroltoyi o'tkazilgan. Ushbu anjumanlarda tashkiliy masalalar ya'ni rahbarlar saylangan, qo'rboshilar o'rtasida ta'sir doiralari bo'lib olingan. Hujum qilish rejalari tuzilgan³⁸.

1919-yilning kuziga kelib, Farg'ona vodiysida Madaminbek lashkarlarining jangovor harakatlari keng hududlarga yoyildi. Bu davrga kelib Monstrovning Rus krestyanlari (dehqonlari)dan tashkil topgan ancha ta'sirli harbiy qismlari Madaminbek kuchlari bilan birlashdi. Bu hol xalq kurashining nafaqat ijtimoiy tarkibiga, balki ayni chog'da milliy tarkibiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatar, uning maqsad va vazifalariga yangicha yondashishni taqozo etar edi. Gap shundaki bunga qadar sovetlarga qarshi harakat saflarida o'zbeklar, tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, uyg'urlar, qoraqalpoqlar singari yerli millat vakillari kurashib kelayotgan bo'lsalar, endilikda unga sovetlar siyosatidan keskin norozi bo'lgan rus dehqonlari ham qo'shilgan edilar. Harakat tarkibidagi bu o'zgarish 1919-yil oktabrda Pomirning Ergashtom ovulida Madaminbek tarafdorlari tashabbusi bilan tuzilgan «Farg'ona Muvaqqat Muxtoriyat hukumati» tuzilishida ham o'z ifodasini topgan edi. Hukumat tarkibi 24 kishida iborat bo'lib, uning 16 vakilini musulmonlar 8 vaklini ruslar tashkil etar edi. Farg'ona hukumati boshlig'i va musulmon qushinlari bosh qo'mondani etib Madaminbek saylangan edi. Biroq afsuslanarli jihati shundaki, mazkur Muvaqqat hukumat o'z faoliyatini amalda uddalay olmadi. Buning boisi birinchidan, uning mutasaddilarining boshi urush harakatlaridan chiqmadi. Ikkinchidan, u biror bir xorijiy davlat bilan diplomatik aloqa o'rnatish imkoniyatiga ega bo'la olmadi. Bu esa tabiiyki, uning o'z qobig'iga o'ralib, amaliy faoliyat yuritishiga imkon bermadi.

1919-yil oktabr oyi oxirlarida Andijonga yaqin Oyim qishlog'ida to'plangan vodiylar qo'rboshilarining qurultoyida vodiylar harakat qilayotgan 150 ga yaqin jangovar qismlarni o'z ta'sirida ushlab turgan 4 yirik lashkarboshi: Madaminbek, Ergash, Shermuhammadbek, Xolxo'ja eshon qo'minlarini birlashtirishga kelishildi. Qurultoyda Islom qo'shinlarining bosh qumondoni – «Amir al-muslimin» etib Madaminbek saylandi. Biroq bu kelishuv, ahdlashuv ham mustahkam bo'lib chiqmadi. Ular o'rtasidagi sansolarlik, o'zaro ichki ziddiyatlar o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Masalan Xolxo'ja eshon tez orada o'z kuchlarini ajratib, mustaqil faoliyat ko'rsata boshladi. Vodiylardagi jangovar harakatlarning keyingi borishi tashabbusning ko'proq tajovuzkor sovet qo'shinlarining qo'liga o'tishiga xalq ozodlik kurashishning pasayib, so'nib borishiga olib keldi. Buning sababi birinchidan, sovet hukumati qurolli harakatga juda katta miqdordagi harbiy kuch jalb etgan bo'lsa, ikkinchidan, sovet hukumati joylarda milliy ozodlik uchun kurash olib borayotgan vatanparvarlarga qarshi targ'ibot-tashviqotni avj oldirish,

³⁸ Там же. С. 169-170

ularni badnom qilishga urinishlari (Masalan, qizil askarlar «bosmachilar» kiyimida xalqni talagan hollari bo'lgan) yaxshi natija bergan. Bundan tashqari, sovet hukumati milliy-diniy qadriyatlarni qisman qayta tiklashgan. (Masalan 1919-yilda yopilgan qozi sudlari yana tiklangan). Yuqorida ta'kidlaganimizdek qo'rboshilar o'rtasidagi ziddiyatlar ham qizil askarlar uchun qo'l kelgan. 1920-yil yanvaridan qizil armiya qismlari Ergash qo'rboshi kuchlariga zarba berib, uning tayanch markazi – Bachqirni egalladi. (Bu erda Katta Ergash yoki Mulla Ergash janglarning birida halok bo'lgan). Xuddi shu vaqtda Sovet qo'shinlari Monstrovning dehqonlar armiyasini tor-mor etib, Gulcha qal'asini egalladi. Monstrovning o'zi asir olindi. Shuningdek, fevral oyida G'arbuva-Qoratepa – Shahrison yo'nalishida qizil armiya qo'shinlari Shermuhammadbek lashkarlariga kuchli zarba berilgan. Buning natijasida Shermuhammadbek yengilib, Oloy vodiysi tomon chekindi. Ayni paytda Madaminbek askarlari ham Norin va Qoradaryoning qo'yilish joyida mag'lub bo'ladi.

Sovet qo'shinlari qumondonlari vodiysiga harakatni siyosiy kelishuv yo'li bilan to'xtatish choralari ham ko'rdilar. Ular qo'rboshilarga vakil yuborib, sulh tuzishni taklif etdilar. Og'ir murakkab voqealar sharoitida ba'zi qo'rboshilarning sovetlar tomoni bilan kelishuv yo'lini tutishi tushunarlidir. Chunonchi, Madaminbek 1920-yil martida Sovet qumondonligi bilan muzakora olib boradi va sulh imzolab o'z harakatlarini to'xtatadi. Bu sulh shartlariga asosan Madaminbek va uning 1200 nafardan ziyod askar yigitlarining daxlsizligi, o'z qurol-yarog'lariga ega bo'lishi, kerak bo'lganda ularning vodiya tinchlik, barqarorlik o'rnatishda faol ishtirok etishi ta'kidlangan edi. Garchand sulhning bir qator shartlari keyinroq Sovet qumondonligining makkorona xatti-harakati bilan o'zgartirilgan bo'lsada biroq Madaminbek bu kelishuvga, uning mahalliy xalq uchun foydali, manfaatli bo'lishiga ishongan edi. Shu bois, u o'zining boshqa sofdoshlariga ham shunday yo'l tutishni maslahat beradi. Biroq Shermuhammadbek va Xolxo'ja o'z huzurlariga muzokara uchun kelgan yurtning mard o'g'lonini sotqinlik va xoyilikda ayblab 1920-yilning 14-mayida o'ldirishdi. Katta Ergash (Mulla Ergash)ning vafoti haqida sovet va chet el manbalarida bir-biriga qarama-qarshi turli ma'lumotlar keltiriladi. Masalan, Sh.A.Shamagdiyev Ergash qo'rboshi 1920-yil iyun oyida taslim bo'ldi deyilsa, A.I.Zvelev uning 1919-yil 3-iyulda taslim bo'lib, 1920-yilning yanvar oyida otib tashlandi, degan ma'lumot mavjud. Boymirza Hayit esa Ergash qurboshi 1921-yilda qo'lga olinib, otib tashlanganligini bildiradi. Keyingi izlanishlar natijasida Ergash qo'rboshi 1921-yilning 16-dekabrida Xonobodda qizil askarlar bilan jangda o'ldirilganligi ma'lum bo'ldi. 1923-yilning boshlarida Sher-muhammadbek ukasi Normuhammadbek bilan birgalikda Afg'onistonga o'tib ketishga majbur bo'ldi. 1923-yilning yanvar oyidagi Shahrison shahridagi Farg'ona vodiysidagi qo'rboshilarining qurultoyida Sner-muhammadbek Afg'onistonga ketganligi uchun Islom Pahlavon bosh qumondon etib saylandi. O'sha vaqtda Islom Pahlavonga 20 ga yaqin qo'rboshi buysangan. 1923-yilning oxirlarida qizil askarlar bilan bo'lgan janglarning birida

Islom Pahlavon yengilib, asir olingan va o'ldirilgan³⁹. 1924-yilga kelib Farg'ona vodiysidagi kichik qo'rboshi guruhlar faoliyat yuritgan bo'lsada, qurolli harakat rasman tugatilgan edi.

Turkistonni sovet hokimiyati ma'muriyatida yuqori lavozimlarida ishlagan tub yerli millat vakillari Turkistonndagi qurolli harakat haqida doimo o'zlarini xolis fikrlarini bildirishgan (Bolshevistik aqidalarga o'ta sodiq vatanparvarlik tuyg'ularidan yiroq kishilardan tashqari) TASSR (Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi) XKS "Xalq Komissarlari soveti" raisi Qayg'usiz Otaboev Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 4-plenumida so'zlagan nutqida bu harakatni qo'yidagicha xalq qo'zg'olini sifatida baholagan edi: «Biz 4 yil davomida bu harakatga hatto to'g'ri baho berishni ham bilmadik, u xalq qo'zg'uloni bo'lgani holda bosmachilik deb, atadik». Umuman tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'lishicha Farg'ona vodiysida 1918-1924-yillardan qurolli harakat davrida 500 mingga yaqin milliy mustaqillik uchun kurash olib borgan matonatli kishilar hamda ularni qo'llab-quvvatlagan tinch aholi vakillari nobud bo'lishdi. Samarqand viloyatidagi qurolli harakatga Ochilbek, Bahrombek, Hamroqulbek, Qahhorbek, Sariqulboy kabi qo'rboshi guruhlar yetakchilik qilishgan va ular xalq tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Samarqand viloyatidagi qurolli harakat ham rasman 1924-yilda tugatilgan⁴⁰

Buxoroda (1920-1924-yillarda Buxoro Sovet Respublikasi) ham sovet hokimiyatining zo'ravonlik siyosati mahalliy xalqlarning qarshiligiga uchradi. Buxorodagi qurolli harakatga Ibrohimbek, Davlatmandbek, Mulla Abdulhaqqor, Doniyorbek, Fuzayl Maxsum singari vatanparvar insonlar rahnomolik qilganlar. G'arbiy Buxoroda Mulla Abdulqahhor (1884-1924-y) yetakchiligidagi harakat safida 20 ga yaqin qurboshi dastalari (O'rmon Polvon, Metan Polvon, Naim Polvon, Shukur Xo'ja va boshqalar) birlashgan edi.

Bu xalq lashkarlari G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Romitan tumanlari va Nurota tog'larida faol harakat qilganlar, Mulla Abdulqahhor kuchlari xalqning keng ijtimoiy tabaqalaridan doimiy madad olib to 1924-yil kuzigacha ona-yurt dushmanlariga qarshi to'xtovsiz kurash olib borgan. Uning o'zi ham Qizilqumda qizillar bilan bo'lgan tinimsiz janglarda halok bo'ldi. Sharqiy Buxoroda Sovetlar hokimiyati zo'ravonligiga qarshi yo'nalgan harakat 1930-yillar o'rtalarigacha davom etdi. Sharqiy Buxoro hududlari bo'ylab keng yoyilgan harakatlarning taniqli (u 1922-yil yozida Boljuvonda haloq bo'lgan) yo'l boshchisi Ibrohimbek (1889-1932), Anvar Pasha bo'lib, ularning umumiy qo'l ostida o'n minglab xalq qasoskorlari jamlangan edi. Fuzayli Maxsum, Davlatmandbek, Qulmuhammadbek, Fazliddin kabi o'nlab qo'rboshilar o'z jangovar yigitlari bilan jon fido etib kurashdilar. Biroq o'lkada mustahkam o'rnatilgan sovetlar hokimiyati va uning yaxshi qo'rollangan muntazam qizil qo'shinlari, oxir-oqibatda, bu harakati bostirishga muvaffaq bo'ldi. Xususan, 1931-yil iyunda Ibrohimbek lashkari

³⁹ Там же. С. 174.-180.

⁴⁰ Toyirov A. O'zbekistonda sovet hokimiyatining qatag'on siyosati (1918-1938 yy) Tarix fan.nom... diss.avtoref. Toshkent, O'zMU, 2007. -10-11 b.

magʻlubiyatga uchrab, uning oʻzi qoʻlga olinishi bilan Sharqiy Buxoro yerlaridagi qoʻrolli qarshilik koʻrsatish deyarli barham topdi.

Sovet tadbirlari va boshqaruvidan norozi boʻlgan, diniy va maʼnaviy qadriyatlari tahqirlangan Xorazm (1920-1924 yillarda Xorazm Sovet Respublikasi) aholisining turli ijtimoiy qatlamlari ham bosh koʻtardilar. Bu Sovet hokimiyati ashaddiy dushmani Junaidxonga (Qurbon Mamed sardor) qoʻl keldi. Tez orada u Xorazmdagi qurolli harakatning yoʻlbochisiga aylandi. Uning jangovar otryadlari safi yangi kurashchilar hisobiga kengayib bordi. Masalan, 1922-yil aprel oyida Junaidxon qoʻshinlari Porsu va uning atrofini qizil askarlardan ozod qilishdi. 1924-yil yanvar-fevralida Xiva, Pitnak va Hazarasp atroflari xalq isyonkorlarining shiddatli kurash uchoqlariga aylandi. Bunda Junaidxon va Ogʻajon eshonlarning koʻp ming kishilik kuchlari hukmron Sovet istibdodiga qarshi mardonavar kurashlar olib borganlar. 1920-yillarining ikkinchi yarmidan 1930-yillarning boshlarigacha Xorazm vohasida Ahmadbek, Durdi, Murodxon, Oʻroz Geldi, Xudoyberdi, Rajab qora singari 20 ga yaqin qoʻrboshi guruhlar jangovar harakatlar olib bordilar, mislsiz qurbonlar berdilar. Biroq kuchlar nisbati teng boʻlmaganligi sababli tish-tirnogʻigacha qurollangan Qizil Armiya ularni magʻlubiyatga uchratdi. Xorazmda Sovet hokimiyati oʻz hukmronligini oʻrnatishga muvaffaq boʻldi.

BXSR va XXSR dagi qurolli qarshilik harakati Turkiston ASSR dagi qurolli qarshilik harakatidan oʻzining murakkabligi bilan ajralib turadi. Bu yerda kurash ikki yoʻnalishida yaʼni: ushbu davlatlarni bosib olgan qizil armiyaga hamda bolsheviklar yordami bilan hokimiyatni egallagan jadidlarga qaratilgan edi. Ammo shuni ham taʼkidlash zarurki mahalliy jadidlar orasida Buxoro va Xivadagi bolsheviklarga qarshi olib borilgan qurolli qarshilik harakatni qoʻllab-quvvatlovchilar ham bor edi. (Masalan, Oʻsmon Xoʻja, Abdulhamid Oripov, Jumaniyoz Sultonmurodov va boshqalar.)⁴¹.

Butun Turkiston oʻlkasidagi qurolli harakat kuchlarini yagona qumondonlik ostida birlashtirishga harakatlar boʻlgan. Ushbu taklif 1922- yilning fevral oyida Anvar Pasha tomonidan oʻrtaga tashlangan edi. 1922- yilning 15-aprelida Boysun yaqinidagi Kofirun qishlogʻida Turkiston qurboshlarining qurultoyi boʻlib oʻtdi. Uni Anvar Pasha boshqardi. Qurultoyida ishtirok etish uchun taniqli Buxoro qoʻrboshlaridan – Ibrahimbek, Davlatmanbek, Jabborbek, Xurrambek; Shermuhammadbek tomonidan Fargʻona vodiysidan yuborilgan – Botir va Ruzi turk zobitlaridan – Doniyolbek Afandi. Usmon Afandi, Xasan Afandi, Salim Pasha, Ali Rizo va boshqalar qatnashdi. Bundan tashqari qurultoyda Said Olimxonning vakillari – Joʻra Xoji va Xoʻja Latif Devonbegi ham ishtirok etishdi. Qurultoyda Turkistondagi qurolli harakatning bosh qoʻmondoni va siyosiy rahbari etib Anvar Pasha saylandi⁴².

⁴¹ Ражабов К.К. Вооруженное движение в Туркестанском крае против советского режима (1918-1924). Автореф.жисс...докт.ист.наук. -Ташкент.: Институт история АНУз, 2005. С. 38..

⁴² Там же. С. 45-46

Mustaqillik yillarida ushbu harakatning nafaqat eng yangi manbalar asosida har qanday mafkuraviy bosimlardan xoli, xolisona yoritish, balki ushbu harakatning tarixshunosligi, uning faqat ushbu masalaga kommunistik mafkura nuqtayi nazaridan yondoshilgan sovet tarixshunosligi talqini bilan emas balki xorijiy, chet ellarga chiqib ketgan milliy ziyolilar talqini asosida ham o'rganish, ularni tahlil etish asosida masalaga haqqoniy yondashish imkoniyati yuzaga keldi hamda bu borada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi⁴³.

Turkistondagi qurolli qarshilik harakati, qo'rboshlari haqida xorijiy tadqiqotchilardan Ali Bodomchi muhim ma'lumotlar beradi⁴⁴.

Ammo ota-bobolarimiz mustabid tuzumga qarshi olib borilgan qonli janglarda mag'lubiyatga uchradi. Bunga qo'yidagilar sabab bo'ldi deyishimiz mumkin: Qo'rboshilar siyosiy kurashda toblangan ilg'or jadid nomoyandalarini harakatga faol jalb qila olmadilar; harakatning bir markazdan turib boshqarilmaganligi, qo'rboshilar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar ham bu kurashning muvaffaqiyatli borishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi; qo'rboshlar qurolli harakatni muvaffaqiyatli olib borish uchun yetarli moddiy ta'minot bazasiga, qurol-aslaha zaxirasiga ega emas edi; tashqi dunyo bilan aloqa qilish, chetdan yordam, harbiy madad olish imkoni bo'lmadi; o'lka zo'ravoni bo'lib olgan sovetlar esa o'z qo'shinini yetrali darajada zamonaviy qurol-yarog'lar va harbiy kuchlar bilan ta'minlay olgan edi. 1919-yilda ularning tasarrufida 115376 nafar jangchi, shuningdek, 11112 ta pulemyot, yuzlab to'plar, bronopoezdlar, o'nlab samolyotlar va boshqa zamonaviy qurollar mavjud edi. Harbiy kuchlar nisbatidagi bunday ustunlik kurash taqdirini qizil askarlar foydasiga hal etilishiga olib keldi; sovet hokimiyati qurolli harakatni bostirish jarayonida behisob josuslar xizmati, ommaviy qirg'in, qurolli harakat qatnashchilarining oilalarini, qarindoshlarini garovga olish usullaridan, foydalandi; ayyorlikda pixini yorgan sovet mutasaddilari har bir vaziyatdan ustamonlik bilan foydalandilar. Ular kerak bo'lsa o'zlari yo'l qo'ygan qo'pol xatolarni tuzatish uchun dehqonlarga yer berish, ularni avf etish, soliqlar miqdorini bir qadar kamaytirish, Madaminbek kabi taniqli qo'rboshilar bilan muzokaralar olib borish, o'zaro yon berish orqali mahalliy aholi noroziligini yumshatishga muvaffaq bo'ldilar.

Ushbu xalq harakati millionlab yurtdoshlarimiz hayoti va qismatida uchmas fojia bo'lib qoldi. Ba'zi aniqlangan rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, u milliondan ziyod mahalliy millat kishilarining aziz umrlariga zomin bo'ldi. Minglab oilalarni o'z ona-zaminini tark etib, begona yurtlarga bosh olib ketishlariga sabab bo'ldi. Biroq bu xalq harakati bejiz ketmadi. U yurtdoshlarimizga katta ibratli saboqlar berdi, ularning kurash tajribasining boyishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Zero, ona-O'zbekistonimizning istiqlolga erishishida, bugungi baxtiyor avlod kishilarining mustaqillik oliy ne'matidan bahra olishida, jasur va matonatli ota-

⁴³ Qarang: //Ziyayeva D. Turkiston milliy ozodlik harakati (mustabid tuzumga qarshi 1916 yil va 1918-1924 yillardagi xalq kurashlari tarixshunosligi). -T.: G'afur G'ulom nashriyot, 2000 .

⁴⁴ Qarang: //Ali Badamchi. 1917-1934 yy. Turkiston Milliy isliklar harakati va Enver Pasha korbasilar. -Istanbul, 1975..

bobolarimizning xizmatlari cheksizdir. Ularning yorqin, porloq xotirasi hozirgi minnatdor avlod kishilarining yodida, shuurida hamisha saqlanadi, iftixor tuygʻusi bilan eslanadi.

4. Xiva xonligi va Buxoro amirligining tugatilishi. Yosh xivaliklar va yosh buxoroliklar tashkilotlari

Maʼlumki, Rossiyada 1917-yilda yuz bergan fevralʼ inqilobiy oʻzgarish chorizmning yarim mustamlaka oʻlkalari hisoblangan Xiva xonligi va Buxoro amirligida ham aks-sado bermay qolmadi. Avvalo bu davlatlarning Rossiya taʼsiridan xolos boʻlishiga intilish koʻzga tashlansa, ikkinchi tomondan mahalliy xalqning demokratik erkinliklar va huquqlarga ega boʻlish sari harakatlari faollashdi. Ushbu davlatlarda Turkiyadagi «Yosh turklar» partiyasidan oʻrnak olib mahalliy jadidlar «Yosh buxoroliklar» va «Yosh xivaliklar» partiyalarini tuzishdi. Jadidlar ushbu davlatlar ijtimoiy-siyosiy hayotida demokratik gʻoyalarning keng yoyilishida muhim rol oʻynadilar⁴⁵.

Xorazmda «Yosh xivaliklar» partiyasi xonlikdagi siyosiy vaziyatni oʻzgartishi va bir qator demokratik oʻzgarishlarni yuzaga chiqarishga otlandilar. «Yosh xivaliklar» yetakchilari ishlab chiqqan manifestda konstitutsion monarxiya tuzish, xonning vakolatlarini cheklash, iqtisodiyot, taʼlim va madaniy hayot jabhalarini isloh qilish talablari ilgari surilgan edi. Xivada ijtimoiy-siyosat hayot keskin tus olayotganidan choʻchigan Asfandiyorxon 1917-yil 5-aprel kuni manifestni imzolashga majbur boʻlgan edi. Manifest talablariga koʻra xonlikda konstitutsion monarxiya tuzumi oʻrnatildi. Ayni paytda tarkibi 30-50 kishidan iborat ruhoniylar va savdo sanoat ahli vakillaridan saylangan Majlis va Nozirlar Kengashi tuziladi. Ular xalq vakilligi boshqaruvi organlari sifatida xon hokimiyati vakolatlarini maʼlum darajada chekladi. Manifestga muvofiq, xivaliklarning taniqli rahbari Boboovun Salimov Majlis raisi, Husaynbek Matmurodov esa Nozirlar Kengash raisi etib saylandilar. Xon xazinasi va uni tasarruf qilish ustidan nazorat oʻrnatildi. Xon temir yoʻllar qurish, pochta-telegraf oʻrnatish, yangi jadid maktablari ochish toʻgʻrisida vaʼdalar berdi⁴⁶. Ammo Asfandiyorxonning yon berishi majburlikdan edi. Haqiqatdan u hokimiyatni «Yosh xivaliklar» partiyasi bilan boʻlishmoqchi emas edi. 1917-yil iyun oyining oʻrtalarida u Rossiya Muvaqqat hukumatining Xivadagi vakili general Mirbadalov yordami bilan Husaynbek Matmurodov boshchiligidagi «Yosh xivaliklar» partiyasi rahbarlarini hibsga olishdi. Majlis saqlanib qolgan boʻlsada, uning ijtimoiy tarkibi oʻzgartirildi. Majlis tarkibi oliy tabaqadagi ruhoniylar, amaldorlar va mulkdorlar kiritildi. 1917-yilning 25-iyulda Muvaqqat hukumat Xivada Muvaqqat hukumatining Harbiy Komissari lavozimini joriy etdi. Ushbu lavozimga polkovnik I.M.Zaytsev tayinlandi. Bir vaqtning oʻzida Muvaqqat hukumat «Yosh xivaliklar»ni jazolash uchun xon qoʻshinlarini qurol-

⁴⁵ Абдуллаев Р.М и др. Туркестан в начале XX вв. К истории истоков национальной независимости. Т.: Шарк, 2000, С. 285

⁴⁶ Там же.

yarog‘, o‘q-dori bilan ta‘minlashga jiddiy e‘tibor berdi. Shunday qilib, Rossiya Muvaqqat hukumati demokratik erkinliklar haqida ko‘p gapirsada aslida Xiva xonligidagi mavjud tizimni saqlab qolishga urindi. 1917-yilning kuzida Rossiyada ro‘y bergan oktabr davlat to‘ntarishi, Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o‘rnatilish davomida Xivada ham demokratik harakat yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Demokratik kuchlar aholining kambag‘al tabaqali faol harakatga kela boshladilar. Qo‘ng‘irot, Qo‘hna Urganch, Xo‘jayli, Paxta, Persu bekliliklarida mahalliy aholi qat‘iy harakatlar qildi.

Xiva xoni Asyofandiyorxon hokimiyatining kuchsizligini bilib, 1918- yilning 22-yanvarida Junaidxon bilan muzokara olib borib, u bilan birgalikda xonlikni boshqarish hamda birgalikda bolsheviklarga qarshi kurash olib borishga kelishib oldi. Asfandiyorxon Junaidxonni butun qushinlarining bosh qumondoni (sardori karim) etib tayinladi. Ammo Asfandiyorxon taxtda uzoq o‘tirmadi 1918-yilning oktabr oyida u Junaidxon tomonidan o‘ldirilib, taxtga uning amakisi Said Abdulla o‘tirdi. Amalda esa butun hokimiyat Junaidxon qo‘lida to‘plandi. «Yosh xivaliklar» partiyasi yetakchisi Polvon Niyoz Yusupov Turkistonga ketishga majbur bo‘ldi. Junaidxon bolsheviklar Turkistonni nafaqat o‘zining yakka hukmronligiga, balki Xiva xonligi uchun katta xavf deb hisoblab, xonlikni mudofaa qobiliyatiga jiddiy e‘tibor berib tez orada askarlar sonini 10 ming kishiga yetkazdi. Junaidxon bolsheviklar tuzumiga qarshi bo‘lgan «Kaspiyorti Muvaqqat hukumati», «Farg‘ona vodiysidagi qurolli harakat rahbarlari, Kolchak to‘dasi hamda 1918-yilda Junaidxonga 3 mingta vintovka o‘q-dori taqdim etgan Angliya vakillari bilan yaqin aloqa bog‘ladi. 1918-yil sentabr oyining o‘rtalaridan 1919-yilning mart oyigacha bo‘lgan davrda Junaidxon Turkiston Respublikasining Amudaryo bo‘limi hududidagi sovet qo‘shinlariga hujum uyushtirib, Qipchoq, Chimboy shaharlarini qo‘lga kiritdi, ammo, Petroaleksandrovs (To‘rtko‘l) shahrini qo‘lga kiritish olmadi. 1919-yilning 9-aprelida Taxta shahrida Junaidxon bilan Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining vakili A.N.Xristoforov o‘rtasida tinchlik bitimi imzolandi. Kelishuvga binoan tomonlar harbiy harakatlarni to‘xtatishlari zarur edi; Sovet hokimiyati Xiva xalqini mustaqilligini tan oldi va hokazo. Ammo keyingi voqealar shuni ko‘rsatdi, ikki tomon ham ushbu tinchlik shartnomasini bajarmadi. Xiva xalqlarini mustahkam birligini kuchsizlantirish uchun Turkiston bolsheviklari o‘zbeklar va turkmanlar o‘rtasiga nifoq sola boshladi. Ammo bu kutilgan natija bermadi. 1919-yilning 10-iyulida Xivada o‘zbek ulamolari, harbiylari, savdogarlarini maxfiy yig‘ilishi bo‘lib, unda agar sovet qo‘shinlari Xivaga hujum qilishsa yovmud (turkman qabilasi)lar birgalikda qarshilik ko‘rsatishga kelishishgan⁴⁷. Sovet qo‘shinlari 1919-yilning dekabridan ommaviy hujum boshladi. Qo‘shin ikki qismga bo‘linib, shimoliy otryadga N.A.Shaydakov, janubiy otryadga N.M.Sherbakov boshchilik qildi. Bundan tashqari ularga Junaidxonga qarshi bo‘lgan turkman xalqlaridan tuzilgan otryadlar yordam berishdi. Bu kuchlar Junaidxonga ketma-ket zarbalar berib, birin-ketin

⁴⁷ Там же. -С. 297-300

xonlik hududlarini qo'lga kiritib bordilar. 1920-yil 2-fevralda Xiva egallandi. Junaidxon qolgan-qutgan qo'shini bilan Qoraqum sahrosiga chekinadi Said Abdulla taxtdan voz kechadi. Hokimiyat 5 kishidan iborat inqilobiy qo'mita qo'lga o'tdi. Ulardan 2 ta vakil «Yosh xivaliklar»dan, 2 ta vakil turkman qabilasi vakillaridan hamda 1 ta vakil musulmon diniy ulamolaridan edi. Inqilobiy qo'mita raisi etib «Yosh xivaliklar» vakili J.Sultanmurodov saylandi.

Inqilobiy qo'mita Turkiston bolsheviklari tavsiyasi bilan Rossiyadagi sovet hukumatiga Murojaat qildi: Unda «Xivada ishchi, dehqonlar diktaturasi o'rnatishda Rossiya ishchi dehqonlaridan madad olinishiga umid qilinayotganligi bildirilgan edi». Manbalarda qizil askarlarni Xiva xonligiga hujumi davrida ochiqchasiga mulkni talon-taroj qilish, xotin-qizlarni o'g'irlab, ularni asira sifatida saqlash, hatto Petroaleksandrovs (To'rtko'l) va Xiva bozor maydonlarida ularni kim oshdi savdosida sotish, qizil askarlar tomonidan birinchi uchragan kishini otish «o'yini» amalga oshirilganligi qayd etiladi⁴⁸. 1920-yilning 27-30-aprel kunlari Xivada bo'lib o'tgan xalq vakillari Butunxorazm qurultoyi xonlik tugaganligi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligini e'lon qildi. Qurultoy XXSRning muvaqqat Konstitutsiyasini qabul qildi. Qurultoy shuningdek, 15 kishidan iborat hukumat – Xalq Nozirlari Kengashini sayladi. «Yosh xivaliklar» partiyasi rahbarlaridan Polvonniyoz Yusupov uning birinchi raisi bo'ldi. 1920-yil iyunda (ba'zi manbalarda, 1919-yilning boshlarida)⁴⁹ Rossiya bolshevik rahbarlari Xorazm Kommunistik partiyasini tashkil etib, uning hukmronligi o'rnatilib, xalqning urf-odatlarini, islom dinini tahqirlash tadbirlarini amalga oshira bordi.

1920-yilning 23-iyunida Xiva xoni tarafdori va obro'li ruhoniylar rahbarligida Xiva shahridagi bir madrasada minglab xivaliklar, islom dini va milliy urf-odatlarini toptalishiga qarshi hamda qizil askarlarni ushbu zaminni tashlab chiqib ketilishini talab qilib qo'zg'olon ko'tardilar. Ammo qo'zg'olon sovet hokimiyati tomonidan bostirildi⁵⁰. Xorazm Xalq Sovet Respublikasini o'z ta'sir doirasiga olish maqsadida Sovet Rossiyasi 1920-yil 13-sentabrda XXSR bilan ittifoq shartnomasini tuzdi. Bu shartnoma bilan birga ikkala respublika o'rtasida imzolangan harbiy-siyosiy va iqtisodiy kelishuvlar assoida XXSRga sovet Rossiyasi tomonidan harbiy, iqtisodiy va madaniy yordam ko'rsatish ko'zda tutilgan edi. Biroq «katta og'a»ning bunday yordami zahirida XXXSR ichki ishlariga aralashish, uning siyosatini o'z manfaatiga buysundirish yotadi. Faqatgina 1921-yil davomida XXSRda uch marta [mart, sentabr, noyabrda] hukumat o'zgarishi yasilib, uning Moskvaga ma'qul kelmagan tarkibi o'zgartirildi. O'z xalqining milliy manfaatini ko'zlab siyosat yuritgan P.Yusupov, M.Ibniyaminov, O.Muhammadrahimov bosh bo'lgan hukumat tarkibi bekor qilindi, so'ngra rahbarlari asosiz qoralandi, sungra turli jazolarga giriftor etildi.

⁴⁸Алимова Д.А., Голованов А.А. Узбекистан в 1917-1990 годы: противоборство идей и идеологий. -Ташкент, 2002. -С. 37.

⁴⁹ Там же.

⁵⁰Ражабов К.К. Вооруженное движение в Туркестанском крае против советского режима (1918-1924). Автореф.дисс...докт.ист.наук. Ташкент.: Институт истории АНУз, 2005. С. 41.

1923-yil oktabrida bo‘lib o‘tgan IV Butun Xorazm Sovetlari Qurultoyi Xorazm Xalq Sovet Respublikasini Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasining yangi konstitutsiyasini qabul qildi. Unda Xorazmda Sovetlar rahbarligida amalga oshirilgan jiddiy o‘zgarishlar tufayli bu respublika endilikda o‘z taraqqiyotining yangi sotsialistik bosqichiga ko‘tarilganligi alohida ta’kidlandi. Konstitutsiya yerga bo‘lgan xususiy mulkchilikni bekor qildi, barcha yerlar umumxalq mulki deb, e’lon qilindi. Vaqf mulklari maorif nozirligi ixtiyoriga olindi Xorazm xalqining xohish irodasiga zid tarzda amalga oshirilgan bu xil tadbirlar va eng asosiysi respublika boshqaruvi tobora sovetlar hukmronligi qo‘l ostiga o‘tishi, pirovardida voqea aholisining umumiy noroziligini kuchayib borishiga sabab bo‘ldi.

1917-yil fevral burjua demokratik inqilobi natijasida Rossiyada mutloq monarxiyani ag‘darilishi va Rossiyaning demokratik respublika deb e’lon qilinishi Buxoroda “Yosh buxoroliklar” qalbida umid uyg‘otdi. Ular Rossiya Muvaqqat hukumati yordami bilan amirni islohotlar o‘tkazishga majbur qilmoqchi bo‘ldilar. Shu maqsadda “Yosh buxoroliklar” partiyasi vakillari Usmon Xo‘jaev, Abduvohid Burhonov va boshqalar Muvaqqat huquumatning Buxorodagi vakili A.YA.Miller bilan uchrashdilar va unga o‘zlarining islohat dasturlarini bildirdilar. Bular qo‘yidagilardan iborat edi: amir markaziy ma’muriyatida xalq vakilligini joriy etish, xuddi shunday xalq vakilligini mahalliy ma’muriyatda ham joriy etish, shariat qonunlari talab qilganidan ortiqcha soliqlarni bekor qilish, so‘z va matbuot erkinligi, amirning bir qancha zolim amaldorlarini ishdan olish va hokazo. Rossiya rezidenti A.YA.Miller ushbu takliflarni “juda ko‘p va o‘topik [xayoliy, amalga oshmaydigan]” deb, hisoblasada Buxoro amirligida islohotlar o‘tkazish davr talabi ekanligini tushunar edi. Amir ham mamlakatda qisman islohotlar o‘tkazish zarur ekanligini bilar, ammo hatto arzimagan islohotlarni ham musulmon ruhoniylari qarshiligiga uchrashidan xavfsirar edi. Nihoyat 1917-yilning 7-aprelida amir saroyida jamiyatning barcha ijtimoiy qatlamlari ishtirokida amir Said Olimxon islohot dasturini e’lon qildi. Dasturda amir: “aqli kishilardan majlis tashkil etish”, soliq yig‘ishni tartibga solish, maorif va sog‘liqni saqlash tizimi haqida qayg‘urish, sanoat va savdoni rivojlantirishga e’tibor qaratish va boshqalar. Amir islohot dasturini “Yosh buxoroliklar” quvonch bilan kutib oldilar. Hatto “Yosh buxoroliklar” partiyasi yo‘lboshchilaridan biri Mirza Muhitdin Mansurov islohotlar dasturini “Buxoro uchun yangi davrning boshlanish” deb, baholadi. 1917-yilning 8-aprelida eski Buxoroda “Yosh buxoroliklar” partiyasi tashabbusi bilan namoyish o‘tkazildi. Unga Fayzulla Xo‘jaev, Abdurauf Fitrat va boshqalar rahbarlik qilishdi. Namoyishchilar “Yashasin ozodlik, Yashasin amir va shariat” degan shiorlarni ko‘tarib olgan edi. Ammo, namoyishchilarni asosan Buxoro madrasalari talabalaridan iborat Konservativ [yangilikka qarshi] kuchlar kutib olishdi. Tuqnashuv natijasida ko‘plab “Yosh buxoroliklar” jabrlanishdi. Konservativ kuchlar talabi bilan amir o‘z islohot dasturini bekor qildi. “Yosh

buxoroliklar” partiyasi a’zolari Toshkent, Samarqand, Yangi Buxoro [Kogon] kabi shaharlarga ketishga majbur bo’lishdi⁵¹.

Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o’rnatilishi Buxoro amirligi uchun ham jiddiy siyosiy vaziyatni vujudFaga keltirdi. Negaki sotsialistik inqilob g’oyasini boshqalarga yoyishga intilgan bolsheviklar chegaradosh Buxoroni o’z mo’ljaliga olgan edilar. Xususan, 1918-yil martida “Kolesov voqeasi” nomi bilan tarixga kirgan qonli voqea bunga aniq misol bo’la oladi. Turkiston sovet respublikasi hukumati raisi F.I.Kolesov Buxoroga ochiq tazyiq o’tkazib. 1918-yil 2-martda Kogon temir yo’li yoqalab qizil qo’shinlar intervensiyasini uyushtirdi. Bunga javoban Buxoro amiri xalqni g’azovatga chorlab, o’z qo’shinlari va g’azabga kelgan aholini urushga safarbar etdi. Oqibatda Kolesov sharmandalarcha mag’lubiyatga uchradi.

Ammo, bolsheviklarning yangidan keng ko’lamli hujum uyushtirishga tayyorgarlik ko’rayotganini bilgan Sayid Olimxon F.I.Kolesovga elchi yuborib tinchlik shartnomasi tuzishga rozi ekanligini bildirdi. 1918-yil 25- martda Buxoro amirligi bilan sovet Turkestoni o’rtasida “Qiziltepa bitimi” imzolandi. Unga ko’ra amir yollangan askarlarni tarqatib yuborishi, faqat 12 minglik muntazam qo’shinni saqlab qolishi; amirlikka yashiringan «oqgvardiyachi»larni topshirishi; vayron qilingan temiriyo’llar xarajatini to’lashi; Buxoroda sovet xizmatchilari xavfsizligini ta’minlashi va boshqa bir qator majburiyatlarni o’z zimmasiga oldi. Ammo, Buxoro amirligida islo-hotlar o’tkazish tushirib qoldirilgan edi. Aslida Fayzulla Xo’jaev bosh-chiligidagi «Yosh buxoroliklar» partiyasi F.I.Kolesovdan ana shu talabni Buxoro amiriga o’tkazishda yordam berishlarini so’ragan edi⁵².

Bitimdan keyin amir barcha demokratik kuchlarni ta’qib eta boshladi. Ayniqsa «Yosh buxoroliklar» ayovsiz qirg’in qilindi. F.Xo’jaevning guvohlik berishicha bu qirg’inda «Yosh buxoroliklar» va ularning tarafdorlaridan 1,5 ming kishi qurbon bo’lgan. Biroq shunga qaramay sovet mutasaddilari Buxoroda sun’iy inqilob tayyorlash, buning uchun Turkistondan panohtopgan ko’p sonli buxorolik muhojirlarni ishga solish ulardan ko’plab inqilobchi kuchlar yetishtirish va ularni tashkillashtirish harakatida bo’ldilar. 1918-yil sentabrida Toshkentda Buxoro muhojirlari tomonidan Buxoro Kommunistik partiyasi va uning Markaziy Qo’mitasi tuziladi (uning raisi A.Yoqubov, o’rinbosari M.Qo’lmuhammedov). 1920-yil yanvarida Toshkentda F.Xo’jaev boshchiligida «Yosh buxoroliklar» inqilobchilar partiyasining Turkiston Markaziy byurosi tashkil etiladi va Turkkomissiyasi, RSFSR hukumati tomonidan e’tirof qilinadi. «Yosh buxoroliklar» partiyasi ishlab chiqqan dasturda tez vaqt ichida despotik tuzumni tugatish, mamlakatda demokratik respublika tuzish va keng xalq ommasining tub manfaatlarini ko’zlab ko’plab ijtimoiy demokratik o’zgarishlarni amalga oshirish vazifalari bayon etilgan edi.

⁵¹ Абдуллаев Р.М и др. Туркестан в начале XX вв. К истории истоков национальной независимости. Т.: Шарк, 2000. - С. 285-288.

⁵² Там же. С. 294-295

«Yosh buxoroliklar» tashabbusi bilan 1920-yil iyundan Toshkentda chiqqan boshlagan «Uchqun» gazetasida ham ilgʻor demokratik gʻoyalar ilgari surildi. Ushbu gazeta Buxoro xalqini amirning hokimi mutloq tuzumini agʻdarib tashlash uchun faol kurashga daʼvat etilgan edi. Sovet hokimiyatining asl maqsadi Buxoro amirligini agʻdarish edi. M.V.Frunze boshliq Turkiston fronti qoʻmondonligi tomonidan 1920-iyun oyi oʻrtalaridayoq zamonaviy qurol aslahalar bilan qurollangan qizil askarlar Buxoro chegaralariga keltirib qoʻyilgan edi.

Bolsheviklar Buxoro amirligini «Sovet Rossiyasiga hujum qilishga tayyorgarlik koʻrayotgan barcha sovet hokimiyatiga qarshi kuchlarning Oʻrta Osiyodagi karvonsaroyi» deb hisoblashar edi. Turkiston bolsheviklari Buxoroga inqilobiy «eksport» qilishga Moskvadan ruxsat olgandan keyin, amirlikni agʻdarish uchun M.Frunze, V.Kuybishev, N.Husainov, F.Xoʻjaev va boshqalardan iborat harbiy-inqilobiy qoʻmita tashkil etildi. «Inqilob» 1920- yilning 28-avgustida Yangi Chorjuyda boshlanib, 29 avgust kuni eski Chorjoʻy ham ishgʻol etildi. Shahar inqilobiy qoʻmitasining raisi kommunist B.Sardorov «qoʻzgʻolon koʻtargan xalq» nomidan Rossiya qizil armiyasidan yordam soʻradi. Turkiston fronti qoʻmondoni M.Frunze tezda barcha harbiy qismlarga «Inqilobiy Buxoroga yordam berish» hamda «Sotsialistik Rossiyani barcha harbiy qudratini amirning mustabid tuzumiga» qarshi kurashga safarbar etish haqida buyruq berdi. Bolsheviklar 1920-yilning 1- sentabriga qadar Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Xatirchi, Kermion va boshqa shaharlarni qoʻlga kiritdi. 1920-yil 1-sentabr ertalabdan eski Buxoroga artilleriya va aeroplan yordamida ommaviy hujum boshlandi. Natijada minglab begunoh insonlar qurbon boʻldi. Shaharning yarmi olov ichida edi. M.V.Frunze, V.I.Leninga eski Buxoro qalʼasi qoʻlga kiritilganligi haqida bildirgi berdi. Ammo «qoʻzgʻolon koʻtargan xalq» haqida hech narsa deyilmagan. Buni shunday izohlashimiz mumkinki Buxoro xalqi uchun «sotsialistik inqilob» kutilmagan hodisa edi. Keng jamoatchilik Buxoro chet elliklar tomonidan bosib olinadi deb, hisoblar edi. Haqiqatdan ham xuddi shunday edi⁵³. Poytaxt sovet qoʻshinlari tomonidan egallangach hokimiyat Muvaqqat Butunbuxoro Inqilobiy qoʻmitasi qoʻliga oʻtdi. 1920-yil 14- sentabrda BKP Markaziy Qoʻmitasi va Muvaqqat Butunbuxoro Inqilobiy qoʻmitasining birlashgan majlisi boʻldi. Majlisda A.Muhitdinov boshchiligida qonun chiqaruvchi oliy organ Butunbuxoro inqilobiy qoʻmitasi va Fayzulla Xoʻjaev raisligida Xalq Nozirlar Kengashi (hukumat) tuzildi. Oʻsha yilning 6-8-oktabr kunlari 1 Butunbuxoro qurultoyi boʻldi. Unda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligi eʼlon qilindi.

Shuni ham taʼkidlash zarurki, amirlik xazinasida oʻzbeklarning mangʻit urugʻi sulolasiga tegishli juda katta boylik toʻplangan edi. Bu boylik chorakkam ikki asr davomida hech kamaytirilmagan, aksincha doimo toʻldirib borilgan, siyosat, harbiy va boshqa sarf-harajat talab qiladigan ishlarga butunlay daxlsiz hisoblangan va maxfiylikda saqlangan. Hatto undan xabardor boʻlganlar oʻldirilgan, degan maʼlumotlar bor. Uning miqdori haqida aniq maʼlumot boʻlmagan. Ocharchilikka

⁵³ Алимова Д.А., Голованов А.А. Узбекистан в 1917-1990 годы: противоборства идей и идеологий. - Ташкент: 2002. -С. 38-39.

duchor bo'lgan Rossiya va uning yo'qsil Sovet hukumati, Kommunistik partiyani qiziqtirgan narsa ham eng avvalo mana shu afsonaviy boylik edi. Qizil armiya bu oltin zaxirasini hamda Buxoro shahri xalqi qo'lidagi boyliklarni ham talab, Rossiyaga olib ketdi. Bu boyliklar Rossiyani ochlikdan qutqarib, Germaniyaga to'lanadigan tovonni (kantributsiyani – urushda mag'lub mamlakat to'laydigan tovon) yengillashtirdi. Shuning uchun ham Sovet Rossiyaga nisbatan «O'ltan miqdordagi mulk to'g'risi» degan so'z ishlatilmoqda.

1921-yil 4-martda Moskvada BXSR va RSFSR o'rtasida Ittifoq shartnomasi va iqtisodiy bitim imzolandi. Bu esa Rossiya Federatsiyasi va uning Turkistondagi vakolatli namoyandalariga Buxoro Respublikasi ichki ishlariga bevosita aralashishi, u yerdagi o'zgarishlarni nazorat etish va uni sotsialistik maqsadlar sari yo'naltirish uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. Shuningdek, Buxoro Xalq Sovet respublikasining rahbar tashkiloti – Buxoro Kommunistik partiyasi RKP(b)ning viloyat tashkiloti maqomida faoliyat yurishtar edi. RKP(b) Markaziy Qo'mitasi 1922-yil mayida «Turkiston – Buxoro ishlari haqida» qaror qabul qildi. Unda O'rta Osiyoda, jumladan, Buxoroda – jadallik bilan «sotsialistik tuzumni mustahkamlash» qat'iy o'qtirildi. Shuningdek, RKP(b) Markaziy Qo'mitasining 1923-yil 12-iyunda Buxoro masalasiga doir maxsus qarori ham bu davlatning ichki ishlariga qupollik bilan aralashishi edi. BXSRning 1921-yil sentabrida 2 Butunbuxoro qurultoyida qabul qilgan Konstitutsiyasi ham RSFSR Konstitutsiyasi andozasida tuzilgan edi. (Ushbu qurultoyda Buxoro Markaziy Ijroiya Qo'mitasi qonun chiqaruvchi organ sifatida tashkil etilib, uning birinchi raisi etib Usmonxo'ja Po'latoxo'jaev saylangan edi). 1923-yil martida O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashining tuzilishi va uning tarkibiga BXSRning ham jalb qilinishi, uning iqtisodiy mustaqilligini asta-sekin qo'ldan boy berishi bo'ldi. 1923-yilning oktabr oyida bolsheviklar tomonidan BXSRning rahbarlik lavozimlarida ishlayotgan kishilar ustidan taftish o'tkazildi. A.Fitrat, (ma'orif noziri edi) M.Aminov, S.Xo'jaev, M.Saidjonov va boshqalar «Burjua savdogarlari» tabaqasidan deb, lavozimidan chetlatildi. Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritilib, mulkdorlar, ruhoniylar tabaqasiga mansub deb, hisoblanganlar saylash va saylanish huquqidan mahrum etildilar. Moskva tazyiqi ostida hududda sotsialistik o'zgarishlar amalga oshirildi. 1924-yil sentabrda bo'lib o'tgan V Butunbuxoro qurultoyi BXSRning Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi deb e'lon qildi. Nihoyat 1924-yilda o'tkazilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida Xorazm va Buxoro davlat sifatida tugatildi.

Mavzu yuzasidan nazorat uchun savollar

1. Rossiyadagi 1917-yil fevral inqilobining nima uchun burjua-demokratik inqilobi deb, ataymiz?
2. Rossiya fevral inqilobidan keyin Turkistonda ziyolilar (jadidlar) tomonidan tashkil etilgan qanday siyosiy uyushmalarni bilasiz?

3. Rossiyada 1917-yil 25 oktabr (yangi hisob bilan 7-noyabr)da Muvaqqat hukumatni agʻdarib tashlanishini nima uchun Oktabr davlat tuntarishi deb, ataymiz?

4. Oktabr davlat toʻntarishiga Turkiston milliy ziyolilari qanday munosabatda edi?

5. Turkistonda Sovet hokimiyatiga qarshi koʻtarilgan milliy ozodlik harakati sovet tarixshunosligida nima uchun «bosmachi»lik harakati deb, nomlangan?

6. Chor Rossiyasi va Sovet Rossiyasining Buxoro amirligi hamda Xiva xonligiga munosabatida qanday umumiylik va qanday farq bor deb, oʻylaysiz?

7. Rossiyada 1917-fevral inqilobi natijasida Turkiston maʼmuriy boshqaruv tizimida qanday oʻzgarishlar yuz berdi?

8. Turkistonda bolsheviklar hokimiyatini oʻrnatilishiga oddiy xalq qanday munosabatda edi?

9. Turkistonda qurolli qarshilik harakatini yuzaga kelishi va avj olishining sabablari nimada deb, uylaysiz?

10. Fargʻona vodiysidagi qurolli qarshilik harakatini Buxoro va Xivadagi qurolli harakat bilan qanday umumiylik hamda qanday farqi bor?

11. «Yosh buxoroliklar» partiyasi va Buxoro kommunistik partiya dasturida qanday farqlar bor edi?

12. XXSRda bolsheviklar taʼsirini kuchayib borganligini qanday oʻzgarishlardan bilish mumkin?

Testlar

1. Rossiyadagi 1917-yil fevral inqilobidan keyin Turkiston general-gubernatorligining oʻrniga qanday boshqaruv tizimi joriy etildi?

- A. Turkiston Rezidenti;
- B. Turkiston Qoʻmitasi;
- S. Turkiston Departamenti;
- D. Turkiston Agentligi.

2. 1917-yil iyun oyida “Shoʻroi Islomiya” tashkilotidan qaysi tashkilot ajralib chiqqan edi.

- A. Toʻron;
- B. Milliy ittihad;
- S. Shoʻroi-Ulamo;
- D. Ittifoqi muaslimin;

3. 1917-yil 25-oktabr yangi hisob bilan (7-noyabr)da Rossiyada general Kerenskiy diktaturasi agʻdarib tashlanganda, 1917-yil 1-noyabrda Turkis-tonda uning qaysi vakilli hukmronligi agʻdarib tashdlandi?

- A. General Kuropatkin;
- B. General Erofeev;
- S. General Gordekov;
- D. General Korovichenko.

4. Samarqanddagi qurolli harakatga kimlar yetakchilik qilgan?

- A. Davlatmanbek, Ochilbek;
- B. Hamroqulbek, Islom Pahlavon;
- S. Jabborbek, Ermat Maxsum;
- D. Ochilbek, Bahrombek.

5. Xiva xonligining oxirgi xonini aniqlang?

- A. Asfandiyorxon;
- B. Muhammad Riximxon 2 (Feruz);
- S. Said Abdulla;
- D. Junaidxon.

6. Bolsheviklar eski Buxoroga hujum qilishdan oldin qaysi shaharda «Xalq qo'zg'oloni» uyushtirildi?

- A. Kogon;
- B. Chorjuy;
- S. Shahrisabz;
- D. Gijduvon.

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

- takrorlash va mashqlar: takrorlash, o'z-o'zini sinash, tahlil qilish, qayta tayyorgarlik ko'rish, eslab qolish.
- yangi materiallarning mustaqil asosi: yangi adabiyotlar, internet materiallari, qo'shimcha konspekt, mustaqil fikrlar bildirish.
- ilmiy xarakterdagi ishlar: muammoli vaziyatlar, testlar, savollar, topshiriq va slaydlar tuzish.

Mavzu: SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN QATAG'ONLIK SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI

O'quv vaqti: 2 soat ma'ruza, 2 soat seminar mashg'uloti

Mashg'ulot turi: ma'ruza o'tilgan mavzularni takrorlab, bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash.

Darsning maqsadi: Talabalarga O'zbekistonda sovet totalitar tuzumining o'rnatilishi, uning mustabidlik tabiati, qatag'on siyosatidan ko'zlangan maqsadlar, uning amalga oshiri uslublari, qatag'on siyosatining og'ir oqibatlari haqida tushunchalar berish, ularni erkin fikrlashga, shu mavzu to'g'risidagi bilimlarini yuzaga chiqarish, yoshlarni miliy g'oya ruhida tarbiyalashda O'zbekiston tarixini o'zni haqidagi bilim va ko'nikmalarni hosil qilish

Ilmiy mashg'ulotning vazifasi:

- **o'rgatuvchi:** mashg'ulot ishtirokchilarining faol qatnashishlarini tashkil etish, yangi olingan bilimlarini mustahkamlash talabalarining sovet tuzumining qatag'onlik siyosatining mohiyati hamda uning mustabidlik tabiati to'g'risidagi fikrlarini rivojlantirish mavzuning boshqa fanlar bilan aloqadorligini tushuntirish.

- **rivojlantiruvchi:** o'quv adabiyotlaridan to'g'ri foydalanish, mavzuga doir eng yangi ilmiy natijalar bilan tanishtirish, tushuncha va iboralarni izohlash, talabalarga tarixda harbiy kuch bilan saqlab, turilgan sovet imperiyasi abadiy yashamaganligi, tarix har doim ham o'z davrining sog'lom fikrli kishilarini yetkazib berishligini misollar bilan tushuntirish, talabalarda vatanparvarlik his-tuyg'usini rivojlantirib borish.

- **tarbiya beruvchi:** talabalarni mustaqil ishlashga jalb qilish. Prezident I.A.Karimov tomonidan mustaqillik-yillarida nohaq jabrlangan insonlarning nomlarini oqlash, borasidagi sa'yi-harakatlarini muhimligini yetkazish, mavzuni talabalarga ravon, ular uchun sodda usulda tushuntirish. Mavzu mohiyatini ochib berish jarayonida yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga e'tibor qaratish.

O'rganish texnologiyalari:

- **o'qitish usullari:** ma'ruza, aqliy hujum, klaster, skarbey usullaridan foydalanish, jonli muloqot, plakatlar, tarqatma materiallar, fotosuratlar, ilmiy va badiiy adabiyotlar asosida mavzu mohiyatini talabalarga yetkazish;

- **o'rganish turlari:** og'zaki testlar orqali tushuntirish, jamoaviy savol-javoblar, oldindan mavzu bo'yicha qisqacha konspektlar tuzish;

- **o'rganish yo'nalishlari:** ma'ruza matni, mavzuga doir ko'rgazmali qurollar, qatag'on qurbonlarini nomlarini oqlash borasidagi Prezident farmonlari, Vazirlar mahkamasi qarorlari, slaydlar;

- **o'rganish talablari:** auditoriyalarning texnik vositalar bilan ta'minlanishi, texnik vositalardan unumli foydalanish.

- monitoring va baholash: og'zaki nazorat, savol-javoblar, blis-so'rov.

Pedagogik vazifalar:

- o'quv jarayonida mavzuning ahamiyati va uning o'zni bilan tanishtirish;
- mavzuning tuzilishi va tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar tafsiloti to'g'risida tushuntirishlar berish.
- mavzuning ishlashning uslubiy va tashkiliy xususiyatlarini ochish, baholash muddati va shakli, o'qitish jarayonini tashkillashtirish jarayonining umumiy sxemasini tasniflash.
- o'qish jarayonini umumiy tasniflash;
- o'qitish texnologiyasining rivojlantirish istiqbollarini tasniflash.

O'quv faoliyati natijalari:

- mavzuning nomlanishi va vazifalarini belgilash;
- faoliyatdagi alohida usuli va tashkiliy jihatlarni ochib berish;
- mavzuning umumiy va tashkiliy tuzilishlari to'g'risida atroflicha tushuntirish berish;
- sovet hokimiyatini qatag'on siyosati mohiyatini ochib berish talabalarga tarixiy haqiqatni aniq faktlar asosida yetkazish mavzuning asosiy yo'nalishini belgilab beradi;
- nazariy bilimlarning to'raligi, tizimligi, amaliyligi
- amaliy topshiriqlarni bajarishda nazariy bilim va shakllangan ko'nikmalardan foydalanish;
- mavzuning asosiy mazmuni, yo'nalishi bo'yicha ularning boshlang'ich bilimlarga ega bo'lishi.

1.2. Ma'ruzaning xronologik kartasi**1-bosqich. O'quv mashg'ulotlariga kirishish 15-daqiqa**

- **o'qituvchining faoliyati:** tayyorgarlikni tekshirish, kerakli tarixiy manbalar haqida ma'lumot, ma'ruza haqida tushunchalar berish, o'quv rejasi bilan tanishtirish, adabiyotlar to'g'risida ma'lumot berish, dars davomida talabalar bilimini baholab borish usullari haqida tushunchalar berish;
- **talabaning faoliyati:** darsga tayyorgarligi, ma'ruza matni bilan va mavzuga oid rejalar bilan tanishtirish (talabalar soni, tashqi ko'rinishi, o'quv qo'llanmalar va ko'rgazmali qurollar);
- **uslublar, shakllar, usullar:** yo'riqnoma, oldindan so'rash, topshiriq kartochkalari

2-bosqich. Asosiy qism – 55 daqiqa

- **o'qituvchi faoliyati:** mavzuni yoritishga kirishish, o'tgan mavzularni takrorlash, ma'ruza matnini tarqatish, uni yaxshi o'zlashtirib olishni ta'kidlash, mavzu rejalarining har biriga alohida tushunchalar berish, aqliy hujum, klaster, bumerang usullaridan foydalanish, jonli muloqot, tarixiy atamalarga izoh berish, ma'ruza matnini o'qish mobaynida slaydlar orqali atroflicha tushuntirib berish;

- **talabaniy faoliyati:** bilimlarni mustahkamlab olish, mavzuni qunt bilan eshitish, muhim joylarini konspekt qilib olish, otushunmagan iboralar bo'yicha savollar berish, aniqlashtirib olish, mavzuni tahlil qilish;

- **uslublar, shakllar, usullar:** oldindan so'rash, blis-so'rov, aqliy hujum bumerang uslubidan foydalanish.

3-bosqich. Yakunlovchi qism – 10 daqiqa

- **o'qituvchi faoliyati:** mavzuni yakunlash talabalar diqqatini asosiy mavzuga qaratish, dars jarayonida faollik bilan ishtirok etgan talabalarning faoliyatini baholash, mustaqil ish mavzusini berish, baholash;

- **talabaniy faoliyati:** o'tilgan mavzuni tahlil qilish, dars jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish, mustaqil ish mavzusini yozib olish;

- **uslublar, shakllar, usullar:** guruhlarda ishlash, topshiriq kartochkalari.

1.3. O'quv-uslubiy materiallar

1.3.1. Ma'ruza matni

Mavzu: Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi qatag'onlik siyosati va uning oqibatlari

Ma'ruza rejasi:

1. XX asrning 20 - yillar oxirlarida sobiq sho'rolar mamlakatida totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining qaror topishi. Milliy arboblarning safini bo'lib tashlash siyosati.

2. XX asrning 20-30- yillarida kommunistik partiya va sovet hokimiyatining O'zbekistonda yuritgan qatag'onlik siyosati hamda uning respublika ijtimoiy-madaniy hayotiga asoratli ta'siri.

3. Sovet hokimiyatining din va diniy tashkilotlarga munosoblari.

4. XX-asrning 50-80 - yillarida Sovet hokimiyatining O'zbekistonda yuritgan qatag'onlik siyosati.

Tayanch iboralar:

OGPU, NKVD organlari, qurolli harakat, quloqlashtirish, uchlik kengashi, GULAG, qatag'on siyosati, milliy-siyosiy kuchlar, «Milliy ittihad» tashkiloti, «Sho'roi-Islomiy» tashkiloti, sinfiy kurash, ruhoniylarning tabaqasi, mulkdorlarning tabaqasi, ziyolilarning qatag'on etilishi, paxta ishi, navbatdagi qatag'onliklar.

1. XX asrning 20-- yillar oxirlarida sobiq sho'rolar mamlakatida totalitar ma'muriy-buyruqbozlik tizimining qaror topishi. Milliy arboblarning safini bo'lib tashlash siyosati.

Prezident I.A.karimov 2001 - yil 1-mayida «qatag'on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to'g'risidagi» farmonida «Mustabid tuzum davrida million-million begunoh insonlarning umri xazon bo'lganini, qancha-qancha go'daklar yetim

qolganini tarix, bugungi va kelajak avlod hyech qachon unutmaydi» degan fikr bildirib, har - yili 31-avgust kunini mamlakatimizda qatag'on qurbonlarini yod etish kuni deb belgiladi⁵⁴.

Darhaqiqat, «sovet davri» tariximizning murakkab, chigal shu bilan birgalikda qayg'uli davri hisoblanadi. 1921 - yilning mart oyida VKP (b)ning X-syezida «Harbiy kommunizm» siyosatidan voz kechilib yangi iqtisodiy siyosatga utilib, ushbu davr 1929 - yilgacha ya'ni jamiyatda partiya niqobi ostida uning «dohiysi» Stalinning yakka hukmronligi boshlanguncha qadar davom etdi. Agar O'zbekiston SSR tuzilganligi rasman 1925 - yilning 13 fevralida e'lon qilingan bo'lsa, uning birinchi sovet konstitutsiyasi 1927 - yilning mart oyida sovetlarning II-umumo'zbek qurultoyida qabul qilingan bo'lib, u 1924 - yilda qabul qilingan sobiq SSSRning birinchi konstitutsiyasi asosida tuzilgan bo'lib, unda partiyaning va «markaz»ning qonuniy hukmronligi belgilangan edi. XX-asrning 20 - yillarining yarmiga kelib sovet davlati markaziy boshqaruva tizimida ham o'zgarish hollari yuz berdi Stalin asta-sekinlik bilan muxolifatda bo'lgan dastlab Troisskiydan (1927 - yilda) keyinchalik, N.V.Buxarindan qutulib, o'zining to'la hukmronligini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Stalin 1922 - yildayoq partiyada rahbarlik lavozimini egallab olib diktatorga aylanib borayotgan edi. U byurokратиyani mohiyatan o'lgan qudratga aylantirib olgandi. Troskiy iborasi bilan aytganda «Lenin apparatni, apparat esa Stalinni yaratdi⁵⁵. XX asrning 20- yillari oxirlarida Stalin tomonidan yangi nazariy kurash sifatida ilgari surilgan, «Sosializm mustahkamlanib borgan sari sinfiy dushman qarishligi ham shunchalik kuchayib boradi» degan g'oya noqonuniy hatti-harakatlarni avj olinishga olib keldi. Stalin va uning maslakdoshlari mamlakat va partiya hayotiga oid har bir masalada o'z irodasi, hukmini boshqalarga o'tkazib, har qanday o'zgacha fikrlovchilarni qatag'on etib bordilar. Shu tariqa mamlakatda Lenin tomonidan asos solingan totalitar boshqaruv tizimini Stalin yanada mustahkamladi. Totalitar rejimning belgilariga, jamiyatda yakka partiyaviy-g'oyaviy hukmronlikni o'rnatilishi, davlat boshqaruvini markazdan diktator tomonidan ma'muriy-buyruqbozlik tarzida amalga oshirilishi, rasmiy mafkuraga mos bo'lmagan barcha nashriy mahsulotlarni yo'q qilinishi, jazo organlari tarmog'ini kengayishi, o'zgacha fikrlovchilarga nisbatan ommaviy qatag'on siyosatini amalga oshirilishi va boshqalar kiradi. Mamlakatda totalitar tizimning qaror topishi, shubhasiz, milliy sovet respublikalari hayotiga ham dahl qilib, ularning butun inon-ixtiyorini ittifoq davlati tasarrufiga bog'lab qo'ydi. Bu O'zbekiston timsolida ham yaqqol qo'zga tashlanadi. Avvalo Respublika hokimiyati boshqaruvining hamma bug'inlari to'liq ravishda, markaz organlariga buysundirildi. Shuningdek, bu yerdagi yagona rahbar tashkilot O'zbekiston kommunistik partiyasi ham VKP (b)ning viloyat bo'limi maqomida faoliyat yuritardi. Binobarin, hukmron partiya va uning Markaziy Qo'mitasi qabul qiladigan har

⁵⁴Xalq xotirasi oldida bosh egamiz hujjatlar, ma'ruzalar, xotiralar, xatlar. T.: Sharq, 2001, B. 14-15..

⁵⁵ Shamsutdinov R. O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojiali oqibatlari. T.: Sharq, 2001, - B. 22.

qanday qaror, farmoyishlar, rahbariyat ko'rsatmalari respublika partiya tashkilotlari, tomonidan bajarilishi majburiy shart edi.

Respublikaning kasaba uyushmalari, yoshlar tashkiloti (komsomol) va boshqa jamoat tashkilotlari ham Markazning shu xildagi tashkilotlari andozasiga ko'ra tuzilgan bo'lib, ularga to'liq buysungan holda faoliyat yuritardi. Shu bilan birgalikda bu tashkilotlarni barchasi kommunistik partiya yetakchiligida, uning siyosiy-g'oyaviy ta'sirida bo'lib, o'z a'zolarining ongi, tafakkurini shu partiyaning mafkurasi, g'oyasi ruhida shakllantirib, tarbiyalab borishlari kerak edi. Mustabid tuzum markazdan O'zbekistonga o'zining ko'r sonli sadoqatli xodimlarini, rahbariy lavomizlarda ishlashga yuborib turardi. Ular yordamida o'lka hayotida kechayotgan barcha jarayonlar, o'zgarishlardan doimiy xabardor bo'lib, mahalliy kadrlar faoliyatini nazorat qilib borardi.

Stalincha ma'muriy-buyruqbozlik tizimi ko'zga ko'rinarli va ko'zga ko'rinmas ming xil qizil iplar bilan O'zbekistonni o'z domiga ilintirib, uning amaldagi rasmiy mustaqilligini yo'qqa chiqargan edi. Uning mahalliy rahbariyati respublikaning iqtisodiy, xo'jalik, madaniy-ma'naviy hayotiga oid biror masalani, muammoni mustaqil hal etishga haq-huquqli emas edi. Jamiyatda totalitar tuzumni mustahkamlash maqsadida joylarda, jumladan, O'zbekistonnida milliy siyosatda boshqa milatlarni ona tiliga nopisand munosabatda bo'lindi. Masalan, ming - yillar mobaynida avlodlarimiz tomonidan qo'llanib kelingan arab alifbosidagi o'zbek yozuvi 1929 - yilda lotin alifbosiga 1940 - yilda esa Kiril (rus) alifbosiga o'tkazildi. Rasmiy yig'ilishlarda o'zbek tiliga, milliy kadrlarga katta e'tibor berish haqida gapirilsada, aslida rus tili hukmronligi borgan sari kuchayib borayotgan edi. Milliy kadrlarni tanlashda esa ularni kommunistik mafkuraga qanchalik sadoqatli ekanligi sinovdan o'tkazilgan holda qabul qilinar edi. Oliy o'quv yurti tizimida 1918 - yilda O'rta Osiyo Davlat universiteti tashkil etilgan bo'lsada bu yerga o'qishga qabul qilishda birinchidan, sinfiylik tamo-yili, yani ishchi dehqonlarga katta imtiyozlar berilsa, ikkinchi tomondan bu yerda mashg'ulotlar asosan rus tilida olib borilganligi sababli asosan yevropaliklar o'qishga qabul qilinar edi. Eng yangi manbalaorni guvohlik berishicha, aynan mana shunday holat sababli Fitrat, Botu va boshqa milliy ziyolilar sa'yi-harakati bilan mahalliy millat vakillaridan oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash maqsadida 1927 - yilda Samarqandda Pedagogika Akademiyasi tashkil etildi⁵⁶. Xullas XX asrning oxirlariga kelib O'zbekistonda ham totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik tuzumi qaror topgan bo'lsada, ushbu tuzumdan, partiyaning milliy manfaatlarga zid siyosatidan norozilik goh ochiqcha, goh yashirincha qarshilik bolsheviklar hokimiyatining dastlabki yillaridayoq boshlangan va kuchayib borayotgan edi. Sovet hokimiyati esa ularga qarshi jazo organlari tarmog'ini kengaytirgan edi.

⁵⁶ Toyirov A. Abdurauf Fitrat va Mahmud Hodiyev (Botu) hayoti va faoliyatining o'rganilmagan sahifalari. // SamDU axborotnomasi, 2005, №6. B. 33-35.

2. XX asrning 20-30 - yillarida kommunistik partiya va sovet hokimiyatining O'zbekistonda yuritgan qatag'onlik siyosati va uning respublika ijtimoiy, madaniy hayotiga asoratli ta'siri

Sovet hokimiyati tashkil etilgan kundan boshlab, partiya «dohiysi» Lenin tomonidan «qizil terror» amalga oshirilishdan boshlab, o'zgacha fikrlovchilarga qarshi qatag'on siyosatini boshlab yuborgan edi. «Qatag'on» so'zining lo'g'aviy ma'nosi «qatli-om» ya'ni ommaviy qirg'in ma'nosini anglatadi. Ushbu siyosat SSSRdek «qizil saltanat» parchalanib ketguncha qadar davom etdi. Qatag'onlik sovet tuzumi va jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi, uning tabiiy yo'ldoshi sifatida nomoyon bo'lgan edi. XX asrning 30-- yillariga kelib bu mudhish siyosat o'zining kulminasion (yuqori) nuqtasiga yetdi⁵⁷. 1918 - yilning 30 aprelida Turkiston Sovet Respublikasi tashkil etilgan vaqtdan boshlab milliy manfaatni himoya qiluvchi Turor Risqulov Qoyg'usiz Otaboyev Inomjon Xidirashev, Abdulla Rahimboyev, nazir To'raqulov, Sultonbek Xojanov kabi mahalliy millat vakillari rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritishdi. Ammo ular XX asrning 20 - yillaridayoq «millatchi» likda ayblanib jazolanishdi⁵⁸. Keyingi yillarda Sovet mafkurachilari tomonidan o'zbek milliy kadrlari sha'nini bo'lg'ashga qaratilgan, «18 lar guruhi», «Inog'omovchilar», «Qosimovchilar» guruhleri to'qib chiqarildi. Ularning faoliyatiga oid tarixiy hujjatlarni kuzdan kechirar ekanmiz, bu insonlar faoliyatida ularni ayblashga asos bo'ladigan hych bir ashyoviy dalillar bo'lmaganligiga amin bo'lamiz. Ularning yagona «gunohi» - bu o'z millati dardi, tashvish va manfaatini ko'zlab ayrim muhim muammolarni ko'targanligi va ularni hal etishga yuqorining e'tiborini jalb etganligi edi xolos.

Respublikaning taniqli arboblardan iborat «18 lar guruhi» (I.Xidirashev, M.Saidjonov, U.Ashurov, R.Rahimboboyev, M.Urunxo'jayev va boshqalar)ga yer-suv islohotiga qarshi chiqqan, boy-quloq va yer-egallari manfaatini himoya qilib chiqqanlar, mahalliychilik va millatchilik g'oyalarini ilgari surgan degan soxta aybnoma qo'- yildi. Aslida esa ular hukmron Markazning ulug' davlatchilik va shovinistik siyosatiga, milliy kadrlarga nisbatan bepisandlik, loqaydligiga qarshi chiqib, adolat va haqqonliqlik tamoyillarini himoya qilganlar. Shu bois rasmiy partiya organleri tomonidan mazkur guruh keskin qaralandi va uning a'zolari turli jazolarga griftor etildilar. Ushbu guruh a'zolari ichida O'zbekiston yer-suv ishlari xalq kommissari bo'lib xizmat qilgan In'omjon Xidraliyev o'zining millatparvarligi, zo'r bilimdonligi, nazariy, siyosiy va amaliy jihatdan chiniqqanligi, o'ta qat'iyligi bilan tanilgan milliy arboblardan edi. Bugungi kunda o'sha davrda partiyada «o'ng og'machilar» deb atalgan N.I.Buxarin, A.I.Rikov, M.N.Tomskiy va boshqalar, o'z xalqining tub manfaatlarini ko'zlab ish kurgan

⁵⁷Shamsutdinov R. Istiqlo' yo'lida shahid ketganlar. T.: Sharq, 2001, -B. 10-11..

⁵⁸Алимова Д.А., Голованов А.А. Узбекистан в 1917-1990 годы: противоборства идей и идеологии. Ташкент., 2002, -С. 52.

I.Xidiraliyev va uning sarfdoshlari olib borgan siyosat naqadar to'g'ri ekanligini shohidi bo'lib turibmiz⁵⁹.

Milliy arboblardan Usmonxon Eshonxo'jayev «18 lar guruhi» har jihatdan dupposlanayotgan bir paytda o'sha 1926 - yil boshlaridayoq O'zbekiston partiya tashkiloti nazorat Komissiyasi yig'ilishida bolsheviklar o'tkaziyotgan yer-suv islohotini ochiqdan ochiq tanqid qilib, bu islohot texnik tadbir, u hych qanday ijtimoiy mohiyatga ega emas, qishloqda kapitalistik unsurlarga qarshi olib borilayotgan sinfiy kurash ham mutloqo noto'g'ri siyosat deb ta'kidlaydi. Ushbu inson keyinchalik 1938 - yilda qatag'on etildi⁶⁰.

«Inog'omovchilik» guruhi to'g'risida gap borganda unga qo' - yilgan barcha ayblarni to'liq to'qib chiqarilganligi ayon bo'ldi. Ma'lumki Rahim Inog'omov O'zbekiston Kommunistik partiyasi (b) Markaziy Qo'mitasi Matbuot bo'limi mudiri va O'zSSR Maorif Xalq Komissari vazifasida faoliyat yuritib kelgan. Inog'omov o'zining bir qator nutqlarida O'zbekiston Kommunistik partiyasining mustaqil faoliyat yurita olmayotganlikda, Markaz organlarining o'lka hayotidagi zo'ravonligiga ham alohida urg'u bergan. Respublikaning bir qator mas'ul xodimlaridan N.Mavlonbekov, I.Isamuhammedov, M.Alev singari hammaslalar, R.Inog'omov qarashlarini qo'llab-quvvatlab chiqqan edilar. Bunday muxolifatchi chiqishlar hukmron partiya mutasaddilarining qahriga uchramasdan qolmasdi, albatta. Shu bois 1926, 1927 - yillarda bu guruh faoliyati partiya tashkilotlarda bir necha bor muhokama qilinib, og'machi guruhbozlikda aylandi. R.Ing'omov tarafdorlari vazifalaridan olinib, nomlari qoralandi. Keyingi - yillarda ham R. Ing'omov milliy manfaatnri himoya qilishda davom etgan. Masalan, R. Ing'omov Qashqadaryo viloyati yer bo'limi mudiri bo'lib ishlagan davrida 1929-1931 - yillari paxtachilik va chorvachilikda zararkundalik qilgani, chorvadorlarning ommaviy ko'chishini tashkil etgani, shu yo'l bilan jamoalashtirish, quloq qilishga qarshi turgani tergov materiallarida qayd etilgan⁶¹.

«Qosimovchilik» guruhi ham 1929 – 1930 - yillarda sovet hukmron rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatag'on qilish jazolash maqsadida atayin uyushtirilgan navbatdagi uydirma edi. O'z SSR Oliy Sudining raisi lavozimida ishlagan Sa'dulla Qosimov va uning yaqin maslakdomlari: N.Alimov, M.Mirzokirov, I.Xo'jayev va boshqa jami 7 kishi 1929 - yilning 2 yarmida «bosmachilik» harakatiga yon berganlikda ayblanib kanoqqa olandi. 4 kishi otishga hukm etildi. Mustaqillik yillarid Sa'dulla Qosimov va uning maslashdoshlari faoliyati xosil tahlil etilgan ma'lumotlar matbuotda chop etishmoda⁶². 1929 - yil 5-noyabrda atoqli jadid ma'rifatparvari munosabatlari Abdurashidxonov bolchiligidan 38 kishi qamoqqa olindi. Keyinchalik ularni soni 87 yishiga yetdi. Ularga «Milliy ittihad», «Miliy istiqlob» nomli aksilinqilobiy

⁵⁹ Shamsutdinov R. O'zbekistonda sovetlarning qo'loqlashtirish siyosati va uning faojiali oqibatlar. T.: Sharq, 2001. B. 35-36..

⁶⁰ O'sha asar. B. 47.

⁶¹ Qarang: // Norjigitova N. Qosimovchilik yohud huquq tartibot xodimlarining qatag'on qilinishi xususida //qonun himoyasida. 2001, №10, B. 19-21.

⁶² O'sha asar. – B. 46.

tashkilot a'zosi degan ayb qo' - yildi. 1931 - yil 25-aprelda Moskvada bo'lgan sud hukmi bilan 15 kishi otishga qolganlar uzoq muddati qamoq jazosiga hukm etildi⁶³.

Mustabid tuzum hukmdorlari uchun O'zbekiston singari milliy Sovet Respublikalari rahbarlari, xodimlarini to'la itoatda tutishning birdan-bir sharti bu ularning mustaqil faoliyatiga izn bermaslik vaqti vaqti bilan xato, kamchiliklar topilguday bo'lsa, shavqatsiz jazolash yo'li edi.

Sovet hokimiyati tomonidan 1930-1933 - yillarida amalga oshirilgan quloqlashtirish siyosati natijasida jabrlandi. «Quloq» larni sinf sifatida tugatish sari mudhish siyosat 1929 - yil 7-noyabrda «Pravda» gazetasida Stalinning «Buyuk burilishi - yili» maqolasi e'lon qilingach amalga oshirila boshlandi⁶⁴. 1930 - yilning 17-fevralida O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti «Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida» qaror qabul qildi. Ukraina, Sibir va Qozog'istonning odam yashamaydigan cho'llariga o'rmonlariga surgun qilinganlar xo'jaliklar soni 1933 - yilda 5500 taga yetdi. Quloq qilinganlarning yana bir qismi respublikaning boshqa joylariga zo'rlik bilan ko'chirildi. Ko'chirilganlar uchun respublikaning cheka joylarida 17 ta «quloq qishloqlari» bunyod etildi. Quloqlashtirish siyosati jarayonida dehqonlarni qatag'on etish avj oldi. Masalan, ushbu davrda 4000 ming dehqon quloq qilinib, ulardan 31700 tasi qatag'on etildi⁶⁵.

1936 - yilda partiya niqobi ostida Stalinning yakka hukmronligini qonuniy jihatdan mustahkamlab beruvchi «Stalin Konstitutsiyasini» qabul qilinishi 1937-1938 - yillarda ommaviy qatag'onlarni avj oldirilishiga yo'l ochib berdi. Ommaviy qatag'onlikni avj oldirilishiga VKP (b) Markaziy Qo'mitasi Siyosiy Byurosining 1937 - yil 2-iyuldagi barcha respublika o'lka, viloyat partiya prahbarlariga yuborgan ko'rsatmasi, SSSR ichki ishlar Xalq Komissarligini barcha ichki ishlar Xalq Komissarlariga yuborgan 1937 - yil 3 iyuldagi ko'rsatmasi huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu ko'rsatmalarda o'z jazo muddatini o'tab qaytib kelgan «quloq»lar sovet hokimiyatiga qarshi kayfiyatdagi kishilar ro'yxatga olinishi, ularni sovet hokimiyatiga o'ta xavfli qismi aniqlanib «Uchlik» kengashlari tomonidan otib tashlanishi, kamroq xavf to'g'diradigan qismi esa NKVD organlari ko'rsatmasi bilan surgun qilinishi belgilangan. VKP (b) Markaziy Qo'mitasi 5 kun ichida «Uchlik» kengashi a'zolarini hamda otishga hukm etilganlar, hamda surgun qilinganlar sonini aniqlab berishni joylardagi mas'ul xodimlardan talab etgan⁶⁶. Mustabid sovet hokimiyati davrida ommaviy qatag'onlarni amalga oshirish 1923-1934 - yillarda faoliyat yuritgan Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi (OGPU) 1934 - yildan faoliyat yurita boshlagan ichki ishlar Xalq Komissarligi (NKVD) organlari (1934 - yildan OGPU ham NKVD tarkibiga kirgan) tomonidan amalga oshirilgan. Qatag'on etilganlar 1934 - yildan, 1956 - yilgacha faoliyat yuritgan

⁶³ O'sha asar. B. 46.

⁶⁴ Shamsutdinov R. O'zbekistonda sovetlarning qo'loqlashtirish siyosati va uning faojiali oqibatlar. T.: Sharq, 2001,- B. 62.

⁶⁵ Алимova Д.А., Голованов А.А. Узбекистан в 1917 – 1990 годы: противоборства идей и идеологий. Т., 2002, Ташкент, С. 53-54.

⁶⁶ Там же. -С. 20.

Ahloq tuzatish mehnat lagerlari (GULAG)larda saqlangan. 1937 – 1941 - yillarda O'zbekiston SSR Ichki ishlar Xalq Komissarligi rahbarlik lavozimlarida N.A.Zagvozdin, D.Z.Apresyan, A.N.Sadjaya⁶⁷ kabi qattol insonlar rahbarlik qilib minglab beginoh kishilarni qatag'on etgan.

Mustabid tuzum hukmdorlari va ularning chaqqon dastyorlarining «sa'yi-harakatlari» natijasida 1937-1938 - yillar davomida O'zbekistonda bir qator yirik aksilinqilobiy tuzilmalar tuzilgan, faoliyat yuritmoqda degan soxta ma'lumotlar to'plandi. Mana shunday soxta ma'lumotlar asosida respublika rahbarlari A.Ikromov va F.Xo'jayev boshchiligidagi «Burjua-millatchilik aksilinqilobiy tashkiloti» «Aksilinqilobiy o'ng trosskiychi josuslar tashkiloti markazi», «Buxoro va Turkiston baxt-saodati» nomli aksilinqilobiy tashkiloti, I.Ortiqov boshliq «Yoshlarning aksilinqilobiy burjua millatchilik tashkiloti», «Ingliz josuslik rezedensiyasi», «Yapon josuslik-qo'poruvchilik rezedensiyasi» kabi tashkilotlar Sovet hokimiyatiga qarshi faoliyat yuritmoqda deb e'lon qilindi, ularni tuzishda gumon qilinganlar qatag'on qilindi.

1921-1938 - yillar davomida OGPU, NKVD organlarida mas'ul lavozimlarda ishlagan, 1937-1938 - yillarda O'zbekiston SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi «Uchlik» kotibi vazifasini bajargan Yakov Mixaylovich Yakovlev bergan ma'lumotlarga qaraganda «Uchlik» har soatda 100 ga yaqin ish ko'rgan hukm esa 2 xil: oliy jazo otib o'ldirish yoki 10 - yil muddatga jazosi qamoq bo'lgan⁶⁸.

1937-1938 - yillarda o'zbek adabiyoti san'ati, fanining peshqadam vakillari M.Saidjonov, B.Soliyev, M.Salixova, Abdulla Qodiriy, Chulpon, Fitrat, Mahmud Xodiyev (Batu), Usmon Nosir, Germaniyada ta'lim olib kelgan. A.Muradi, Sattar Jabbor, M.Sultonmurodova, siyosat va davlat arboblari Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jayev hamda boshqa minglab begunoh insonlar, ularning oilalari qatag'on siyosati jabrini tortdilar. Ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi «uchlik» kengashlari tomonidan 1937-1939 - yillarda butun respublika bo'yicha 41 ming kishi hibsga olinib, ulardan 37 ming kishi sudga berilib, 6 ming 920 kishi otib tashlangan⁶⁹.

Shunday qilib, XX-asrning 20-30 - yillarida amalga oshirilgan qatag'on siyosati O'zbekistonda jamiyatning barcha ijtimoiy qalamlariga mansub sog'lom fikrli kishilarni domiga tortdi. Jamiyatga o'lgan moddiy va ma'naviy zarar yetkazildi. Mustaqillik sharofati Prezident I.A.Karimov sa'iy-harakati bilan ularni muborak nomlari oqlandi.

3. Sovet hokimiyatining din va diniy tashkilotlarga munosabati

1917 - yilgi oktyabr davlat to'ntarishi natijasida hokimiyatga kelgan bolsheviklar joylarda jumladan, Turkistonda mahalliy xalqning asrlar davomida

⁶⁷ Репрессия. 1937-1938 годы Отв.редактор. Каримов Н.Ф. Документы и материалы. Т.: Шарк, 2005, -С. 27-28

⁶⁸ Shamsutdinov R. Istiqlo' yo'lida shahid ketganlar. Т.: Sharq, 2001, -В. 22.

⁶⁹ Репрессия. 1937-1938 годы Отв.редактор. Каримов Н.Ф. Документы и материалы. Т.: Шарк, 2005, -С. 8

shakllangan diniy qadriyatlariga hujum boshladi. Islom dini ruhoniylari reaksion oqim deb, ularga qarshi ayovsiz kurash boshlab yuborildi. Turkistonda 1917 - yil 14-martda tashkil etilgan «Sho'roi-Islomiya», 1917 - yil iyun oyida tashkil etilgan «Sho'roi-Ulamo» tashkilotlari Turkistonni vatanparvar ziyolilari va ruhoniylari tomonidan tashkil etilgan bo'lib, «Turkiston Muxtoriyati» tugatilishi bilan ularning faoliyati deyarli to'xtab qolgan edi. Ammo eng yangi ma'lumotlar ushbu tashkilotlar keyinchalik ham o'z faoliyatini joylarda, jumladan Samarqand viloyatida davom ettirib, mustabid tuzumga qarshi olib borilgan qurolli harakatni moddiy, ma'naviy, g'oyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlab turganligini ko'rsatmoqda. Keyinchalik, ularning bir qismi 1925 - yilda tuzilgan «Milliy-ittihod» tashkilotiga, bir qismi qurolli harakat to'dalariga qo'shilganlar. Ammo manbalarni guvohlik berishicha, hatto keyingi - yillarda ham har qanday ta'qib va ta'ziyqlarga qaramasdan musulmon ruhoniylarining vatanparvar qismi xalqni milliy mustaqillik uchun kurashiga chorlashda davom etgan⁷⁰.

1920 - yilda tashkil etilgan Xorazm va Buxoro Xalq Respublikalarida hokimiyat tepasida dastlabki yillarda «Yosh xivaliklar» hamda «Yom buxoroliklar» tashkiloti vakillari turganligi uchun ham islom dini, diniy qadriyatlar Turkistondagidek poymol etilmadi. Ammo Xorazm Xalq Respublikasi Nozirlar Kengashi raisi Polvonniyoz Yusupov milliy qadriyatlarni jumladan, vaqf mulklarini himoya qilganligi uchun bolsheviklar tomonidan 1921 - yilning mart oyida ag'darib tashlandi. Buxoro Xalq Respublikasida Fayzulla Xo'jayevning sa'yi- harakati tufayli diniy qadriyatlar poymol etilmadi. Masalan, 1923 - yil yozida BXSР qozilarining qurultoyi bo'lib o'tdi. Ushbu davrda BXSРning 65 ta qozilik xududida 528 kishi xizmat qilar edi. Turkistonda 1929 - yil iyun oyida qoziliklar yopilgan bo'lsada, «bosmachi»lik harakatini susaytirish maqsadida 1922 - yilda qayta ochildi.

Sovet hokimiyatining islom diniga qarshi olib borgan siyosati mafkuraviy jihatdan xalqning o'tmishi, ma'naviyati, madaniy merosi va milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan asriy e'tiqodidan mahrum etib, uning ongida yagona sovet mafkurasini qaror toptirish maqsadiga qaratilgan bo'lib, buni amalga oshirish uchun bolsheviklar eng avvalo islom dinini targ'ib etuvchi diniy ulamolardan qutulish lozim deb, topdilar. Bolsheviklar bu masalada joylarda targ'ibot va tashviqotni avj oldirdilar. XX-asrning 20 - yillarida sovet ma'muriy organlari tomonidan o'tkazilgan har bir majlislarda ushbu masala kun tartibiga qo'yilgan. Masalan, 1923 - yilning 5 aprelida bo'lib o'tgan Samarqand viloyat partiya konferensiyasida «Dinga qarshi tashviqot» masalasi muhokama etilib, unda dinga qarshi tashviqotni ehtiyotkorlik bilan barcha shaharlarda, fabrika-zavodlarda, qishloqlarda olib borish, bunda aholi orasida katta nufuzga ega bo'lgan jadidlardan keng foydalanish, madaniy hayotda jadidlarning kuch va imkoniyatlarini ishga solish jadidlar va musulmon ruhoniylar o'rtasidagi ilmiy g'oyaviy hamda musulmon ziyolilarining dinga qarshi kayfiyatdagi qanotini doimo qo'llab-

⁷⁰ Qarang: //To'yiroy A.E. O'zbekistonda sovet hokimiyatining qatag'on siyosati (Samarqand viloyati misolida, 1918-1938 - yil) Tarix fan.nom.diss. avtoref. T: O'zMo', 2007.

quvvatlash lozimligi alohida takidlangan⁷¹. Ammo jadidlarni diniy ulamolarga qarshi qo'yish siyosati muvoffaqiyat qozonmadi. Aksincha milliy ziyolilar dunyoviy bilimlarni keng targ'ib qilish bilan birga diniy etiqodni saqlab qolish va himoya qilishga muhim vazifa sifatida qaradilar. 1925 - yilda O'zbekistonda 97 ta vaqf maktablar, 1500dan ortiq eski maktablar yashirin holda ish olib borgan. Ular ham 1928 - yilda o'z faoliyatini tugatgan edilar. Bu davrda «Sosializmda dinga o'rin yo'q, unga din begona», «Din xalq uchun afyundir» degan qarashlar ustuvor bo'lib qoldi. Joylarda, ayniqsa bolshiviklar tomonidan tashkil etilgan «qizil choyxonalar»da ateistik (dinga qarshi) targ'ibot, tashviqot avj oldirildi. 1928 - yilda «Xudosizlar» jurnali, hamda «Xudosizlar» jamiyati tashkil etildi. Bu - yillarda o'zbek xalqining olis asrlarga borib qadalovchi osori-atiqalari, masjidi madrasalar, maqbaralar ko'rinishidagi noyob me'moriy obidalariga zo'r berib hujum uyushtirildi. Binobarin bu maskanlarning bora-bora qarovsiz, xarob ahvolga kelganligi tasodifiy emas. Ayniqsa bunda xalqimizning dilidan chuqur joy olgan uzoq asrlik islomiy qadriyatlar zavol topganligi achinarlidir. Sovet hokimiyati tomonidan nafaqat musulmon ruhoniylari balki boshqa din ruhoniylari ham ta'qib etildi. Umuman, O'zbekistonda barcha dinga mansub ruhoniylarning asosiy qismi XX asrning 30 - yillarida qatag'on qilindi. Masjid va madrasalarning deyarli hammasi faqat diniy emas, madaniyat, ilm, tarbiya, san'at markazlari bo'lganiga qaramay bekitib qo'yildi. Dindorlar masjid va ruhoniylardan mahrum etilgan bo'lsalarda toat-ibodatlarini yashirincha davom ettiraverdilar. Har qanday ta'ziyq va ta'qiblarga qaramay xalq asrlar davomida shakllangan diniy e'tiqodini saqlab qoldi. Faqat mustaqillik sharofati bilan xalqimizning diniy e'tiqodiga to'la erkinlik berildi.

4. XX asrning 50-80 - yillarida Sovet hokimiyatining O'zbekistonda yuritgan qatag'onlik siyosati

II-jahon urushidan keyin «mamlakatda rahbarlik qilish usullari barqaror holatga o'tadi, tinch qurilishiga moslashtiriladi, ijtimoiy-siyosiy hayot demokratiyalashadi» degan, orzu-niyatlar ro'yobga chiqmadi. Aksincha iqtisodiyoda, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotda ma'muriyatchilik kuchaydi. Totalitar tizimning eski kasali qaytalanib, sovet jamiyati urushda boshdan kechirgan benihoya og'ir iqtisodiy qiyinchilik, ma'naviy-ruhiy kemtiklik, o'tkir ijtimoiy-siyosiy tanglik sharoitida mamlakatda hyech bir norozilik, tushkunlik holatlariga izn bermaslik maqsadilardida bir yoqlama qattiqqo'l siyosat yuritish yo'lini tutdi. Bunda kommunistik mafkura bosimini ayni chog'da Markazda va joylarda, xususan, milliy respublikalarda butun choralar bilan kuchaytirishga asosiy urg'u berildi. Hukmron kommunistik partiyaning bu boradagi makkorligi shundaki, u doimiy tahlikada tutish, itoatda saqlash uchun yangi qatag'on mavsumini avvalo Markazdan boshlashni maqbul topdi. Xususan, 1946-1948 -

⁷¹ Samarqand viloyat hokimiyatiga qarashli arxiv, 31-jamg'arma. 1-ruyxat, 782-yig'ma jild, 14-varaq

yillarda VKP (b) Markaziy Qo'mitasi tomonidan adabiyot, san'at, ilm-fan sohalarida o'tkazilgan bir qator anjumanlar, bahslar va ular yuzasidan qabul qilingan, mohiyatan, «g'oyasizlik va kosmopolatizmga qarshi kurash ruhi» bilan sug'orilgan talay «muhim» qarorlar va hujjatlar qatag'onning yangidan boshlanib avj olishiga asos bo'ldi.

Masalan, VKP (b) Markaziy Qo'mitasining 1946 - yil fevralida qabul qilgan «Zvezda», «Leningrad» jurnallari to'g'risida, keyinroq V.Murodelinning «Buyuk do'stlik» operasi to'g'risidagi qarorlari bunga turtki bo'lib xizmat qildi.

Shu asosda, XX asr 30 - yillar ma'shum qatag'onning davomi sifatida ilg'or, mustaqil fikrlovchi, yurt, millat manfaatlari uchun qayg'uruvchi, shu ruhda ijod qiluvchi ziyolilarni ham Markazda, ham joylarda taqib va quvg'in qilish jarayoni avj olib ketdi. Bundan shu hukmron tuzumga tobe bo'lgan, qo'l-oyog'i zanjirband etilgan jafokash O'zbekistonning ko'plab ilg'or ziyolilari, ijodkorlari hayoti va qismati ham chetda qolmadi.

O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasining 1949 - yil 25-iyundagi. «O'zbekiston Sovet yozuvchilar sayuzining ishi to'g'risidagi qarorida A.Qahhorning «Qo'shchinor chiroqlari» romani tanqid qilindi. Yozuvchilardan Oybek, Mirtemir, Hamid, G'ulom, Q.Rashidov, M.Shayxzoda, asarlari, shuningdek, «Sharq yulduzi», «Zvezda vostoka» jurnallarning tahririyatlariga bir qator «yaramas» asarlarini chop etishga yo'l qo'ygan, degan jiddiy ayblar qo'yildi.

1948-1949 - yillarda 20 dan ortiq yirik iqtidorli olimlar yozuvchi va shoirlar qamoqqa olinib, yopiq ravishda suroq qilinib, millatchilikda ayblanib, 15-25 - yilga ozodlikdan mahrum etiladi va surgun qilinadi.

O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasining 1950 - yil 1-sentyabrda qabul qilgan «O'zbekiston Fanlar Akademiyasining ishi to'g'risida»gi qarorida bir qator iqtisodiyot, til va adabiyot sohasidagi olimlar millatchilikda ayblandilar.

O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasining 1951 - yil 8 apreldagi «O'zbekiston SSRda musiqa san'atining ahvoli va uni yanada rivojlantirish tadbirlari to'g'risida»gi qarorida o'zbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin», «Layli va majnun» dostonlari, «Tohir va Zuhra» xalq dostonlarining afsonaviy folklor syujetlariga asoslangan opera balet va musiqali drama spektakllarini yaratish va sahnalarda ko'rsatish zararli ish deb baholandi. Bunday spektakllarni sohnalashtirgan ijodiy xodimlar qattiq tanqid ostiga olindi.

1951 - yil 10 avgustida respublika matbuotida «Ba'zi shoirlarning mafkuraviy buzg'unchiliklar to'g'risida» degan maqola e'lon qilindi. Unda Turob To'la, Kamtar Otaboyev, Mirtemir, A.Bobojonov, Sobir Abdulla, Habibiylarning asarlari kommunistik mafkuraga, xalqlar do'stligiga zid g'oyalarni ilgari suruvchi asarlar sifatida tanqid qilindi, ular millatchilikda ayblandi.

1951 - yil 24 avgustda matbuotda e'lon qilingan «O'zbek sovet adabiyoti vazifalaridan chetda» nomli maqolada Oybek, X.Zaripov, N.Yoqubov, I.Sultonov

va boshqa adiblar mafkuraviy og'ishlarda qaralandi. M.Shayxzoda, Shukurullo Yusupov, G'ulom Alimov (Shuhrat)lar 1951 - yilda «Sovetlarga qarshi millatchilik faoliyatida ayblarib qamoqqa olindi va keyinchalik 25 - yilga ozodlikdan mahrum, etishga hukm qilindilar.

1952 - yil fevralda bo'lib o'tgan O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasining X-plenumi ilmiy va ijodiy ziyolilarni qurg'in, ta'qib ostiga olishga yana bir turtki bo'ldi. Plenimda «Respublikada mafkuraviy ishlarning ahvoli va uni yaxshilash choralari to'g'risida»gi masala muhokama qilindi va tegishli qaror qabul qilindi. Plenimda faylasuf V.Zohidovning ilmiy ishlariga burjua millatchilik xatolari yuklandi. Tarixchi A.Boboxo'jayev iqtisodchi O.Aminov panturkizmni targ'ib qilishda ayblandi. Ular «siyosiy va ishchanlik sifatleri jihatdan egallab turgan lavozimlariga to'g'ri kelmaydigan shaxslar» deb, hisoblandi va ishdan bo'shatildi. Turob To'la va Maqsud Shayxzodalarning she'r va qo'shiqlari g'oyasiz va axloqsiz asarlar, deb baholandi.

Yuqoridagi ma'lumotlarda ko'rib o'tganimizdek, agar XX asrning 30 - yillaridagi qatag'onlik asosan partiya, sovet, xo'jalik, harbiy kadrlarga qarshi qaratilgan bo'lsa, XX asrning 40 - yillar oxiri va 50 - yillar borishidan qatag'onlik asosan madaniyat va fan arboblari taaluqli bo'ldi.

1951 - yilda bir guruh yozuvchilar qatorida 25 - yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan atoqli yozuvchi, O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad o'z xotiralarida o'sha ma'lum davrlarda uning oilasini «xalq dushmani» oilasi deb, qanchalik ta'ziyqa olganlarini bayon etadi⁷².

XX asr 40 - yillari oxiri va 50 - yillar boshlaridagi ommaviy qatag'onlar natijasida sobiq SSSR bo'yicha 3778234 kishi hibsga olindi, ulardan 786098 kishi otib tashlandi⁷³.

Umuman 1937-1953 - yillarda O'zbekistondan 100 ming kishi qatag'on etilib, 13 ming kishi otib tashlandi⁷⁴. Asossiz qatag'on qilinganlarni oqlab Stalin vafotidan keyin boshlandi. Natijada O'zbekiston bo'yicha qatag'on qilingan, tirik va halok bo'lganlardan 40 ming kishi oqlandi.

KPSS Markaziy Qo'mitasining 1985 yil aprelda bo'lgan Plenimi noxush tendensiyalar yig'ilib, SSSR inqiroz oldi vaziyatga shib qolganligini ilk bor e'tirof etdi. Mazkur Plenimda SSSR Prezidenti M.S.Gorbachyov tashabbusi bilan jamiyatni «qayta qurish» yo'li e'lon qilindi. O'zbekistonliklar jamiyatni qayta qurish, islohotlar yo'lini katta umid bilan kutib oldilar. Biroq tez orada ularning hafsalasi pir bo'ldi. O'sha davrda O'zbekistonga rahbarlik qilgan. I.Usmonxo'jayevning o'jizligi tufayli 1984-1987 - yillarda O'zbekistonga Markazdan 400 ga yaqin kadrlar rahbarlik lavozimiga yuborildi. O'zbekistonga yuborilayotgan «kadrlar desanti»ning tashkilotchisi KPSS Markaziy Qo'mitasining kotibi Ye.K.Ligachev edi. XX asrning 80 - yillar o'rtalarida qatag'onlik siyosati

⁷² Xalq xotirasi oldida bosh egamiz: Hujjatlar, ma'ruzalar, xotiralar, xatlar. T.: Sharq, 2001, -B. 48-51..

⁷³ Qarang: // Izvestiya, 1990, 14 fevral. .

⁷⁴ Alimova D., Golovanov A. Uzbekistan v 1917-1990 godı: protivoborstva idey i ideologiy. Toshkent., 2002. -S. 59.

yana boshlandi. Unga nafaqat milliy kadrlar, ijod ahli balki xo'jalik ahli va davlat arboblari ham tortildi. Markazning topshirig'i bilan ommaviy axborot vositalarida o'zbek xalqining milliy g'ururiga tegadigan tashviqot kuchaytirildi. Guyoki, O'zbekistonda nafaqat boshqaruv tuzumi, balki o'zbek xalqining o'zi ham korruptsiya botqog'iga botgan. O'sha davrda O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasining ikkinchi kotibi bo'lib ishlagan V.D.Anishchev, O'zbekiston Ministrlar Sovetining raisining birinchi o'ribosari bo'lib ishlagan V.I.Ogarok, Toshkent shahar partiyai Qo'mitasining birinchi kotibi bo'lib ishlagan B.S.Satin, O'zbekiston ichki Ishlar Vazirligining o'rinbosari bo'lib ishlagan Didarenko va boshqalar o'zbek xalqini kamsitishida, Markaz hukumatini mustahkamlashda faollik ko'rsatdilar. Markazdan yuborilgan Glyan, va Ivanov kabi tergovchilar tomonidan «Paxta ish», «O'zbek ishi», «Sharqiy front» degan ma'lum siyosat niqobi ostida minglab begunoh kishilar hibsga olinib qiynoqqa solindi. Ushbu - yillarda butun O'zbekiston bo'yicha 25 ming mas'ul xodimlar hibsga olingan⁷⁵. O'sha paytlarda respublikadagi qamoqxonalarda joy qolmagani uchun sudlanganlarning mingdan ortig'i jazoni o'tash uchun Sibir qamoqxonalariga jo'natildi⁷⁶.

O'sha - yillarda O'zbekiston Kommunistik Partiyasi markaziy Qo'mitasining birinchi kotibi bo'lib uzoq - yillar ishlagan o'zbek xalqining baxt-saodati yo'lida samarali faoliyat ko'rsatgan Sh.R.Rashidovning nomi ham badnom qilindi. Oddiy dehqondan tartib O'zbekiston Kommunistik partiyasi markaziy Qo'mitasi sekretarlari va hukumat a'zolarigacha bo'lgan xodimlarni qamash uchun birovlarini yozdirib olgan bir parcha qog'ozi kifoya edi. Ushbu holatdan xalq noroziligi kuchaydi. Norozilik ayniqsa xotin-qizlar orasida ko'paydi. 1986-1987 - yillarda respublikada 270 ayol o'zini-o'zi yondirib yubordi. Bu holat ularning sha'ni, qadriyatining toptalishi, haq huquqlarining buzilishiga nisbatan norozilik edi. Haqiqat va adolat keyinroq Islom Karimov O'zbekiston rahbari bo'lgach ro'yobga chiqdi. Islom Karimov tashabbusi bilan «Paxta ishi»ni ko'rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi. Agar o'sha - yillarda 4,5 ming kishi qamalgan bo'lsa, ulardan 3,5 mingdan ko'proq kishi oqlandi, qolganlari avf etildi. O'sha davrdagi mash'um voqyealarni yanada oydinlashtirish maqsadida tarixchi olimlar ilmiy-adqiqot ishlarini davom etkazmoqdalar.

Mavzu yuzasidan nazorat uchun savollar

1. Ma'muriy-buyorug'bozlik tizimi deganda nimani tushunasiz?
2. Mustabid tuzum ommaviy qatag'onlardan qanday maqsad ko'zlagan edi?
3. Mustabid tuzumning jazolovchi organlari OGPU, NKVD organlari haqida nimalarni bilasiz?

⁷⁵ Алимова Д., Голованов А. Узбекистан в 1917-1990 годы: противоборства идей и идеологий. Ташкент, 2002. -С. 75.

⁷⁶ O'zbekiston tarixi: T.: UAJBNT markazi 2003, - B. 523.

4. Sovet hokimiyati nima uchun ruhoniylar tabaqasiga va dinga o'ta keskin choralar qo'llagan?
5. Nima uchun XX asrning 40 - yillar oxiri, 50 - yillar boshida navbatdagi qatag'onliklar avj oldirildi?
6. Sovet hokimiyati, «paxta ishi», «o'zbek ishi» degan nomlar bilan o'zbek xalqini badnom qilishdan qanday maqsadni ko'zlagan edi?
7. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi mustahkamlanayotgan davrda O'zbekistonda kimlar rahbarlik lavozimlarida ishlagan edilar?
8. Sovet hokimiyati nima uchun siyosatdan yiroq bo'lgan oddiy insonlarni ham qatag'on etdi?
9. Qatag'onlik siyosati nima uchun aynan 1937-1938 - yillarda o'zining cho'qqisiga chiqdi?
10. 1937-1938 - yillarda O'zbekiston SSR Ichki ishlar Xalq Komissarligiga kimlar rahbarlik qilishgan?
11. XX asrning 40 - yillar oxiri, 50 - yillar boshlaridagi qatag'onliklar nima uchun aynan fan va madaniyat xodimlariga qaratildi?
12. «Paxta ishi» nima uchun «o'zbek ishi» degan nom bilan almashtirilgan edi?

Testlar:

- 1. Sovet jamiyatida kommunistik mafkuradan o'zgacha fikrlovchilarni ta'qib etish kimning davridan boshlangan edi?**
 - A. I.V.Stalin
 - B. N.S.Xrushchev
 - S. V.I.Lenin
 - D. L.Trosskiy
- 2. Partiya «dohiysi» V.I.Lenin vafotidan keyin I.V.Stalinning asosiy raqibi kim bo'lgan edi?**
 - A. N.I.Buxarin
 - B. A.I.Rыkov
 - S. L.Trosskiy
 - D. L.B.Kamenev
- 3. Respublikaning taniqli arboblardan iborat «18 lar guruhi»ning qaysi a'zosi O'zbekiston yer-suv ishlari xalq komissari bo'lib xizmat qilgan?**
 - A. M.Saidjonov
 - B. U.Ashurov
 - S. I.Xidiraliyev
 - D. R.Rahimboboyev

4. Mustabid tuzum tomonidan «Qosimovchilik guruhiga qanday ayblar qo'- yilgan edi»?

- A. Yer-suv islohotiga qarshi chiqib, millatchilik g'oyalarini ilgari surganlikda
- B. «Bosmachilik» harakatiga yon berib, millatchi tashkilotlar bilan aloqa bog'laganlikda
- S. Sovetlarga qarshi tag'ribot olib borib, jamoalashtirishga qarshi chiqqanlikda
- D. Xotin-qizlarni paranji tashlashi, boy-quloq va yer egalarini manfaatini himoya qilganlikda.

5. Sovet hokimiyati tomonidan ruhoniylarining asosiy qismi qachon qatag'on etildi?

- A. XX asrning 20 - yillarida
- B. XX asrning 30 - yillarida
- S. XX asrning 40 - yillarida
- D. XX asrning 50 - yillarida

6. XX asrning 80 - yillarida O'zbekistonda «Paxta ishi» iyuzasidan qancha kishi hibsga olinib, qancha kishi jazolandi?

- A. 25 ming kishi hibsga olinib, 4,5 ming kishi jazolandi.
- B. 40 ming kishi hibsga olinib, 7,5 ming kishi jazolandi.
- S. 15 ming kishi hibsga olinib, 3,5 ming kishi jazolandi.
- D. 30 ming kishi hibsga olinib, 5,5 ming kishi jazolandi.

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

- Takrorlash va mashqlar, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta tayyorgarlik ko'rish, eslab qolish.
- Yangi materialning mustaqi asosi: yangi adabiyotlar, Internet materiallari, qo'shimcha konspekt, mustaqil fikrlar bildirish.
- Ilmiy xarakterdagi ishlar: muammoli vaziyatlar, testlar, topshiriq va slaydlar tuzish.

Mavzu: IKKINCHI JAHON URUSHI - YILLARIDA O'ZBEK XALQINING FASHIZM USTIDAN QOZONILGAN G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI

1.1. Mashg'ulot topshiriqlar rejasi

O'quv vaqti: 2 soat ma'ruza, 2 soat seminar mashg'uloti.

Mashg'ulot turi: ma'ruza, o'tilgan mavzularni takrorlab, bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash.

Darsning maqsadi: talabalarga ikkinchi jahon urushning boshlanish sabablari, o'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan, g'alabaga qo'shgan hissasi, o'zbek jangchilarini frontdagi g'alabalari haqida aniq faktlar asosida ma'lumot berish, ularni erkin fikrlashga, shu mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlash, mustaqillik - yillarida ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan vatandoshlarimizga bo'lgan e'tiborni insonparvarlik g'oyalariga soslanganligini tushuntirish.

Ilmiy mashg'ulotning vazifasi:

O'rgatuvchi: mashg'ulot ishtirokchilarini faol qatnashishlarini tashkil etish, yangi olingan bilimlarini mustahkamlash, talabalarni ikkinchi jahon urushi millionlab odamlar umriga nuqta qo'ygan, insoniyat tarixining qayg'uli sahifalari ekanligi, hamda o'zbek xalqini ham ushbu urushdagi ishtiroki xususidagi bilimlarini turli manbalar asosida rivojlantirish, mavzuning alohida jihatlari, boshqa mavzular bilan aloqadorligini tushuntirish.

- **rivojlantiruvchi:** o'quv adabiyotlaridan to'g'ri foydalanish, mavzuga oid muhim muammolar bilan ishlashni o'rganish, mavzuga doir eng yangi ilmiy natijalar bilan natishtirish, tushuncha va iboralarni izohlash, talabalarga ikkita mustabid tizim ya'ni kommunistlar rahbarlik qilayotgan Sovet Ittifoki va fashistlar Germaniyasining to'qnashuvi sabablari, urush avjiga chiqqan vaqtda Stalin tomonidan minglab begunoh kishillarning ko'chirilishi va uning oqibatlarini keng qamrovli manbalar, ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntirish, talabalarga urushda demokratik kuchlar g'alabasini muhim ahamiyatini yoritib berish.

- **tarbiya beruvchi:** talabalarni mustaqil ishlashga jalb qilish, «fashizm» va «nasizm» atamalarini mazmun, mohiyatini yoritib berish, urush - yillarida front ortida fidokorona mehnat qilib fashizmni tor-mor bo'lishiga o'z xissalarini qo'shgan, minglab yetim bolalarni o'z bag'riga olgan kishilar faoliyati haqida keng qamrovli manbalar, ko'rgazmali qurollar yordamida ma'lumot yetkazish, mavzuni ravon til bilan talabalar uchun sodda usulda tushuntirish. Mavzu mohiyatini ochib berishda xalqimizning insonparvarlik, vatanparvarlik xislatlariga alohida e'tibor qaratish.

O'rganish texnologiyalari:

- **o'qitish usullari:** ma'ruza, aqliy hujum, klaster, skarbey usullaridan foydalanish jonli muloqot, plakatlar, tarqatma materiallar, fotosuratlar, ilmiy va badiiy adabiyotlar asosida mavzu mohiyatini talabalarga etkazish;

- **o'rganish turlari:** og'zaki testlar orqali tushuntirish, jamoaviy savol-javoblar, oldindan mavzu bo'yicha qisqacha konspektlar tuzish;

- **o'rganish yo'nalishlari:** ma'ruza matni, o'rganish texnologiyalari:

- **o'qitish usullari:** ma'ruza, aqliy hujum, klaster, skarbey usullaridan foydalanish; jonli muloqot, plakatlar, tarqatma materiallar, fotosuratlar, ilmiy va badiiy adabiyotlar asosida mavzu mohiyatini talabalarga etkazish:

- **o'rganish turlari:** og'zaki testlar orqali tushuntirish, jamoaviy savol-javoblar, oldindan mavzu bo'yicha qisqacha konspektlar tuzish;

- **o'rganish talablari:** auditoriyalarning texnik vositalar bilan ta'minlanishi, texnik vositalardan unumli foydalanish.

- **monitoring va baholish:** og'zaki nazorat, savol-javoblar, blits-so'rov.

Pedagogik jarayonlar:

- o'quv jarayonida mavzuning ahamiyati va uning o'rni bilan tanishtirish;

- mavzuning tuzilishi va tavsiya etinadigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar tafsiloti haqida tushuntirishlar berish;

- mavzuning ishlashning uslubiy va tashkiliy xususiyatlarini ochish, baholash muddati va shakli, o'qitish jarayonini tashkillashtirish jarayonining umumiy sxemasini tasniflash;

O'quv faoliyati natijalari:

- mavzuning nomlanishi va vazifalarini belgilash;

- faoliyatidagi alohida usuli va tashkiliy jihatlarni ochib berish;

- mavzuning umumiy va tashkiliy tuzilishlari to'g'risida atroflicha tushuntirish berish;

- Ikkinchi jahon urushning boshlanish sabablari va oqibatlarini, fashizmga qarshi kurashda O'zbekistonliklarning frontda va front ortidagi jasoratlarini aniq faktlar asosida yetkazish, mavzuning asosiy yo'nalishini belgilab berish;

- nazariy bilimlarning tizimlilik, amaliyligi;

- amaliy topshiriqlarni bajarishda nazariy bilim va shakllangan ko'nikmalardan foydalana olish;

- mavzuning asosiy mazmuni, yo'nalishi bo'yicha, ularning boshlang'ich bilimlarga ega bo'lishi.

1.2. Ma'ruzaning xronologik kartasi

1-bosqich. O'quv mashg'ulotlariga kirish – 15 daqiqa

- **o'qituvchining faoliyati:** tayyorgarlikni tekshirish, kerakli tarixiy manbalar haqida ma'lumot, ma'ruza haqida tushuntirish berish, o'quv rejasi bilan tanishtirish, adabiyotlar to'g'risida ma'lumot berish, dars davomida talabalar bilimini baholab borish usullari haqida tushuntirishlar berish;

- **talabaniy faoliyati:** darsga tayyorgarligi, ma'ruza matni bilan va mavzuga oid rejalar tanishganligi (talabalar soni, tashqi ko'rinishi, o'quv qo'llanmalar va ko'rgazmali qurollar);

- **uslublar, shakllar, usullar:** yo'riqnoma, oldin so'rash, topshiriq kartochkalari

2-bosqich. Asosiy qism – 55 daqiqa

- **o'qituvchi faoliyati:** mavzuni yoritishga kirilishi, o'tgan mavzularni takrorlash, ma'ruza matnini tarqatish, uni yaxshi o'zlashtirib olishni ta'kidlash, mavzu rejalarini mavzularining har biriga alohida tushuntirish berish, aqliy hujum, klaster, bumerant usullaridan foydalanish, jonli muloqot, tarixiy atamalarga izohlar berish, ma'ruza matnini o'qish mobaygida slaydlar orqali atroflicha tushuntirib berish;

- **talabaniy faoliyati:** bilimlarni mustahkamlab olish, mavzuni qunt bilan eshitish, muhim joylarini konspekt qilib olish, tushunmagan iboralar bo'yicha savollar berish, aniqlashtirib olish, mavzuni tahlil qilish;

- **uslublar, shakllar, usullar:** oldindan so'rash, blits-so'rov, aqliy hujum, bumerant usulidan foydalanish.

3-bosqich. Yakunlovchi qism-10 daqiqa

- **o'qituvchi faoliyati:** mavzuni yakunlash, talabalar diqqatini asosiy mavzuga qaratish; dars jarayonida faollik bilan ishtirok etgan talabalarning faoliyatini baholash, mustaqil ish mavzusini berish, baholash;

- **talabaniy faoliyati:** o'tilgan mavzuni tahlil qilish, dars jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish mustaqil ish mavzusini yozib olish;

- **uslublar, shakllar, usullar:** guruhlarda ishlash, topshiriq kartochkalari.

1.3. O'quv-uslubiy materiallar

1.3.1. Ma'ruza matni

Mavzu: Ikkinchi jahon urushi - yillarida o'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'labaga qo'yshgan hissasi

Reja:

1. Ikkinchi jahon urushning boshlanishi, O'zbekistonning urush girdobiga tortilishi

2. Urush yillarida O'zbekistonning sanoati, qishloq xo'jaligi, fan va madaniyati

3. O'zbekistonlik jangchilarning frontga ko'rsatgan jasoratlari

4. Urushning tamom bo'lishi, Fashizmning tormor etishda O'zbekistonning munosib o'rni

Tayanch iboralar: Jahon urushi, Antifashistlar kaolasiyasi, Fashizm, urushni keltirib chiqargan sabablar, O'zbekistondagi safarbarlik, urush - yillarida sanoat, qishloq xo'jaligi, fan, maorif, madaniyat, baynallilallik yordami, O'zbekistonlik jangchilarning jasoratlari, evakuasiya, fidokorona mehnat, gumanizm, O'zbekistonlik partizanlar, urush asoratlari, xotira va qadrlash kuni

1. Ikkinchi jahon urushning boshlanishi O'zbekistonning urush girdobiga tortilishi.

Insoniyat tarixida ikkinchi jahon urushi eng atta fojialardan biri sifatida o'rin olgan. Bu urushda jahonning 72 mamlakati qo'shilib ulardagi armiyalar safiga 110 mln ishi safarbar qilingan edi. Urush davomida qariyb 55 mln kishi o'ldirilib, minglab shahar va qishloqlar, zavod va fabrikalar, madaniyat obidalari, kommunikasiya va irrigasiya inshootlari vayronaga aylantirilgan edi. Ko'rilgan zarar va sarflangan mablag'larning umumiy miqdori 4 trln dollarni tashkil qildi.

1939 - yil 1 sentyabrda fashistlar Germaniyasi qo'shinlarining Polshaga bostirib kirishi Angliya va Fransiya uchun kutilmagan holat edi. Ular 3 sentyabrda Germaniyaga urush e'lon qilgan bo'lsalarda qahramonona jang qilayotgan polyak armiyasiga real harbiy yordam ko'rsata olmadi. Shu tariqa ikkinchi jahon urushi boshlanib ketdi. 1939 - yil 23 avgutsdagi sovet-german bitimining mahfiy qo'shimcha bayonnomasiga muvofiq SSSR Germaniya bilan bir vaqtda Polshaga hujum qilish kerak edi. Lekin Stalin bu masalada Gitlerni aldadi. Sovet qo'shinlarini urushga tayyor emasligini bahona qilib, Germaniyadan mag'lubiyatga uchragan Polshaning sharqiy hududlariga aniqrog'i, G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiyaga 17 sentyabrda o'z qo'shinlarini «agressor» sifatida emas «xaloskor» sifatida kiritdi. 1940 - yilda SSSR Boltiqbuyi respublikalari va Bessarabiya (hozirgi Moldaviya)ni ham egalladi.

Ikkinchi jahon urushini yirik davlatlar o'rtasidagi ixtiloflar, agressiv davlatlar – nasistlar Germaniyasi, fashistlar Italiyasi, militaristik Yaponiya boshladilar. Ular orasida Germaniya uyushtiruvchi, yetakchi rol o'ynaydi.

Ikkinchi jahon urushining dastlabki davrida vaziyatning Germaniya uchun qulayligi fashistlar armiyasining tayyorgarlik darajasining sovet armiyaidan yuqoriligi, Germaniya harbiy-iqtisodiy salohiyat jihatdan Yevropa mamlakatlari hisobiga SSSRdan uzib ketganligi sababli fashistlar Germaniyasi 1941 - yil 22-iyun yakshanba kuni tong saharda hujum qilmaslik to'g'risidagi shartnomani buzib, urush e'lon qilmasdan Sovet Ittifoqiga hujum boshladi. Fashistlarning maqsadi SSSRni bosib olish boyligini talash, millionlab keshilarni qirish va qolganlarini qul qilishdan iborat edi.

Germaniya bilan hamkorlikda uning ittifoqchilari – Italiya, Finlandiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya ham Sovet Ittifoqiga qarshi urushga kirdilar.

Gitler tomonidan SSSRga qarshi tuzilgan reja «Barbarossa» (sariqsoqol)⁷⁷ deb, nomlanib, unda «Germaniya qurolli kuchlari Sovet Rossiyasini qisqa muddatli kompaniya davomida Angliyaga qarshi urush tugagunga qadar tor-mor keltirishga tayyor bo'lishlari lozimligi, Ruslarning G'arbiy Yevropadagi quruqlikdagi qo'shinlarining asosiy kuchlari dadil operatsiyalarda tanklarning tez harakatlanishi va chuqur kirib borishi vositasida yo'q qilinishi kerakligi kabilar belgilangan⁷⁸.

Urushning dastlabki kunlaridanoq urush girdobiga tortilgan O'zbekistonning ham moddiy va ma'naviy kuchlarini urushga safarbar etishga kirishildi. Barcha viloyat, shahar tuman harbiy komissariatlari harbiy xizmat majburiyatida bo'lganlarni safarbar etish bilan shug'ullandilar. Urushning dastlabki oyidayoq yuz minglab vatandoshlarimiz qo'lga qurol olib frontga jo'nab ketdilar.

O'rta Osiyo harbiy okrugi front uchun jangchilar va zobitlar tayyorlaydigan uchoqqa aylantirildi. Bu okrug 1941 - yil iyunidan, 1942 - yil oxirigacha bo'lgan muddatda harbiy safarbarlik asosida 109 ta harbiy qo'shilma tuzdi, harakatdagi armiyaga va Oliy Bosh Qumondonlik qarorgohi zahirasi 86 deviziya hada brigada jo'natdi.

O'zbekiston hukumati va vatanparvar kuchlari milliy harbiy qo'shilmalar tuzish tashabbusi bilan chiqdilar. 1941 - yil 13-noyabrdan, 1942 - yil martgacha bo'lgan davrda 14 ta milliy harbiy qo'shilmalar jumladan, 9 ta o'qchi brigada, 5 ta otliq askardar deviziya tuzilib frontga jo'natildi.

1941 - yilda O'zbekiston aholisi jami 6,5 million kishini tashkil etgan, ularning yarmini bolalar va keksalar tashkil etgan bo'lsa, yaroqli odamlarimizning 50-60 foizi, aniqrog'i 1433230 kishi urushga safarbar bo'lgan⁷⁹.

Urush yillarida O'zbekistonga yuzga yaqin sanoat korxonasi jumladan, 48 ta mashinasozlik metall ishlash, kimyo va boshqa harbiy texnika va mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yirik zavodlarning asbob-uskunolari ko'chirib keltirildi, zudlik bilan barpo etilgan binolarga joylashtirildi va montaj qilindi. Toshkentda joylashtirilgan Rostselmash zavodi «Katyusha» va minomyot snaryadlari, aviasiya zavodi jangovar samoletlar yetkazib bera boshladi.

1941 - yil 10-iyunda tuzilgan maxsus Respublika komissiyasi va mahalliy sovetlarning ijroiya qo'mitalari qoshida tuzilgan alohida bo'limlar keshinlarni hisobga olish va joylashtirish bilan shug'ullandilar. 1941 - yil 3 dekabrda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi ko'chirib keltirilgan fuqarolarni qabul qilish va joylashtirish yuzasidan maxsus qaror qabul qildi.

O'zbekiston bo'yicha 1942 - yil bahorigacha SSSRning g'arbiy xududlaridan ko'chirib keltirilgan 716 ming kishi qabul qilinib olindi, ishga joylashtirildi, ular uchun yashash sharoitlari yaratildi. Ko'chirib keltirilgan 200 mingdan ko'proq yetim bolalarni o'z bag'riga oldilar. Ko'plab o'zbek oilalari 4000 dan ortiq yetim

⁷⁷Germaniyada XII-XIII asrlarda hukmronlik qilgan Shtaufenlar sulolasi mashhur vakili Fridrix 1 Barbarossa nomidan olingan.

⁷⁸ Vatan urushi 1941 – 1945 rasm va kinohujjatlarda. 1 tom. Moskva, 1985. B. 29.

⁷⁹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.: O'zbekiston, 1996. B. 80..

bolalarni o'zlariga farzandlikka oldilar, topgan-tutganlarini ular bilan baham ko'rdilar.

Kommunistik partiya boshlangan urushni Ulug' Vatan urushi deb, e'lon qilgan bo'lsada, o'zbeklar uchun u bunday urush emas edi. Chunki o'sha davrda biz Rossiyasining mustamlakasi edik. Mustaqillik uchun harakatning bostirilganligi, e'tiqod uchun ta'qiblar, jamoalashtirish davridagi zo'rovonliklar, XX-asrning 20-30 - yillaridagi ommaviy qatag'onlar xalqimiz xotirasidan uchmagan edi. Shuning uchun sovet mustabid tuzumini himoya qilishni xalqimiz kam uylar edi. Lekin shu bilan birgalikda o'zbek xalqi fashizmning insoniyatga bolshevizm balosidan ham katta xavf solayotganini, unga qarshi kurashish adolatli ekanligini tushunib yetdi va dushmanga qarshi kurashga otlandi. Shu jihatdan Prezident I.A.Karimovning «Urush davri voqyealari, jangchilarimizning jasoratlarini tahlil etishda va ta'riflashda» ham mafkurabozlikni kamroq aytishga doir chaqirig'i nihoiyatda dolzarb bo'lib jaranglaydi. Prezident haqli ravishda bunday deb, ta'kidlagan edi: «Ikkinchi jahon urushiga qanday qaralmasdan, bu urush qaysi g'oya ostida va kimning qo'li bilan olib borilgan bo'lmasin, o'z Vatani, el-yurtining yorug' kelajagi, beg'ubor osmoni uchun jang maydonlarida halok bo'lganlarni, o'z umrlarini bevaqt xazon qilgan insonlarni doimo yodda saqlaymiz. Bu achchiq lekin oliy haqiqatni unutishga hyech kimning haqqi yo'q va bunga yo'l ham bermaymiz»⁸⁰.

2. Urush - yillarida O'zbekistonning sanoati qishloq xo'jaligi, fan va madaniyati

Respublika sanoati urush manfaatlariga moslashtirilgan holda jadal rivojlantirildi, yangi tarmoqlar yaratildi. 1941 - yil oxirlarida O'zbekistonning 300 ta sanoat korxonasi faqat harbiy mahsulot bera boshladi.

1942 - yil 10 noyabrda VKP (b) Markaziy Qo'mitasi va SSSR Xalq Komissarligi Soveti «O'zbekiston SSRda beshta gidroelektr-stansiya qurilishi to'g'risida» qaror qabul qildi. O'zbekistonda metallurgiya zavodi qurish, ko'mir va neft qazib olishni ko'paytiri tadbirlari ham belgilandi.

Urush yillarida Buzsuv daryosi o'zanlarida Tovoqsoy, Oqqovoq, Salor, Qo'yibo'zsuv, Oqtepa, Qibray GESlari, shaharlar va yirik korxonalar yonida kichik GESlar ishga tushirildi. 1943 - yilda O'zbekistonda eng yirik gidroelektrostansiya Farhod GES qurilish boshlandi, qurilish zarur materiallar bilan ta'minlandi va 10 oyda qurib bitkazildi.

O'zSSR XKS 1942 - yil 17 iyunda Bekobodda metallurgiya zavodi qurish to'g'risida qaror qabul qildi. Zavod qurilishida 30 mingdan ko'proq kishilar ishtirok etdilar. O'zbekistonning birinchi metallurgiya zavodi 1944 - yil 5-mart kuni dastlabki mahsulotlarini bera boshladi va tez kunlarda zavodning birinchi, 1945- yil fevraldan ikkinchi navbati ishga tushirildi.

⁸⁰ Karimov I.A.Vatan sajdogoh kabi muqaddasdir. – T.: O'zbekiston, 1996. – B. 81.

Urush - yillarida O'zbekistonda hammasi bo'lib 280 ta yangi sanoat korxonalari qurilib ishga tushirildi. Sanoatning yangi tarmoqlari aviasiya, stanoksozlik, og'ir mashinasozlik, qora va rangli metallurgiya va boshqa tarmoqlar vujudga keldi.

Sanoatchilarimizning fidokorona mehnati tufayli O'zbekiston Sovet Armiyasining qurol-aslahonasiga aylandi. Urush - yillarida O'zbekiston frontga 2090 samolyot, 17342 aviamotor, 2318 ming aviabomba, 1,7 mingdan ortiq minolyot, 22 mln dona mina, 560 ming snaryad, millionlarcha granata, 330 ming parashyut, harbiy ehtiyojlar uchun 100 ming km dan ortiq maxsus sim, 125 ming km telefon kabellari va boshqa mahsulotlar yetkazib berdi. Bu O'zbekistonliklarning fashist bosqichlarni tor-mor etishda qo'shgan o'lkan hissasi sifatida jahon tarixida munosib o'rin oldi.

Respublikamizda transport va aloqa vositalarining to'xtovsiz va samarali ishlashni ta'minlashga e'tibor berildi. 1943 - yil 25-yanvarda «Toshkent tomir yo'li ish to'g'risida» maxsus qaror qabul qilindi. Temur yo'l harbiy holatga o'tkazildi, unda ishlovchilar urushga safarbar etilgan deb, hisoblandi, harbiy xizmatchilar kabi qattiq intizomga rioya etish majbur qilib qo'yildi.

Urush yillarida Toshkent-Samarqand-Ashxobod, Toshkent-Samarqand-Buxoro telefon aloqa yo'llari qurildi. 1943 - yilda qurib ishga tushirilgan 500 kilometrlik telefon yo'li Respublika poytaxtini Xorazm viloyati va Qoraqolpog'iston bilan bog'laydi.

Fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan g'alabaga O'zbekiston qishloq xo'jaligi mehnatkashlarining ham katta hissalarini bor. Qishloq xo'jaligi oldida front va front ortini oziq-ovqat mahsulotlari bilan, sanoatni xom ashyo bilan yetarli darajada ta'minlashdek g'oyat qiyin vazifa turar edi.

Buning uchun qishloq xo'jaligini g'oyat qisqa muddat ichida butun xalq xo'jaligi kabi harbiy izga o'tkazish, qishloqlardagi barcha moddiy resurslarni safarbar etish, texnika ekanlari, don, kartoshka va sabzavotlar ekishni ko'paytirish, chorvachilik mahsuldorligi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish samaradorligini oshirish lozim edi.

Bu vazifalarni hal qilish bir qator omillar tufayli murakkablashib ketgan edi. Birinchidan, u davrga kelib markaz olib borgan siyosat natijasida paxta yakka hokimligi qaror topganligi qishloq xo'jaligi boshqa sohalarning rivojlanishini birmuncha qiynlashtirdi. Chunki ajdodlar to'plagan tajriba unutila boshlagan edi. Buning ustiga Markaz O'zbekiston oldiga oziq-ovqat bilan ta'minlash vazifasini qo'yar ekan, paxta maydonlarini kamaytirmaslikni ham talab qildi. Chunki paxta mudofaa sanoati uchun g'oyat muhim ham ashyo hisoblanar edi.

Ikkinchidan, butun mamlakat miqyosida sanoat, harbiy izga ko'chirilganligi sababli, traktorlar, seyalkalar, yuk mashinalari va boshqa uskunalar bilan qishloq xo'jaligini ta'minlash to'xtatildi. Yenilg'i, ehtiyot qismlar olib kelinishi keskin kamaytirildi. Natijada qishloq xo'jalik sohasining moddiy-texnika bazasi zaiflashdi, qo'l mehnatining ulushi oshdi va ot-ulov bilan bajariladigan ishlar hajmi ko'paydi.

Uchinchidan, malakali kadrlar va qishloq aholisining mehnatga yaroqli asosiy qismi frontga safarbar etildi. Bundan tashqari 155 mingdan ortiq o'zbekistonliklar mehnat batalonlariga jalb qilindilar. Buning oqibatida 1945 - yilga kelib qishloqdagi mehnatkash dehqonlar soni 40% ga kamaydi. Ayniqsa mexanizatorlar soni keskin qisqardi. Ularning soni urush boshida 27888 kishini tashkil qilgan bo'sa, 1942 - yilga kelib 2775 kishiga tushib qoldi. Ishlab chiqarishga xotin-qizlar, keksalar, o'smirlar jalb qilindi. Paxta tayyorlash rejasi 1941 - yilga nisbatan 45 kun oldin bajarildi va davlatga 1,6 mln tonna paxta topshirildi. Ammo, 1942, 1943 - yillarda reja bajarilmay qolganligi uchun, yuqorida ta'kidlagan sabablar bo'lsa ham O'zbekistonni o'sha vaqtdagi rahbari Usmon Yusupovga xayfsan berildi. Vaholanki, u O'zbekistonni urush davrida mohirlik bilan boshqargan edi.

Qishloq xo'jaligida O'zbekiston uchun yagi tarmoq-qand lavlagi yetishtirish yo'lga qo'yildi. Samarqand, Farg'ona, Toshkent, Qashqadaryo viloyatlari qand lavlagi yetishtirish bo'yicha ixtisoslashtirildi, respublika bo'yicha 1944 - yilda davlatga 1 mln, 373 ming sentner, 1945 - yilda esa 1 mln 646 ming sentner qand lavlagi yetishtirildi. Zirabo'loq, Krasnogvardeysk, Qo'qon, Yangiyo'lda qand zavodlari qurildi.

Respublikamiz qishloq xo'jalik xodimlari urush - yillarida davlatga 4 mln, 806 ming tonna paxta ham ashyosi, 1282 ming tonna don, 54,1 ming tonna pilla, 482 ming tonna kartoshka va sabzavot, 57,5 ming tonna meva va 22,3 ming tonna jun yetkazib berdilar.

Respublika irrigasiya qurilishi yuksak sur'atlar bilan davom etdi. Shimoliy Farg'ona, Shimoliy Toshkent, Yuqori Chirchiq, So'x-Shohimardon, Uchqo'rg'on kanallari, Rudasoy, Kosonsoy suv omborlari qurildi, Natijada faqat 1942-1943 - yillar mobaynida 546 ming gektar yer o'zlashtirildi.

Urushning dastlabki kunlaridanoq Ittifoq Fanlar Akademiyasining o'zbek filiali, respublikada ishlab turgan 75 ta ilmiy muassasalari, shu jumladan 25 ta ilmiy-tadqiqot institutlari, 23 ta ilmiy stansiya va boshqalar, barcha olimlar xo'jalikni harbiy izga solish bilan aloqador muammolarni hal etishga jalb etildi. Ularning zavodlar, fabrikalar, temir yo'l va avtomobil yo'llari, transport korxonalari bilan bevosita aloqalari o'rnatildi.

Geolog olim N.M.Abdullayev va boshqalarning tadqiqotlari natijasida qalay, volfram, molibden, o'tga chidamli metallar, nodir metalla rva boshqa turdagi xomashyo konlari topildi va o'zlashtirildi. A.S.Uklonskiy boshchiligidagi geologlar guruhining o'zbek metallurgiya kombinati qurilishni loyihalashtirish va ularni foydalanishga topshirishdagi xizmatlari katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Urush - yillarida gumanitar fanlar ham ancha rivojlandi. Toshkentga ko'chib kelgan yirik tarixchi, arxeolog-huquqshunos, sharqshunos, adabiyotshunos olimlar o'zbekistonlik hamkasblari bilan O'zbekiston xalqlari tarixi, madaniyati va adabiyotining muhim masalalarini ishlab chiqdilar. V.V.Struve, V.A.Shishkin, I.K.Dodonov, V.Yu.Zoxidov, X.Sh.Inoyatov, A.Yu.Yakubovskiy, M.E.Masson, S.P.Tolstov, Ya.G'G'ulomov va boshqlar O'zbekistonning eng qadimgi va o'rta asrlar tarixi, moddiy madaniyati va ma'naviyati, O'rta Osiyo xalqlarining

etnogenezi bo'yicha qator asarlar tayyorladilar. Ikki tomlik «O'zbekiston SSR tarixi» ning yaratilishi tarix fanining katta yutug'i bo'ldi.

Yozuvchi Aleksey Tolstoy rahbarligida rus va o'zbek olimlari birgalikda «O'zbekiston adabiyoti tarixi» asarini yaratdilar.

1943 - yil 27 sentyabrda SSSR hukumati O'zbekistonda Fanlar Akademiyasini tashkil haqida qaror qabul qildi. 1943 - yil 4 noyabrda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi ochildi, uning birinchi prezidenti etib taniqli olim T.N.Qoriniyozov saylandi. Mahalliy millat vakillaridan fan doktorlari va nomzodlari tayyorlash yo'lga qo'yildi. 1944 - yilda O'zRFA Prezidiumida aspirantura tashkil etildi.

1945 - yilda oliy o'quv yurtlari soni 1940 - yilga nisbatan 3 taga ko'paydi. Ular 33 tani tashkil etdi, talabalar soni esa 19,1 mingdan, 21,2 ming kishiga ortdi. Urush - yillarida hammasi bo'lib 10 mingdan ko'proq oliy malakali va 3,7 mingga yaqin o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassis tayyorlandi.

Urush - yillarida yaratilgan Oybekning «Navoiy» va «Qutlug'qon» romanlari, Abdulla Qahhorning «Oltin Yulduz» qissasi jamoatchilikning yuksak bahosiga sazovor bo'ldi.

She'riyatda ulkan yuksalish bo'ldi. Hamid Olimjonning «Qo'lingga qurol ol» va «Jangchi Tursun», G'afur G'ulomning «Sen yetim emassan», «Men yahudiyman», Maqsud Shayxzodaning «Ona kuzatmoqda» va «Kapitan Gastello» she'rlari fashizm kirdikorlarini fosh etib, g'alaba qozonishga chuqur ishonchni kuylab, xalqning jangovar ruhini ko'tardi.

O'zbekiston san'ati xodimlari mehnatkash xalqqa, jangchilarga xizmat qilib, ularning ruhini ko'tarib turdilar. San'atkorlardan, tuzilgan 30 dan ortiq brigadalar frontdagi jangovar harbiy qismlarning askar va zobitlari uchun 400 dan ko'proq konsert berdilar. Bu tadbirlarda faol qatnashgan atoqli san'atkorlar – Halima Nosirova, Tamara Xonum, Abror Hidoyatov, Lutfixonim Sarimsoqova, Sara Eshonturayeva, Abbos Bakirov va boshqalar xalq hurmatiga sazovor bo'ldilar.

3. O'zbekistonlik jangchilarning frontda ko'rsatgan jasoratlari

Urushning dastlabki kunlaridayoq G'arbiy chegaralardagi harbiy qo'shilmalar tarkibida xizmat qilayotgan o'zbekistonliklar fashist bosqinchlarga qarshi jangga kirdilar. Chegarada joylashgan Brest qal'asining 50 dan ortaqroq millatga mansub jangchilari orasida o'zbeklardan Doniyor Abdullayev, Bobohalil Kashanov, Ahmad Aliyev, Nurim Siddiqov, O'zoq O'tayev va boshqalar bor edi. Ular qal'a himoyachilari bilan yelkama – yelka turib dushmanining katta kuchlariga qarshi qariyb bir oy davomida oxirgi tomchi qonlari qolguncha jang qildilar.

O'zbekistonlik jangchilar qatnashgan Brest, Smolensk, Kiyev, Odessa, Sevastopol va Leningradning qahramanona himoyasi fashistlar Germaniyasini «Yashindek tez urish» qimni rejasiga dastlabki zarba bo'ldi.

Toshkentda uzoq yillar xizmat qilgan general I.V.Panfilov Almati shahrida turkistonliklardan diviziya tuzdi. Uning komandirlari tarkibida Toshkent piyoda

bilim yurti va O'rta Osiyo harbiy okrugining harbiy-siyosiy bilim yurtida ta'lim olgan 180 ta zobit bor edi. General I.V.Panfilov diviziyasi Moskva ostonalaridagi Volokolamsk yo'nalishida qattiq janglar qildi. Diviziya jang maydonida dushmanining 114 tankini, 26 ming askar va zobitlarini, 5 ta samolyot va boshqa ko'plab texnikasini qo'lga oldi.

O'zbekistonda tuzilgan 258-o'qchi diviziya askarlari Moskva ostonalaridagi janglarda 9000 dan ko'proq dushmaning askar va zobitlarini yer tishlatib, 137 aholi yashaydigan punktlarni ozod etib, birinchilardan bo'lib, Oka daryosiga chiqib oldi, ko'plab jangovar texnikani qo'lga kiritdilar.

Dushman Moskva ostonasida tor-mor etilganidan keyin sovet qo'shinlari fashistlarni ashddat bilan ta'qib etishni kuchaytirdilar. Masalan, sovet axborot byurosi xabarlariga ko'ra, Kalinin frontida 1941 - yilning 28 dekabridan, 1942 - yilning 3 yanvarigacha bo'lib o'tgan jangda dushmanning 19 ta tanki, 8 ta samolyoti, 3891 ta vintovkasi, 274 ta pulemyoti, 686 avtomati, 53 ta minamyoti, 929 ta avtomashinasi, 632 ta motosikli qo'lga kiritilgan⁸¹. Bu janglarda ko'plab o'zbekistonlik jangchilar ham matonat ko'rsatganlar.

O'zbekistonliklar 62 va 64 armiyalar safida turib tarixiy Stalingrad jangida qahramonona jang qildilar. Janglar avjiga chiqqan vaqtda Stalingradga Samarqand va Farg'onada tuzilgan 90 va 94 o'qchi brigadalari yetib kelib jangga kirdilar. Bu brigadalar asosan o'zbek yigitlaridan tuzilgan bo'lib, komandirlari orasida S.Nuritdinov, V.Umarov, A.Murodxo'jayev, F.Norxo'jayev va boshqalar bor edi. 21 otliq askrlar diviziyasining jangovar ruhida jang qilishida diviziya komissari Mullajon Uzoqovning xizmatlari katta bo'ldi.

O'zbekistonlik jangchilardan 2738 kishi «Stalingrad mudofaasi uchun» medali bilan mukofaatlandi.

1943-yil yozida Kursk yonida bo'lgan qattiq janglarda O'zbekistonda tuzilgan 62- va 69-o'qchi diviziya jangchilari jasorat ko'rsatdilar. O'zbekistonliklar 5- va 15-o'qchi diviziyalar hamda 5 gvardiyachi va 62 gvardiyachi o'qchi diviziyalar tarkibida ham jng qildilar. «Oryol» diviziyasi farxiy nomini olgan 5 o'qchi diviziya tarkibida farg'onalik Ahmadjon Shukurov ham bor edi. Zolotoryovka qishlog'i uchun qattiq janglarda Ahmadjon Shukurov matonat ko'rsatdi, dushmanning 110 ta askar va zobitlarini yer tishlatdi va 15 tasini asir oldi. Bu jasorati uchun unga Qahramon unvoni berildi va Zolotoryovka qishlog'i o'sha paytda boshlab Shukurovka deb, ataladigan bo'ldi.

Kurskdagi porloq g'alabadan so'ng Qizil Armiyaning 2000 km uzunlikdagi frontda qudratli strategik hujumi boshlanib ketdi. Dneprni birinchi bo'lib kechib o'tganlar orasida G'ijduvon tumanidan bo'lgan starshina Vali Nabiyeu, andijonlik Qambarali Do'smatov, qoraqolpoqlik Xudoybergan Shoniyozov, shofirkonlik Sharif Ergashev va boshqalar bor edi. Dneprni kechib o'tishda, uning o'ng qirg'og'idagi istehkomlarni egallashdi ko'rsatgan jasorati uchun jami 2348 jangchiga shu jumladan, 26 ta o'zbek yigitlariga Qahramonlik unvoni berildi.

⁸¹ Vatan urushi, 1941-1945 y. rasm va kinohujjatlarida. 1-tom. Moskva, 1985. B. 399.

O'zbekistonlik janchilar Leningrad qamalni yo'q qilish, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya va Boltiqbuyi respublikalarini dushmandan ozod qilish uchun bo'lgan janglarda ham qahramonlik namunalarini ko'rsatdilar. 1944 - yil kuz oylariga kelganda dushman mamlakatdan haydab chiqarildi. SSSR chegaralari qayta tiklandi.

Dushmanni, tor-mor etishda partizanlar harakatini o'rni va roli katta bo'ldi. Urushning dushman ustunlik qilgan dastlabki davrida butun-butun harbiy qismlar dushman qurshovida qolib ketdi, ko'plab askar va zobitlar noilojlikdan asirga tushib qoldilar. Harbiy asirlarning soni 5 mln kishidan ortiqroq bo'lib, ular orosida minglab o'zbekistonliklar ham bor edi.

Dushman ishg'ol etgan tumanlar aholisining qamalidan chiqib olgan yoki harbiy asirlikdan qochgan jangchilar, tog'larga, o'rmonlarga yashirinib, partizancha kurashga o'tdilar.

«Chekist» partizan otryadining razvedkachisi, qo'rqmas partizan Mamadali Topiboldiyevning nomi Belorussiyada mashhur bo'ldi. U dushmanining 67 ta askar va zobitlarini yo'q qilib, 180 ta sini asirga oldi. M.Topiboldiyev ko'rsatgan jasorati uchun Qahramon unvoniga sazovor bo'ldi. Belorussiyaning Pisarevo qishlog'i o'zbek xalqining jasur o'g'loni nomiga Topiboldiyevka deb ataldi. Gomel atrofidagi «Temir yo'l urushi»da ishtirok etgan Jonibek Otaboyev, Bryansk atrofida dushmanga to'satdan zarba bergan I.Musayev, A.Hakimov, I.Qosimov va boshqalarning nomlari urush salnomasidan o'chmas o'rin oldi.

O'zbekistonlik janchilar Yevropa xalqlarini fashistlardan ozod etishda ham faol qatnashdilar. Yevropa xaloskori, birinchi o'zbek generali 57- gvardiyachi diviziyasining qumondoni Sobir Rahimov Polshada shonli xotira qoldirdi. Uning diviziyasi Kavkazdan Sharqiy Prussiyagacha bo'lgan masofani qattiq janglar bilan bosib o'tdi. Ko'rsatgan harbiy jasorati uchun u to'rt marta Qizil Bayroq ordeni, Suvorov ordeni, Qizil Yulduz ordeni va ko'plab medallar bilan taqdirlandi. 1943 - yil martda unga general-mayor unvoni berildi. 1943 - yil may oyidan, 1944 - yil aprelgacha bo'lgan muddatda Moskvada Oliy Harbiy Akademiyada ta'lim oldi. Sobir Rahimov Akademiyani tamomlab, avval Belorussiyani, ozod etishda, so'ngra Polshani bir qator shaharlarini ozod etish uchun bo'lgan janglarda sarkardalarga xos harbiy san'atini namoyish etdi. 1945 - yil 26 martda Gdansk shahrini ozod etish uchun bo'lgan janglarda qahramonlarcha halok bo'ldi.

Sobir Rahimovga o'limidan so'ng Qahramon unvoni berildi. Polsha xalqi general Sobir Rahimov nomini e'zozlab kelmoqda. Gdansk shahridagi ko'chalar, maktablarga general Sobir Rahimov nomi berilgan.

O'zbekistonliklar Yevropa mamlakatlarida avj olgan Qarshilik ko'rsatish harakatida ham faol qatnashdilar. Ular dushmanning maxsus lagerlaridan qochib, Chexoslovakiya, Polsha, Yugoslaviya, Gresiya, Fransiya'dagi qarshilik harakatiga qo'shilib jang qildilar.

Fashistlar Germaniyasi Vermaxti⁸²ning 1942 - yil dekabr oyidagi buyrug'iga binoan harbiy asirlardan «Rus ozodlik armiyasi», «Turkiston legion», «Volga-Ural legion» kabi harbiy qo'shilmalar tuzishib, ulardan partizanlarga qarshi kurashda foydalanishdi. Chet el tarixiy manbalarida bunday tuzilmalarga jalb etilganlar soni qariyb 1 mln kishiga yetganligi ko'rsatiladi. Bunga ehtimol Stalinning asirlikka tushib qolganlarni vatan xoinlari deb hisoblagani ham o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Haqiqatda esa ko'pgina harbiy asirlar bunday legionlarga majburan kiritilgan edi, ular yashirin guruhlar tuzib partizanlar bilan aloqa bog'lash yo'lini qidirganlar. Masalan, 1944 - yil yanvarida Gitlerchilar «Turkiston legion» otryadini Chernogoriyada yugoslaviyalik partizanlarga qarshi jangga soladilar. Zobit S.Fayziyev mahalliy aholi bilan aloqa bog'laydi va uning ko'rsatmasi bilan legiondagi 28 ta o'zbek yigitlari fashist komandirlarini otib tashlab, qurol-aslahalari bilan toqqa, partizanlar tomoniga o'tadi. Dushmanga qarshi mardona kurash olib borgan harbiy asirlar urush tugab o'z Vataniga qaytib kelgach gumon ostida bo'ldilar, ishga joylashish, uy joyli bo'lishda qiynaldilar. O'zbekistonlik harbiy asirlaridan 15 mingdan ortiqrog'i yana lagerlarga endi sovet hukumatining lagerlariga tashlandi va ularga shafqatsizlarcha munosabatda bo'lindi. Bunday hollar Stalin va uning atrofdagilar yaratgan ishonmaslik va gumonsirashning oqibatlari edi.

Urush o'zining so'nggi pallasiga kirdi. Qahramonlar-Botir Boboyev, Tojiali Boboyev, Solih Umarov, Shuhrat ordenining to'liq kavaleri Abdulla To'qmoqov va Said Nomozovlar Berlinni zabt etishda qahramonlarcha jang qildilar. «Berlin olinganligi uchun» medali bilan o'zbekistonlik jangchilardan 1706 kishi taqdirlandi. Fashistlar Germaniyasi tormor etildi. Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun medali bilan 109208 o'zbekistonlik jangchi taqdirlandi.

O'zbekistonlik jangchilar Yaponiyaga qarshi urushda ham faol qatnashdilar. Ular 22, 79, - 275, 388-, 221, - diviziya va boshqa harbiy qismlar tarkibida jang qildilar. Seysin port shahrini egallalashda 335-o'qchi diviziyasida leytenant Fozil Komilov, razvedkachi Vali Sulaymonovlar alohida jasorat ko'rsatdilar.

4. Urushning tamom bo'lishi, Fashizmni tor-mor etishda O'zbekistonning munosib o'rni

Nihoyat urush fashizmga qarshi ittifoq tuzgan SSSR va demokratik davlatlarning g'alabasi bilan yakun topa bordi. 1945 - yil 2-mayda Berlin shahri taslim bo'ldi. 9 mayda Berlin yaqinidagi Karl xorstda AQSh, SSSR, Angliya va Fransiya qo'shinlari qumondonligi vakillari ishtirokida fashistlar Germaniyasi vakillari so'zsiz taslim bo'lishi haqidagi hujjatni imzoladilar. 1945 - yil 2 sentyabrida Yaponiya vakillari Yaponiyaning taslim bo'lishi to'g'risidagi hujjatni imzoladilar. Shunday qilib 6 - yil davom etgan Ikkinchi jahon urushi german fashizmi va yapon militarizmining to'liq tor-mor keltirilishi bilan tugadi.

⁸² Gitlerchilar Germaniyasi harbiy tashkiloti boshqaruvi shunday nomlangan.

Fashizm ustidan g'alaba, yangi urush tahdidini bartaraf etish, mustamlakachilikni bartaraf etish, BMTni barpo etilishi, jami ikki insoniyatning siyosiy va ijtimoiy jadal yuksalishi Ikkinchi jahon urushining asosiy natijasi bo'ldi⁸³.

Ikkinchi jahon urush ko'plab xalqlar kabi o'zbek halqiga ham katta moddiy va ma'naviy zarar yetkazdi. O'zbekistondan urushga safarbar etilganlardan 263005 kishi halok bo'ldi. 132670 kishi bedarak yo'qoldi, 60452 kishi urushdan nogiron bo'lib qaytdi.

O'zbekiston xalqi urush davrida yuksak insonparvarlik xislatlarini namoyon etdi. O'zbekistonga G'arbiy viloyatlardagi janglarda yarador bo'lgan minglab askarlar va zobitlar ham olib kelinar edi. Ularni qabul qilib olish, gospitalga joylashtirish, salomatligini tiklash ishlariga mahalliy aholi tomonidan ham alohida mehribonlik qilindi. Respublikamiz sog'lomlashtirish markazlaridan biriga aylandi. 1941 - yil 1 oktyabrgacha O'zbekiston sog'liqni saqlash xalq komissarligi tizimida 14950 o'ringa ega bo'lgan 47 ta gospital barpo etildi va zarur uskunalar bilan jihozlandi. Ayni paytda Moskvadan, Kalinin, Rostov-Don va boshqa viloyatlardan 15900 o'ringa (krovatga) ega bo'lgan 48 ta gospital o'chirib keltirildi, joylashtirildi va tezda ishga tushirildi. Jami 39140 o'ringa ega bo'lgan 113 gospital yarador va bemor jangchilarga tibbiy xizmat ko'rsatdilar. Sog'ayganlar frontga yoki korxonalarda ishlashga jo'natilar edi. Nogiron bo'lib qolganlarga zarur yordam ko'rsatilar holiga yarasha ish bilan ta'minlash choralari ko'rilar edi.

Stalin va uning atrofidagi yugurdaklari tomonidan urush yillarida ham kichik xalqlar, etnik guruhlariga nisbatan adolatsizlik qilindi. Urushning dastlabki yillaridayoq Volgabo'yi nemislari Avtonom respublikasi tugatildi. Uning 300 mingdan ortiq aholisi, «bosqinchlar ulardan yordam olishi mumkin» degan gumon bilan yashab turgan joylaridan Sibir va Qozog'istonga ko'chirib yuborildi.

1943 - yil oxiri, 1944 - yil boshlarida qalmoqlar, qorachoylar, chechenlar, bolqarlar, 1944 - yil iyunida Qrim tatarlari, greklar, keyinroq mesxeti turklari yashab turgan joylaridan O'rta Osiyo va Sibirga badarg'a qilindi. Ular fashistlar bilan «hamkorlik» qilishda ayblanib ommaviy qatag'on qilindi, yashirin va shoshilinch ravishda ko'chirildi. Ko'pchilik odamlar, bolalar yo'lda halok bo'ldilar.

O'zbekistonga 175 mingdan ortiq chechenlar, 157 mig ingushlar, 150 mingdan ortiqroq qrim tatarlari, 4500 bolqorlar, o'n minglab mesxeti turklari, greklar ko'chirib keltirildi. O'zbek xalqi ularni beg'araz kutib oldi, ta'na toshi otmadi, ularni joylashtirishga, oziq-ovqat bilan ta'minlashga ko'maklashdi. O'zbek xalqi urush - yillarida Vatanidan badarg'a qilingan xalqlarga moddiy va ma'naviy ko'mak berdi. Respublika mahalliy hokimiyati ularga hosildor yerlardan tomorqa yer, uy qurish va xo'jalik yuritish uchun kredit mablag'lari ajratdi. Ko'chirib keltirilganlar ming mashaqqatlar bilan yangi joylarga asta-sekin moslashdilar.

⁸³ Hidoyatov G. Ikkinchi jahon urushining diplomatik tarixidagi dog'lar tarix va o'zlikni anglash: O'zbekiston va Germaniya tajribasi. Toshkent. 2005, -B. 126.

Stalincha milliy siyosat ko'plab xalqlarning milliy davlatchiligini buzdi, haq-huquqlarini poymol etdi. Eng dahshatlisi shundaki, butun-butun xalqlarning milliy madaniyati, qadriyatlari va an'analari oyoq osti qilindi. Zo'ravonlikni zararli oqibatlar uzoq - yillar davomida to'la bartaraf etilganicha yo'q, vaqti-vaqti bilan milliy nizolar majarolarning kelib chiqishga sabab bo'lmoqda.

Urushning dastlabki kunlaridanoq O'zbekistonliklar orasida mudofaa fondini tashkil etish, front uchun issiq kiyimlar to'plash harakati keng yo-yildi. Ishchilar, kolxozchilar va ziyolilar shaxsiy jamg'armalarini, qimmatbaho buyumlarini mudofaa fondlariga topshirdilar. Agar urushning dastlabki - yillarida 30 mln so'm mablag' topshirilgan bo'la, butun urush davomida 650 million so'm pul, 22 mln so'mlik qimmatbaho buyumlar, 55 kilogrammga yaqin oltin, kumush va boshqa qimmatbaho buyumlar to'plandi. Bu jamg'arma hisobiga respublikamizda tank kolonnalari, aviasiya eskadriyalari, bronopoyezdlar qurilib frontga jo'natildi. O'zbekistonlik jangchilarga eshelonlab issiq qiyimlar, mevalar jo'natilib turildi. Davlat harbiy zayomlarga yozilish yo'li bilan anchagina mablag'lar to'plandi. Aholidan issiq kiyimlar tayyorlash uchun jun, terilar yig'ib olindi. Aholiga pul-buyum lotereyasi sotish hisobiga 4,2 milliard so'm mablag' yig'ilib g'alaba manfaatlarini yo'lida foydalanildi.

Xullasa, urushning dastlabki yillaridanoq O'zbekistonning butun moddiy va ma'naviy kuchlari fashizmga qarshi g'alaba uchun safarbar etildi, hayot harbiy izga tushirildi, xalq Vatan himoyasiga otlandi. O'zbek xalqining urush frontlaridagi jasoratlari, mamlakat ichkarisidagi fidokorona mehnati, ikkinchi jahon urushining g'olibona tugallanishini bevosita tarkibiy qismi bo'ldi.

O'zbekistonliklarning urushda ko'rsatgan mardligi va jasorati yuqori baholandi. 120 ming O'zbekistonlik jangchilar, jumladan, 70 ming o'zbek yigit va qizlari orden va medallar bilan mukofatlandi. 300 ga yaqin askar va komandirlar Qahramon unvoniga sazovor bo'lishdi, ularning 75 nafari o'zbeklardir, 32 nafar o'zbekistonlik jangchi uchala darajadagi «Shuhrat» ordeni bilan mukofaatlandi.

Mustaqillik yillarida Prezident I.A.karimov sa'iyi harakati bilan ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini qadrlash va 9-may kunini bayram sifatida nishonlash yangicha insonparvarlik mazmun kasb etdi. Bu xususda Prezident I.A.Karimov shunday degan edi. «Ma'lumki, sobiq SSSR davrida 9 may har kuni G'alaba kuni sifatida bayram qilinar, Markazda va respublikalarda dabdabali harbiy paradlar o'tkazilar edi. Biz mazkur sananing asl insoniy ma'no-mohiyati hamda jamoatchiligimizning bu boradagi taklif va mulohazalarini hisobga olgan holda, 9-may kunini mamlakatimizda xotira va qadrlash kuni sifatida nishonlashga qaror qildik. Bu voqyea hyech shubhasiz, yurtimizda tarixiy xotirani to'laqonli tiklash yo'lida hayotning o'zi taqozo etgan yana bir jiddiy qadam bo'lganini aytilish lozim. Shu munosabat bilan poytaxtimizda, viloyat va tumanlarda sovet mafkurasini o'zida ifoda etgan eski yodgorliklar o'rniga xalqimizning ruhi va qarashlariga

hamohang bo'lgan Xotira maydonlari tashkil etilib, Motamsaro ona haykali o'rnatildi⁸⁴.

«Ana shu maydonlarda barpo etilgan yodgorlik majmualarida Ikkinchi jhon urushida halok bo'lgan yurtdoshlarimizning nomlari maxsus ishlangan lavhalarda zarhal harflar bilan yozib qo'yilganligi, ular haqidagi ma'lumotlar jamlangan 35 jildidan iborat «Xotira» kitobi chor etilgani, aytish mumkinki, mamlakatimiz tarixida ibratli ma'naviy voqeya bo'ldi⁸⁵.

Har - yili urushda qurbon bo'lganlarni xotirlash, biz bilan hozirgi kunlarda yonma-yon yashayotgan urush faxriylarini qadrlash, e'zozlash, hurmat-izzatini joyishga qo'yishdek insoniy ishlar yoshlarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda, mustaqil O'zbekistonning milliy xafvsizligini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega.

Mavzu yuzasidan nazorat uchun savollar

1. Ikkinchi jahon urushning boshlanishi, uning xarakteri va sabablari haqida nimalarni bilasiz?
2. Nima uchun O'zbekiston urush girdobiga tortildi?
3. O'zbekiston xalq xo'jaligini harbiy izga solinish jarayoni qanday kechdi?
4. Urush yillarida O'zbekistonda korxonalar, qishloq xo'jaligi hayotida qanday o'zgarishlar bo'ldi?
5. Mehnat afarbarligi, mudofaa fondi deganda nimani tushunasiz?
6. Urush yillarida O'zbekiston fani, adabiyot va san'ati hamda ta'lim sohasida qanday o'zgarishlar bo'ldi?
7. Fashist bosqinchlarga qarshi janglarda O'zbekistonlik jangchilar ko'rsatgan jasorat haqida nimalarni bilasiz?
8. Birinchi o'zbek generali Sobir Rahimov jasorati haqida nimalarni bilaiz?
9. Urush yillarida o'zbekistonlik partizanlar faoliyati haqida so'zlab bering?
10. O'zbek xalqi majburiy ko'chirib keltirilgan xalqlarga qanday yordam ko'rsatdi?
11. Urush O'zbekiston xalqi boshiga qanday kulfatlar keltirdi?
12. Xotira va qadrlash kuni qachon va nima maqsadda o'tkaziladi?

Testlar

1. Fashistlar Germaniyasining SSSRni yashin tezligida tar-mor etish rejasi qanday nomlandi?

- A. Shlifen
- B. Zeleve
- S. Barbarossa
- D. Vezeryubing

⁸⁴ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilma kuch. T.: Ma'naviyat, 2008, B. 100.

⁸⁵ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilma kuch. T.: Ma'naviyat, 2008, B. 99-100.

2. Urush yillarida O'zbekistonda nechta sanoat korxonasi barpo etildi?

- A. 320 ta
- B. 280 ta
- S. 150 ta
- D. 260 ta

3. General Sobir Rahimov Polshaning qaysi shahrida vafot etdi?

- A. Varshava
- B. Krakov
- S. Poznan
- D. Gdansk

4. 1943 - yil 4 noyabrda O'zbekiston tarixida qanday voqyea bo'ldi?

- A. Bekobod metallurgiya zavodi ishga tushdi
- B. O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etildi
- S. Usmon Yusupov O'zbekistonni birinchi rahbari etib tayinlandi
- D. Koonsoy suv ombori qurib bitkazildi

5. Urush - yillarida nechta o'zbek yigiti «Qahramon» unvoniga ega bo'ldi?

- A. 120 ta
- B. 96 ta
- S. 109 ta
- D. 75 ta

6. Bugungi kunda O'zbekistonda 9 may qanday kun sifatida nishonlanmoqda?

- A. E'zozlash va qadrlash kuni
- B. Xotira va e'zozlash kuni
- S. G'alaba kuni
- D. Xotira va kadrlash kuni

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

- takrorlash va mashqlar: takrorlash, o'z-o'zini sinash, tahlil qilish, qayta tayyorgarlik ko'rish, eslab qolish.
- yangi materiallarning mustaqil asosi: yangi adabiyotlar, internet materiallari, qo'shimcha konspekt, mustaqil fikrlar bildirish.
- ilmiy xarakterdagi ishlar: muammoli vaziyatlar, testlar, savollar, topshiriq va slaydlar tuzish.

Mavzu: O'ZBEKISTONNING DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO'LGA KIRITISH, HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING BARPO ETILISHI

1.1. Mashg'ulot topshiriqlar rejasi

O'quv vaqti: 2 soat ma'ruza, 2 soat seminar mashg'ulot

Mashg'ulot turi: ma'ruza, o'tilgan mavzularni takrorlab bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash

Darsning maqsadi: talabalarga sobiq sovet davlatining inqirozga yuz tutishi, uning sabablari, I.A.Karimov rahbarligida O'zbekistonning mustaqillik uchun harakati, nihoyat, O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi, huquqiy demokratik davlat va fuqaroslik jamiyati qurilishining mazmun-mohiyati haqida tushunchalar berish, O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining o'ziga xos jihatlari haqidagi bilim hamda ko'nikmalarini hosil qilish.

Ilmiy mashg'ulotning vazifasi

O'rgatuvchi: mashg'ulot ishtirokchilarini faol qatnashishlarini, tashkil etish, yangi olingan bilimlarni mustahkamlash, talabalarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, uning sobiq sovet davridagi Konstitutsiyalardan farqli jihatlari, Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari haqidagi tushunchalarni rivojlantirish mavzuning alohida jihatlari, boshqa mavzular bilan aloqadorligini tushuntirish.

- **rivojlantiruvchi:** o'quv adabiyotlaridan to'g'ri foydalanish, yu mavzuga oid muammolar bilan ishlashni o'rganish, mavzuga doir eng yangi ilmiy natijalar bilan tanishtirish, tushuncha va iboralarni izohlash, talabalarga mustaqillikning ziddiyatli yo'li, mutaqillik - yillarida siyosiy sohadagi o'zgarishlar, qonun chiqaruvchi, ijroiya etuvchi va sud hokimiyatining shakllantirilishi, Prezidentlik boshqaruv tizimining joriy etilishi va uning afzallik jihatlari keng qamrovli jumladan, eng yangi manbalar asosida tushuntirish, talabalarda vatanparvarlik hissini rivojlantirib borish.

- **tarbiya beruvchi:** talabalarni mustaqil ishlashga jalb qilish, mustaqillik yillarida xududimizda azaldan mavjud bo'lgan mahallar faoliyatini, mahalliy davlat hokimiyatining qo'yi bug'ini sifatida takomillashtirish borasidagi huquqiy me'yoriy hujjatlarni qabul qilinishi, shuningdek, jamiyatda demokratiyani ko'rinishi sifatida ko'p partiyaviylikni qaror topishi, siyosiy partiyalarning maqsad va vazifalarini aniq faktlar asosida talabalarga yetkazish, mavzuni ravon til bilan talabalar uchun sodda usulda tushuntirish. Mavzu mohiyatini ochib berish jarayonida yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi, vatanparvalik ruhida tarbiyalashga e'tibor qaratish.

O'rganish texnologiyalari:

- **o'qitish usullari:** ma'ruza, aqliy hujum, klaster, skarbey usullaridan foydalanish; jonli muloqot, plakatlar, tarqatma materiallar, fotosuratlar, ilmiy va badiiy adabiyotlar asosida mavzu mohiyatini talabalarga etkazish;

- **o'rganish turlari:** og'zaki testlar orqali tushuntirish, jamoaviy savol-javoblar, oldindan mavzu bo'yicha qisqacha konspektlar tuzish;

- **o'rganish talablari:** auditoriyalarning texnik vositalar bilan ta'minlanishi, texnik vositalardan unumli foydalanish.

- **monitoring va baholish:** og'zaki nazorat, savol-javoblar, blits-so'rov.

Pedagogik jarayonlar:

- o'quv jarayonida mavzuning ahamiyati va uning o'рни bilan tanishtirish;

- mavzuning tuzilishi va tavsiya etinadigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar tafsiloti haqida tushuntirishlar berish;

- mavzuning ishlashning uslubiy va tashkiliy xususiyatlarini ochish, baholash muddati va shakli, o'qitish jarayonini tashkillashtirish jarayonining umumiy sxemasini tasniflash;

O'quv faoliyati natijalari:

- mavzuning nomlanishi va vazifalarini belgilash;

- faoliyatidagi alohida usuli va tashkiliy jihatlarni ochib berish;

- mavzuning umumiy va tashkiliy tuzilishlari to'g'risida atroflicha tushuntirish berish;

- O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'lini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashda Prezident I.A.Karimovning asarlari, nutqlarining ahamiyatini aniq faktlar asosida yetkazish, mavzuning asosiy yo'nalishini belgilab berish;

- nazariy bilimlarning tizimlilik, amaliyligi;

- amaliy topshiriqlarni bajarishda nazariy bilim va shakllangan ko'nikmalardan foydalana olish;

- mavzuning asosiy mazmuni, yo'nalishi bo'yicha, ularning boshlang'ich bilimlarga ega bo'lishi.

1.2. Ma'ruzaning xronologik kartasi

1-bosqich. O'quv mashg'ulotlariga kirish – 15 daqiqa

- **o'qituvchining faoliyati:** tayyorgarlikni tekshirish, kerakli tarixiy manbalar haqida ma'lumot, ma'ruza haqida tushuntirish berish, o'quv rejasi bilan tanishtirish, adabiyotlar to'g'risida ma'lumot berish, dars davomida talabalar bilimni baholab borish usullari haqida tushuntirishlar berish;

- **talabaning faoliyati:** darsga tayyorgarligi, ma'ruza matni bilan va mavzuga oid rejalar tanishganligi (talabalar soni, tashqi ko'rinishi, o'quv qo'llanmalar va ko'rgazmali qurollar);

- **uslublar, shakllar, usullar:** yo'riqnoma, oldin so'rash, topshiriq kartochokalari

2-bosqich. Asosiy qism – 55 daqiqa

- **o‘qituvchi faoliyati:** mavzuni yoritishga kirilishi, o‘tgan mavzularni takrorlash, ma’ruza matnini tarqatish, uni yaxshi o‘zlashtirib olishni ta’kidlash, mavzu rejalari mavzularining har biriga alohida tushuntirish berish, aqliy hujum, klaster, bumerant usullaridan foydalanish, jonli muloqot, tarixiy atamalarga izohlar berish, ma’ruza matnini o‘qish mobaygida slaydlar orqali atroflicha tushuntirib berish;

- **talabaning faoliyati:** bilimlarni mustahkamlab olish, mavzuni qunt bilan eshitish, muhim joylarini konspekt qilib olish, tushunmagan iboralar bo‘yicha savollar berish, aniqlashtirib olish, mavzuni tahlil qilish;

- **uslublar, shakllar, usullar:** oldindan so‘rash, blits-so‘rov, aqliy hujum, bumerant usulidan foydalanish.

3-bosqich. Yakunlovchi qism-10 daqiqa

- **o‘qituvchi faoliyati:** mavzuni yakunlash, talabalar diqqatini asosiy mavzuga qaratish; dars jarayonida faollik bilan ishtirok etgan talabalarning faoliyatini baholash, mustaqil ish mavzusini berish, baholash;

- **talabaning faoliyati:** o‘tilgan mavzuni tahlil qilish, dars jarayonida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish mustaqil ish mavzusini yozib olish;

- **uslublar, shakllar, usullar:** guruhlarda ishlash, topshiriq kartochkalari.

1.3. O‘quv – uslubiy materiallari

1.3.1. Ma’ruza matni

Mavzu: O‘zbekistonning davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi

Reja:

1. Sovetlar imperiyasining tannazuli va O‘zbekiston davlat mustaqilligining qo‘lga kiritishi.

2. Davlat hokimiyati tizimida Prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi, qonun chiqaruvchi, ijroiya etuvchi sud hokimiyatini shakllantirilishi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, uning asosiy tamo- yillari.

4. Mahalliy o‘zini-o‘zi boshqaruv organlarining tashkil etilishi, jamiyatda ko‘ppartiyaviylikning qaror topishi.

Tayanch iboralar: Iqtisodiy inqiroz, qayta qurish, mustaqillik tomon yo‘l I.A.Karimovning O‘zbekistonning birinchi rahbari bo‘lishi, millatlararo munosabatlar, O‘zbekiston-mustaqil davlat, 1991 - yil 29 dekabrda referendum, davlat bayrog‘i, davlat gerbi, davlat madhiyasi, Konstitutsiyaning qabul qilinishi, qonun chiqaruvchi, ijroiya etuvchi, sud hokimiyati, ko‘p partiyaviylik, prezidentlik boshqaruvi

1. Sovetlar imperiyasining tannazuli va O'zbekiston davlat mustaqilligining qo'lga kiritish

XX-asrning 70-80 - yillarida sobiq SSSRda iqtisodiyotning rivojlanish surati pasayib, sarf-xarajatlar ortib bordi. Mavjud imkoniyatlarni hisobga olmasdan ishlab chiqarilgan ijtimoiy, oziq-ovqat, agrar, energetika, ekologiya va boshqa sohalaridagi dasturlar samara bermadi, iqtisodiy ziddiyatlarni chuqurlashtirib bordi.

KPSS Markaziy Qo'mitasining 1985 - yil aprelda bo'lgan Plenumi noxush tendesiyalar yig'ilib, sobiq SSSR inqiroz oldi vaziyatda tushib qolganligi e'tirof etildi. Mazkur Plenumda sobiq SSSRning o'sha paytdagi Prezidenti M.S.Gorbachev tashabbusi bilan jamiyatni «qayta qurish» orqali iqtisodiyotni ko'tarish, xalqning turmushini yaxshilash siyosatini belgiladi. Qayta qurish siyosati 1985-1990 - yillarni o'z ichiga olib, sovet jamiyatida fuqarolarning siyosiy ongini o'sishiga, demokratiya «shamollari»ni kirib kelishiga olib kelgan bo'lsada, iqtisodiy sohada ilmiy jihatdan asoslangan dastur bo'lmaganligi uchun barbod bo'ldi.

Sobiq SSSRning har tomonlama tanazulga uchraganligi va tez orada barham topish aniq bo'lib qoldi. Shunday bir vaziyatda 1989 - yil 23-iyun kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Kommunistik Partiyasi Markaziy Qo'mitasining XIV-Plenumida O'zbekiston va o'zbek xalqi taqdiriga qayg'uruvchi, vatanparvar inson I.A.Karimov O'zbekiston Kommunistik Partiyasining birinchi kotibi etib saylandi. I.A.Karimov boshlik yangi rahbariyat tomonidan o'zbek xalqining milliy o'zligini anglashi kuchayib borayotganligi birinchi bor e'tirof etildi. Xalqning shon-shuhrati, qadr-qimmatini himoya qilish, milliy mustaqillikka erishish tomon yo'l olindi.

I.A.Karimov tashabbusi bilan O'zbekiston hukumati tomonidan 1989 - yil 15 avgustda «Kolxozchilar, Sovxoz ishchilar fuqarolarga, shaxsiy tomorqa xo'jaliklari va individual uy-joy qurilishini yanada rivojlantirish to'g'risida» maxsus qaror qabul qilindi. Garchi bu g'oya ittifoq rahbarlariga yoqmagan bo'lsa ham I.A.Karimov o'z fikridan qaytmay, uni sobitqadallik bilan amalga oshira bordi. Natijada o'sha - yilning 4 oyida aholiga qo'shimcha 90,7 ming gektar yer tomorqa sifatida berildi.

Ushbu murakkab davrda «Mvruvz tomonidan ataylab milliy nizo avj oldirildi. Masalan, 1989-yilda Farg'onida o'zbeklar va mesxeti turklari orasida milliy nizo chiqirilib Prezident I.A.Karimovning oqilona siyosati natijasida birtaraf etildi. Bu xususda Prezident I.A.Karimov shunday degan edi. O'zbek xalqining vijdoni pok. Farg'ona voqyealari o'zbek xalqining irodasi bilan sodir bo'lmadi. Bu voqyealarga tuturuqiz va charazli maqsadlarni o'qllab, kim qanday buyoq bermasi, tarix albatta o'zining adolatli hqkmini chiqaradi. Beynalmalchilik, mehmondo'stlik, yaxshilik, qalb sahovati hamisha o'zbek xalqiga fazilat bo'lib keldi. Xalqimiz hyech qachon

boshqa xalqlarga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo'lmagan. Bu qadimiy va hozirgi tariximizdan olingan ko'pgina misollar bilan isbot qilingan»⁸⁶.

1990 - yil 24-31 mart kunlari Toshkentda o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining birinchi sessiyasi bo'ldi. 24 mart kuni sessiya respublikalar orasida birinchi bo'lib, «O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish to'g'risida» qonun qabul qildi. 1990 - yil 24 mart kuni Oliy Sovet sessiyasida yashirin ovoz berish yo'li bilan I.A.Karimov O'zbekiston Prezidenti etib saylandi. O'zbekistonda Prezident saylanishi muhim voqeya bo'ldi, mamlakatimiz mustaqilligiga erishish sari tashlangan yana bir dadil qadam bo'ldi.

O'zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasi 12 moddadan iborat «Mustaqillik Deklarasiyasi»ni qabul qildi. Deklarasiyada har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan kelib chiqqan holda, xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya tamo-yillariga asoslanib O'zbekiston SSRning davlat suvereniteti e'lon qilindi.

Markaziy hokimiyatni saqlab qolish, respublikalarga mustaqillik bermaslik payida yurganlar uchun qandaydir bir «imkoniyat» vujudga kelgan edi. Ana shu kuchlar tomonidan 1991-yil avgustda Markaziy hokimiyatni avvalgi maqomda saqlab qolish maqsadida fitna tayyorlandi va SSSRda Favqulodda holat davlat Qo'mitasi (FHDQ) tuzildi. Uning boshliqlari G.I.Yanayev – SSSR vise-prezidenti, V.S.Pavlov-SSSR bosh vaziri, D.T.Yazov-SSSR mudofaa vaziri, V.A.Kryuchkov – SSSR davlat xavfsizlik Qo'mitasining raisi va boshqalar edi. Shu tariqa fitnachilar M.S.Gorbachyovni noqonuniy yo'l bilan hokimiyatdan chetlashtirib, o'zlari hokimiyatni egallab oldilar.

O'sha kunlarda Prezident I.A.Karimov Hindistonda rasmiy safarda edi. Qaltis vaziyatda 1991 –yil 19-avgustda Prezident I.A.Karimov Hindistonga qilgan rasmiy tashrifidan qaytib keldi va Toshkent shahri faollari bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda Prezident O'zbekistonning nuqtai-nazarini bildirib, respublikamizda faqulodda holat joriy etishga hojat yo'qligi, O'zbekistonda vaziyat barqarorligi, qonunga xilof ko'rsatmalar bajarilmasligini qat'iy ta'kidladi.

Fitnachilarning qonunga xilof ravishda urinishlari natijasida 1991 - yil 19-21 avgust kunlari Moskvada fojiali hodisalar ro'y berdi. Rossiya Federasiyasi rahbariyati tashabbusi bilan demokratik kayfiyatdagi Moskva aholisi tomonidan fitna bostirildi. Fitnachilar qamoqqa olindi. M.S.Gorbachev Prezidentlik lavozimiga qaytib keldi. Biroq mamlakatdagi siyosiy vaziyat tang ahvolga tushib qoldi. Markaziy hokimiyat falaj bo'lib, harakatsiz qolgan edi. Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi ham halokatga uchradi. Shu tariqa SSSR tanazzulga uchradi va parchalana boshladi.

SSSR tanazzulga uchragach O'zbekiston rahbariyati davlat mustaqilligini to'la o'z qo'liga olishga kirishdi.

1991 - yil 25 avgustda O'zbekiston Prezidentining Farmoni e'lon qilindi. Farmonga binoan, Respublika ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi Qo'mitasi

⁸⁶ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishishi ostinasida. – T.: O'zbekiston, 2011. – BB. 52-53.

O'zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi. Respublika hududida joylashgan SSSR ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston Prezidentiga buysundirildi. Respublika ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik Qo'mitasi, prokuraturasi va adliya organlari, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shilmalari partiyadan butunlay xolos etildi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov Oliy Kengash Rayosatiga juda qisqa muddatda respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonun loyihasini tayyorlash va uni Oliy Kengashning navbatdan tashqari sessiyasi muhokamasiga taqdim etishini taklif etdi. 1991 - yil 26-avgust kuni O'zbekistonning davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonun loyihasini tayyorlash haqida va 31 avgustda Oliy Kengashning navbatdan tashqari VI- sessiyasini chaqirishga qaror qildi.

1991 - yil 31- avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari, tarixiy oltinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov nutq so'zlab, sobiq Ittifoqda so'nggi paytlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqyealarni, davlat to'ntarishiga o'rinish oqibatlarini tahlil qilib, ular O'zbekiston, xalqimiz tarixiga bevosita dahldor ekanligini har tomonlama asoslab berdi. Vaziyatdan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi va uni mustaqillik to'g'risidagi qonun bilan mustahkamlashni taklif qildi.

Sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy kengash Bayonoti» qabul qilindi.

Oliy kengash sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini elon qilish to'g'risida» qaror qabul qilindi.

Oliy kengash sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Bu qonun 17moddadan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning VII-sessiyasida 1991 - yil 30 sentyabr kuni «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari, to'g'risida»gi Qonunga Konstitutsiyaviy qonun maqomini berishga qaror qilindi. Qarorda O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi moddalariga «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunning moddalariga zid kelgan hollarda mazkur Qonunga amal qilinsin, deb belgilab qo'yildi.

Shunday qilib, xalqimizning asriy orzusi, umidlari ushaldi, ro'yobga chiqdi. Mamlakatimiz, xalqimiz, siyosiy mutelikdan, asoratdan qutuldi. Dune xaritasida yana bitta mustaqil davlat – O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi uzoq davom tarixiy jarayonining natijasi bo'ldi. Tarixchi olim Buriboy Ahmedovning aytishicha Turkiston xalqlari o'zining qariyb 3000 - yillik tarixi davomida 376 - yil mustaqil hayot kechirgan⁸⁷. Ayniqsa, 1917-1991 - yillarda mavjud bo'lgan sobiq sovet davlatiga nisbatan

⁸⁷Алимова Д.А., Голованов А.А. Узбекистан в 1917-1990 годы: противоборства идей и идеологий. – Ташкент, 2002. -С. 6.

ishlatiladigan «Qizil imperiya» davridagi so'nggi mustamlakachilik davrida o'zbek xalqining milliy va diniy qadriyatlariga katta putur yetdi. «Imperiya» so'zi lotincha bo'lib mutloq hokimiyatga ega hokimni, mahkumlar, mazlumlar ustidan cheklanmagan huquqqa ega, jabr-zulm va ezishga asoslangan idora etish va boshqarish usulini, mustamlakalarga egalik qiluvchi va qaram xalqlarni asoratga solib shafqatsiz ekspluatasiya qiluvchi yirik tajovuzkor davlatni bildiradi⁸⁸.

O'zbekiston Davlat mustaqilligining e'lon qilinish, uning butun tarixiy taraqqiyoti natijalaridan kelib chiqadigan obyektiv va qonuniy hodisadir.

Respublika xalqi va rahbariyatining donishmandligi, saboti va qat'iyatligi uzoqni ko'ra bilish natijasida uning davlat mustaqilligiga erishildi.

O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligini mustahkamlashga dadillik bilan kirishdi. Birinchi bo'lib, davlat ramzlari belgilab olindi. Chunki davlat ramzlari – davlat mustaqilligini shartli, ravishda belgilovchi tashqi belgi, nishona yoki timsollardir. Bular muayyan davlatning bayrog'i, gerbi, valyutasi va madhiyasidir. Ular mazkur davlatning tuzumini, xalqning tabiati-mentalitetini, iqtisodiy asoslarini va boshqa muhim belgilarini anglatadi⁸⁹.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII – sessiyasida 1991 - yil 18 noyabrda tasdiqlandi. Davlat bayrog'i mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo'lgan g'oyat qudratli saltanatlar bayrog'iga xos bo'lgan eng yaxshi an'analarni davom ettirgan holda respublikaning tabiatiga xos bo'lgan xususiyatlarni, xalqimizning miliy va madaniy sohalaridagi o'zligini ham aks ettirdi.

O'zbekistonning Davlat gerbi, o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992 - yil, 2 iyulda qabul qilindi. «Gerb» so'zi nemischa «erbo» so'zidan olingan bo'lib, shohlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, xudud va boshqa nasldan naslga meros qoluvchi mulk belgisini anglatadi⁹⁰. Gerbning markazida qanoatlarini keng yozib turgan Xumo qo'shi tasvirlangan. Bu baxt-saodat va erksevarlik ramzider. Qadim – qadim zamonlardan buyon Xumo qushi o'zbek xalqi orasida odamlarni baxt-saodatga yetaklovchi kuch ramzi sayratida e'zozlab kelingan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida 1992 - yil, 10 dekabrda qabul qilindi. Davlat mahiyasining matni O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov, musiqasi O'zbekiston xalq bostakori Mutal Burhonov tomonidan tayyorlangan.

Milliy valyuta bo'lgan so'm davlat mustaqilligining timsoli, mustaqil O'zbekiston davlatning belgisi sifatida Prezident I.A.Karimovning 1994 - yil, 16 iyundagi «O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasini muomalaga kiritish

⁸⁸ Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahririda, ikkinchi nashri. T.: Sharq, 2000. B. 282.

⁸⁹ O'sha manba. B. 44-45.

⁹⁰ Tyurikov B, Shog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi: 100 savolga, 100 javob. Toshkent., 1998, B. 32.

to'g'risida»gi farmoniga ko'ra 1994 - yilning 1-iyulidan po'l muomalasiga kiritildi⁹¹.

1992 - yil, avgust oyida mustaqilligimizning bir - yilligi arafasiga Prezident I.A.Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li» nomli dastlabki asari nashr etilib, ko'plab tillarga tarjima qilindi. Ushbu asarda Prezident mustaqil O'zbekiston Respublikasi haqida shunday degan edi. «O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat. Bu mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar fuqarolarning huquqlari va erkinlarini ta'minlab beradigan davlatdir»⁹².

2. Davlat hokimiyati tizimida Prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi, qonun chiqaruvchi, ijroiya etuvchi, sud hokimiyatining shakllantirilishi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, 1990 - yil, 24-martda O'zbekistonda sobiq sovet respublikalari ichida birinchi bo'lib, Prezidentlik lavozimi joriy etilgan bo'lib, bu lavozimga I.A.Karimov saylangan edi. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin 1991-yil, 29-dekabr kuni muqobilik asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi ham bo'lib o'tdi. Prezidentlikka ikkita ya'ni O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi va O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federasiyasidan I.A.Karimov hamda «erk» demokratik partiyasidan Saloy Madaminov (Muhammad Solih) nomzodi qo'- yildi. I.A.Karimov uchun 8,5 milliondan ortiq kishi yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi ovoz berdi. Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalari majlis bayon nomlarani ko'rib chiqib «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlari to'g'risida» gi Qonunning 35-moddasiga asosan I.A.Karimovni 1991 - yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb, hisoblashga qaror qildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning 1992 - yil yanvarda bo'lgan navbatdan tashqari IX-sessiyasida Prezident I.A.Karimov qasamyod qildi: «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini bajarishga kirishar ekanman, respublikamiz xalqlariga sadoqat bilan xizmat qilishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qat'iy rioya etishga, zimmamga yuklangan yuksak vazifalarni vijdonan bajarishga qasamyod qilaman». I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasining umumxalq tomonidan saylangan birinchi Prezidentidir.

1995 - yil, 26 martda o'tkazilgan umumxalq referendumida O'zbekiston xalqi mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning vakolatini 1997 - yildan 2000 - yilgacha uzaytirishni yoqlab ovoz berdi. «Referendum» so'zi lotincha, e'lon qilinishi lozim bo'lgan xabar degan ma'noni anglatadi. Jamiyatni demokratik

⁹¹ O'sha manba. B. 31.

⁹² Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. 1991, B. 15.

boshqarish jarayonida qo'llaniladigan tadbirlardan biri, ba'zi muhim masalalarni umumxalq ovozigacha, umumxalq so'roviga, xalq muhokamasiga qo'yib hal etishdi⁹³.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi Qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga navbatdagi saylov 2000 - yil, 9 yanvar kuni bo'lib o'tdi. Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan I.A.Karimov uchun saylovchilarning 91,9 foizi ovoz berdi. O'zbekiston xalq demokratik partiyasidan nomzodi ko'rsatilgan Abdulhafiz Jalolovga 4,2 foiz saylovchi ovoz berdi.

2000 - yil 9-yanvarida o'tkazilgan Prezidentlikka saylov yakuniga ko'ra «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonunning 35 moddasiga muvofiq I.A.Karimov 5 - yil muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylandi.

2002 - yil 27-yanvar kuni «Siz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolat muddati 5 - yildan, 7 - yil qilib o'zgartirilishiga rozimisiz?» - mavzuida umumxalq referendumini o'tkaziladi. Referendum yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolati muddati 5 - yildan 7 - yil qilib o'zgartirildi. Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq sakkizinchi sessiyasida O'zbekiston Prezidenti vakolati muddatini 2007 - yilgacha cho'zishga qaror qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasida qayd qilinganidek, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'idir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining raisi hisoblanadi «Konstitutsiyaning 90-moddasiga ko'ra, Prezident «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan 5 - yil (2002 - yil 27 yanvardagi o'tkazilgan referendum natijalariga ko'ra 7 - yil) muddatga saylanadi» 93-moddaga binoan Prezident «Respublika Oliy Majlisiga har - yili ichki va halqaro ahvol xususida ma'lumotnoma taqdim etadi»⁹⁴.

Ammo, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2007 - yil 11- aprelda qabul qilgan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasidagi, 93-moddasining 15-bandiga, 102- bandaning ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritildi. Jumladan, 89- moddasidagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar mahkamasining Raisi hisoblanadi» degan jumla olinib, ushbu modda «O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi»⁹⁵ degan jumla o'rin oldi.

1992 - yil, 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq Respublika parlamentining nomi Oliy Majlis deb, ataladigan bo'ldi. Konstitutsiyaning 76-moddasida «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga

⁹³ Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahririda, ikkinchi nashri. T.: Sharq, 2000. -B. 188.

⁹⁴ O'sha manba. B. 261.

⁹⁵ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Toshkent. 2008, - B. 22.

oshiradi», deb belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaga muvofiq bir palatali parlament – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini shakllantirish tadbirlari ko'rildi, 1993 - yil 28-dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida», 1994-yil 22-sentyabrda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida» qonunlar qabul qilindi. Oliy Majlis hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida besh - yil muddatga saylanadigan 250 nafar deputatdan iborat bo'lishi belgilandi.

Oliy Majlisga birinchi saylov 1994 - yil 25-dekabrda ko'ppartiyaviylik va tanlash asosida o'tkazilgan. 1995 - yil 8- va 25-yanvar kunlari takroriy saylovlar bo'lib, 250 ta deputat saylandi. Deputatlar tarkibida 15 millat vakillari kirdi, ulardan 208 nafar deputat, yoki 83,2 foizi Oliy davlat vakillik organiga birinchi marta saylangan edi. Oliy Majlis deputatlarining 15 nafari ayol bo'lib, har bir yettinchi deputat ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega⁹⁶.

O'zbekiston Respublikasi birinchi chaqiriq Oliy Majlisining birinchi sessiyasi 1995 - yil, 23-24 fevralda Toshkentda bo'lib o'tdi. Sessiyada Prezident I.A.Karimov «O'zbekistonni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlantirishning asosiy tamoyillari» to'g'risida ma'ruza qildi⁹⁷.

Oliy Majlis 1995-1999 - yillarda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat qurishdan iborat yo'lni huquqiy jihatdan ta'minlashga qaratilgan 10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur, 145 ta qonun, 452 ta qaror qabul qildi. Shuningdek, u 70 ta xalqaro shartnomani ratifikatsiya qildi, xalqaro konvensiyaga qo'shilish to'g'risida 58 ta qaror qabul qildi.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga 1999 - yil dekabrda saylovlar bo'lib o'tdi. Saylovlarga 7 ta subyekt-beshta siyosiy partiya, hokimiyat vakillik organlari va saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan jami 1010 nafar nomzod qatnashdi. Oliy Majlisga O'zbekiston xalq demokratik partiyasidan 48, «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasidan 34, «Vatan taraqqiyoti» partiyasidan 20, «Adolat» sosial-demokratik partiyasidan 11, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan 10, hokimiyat vakillik organlaridan 111 va saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan 16 nafar vakil deputat etib saylandi.

Prezident I.A.Karimov 2000 - yil 22-yanvarda, ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida qilgan ma'ruzasida: «Qonun chiqaruvchi hokimiyat – Oliy Majlis va joylardagi vakillik organlari bo'lgan viloyat, shahar va tuman kengashlarining Konstitutsiya hamda qonunlarida ularga berilgan vakolat va nazorat vazifalarining so'zsiz amalga oshirilishiga erishmoq zarur» degan edi⁹⁸.

O'zbekiston Respublikasi bir palatali parlamentining 2000-2004 - yillarda bo'lib o'tgan 16 ta sessiyasida 101 ta qonun, 300 dan ortiq qaror qabul qilindi, 55 ta xalqaro shartnoma va bitimlar ratifikatsiya qilindi. O'zbekiston Respublikasining 329 ta qonun hujjatiga 1357 ta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

⁹⁶ Tyurikov B. Shog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi 100 savolga, 100 javob. Toshkent. 1998, B. 38-39.

⁹⁷ O'sha manba. B. 39.

⁹⁸ Karimov I.A. Ozod va Obod Batan, erkin va faravon hayot-pirovard maqsadimiz. Toshkent. 2000, B. 9.

2001 - yil 6-7 dekabr kunlari bo'lib o'tgan Oliy Majlisining yettinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish masalasi muhokama etildi va parlamentni ikki palatali qilib tuzish zarur, degan xulosaga kelindi. 2002 - yil 27 yanvar kuni «Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi parlamentini ikki palatali qilib saylanishigi rozimisiz?» degan masalada referendum bo'lib o'tdi. Referendumda qatnashganlarning 93,65 foizi rozi ekanligini bildirib ovoz berdilar.

2002 - yil 4-5-aprel kunlari bo'lib o'tgan Oliy Majlisning sakkizinchi sessiyasida «Referendum yakunlari va davlat hokimiyati tashkil etishning asosiy prinsiplari to'g'risida» Konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Mazkur qonunda respublika parlamentining nomi Oliy Majlis deyiladi, u ikki palatali – qo'yi va yuqori palatalardan iborat etib tashkil etiladi, deb belgilab qo'yildi. Qo'yi palata – qonunchilik palatasi, yuqori palata – senat deb ataladi, ularning vakolat muddati 5 - yil deb belgilangan. Ikki palatali parlament tuzishining huquqiy asoslarini belgilab beruvchi yangi qonun loyihalarini tayyorlash ishiga kirishildi.

2002 - yil, 12 dekabrda bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'ninchi sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasining Senati to'g'risida» Konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilindi. Qonunchilik palatasi 120 nafar deputatdan, Senat 100 nafar senatoridan iborat etib shakllantirildi. Bu o'zgarishlar 2003 - yil, 24- aprelda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgartirishlarda ham o'z ifodasini topdi. 2003 - yil 29-avgustda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida»gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib, mazkur qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Shu tariqa ikki palatali professional parlamentni shakllantirishning, konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari yaratildi. 2004 - yil dekabr 2005 - yil yanvar o-yilarida mamlakatimizda ilk bor ikki palatali parlamentga saylovlar bo'lib o'tdi. Qonunchilik palatasiga 120 nafar deputat saylandi. Senatga respublikamizning har bir hududidan 6 nafardan, jami 84 ta senator saylandi. Konstitutsiyasining 77 moddasiga muvofiq, 16 nafar senator O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlandi.

Vaqt o'tish bilan deputatlar tarkibi va sonida davr talabi asosida o'zgartirishlar kiritildi. Bu xususda Prezident I.A.Karimov shunday degan edi: «Saylov haqidagi qonunchilikka kiritilgan bir qancha o'zgarishlar qatorida bo'lajak saylovlarda fuqarolar ishtirokining ko'lamini kengaytirish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining o'rinlari soni 120 tadan, 150 tagacha ko'paytirildi. Va shuning hisobidan, avvalo, atrof muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yangi tamo- yil joriy etildi. Ya'ni mamlakat parlamentidagi deputatlik o'rinlari soniga O'zbekiston Ekologik harakatdan saylanadigan deputatlar uchun 15 ta o'rin ajratildi»⁹⁹.

⁹⁹ Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. Toshkent. 2009, B. 5.

O'zbekistonda mustaqillik - yillarida boshqaruv tizimi tubdan isloh qilindi. Milliy davlatchilik an'analarini o'zida mujassamlashtirgan ijroiya hokimiyat – Vazirlar Mahkamasi tuzildi. Vazirlar Mahkamasi – ba'zi davlatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda hukumatning nomi; mustaqil O'zbekiston Respublikasining huqumati 1992 - yilda qabul qilingan Konstitutsiyaga ko'ra Vazirlar, Mahkamasi deb, nomlanadi. Vazirlar Mahkamasining huquqiy maqomi, tashkil etilishi va faoliyat tartibi hamda vakolat doirasi Konstitutsiya hamda uning to'g'risidagi 1993 - yildagi maxsus qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan. Bu qonuni tayyorlashda hozirgi barcha ilg'or davlatlarda hukumat tuzish va uni boshqarishning eng mukammal tomonlari va yutuqlari inobatga olingan¹⁰⁰.

O'tish davrining dastlabki yillarida Konstitutsiyamizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi, uning faoliyatiga rahbarlik qiladi; Vazirlar Mahkamasi tarkibini Prezident tuzadi va bu tarkib Oliy Majlis tomonidan besh - yil muddatga tasdiqlanadi; Prezident Bosh vazir uning birinchi o'rinbosarini, urinbosarlarini, Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, bu qarorlarni Oliy Majlis tasdig'iga kiritadi¹⁰¹, deb, belgilangan edi.

Darhaqiqat, o'tish davrida Prezident vakolatini keng bo'lishi mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka xizmat qiladi. Bu xususta Prezident I.A.Karimov shunday degan edi: «Kuchli ijroiya hokimiyat bo'lmasa, hatto eng demokratik yo'l bilan qabul qilingan qarorlar ham qabul qilinmasligi mumkin. Bu esa qonuniy qarorlarning ro'yobga chiqmasligini, fuqorolarning huquq va erkinliklarini himoyo qilinishini, siyosiy va iqtisodiy islohatlar turmushga tadbiiq etilishini taminlaydigan prezidentlik hokimiyatini mustahkamlash va rivojlantirishni taqazo etadi.»¹⁰²

Mamlakatimizda fuqorolik jamiyati barpo etish yo'lidagi siyosiy islohatlarni natijasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yuqorida takidlangan ayrim moddalariga o'zgartirishlar kiritildi. 2007- yil 11- aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qonuni asosida endilikda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni damda Vazirlar mahkamasi raisi hisoblanmaydigan bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 98-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi, Vazirlar mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi¹⁰³.

Davlat hokimiyati va boshqarishni demokratiyalashtirish borasida davr talabiga mos takliflar kiritilmoqda. Jumladan, 2010 - yil, 12 noyabrda Toshkentda

¹⁰⁰ Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahririda, ikkinchi nashri. T.: Sharq, 2000. B. 31

¹⁰¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. 1991, B. 16.

¹⁰² O'sha manba. B. 31.

¹⁰³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent. 2008, B. 27.

bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Senatining Qo'shma majlisida qilgan ma'ruzasida Bosh vazir nomzodi Konstitutsiyada belgilangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiing taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi, degan jumla mavjud edi. Prezident ushbu jumlaning o'rniga O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi o'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovlarda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o'rnini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi kabi takliflar kiritdi va bu deputatlar tomonidan ma'qullandi¹⁰⁴.

Mustaqillik - yillarida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va 1993 - yil, 2-sentyabrda qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi qonun asosida sud islohoti o'tkazildi. 2000-yil, 14-dekabrda qabul qilingan, «Sudlar to'g'risida»gi qonunning yangi tahriri bu boradagi islohotlarni davr talabiga mos ravishda amalga oshirish uchun huquqiy asos bo'ldi. Sudlarning mustaqilligi qonunlashtirildi, ularning odil sudlovni amalga oshirish faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekistonda sud hokimiyati qonunning ustunligi, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini ta'minlash yo'lida faoliyat yuritmoqda.

O'zbekistonda sud hokimiyati – mamlakatimiz davlat hokimiyatining mustaqil tarmoqlaridan hisoblanib qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, shuningdek siyosiy partiyalar va boshqa jamoat tashkilotlaridan mustaqil ish yuritadi¹⁰⁵.

Sud hokimiyatini mamlakatimizda Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy Xo'jalik sudi, Qoraqolpog'iston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqolpog'iston Xo'jalik sudi, Toshkent shahar sudi, viloyat sudlari, shahar va tuman sudlari hamda harbiy sudlar amalga oshiradi¹⁰⁶.

1995 - yilning dekabrda Oliy Majlisining IV-sessiyasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi saylandi. Bu sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat aktlarining konstitutsiyaviyligini ko'rib chiqish bo'yicha sud hokimiyati organi hisoblanadi. Ushbu organ saylanish bilan respublikada mamlakatimiz Konstitutsiya ustunligi va tantanasi ta'minlanadigan huquqiy davlat bo'lishining, qonunlar ustuvorligi barqaror bo'lishini kafolati paydo bo'ldi¹⁰⁷.

Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari, uning tashkil etilishi va faoliyati Konstitutsiya hamda 1995 - yil 30-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida» degan qonun bilan belgilanadi. Bu sud Oliy Majlis qabul qilgan va boshqa aktlarning, O'zbekiston

¹⁰⁴ Qarang // Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Ma'rifat. 2010 - yil, 13 noyabr.

¹⁰⁵ Mustaqillik: . Izohli ilmiy-ommabop lug'at. A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahririda, ikkinchi nashri. T.: Sharq, 2000. B. 277.

¹⁰⁶ O'sha manba. B. 278.

¹⁰⁷ Tyurikov B. Shog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi 100 savolga, 100 javob. Toshkent. 1998, B. 29-30.

Respublikasi Prezidenti farmonlarining, hukumat hamda davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlarining konstitutsiyaviyligini ko'rib chiqishga haqlidir¹⁰⁸.

Sud hokimiyatining boshqa hokimiyatlar bilan teng faoliyat ko'rsatishi Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan. Asosiy qonunimiz «sud'yalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo'ysunadilar» deb, e'lon qiladi. Sud'yalarning dahlsizligi qonun bilan kafolatlanadi (112 modda) sud hokimiyati chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar tashkilotlar mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir (114 modda)¹⁰⁹.

O'zbekistonda parlament huziridagi inson huquqlari bo'yicha Vakil Instituti (ombudsman)¹¹⁰ Oliy Majlisning 1995 - yil fevralida bo'lib o'tgan birinchi sessiyada O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy huquqlari va erkinlariga rioya qilish kafolatlarini kuchaytirish maqsadida tuzilgan. Ombudsmanning faoliyati O'zbekiston Respublikasining 1997 - yil 25-aprelda qabul qilingan «Oliy Majlisning inson huquqlari (ombudaman) bo'yicha Vakili to'g'risida» degan Qonuni bilan tartibga solinadi¹¹¹.

Sud-huquq tizimi sohasidagi islohatlar natijasi sifatida fuqarolar huquqlarini himoya qilish takomillashmoqda. Bu borada Prezident I.A.Karimov 2010 - yil 12 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida shunday degan edi: «Hozirgi vaqtda mamlakatimizda prokuror va advokatning tengligini, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha sud faoliyatining barcha bosqichlarida o'zaro tortishuv bo'lishini ta'minlashga, odil sudlovning sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda»¹¹².

Prokuratura organlari qonunlar, qarorlar, farmonlar, farmoyishlar ijrosi bajarilishini nazorat qiluvchi organ hisoblanadi. 2001-yilning, 29-avgustida «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, uning asosiy tamo- yillari

Hozirgi mustaqil O'zbekiston hududida avvallari ham bir qator konstitutsiyalar¹¹³ qabul qilingan. (Turkiston ASSRning 1918 va 1920 - yillardagi, Xorazm va Buxoro Respublikalarining 1920-1921 - yillardagi, O'zbekiston SSRning 1927, 1937, 1978 - yillardagi Konstitutsiyalari). Ammo, u konstitutsiyalar xalq ommasi o'z xududini o'zi erkin va demokratik asosda boshqarish, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqlarini ta'minlamagan edi. Ular

¹⁰⁸ O'sha manba. B. 30.

¹⁰⁹ Odilqoriev. X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. T., Sharq, 2002, - B. 80.

¹¹⁰ «Ombudamon» tushunchasi o'rta asr shved tilida kuch yoki nufuzli, boshqa shaxslar vositachisi yoki vakili bo'lgan shaxsni anglatar edi.

¹¹¹ Tyurikov B. Shog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi 100 savolga, 100 javob. Toshkent. 1998, B. 38-39.

¹¹² Qarang: //I.A. Karimov Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Ma'rifat. 2010 - yil, 13 noyabr.

¹¹³ Konstitutsiya so'zi lotincha – tuzilish, tartib, davlatning asosiy qonuni degan ma'noni anglatadi.

asosan, Markazning ko'rsatmasi bilan yozilgan va ittifoq Konstitutsiyasidan ko'chirib olingan edi. Sobiq Ittifoq davridagi konstitutsiyalar amalda tobelikni mustahamlar, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi uchun imkoniyat yaratar, chet el davlatlari bilan aloqa o'rnatish huquqidan respublikalarni mahrum etar, boshqaruvning istibdod tizimini muhofaza etar edi¹¹⁴.

«Mustaqillik Deklarasiyasi» qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1990 - yil, 20 iyunda bo'lib o'tgan ikkinchi sessiyasidayoq yangi Konstitutsiya ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelingan edi. Sessiyada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov boshchiligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha komissiya tuziladi. Konstitutsiyaviy komissiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqish ustida 2,5 - yil ishladi.

Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda konstitutsiyaviy rivojlanishining jahon tajribasi o'rganildi, inson huquqlari, demokratiya va qonunchilik sohasida jahonda qo'lga kiritilgan yutuqlar hisobga olindi. Milliy davlatchiligimizning tajribasi, Amir Temur va boshqa allomalarimizning davlatni idora qilish sohasidagi g'oyalari yangi Konstitutsiyaga asos qilib olindi.

1992 - yil 26-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Muhokama 2 oycha davom etdi. Muhokama jarayonida bildirilgan taqliflar asosida tuzatishlar kiritilgan, loyiha 1992 - yil, 26-noyabrda matbuotda ikkinchi marta e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi, ular inobatga olindi. Konstitutsiyamiz xalqimizning siyosiy daholigi va tafakkurining mahsuli bo'ldi. Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqishga rahbarlik qildi va o'zining katta hissasini qo'shdi.

Yaratilayotgan Konstitutsiyada yangi davlatning tabiati, uning ichki va tashqi siyosati tamo- yillari ochiq-oydin yoritildi, inson huquqlariga davlat suverenligiga, demokratiyaning va ijtimoiy adolatning oliy maqsadlariga sodiqligi ko'rsatib o'tildi, shuningdek, o'zbek davlatchiligi rivojlanishi tarixiy tajribasini hisobga olish, xalqaro huquqning umum e'tirof etgan me'yorlari ustuvorligiga tayanish lozimligi aytiladi. Mamlakatda yashayotgan barcha millat va elatlar uchun munosib hayotni ta'minlashga zamin bo'lishi, barqaror bozor iqtisodiga asoslangan demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati bunyod etilish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mohiyatini tashkil etadi¹¹⁵.

Bulg'usi mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqida Prezident I.A.Karimov 1992 - yil avgust oyida nashr etilgan birinchi kitobida shunday degan edi: «Xalqi yuz yillar mobaynida ozodlikni orzu qilgan O'zbekiston chinakam mustaqillikni qo'lga kiritib, go'llab-yashnash va farovonlikka erishish, taraqqiy etgan demokratik davlatlar qatori xalqaro hamjamiyatda munosib o'rinni egallashi

¹¹⁴ Mustaqillik: . Izohli ilmiy-ommabop lug'at. A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahririda, ikkinchi nashri. T.: Sharq, 2000. -B. 265-266.

¹¹⁵ O'sha manba. B. 266.

– biz ko'zlayotgan oliy maqsaddir. Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi buning huquqiy kafolati bo'lib xizmat qiladi»¹¹⁶.

Oliy Kengashining 1992 - yil dekabrda bo'lgan XI sessiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish masalasini muhokama qildi.

Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o'zgartirish, qo'shimcha va aniqliklar kiritdilar. Shunday qilib, 1992 - yil 8-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini nishonlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilingan kun – 8 dekabr umumxalq bayrami – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni deb, e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat. U «Mustaqillik Deklarasiyasi», «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari, to'g'risida»gi Qonunda mustahkamlangan tamo- yillar va g'oyalarni o'zida to'la mujassamlashtiradi.

Birinchi bo'limda, konstitutsiyaviy tuzumning asosiy prinsiplari majmui keltirilgan. Davlat mustaqilligi, xalq hokimiyati, Konstitutsiya va Qonun ustuvorligi hamda O'zbekiston xalqaro munosabatlarning to'la subyekti ekanligini belgilovchi prinsip ana shunday prinsiplardir¹¹⁷.

Ikkinchi bo'lim inson va fuqarolarning asosiy huquqlari hamda erkinliklarini mustahkamlaydi. O'zbekiston Respublikasining asosiy Qonuni insonni jamiyat va davlatning oliy qadriyati deb, e'lon qiladi. Konstitutsiyaning 128 moddasidan 60 tadan ko'prog'i shaxsning huquqiy maqomiga. Fuqarolarning huquqlari va erkinlariga bag'ishlangandir¹¹⁸.

«Jamiyat va shaxs» deb, atalgan uchinchi bo'lim jamiyatning iqtisodiy asoslariga jamoa birlashmalariga, oila masalalariga va ommaviy axborot vositalariga bag'ishlanadi.¹¹⁹

To'rtinchi bo'lim ma'muriy-hududiy va davlat qurilishi masalalariga aniqlik kiritadi¹²⁰.

Beshinchi bo'lim davlat hokimiyatining tashkil etilishiga bag'ishlangan¹²¹.

Oltinchi bo'limda Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi belgilab berilgan¹²².

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ijodkor xalqimizning hohish, irodasi va dono fikr-mulohazalari asosida va jahoneda to'plangan eng ilg'or konstitutsiyaviy rivojlanish tajribasini va milliy davlatchiligimiz xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ishlab chiqildi. Ilgarigi konstitutsiyalar esa markaziy hokimiyat tomonidan tayyorlangan Ittifoq Konstitutsiyasi nusxalaridan ko'chirib

¹¹⁶ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. 1999, B. 22.

¹¹⁷ Tyurikov B, Shog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi: 100 savolga, 100 javob. Toshkent. 10998, B. 28.

¹¹⁸ O'sha manba. B. 28.

¹¹⁹ O'sha manba. B. 28.

¹²⁰ O'sha manba. B. 28.

¹²¹ O'sha manba. B. 28.

¹²² O'sha manba. B. 28.

olinar edi. Shuning uchun ham yangi asosiy qonunimiz mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi hisoblanadi.

Konstitutsiyaning ustuvorligi barcha davlat idoralari, ijtimoiy tuzilmalar hamda fuqarolarning faoliyati Asosiy qonunda mustahkamlangan qoidalar, prinsiplar va g'oyalar asosida amalga oshirilishini bildiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Konstitutsiyamizning qabul qilinishi chog'idagi nutqida shunday degan edi: «Huquqiy davlatning asosiy belgisi – barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi ta'minlashdir. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipi shuni anglatadiki, barcha joriy qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo'lishi talab etiladi»¹²³.

2002 - yil 27-yanvarda utkazilgan umumxalq referendumini natijalariga ko'ra hamda uning asosida 2003 - yil 24-25 aprel kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n birinchi sessiyasida «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun loyihasi muhokama qilindi va mazkur qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga jamiyatni yanada erkinlashtirish va demokratiyalash, ikki palatali parlament tuzish zaruriyatidan kelib chiqqan holda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi. Asosiy qonunimiz mazmun va mohiyati, maqsad va vazifalariga dahl qilmagan holda, avvalo Oliy Majlisning roli va ahamiyatini kuchaytirish, uning palatalari maqomi va vakolatlariga doir XVIII bob (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi) 76-88 moddalariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlari hamda vazifalariga doir XX-bob (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti) 89,90,93,95,97-moddalariga ham o'zgartirishlar kiritildi. Bundan tashqari Konstitutsiyaning XX-(Vazirlar Mahkamasi), XXIII (Saylov tizimi) boblariga ham tuzatish va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVII-bob, 70-75- moddalari O'zbekiston tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasiga tegishli bo'lib, unda O'zbekiston va Qoraqalpog'iston o'rtasidagi huquqiy munosabatlarga aniqlik kiritilgan¹²⁴

Prezident I.A.Karimov 2009- yil 5- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 - yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi maruzada Konstitutsiyamizning ahamiyati xususida shunday degan edi: «Butun o'tgan davr mobaynida bosib o'tgan yo'limizni mantiqiy baholar ekanmiz, avvalo Konstitutsiyamizning asosiy prinsiplari va qoidalari negizida qabul qilingan qonun va dasturlar bo'yicha davlat qurilishi, ijtimoiy- iqtisodiy qurilishi borasida

¹²³ Odilqoriev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. T.: Sharq. - B. 25-26.

¹²⁴ Qarang //O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T, 2008. –B. 13-14.

bosqichma- bosqich va izchillik Bilan amalga oshirilayotgan islohatlar natijalarini qayd etishimiz tabiiy, albatta»¹²⁵

«Mamlakatimiz erishgan bunday ulkan marralarning barchasini butun Dunyo tan olayotganini ko'rib, asosiy qonunimiz belgilab bergan mustaqil taraqqiyot yo'li naqadar to'g'ri ekaniga takror va takror ishonch hosil qilmoqdamiz»¹²⁶.

4. Mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlarining tashkil etilishi, Jamiyatda ko'ppartiyaviylikning qaror topishi

Milliy davlatchilik tarixi tajribasidan kelib chiqib, «O'zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida»gi Qonunga muvofiq 1992 - yil yanvaridan boshlab viloyat, tuman, shaharlarda hokimlik boshqaruvi tashkil etildi. Hokimiyat qoshida ijroiya apparati tuzildi.

Viloyat, tuman va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib davlat va fuqarolarning manfaatini ko'zlab o'z vakolatlariga taallukli masalalarni hal etadi. Tumanga buysunadigan shaharlarda, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarda xalq deputatlari Kengashlari faoliyat yuritmaydi.

Hokim va uning ijroiya apparati joylardagi korxona va muassasalarga rahbarlik qilish, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlariga mos ravishda hal qilish bilan shug'ullanmoqda. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning vakolat muddati 5 - yil.

Konstitutsiyada fuqarolik jamiyatini barpo etishda mahalliy o'zini – o'zi boshqarish organlarining rolining oshib borish prinsipi mustahkamlangan. Konstitutsiyaning maxsus bobbi (XXI) mahalliy davlat hokimiyati organlariga bag'ishlangan¹²⁷.

Konstitutsiyaning 105 moddasiga ko'ra, shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim - yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi¹²⁸, deb, yozib qo'yilgan.

Fuqarolarning yig'inlari o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lib, hokimiyatning eng qo'yi bug'ini hisoblanadi va mahalla uning o'zagini tashkil etadi. Mahalla O'zbekistonning muayyan tarixiy sharoitlarida, asrlar davomida shakllanib, faoliyat ko'rsatayotgan, aholi yashaydigan ma'muriy-hududiy birlik, uyushma. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha dastlabki mahallalar IX asrda Buxoroda shakllangan. Mahallalar 1917 - yilgacha bo'lgan davrda juda keng ish olib borib, mahalliy aholini birlashtiruvchi, uyushtiruvchi tashkiliy tuzilma bo'lganlar. Mahalla o'zbek xalqining kundalik ijtimoiy hayotini va turmushini

¹²⁵ Karimov.I.A O'zbekiston Konstitutsiyasi- biz uchun dimokratik taraqqiyot yo'lida va fuqorolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. Toshkent, 2009. – B. 4.

¹²⁶ O'sha manba. –B. 4.

¹²⁷ Odilqoriev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. Toshkent. 2002, - B. 37.

¹²⁸ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Toshkent. 2008, -B. 29.

tashkil qilishda izlab topgan va asrlar davomida takomillashtirib kelgan a'molidir. Ammo, shunga qaramasdan sobiq sovet davrida hukmron tuzum va mafkura mahallalarni rasman tan olmadi. Biroq, aholining noroziligiga sababchi bo'lmalik uchun mahallalarni taqiqlay ham olmadi, uni jamiyatni boshqarish tizimiga kiritmadi. Mahalla o'z mohiyati, faoliyati mazmuni va shakllari bilan sharqona fikrlash, ish ko'rish tarzi kabi xalqimizning o'ziga xos fazilatlarini aks ettiradi¹²⁹.

O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilinishi bilan mahallalarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Konstitutsiyaning 105 moddasiga va 1993 - yil sentyabrda qabul qilingan «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunga binoan mahallalar o'z huquqiy maqomiga ega bo'lib, mahalliy hokimiyatning tarkibiga kirdi¹³⁰.

O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlari, 1992 - yil, 8- dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1993 - yil, sentyabrda qabul qilingan «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi, «Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish idoralari to'g'risida»gi, Qonunlar hamda 1994 - yil, may oyida qabul qilingan «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risida»gi Qonun va boshqa huquqiy – me'yoriy hujjatlar asosida ish yuritadi.

Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 2000 - yil, 22-yanvarda bo'lib o'tgan ikkinchi chaqirik birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamo- yilini hayotga tatbiq etish borasida shunday degan edi: «Odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi yuksalib borgan sari, davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borish zarur»¹³¹.

Bu borada o'zini-o'zi boshqaradigan idoralarning mahallalarning nufuzini va mavqeyini oshirish, ularga ko'proq huquqlar berish katta ahamiyat kasb etadi¹³².

Partiya so'zi, lotincha-qism, guruh: eski o'zbekchasi arabchadan «firqa» – guruh degan ma'noni anglatadi. Partiya – umumiy g'oya va manfaat, ijtimoiy-siyosiy maqsadlar asosida odamlarni ixtiyoriy ravishda uyushtiruvchi turg'an tashkilot fuqaroviy jamiyat bilan davlatni bir-biriga bog'lovchi eng muhim vositalardan biri, hozirgi zamon huquqiy demokratik davlati hayotining zaruriy omillaridan biri¹³³.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34 moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar, deb yozilgan¹³⁴.

¹²⁹ Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahririda, ikkinchi nashri. T.: Sharq, 2000. B. 112-113

¹³⁰ O'sha manba. B. 113

¹³¹ Karimov I.A. Ozod va Obod Batan, erkin va faravon hayot-pirovard maqsadimiz. Toshkent. 2000, -B. 8.

¹³² O'sha manba. - B. 8.

¹³³ Mustaqillik ilmiy-ommabop lug'at. A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahririda, ikkinchi nashri. T.: Sharq, 2000. B. 193.

¹³⁴ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Toshkent. 2008, -B. 9

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiining 1996 - yil, dekabrda bo'lgan, birinchi chaqirik yettinchi sessiyasida qabul qilingan «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq siyosiy partiyalarning Oliy Majlisidagi fraksiyalari siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan deputatlarning ta'sis yig'ilishlarida o'z partiyalarining siyosatini uyushqoqlik bilan o'tkazish uchun tuziladi. Qoraqolpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengasi va davlat hokimiyatining mahalliy vakillik idoralarida ham shu maqsad va xuddi shu tartibda siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlar guruhlarini tuziladi¹³⁵.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston Respublikasida 4 ta siyosiy partiya va 1 ta ijtimoiy-siyosiy harakat faoliyat yuritmoqda.

1. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, 1991 - yil, 1-noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tashkil topgan. Ushbu qurultoyda uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi.

O'zbekiston XDPning «O'zbekiston ovozi», «Golos Uzbekistana» gazetalari va «Muloqot» jurnali nashr etilmoqda.

2. 1995 - yil 18-fevralda O'zbekiston «Adolat» sosial – demokratik partiyasi (SDP) tuzildi. Partiyaning Toshkentda bo'lib o'tgan 1-ta'sis qurultoyida uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi.

«Adolat» sosial-demokratik partiyasining «Adolat» nomli ijtimoiy-siyosiy haftalik gazetasi nashr etilmoqda.

3. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan partiyalardan yana biri «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidir (MTDP). U 1995 - yil, 3 iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tuzildi va partiyaning Dasturi va Nizomi qabul qilindi.

O'zbekiston MTDPsining «Milliy tiklanish haftalik» gazetasi nashr etilmoqda.

4. 1998 - yil, 28 dekabrda «O'zbekiston Fidokorlar» milliy-demokratik partiyasi tashkil topdi. Partiyaning 1998 - yil, 28-dekabrda ta'sis qurultoyida uning Dasturi va Nizomi tasdiqlangan. (2010 - yilda ushbu partiya «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi bilan qo'shildi).

5. 2003 - yil oxirida O'zbekiston Liberal – demokratik partiyasi tashkil topdi. Uning maqsadi tadbirkorlar va ishbilarmonlar manfaatini himoya qilishdan iborat. O'zLDPning «XXI asr» haftalik gazetasi nashr etilmoqda.

1995 - yil, may oyida jamoatchilikning tashabbusi bilan O'zbekiston «Xalq birligi» harakati tashkil etildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

«Xalq birligi» harakatining «Birlik» va «Yedinstvo» haftalik gazetalari nashr etilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekistonda 2001 - yil, 25-aprelda tashkil topgan, nodavlat, natijorat tashkiloti – O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, 1992 - yil, 2-iyulda qabul qilingan «Kasaba uyushmalari ularning huquqlari, faoliyati kafolatlari to'g'risida»gi Qonun bo'yicha faoliyat yuritayotgan

¹³⁵ Mustaqillik ilmiy-ommabop lug'at. A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahririda, ikkinchi nashri. T.: Sharq, 2000. B. 195.

O'zbekiston kasaba uyushmalari va boshqa bir qancha jamoat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov sobitqadamlik bilan olib borayotgan siyosat va amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar mamlakatimiz siyosiy hayotida haqiqiy ma'nodagi ko'ppartiyaviylik muhiti qaror topishiga yo'naltirilgandir. Siyosiy partiyalar aholi muayyan qatlamlarining, fuqarolar hamda ular uyushmalarining fikrini, nuqtai nazarini ifodalashning muhim demokratik vositasidir. Xudi mana shuning uchun ham «Har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlarga tayangan holda, ana shu toifa manfaatlarining himoyachisi sifatida o'zining aniq va ravshan harakat dasturiga ega bo'lish kerak. Unda har qaysi partiyaning maqsad va vazifalari, jamiyat taraqqiyoti borasidagi muqobil takliflari o'z ifodasini topish lozim. Amaldagi ko'ppartiyaviylik – har xil qarash va g'oyalar o'rtasidagi bahs-munozara, turli partiyalar, jumladan muxolif partiyalar uchun ham siyosiy raqobat maydonidir»¹³⁶.

Prezident I.A.Karimov 2009 - yil, 5 dekabrda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 - yilligiga bag'ishlangan marosimdagi ma'ruzasida siyosiy partiyalar faoliyati haqida shunday degan edi: «Siyosiy partiyalarning roli va ta'sirini kuchaytirish, ularning ishonchli vakillari sonini ko'paytirish, saylov jarayonida ularga qo'shimcha huquq va vakolatlar berish, umuman saylovchilarning huquqini kengaytirishni ko'zda tutadigan bu imkoniyatlar saylov tizimini yanada takomillashtirishga katta hissa bo'lib qushiladi, desak hych qanday xato bo'lmaydi»¹³⁷.

Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 - yil, 12-noyabrdagi qo'shma majlisida qilgan ma'ruzasida bir qancha qonunlarga jumladan: «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi Qonunning 27-moddasiga hamda «Xalq deputatlari viloyat tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi Qonunning 25 moddasiga davr talabiga mos o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklifini bildirdi¹³⁸.

Mavzu yuzasidan nazorat uchun savollar

1. Nima uchun «Qayta qurish» siyosati barbod bo'ldi?
2. Nima sababdan ittifoqdosh respublikalar sobiq SSSR tarkibidan chiqib boshladi?
3. FHDQ qachon, kimlar tomonidan, nima maqsadda tuzildi?
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi qonun haqida nimalarni bilasiz?
5. O'zbekiston Davlat mustaqilligini qo'lga kiiritishning tarixiy ahamiyati nimalardan iborat?

¹³⁶ Odilqoriev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. Toshkent. 2002, B. 89

¹³⁷ Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. Toshkent. 2009, - B. 5.

¹³⁸ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Ma'rifat. 2010 - yil, 13 noyabr.

6. Prezident I.A.Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarining mohiyati haqida nimalarni bilasiz?\
7. O'zbekiston Respublikasida qanday sud organlari faoliyat yuritmoqda?
8. Vazirlar Mahkamasining tuzilishi, tarkibi, vazifalari haqida nimalarni bilasiz?
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining sobiq sovet davrida Konstitutsiyalardan farqli jihatlari nimada?
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlari haqida nimalarni bilasiz?
11. O'zbekiston Respublikasi siyosiy partiyalarining umumiy va farqli jihatlari nimada?
12. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan qanday jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlarini bilasiz?

Testlar

- 1. Sobiq SSSRda e'lon qilingan «qayta qurish» siyosatining tashabbuskorini aniqlang?**
 - A. K.U.Chernenko
 - B. Yu.V.Andropov
 - S. M.S.Gorbachev
 - D. L.I.Brejnev
- 2. Sobiq SSSRning qaysi respublikasida birinchi bo'lib Prezidentlik lavozimi joriy etildi?**
 - A. Rossiya
 - B. Qozog'iston
 - S. Litva
 - D. O'zbekiston
- 3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qo'yi palatasi qanday nomlanadi?**
 - A. Vakillik palatasi
 - B. Qonunchilik palatasi
 - S. Deputatlar kongresi
 - D. Umumiy palata
- 4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi bobbi sud hokimiyatiga bag'ishlangan?**
 - A. XVIII - bob
 - B. XXVI - bob
 - S. XIX- bob
 - D. XXII- bob

5. O'zbekiston Respublikasida «huqumat» vazifasini qaysi organ bajaradi?

- A. Oliy Majlis
- B. Prezident
- S. Vazirlar Mahkamasi
- D. Milliy Xavfsizlik xizmati

6. Fuqarolar yig'inlari raislari va uning maslahatchilarini vakolat muddati necha - yil?

- A. 5 - yil
- B. 3,5 - yil
- S. 2,5 - yil
- D. 4 - yil

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

- takrorlash va mashqlar: takrorlash, o'z-o'zini sinash, tahlil qilish, qayta tayyorgarlik ko'rish, eslab qolish.
- yangi materiallarning mustaqil asosi: yangi adabiyotlar, internet materiallari, qo'shimcha konspekt, mustaqil fikrlar bildirish.
- ilmiy xarakterdagi ishlar: muammoli vaziyatlar, testlar, savollar, topshiriq va slaydlar tuzish.

Mavzu: O'ZBEKISTONNING IQTISODIY, MA'NAVIY, MADANIY TARAQQIYOTI

1.1. Mashg'ulot topshiriqlar rejasi

O'quv vaqti: 2 soat ma'ruza, 2 soat seminar mashg'uloti

Mashg'ulot turi: ma'ruza, o'tilgan mavzularni takrorlab, bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash.

Darsning maqsadi: talabalarga mustaqillik - yillarida Prezident I.A.Karimov tashabbusi bilan iqtisodiy sohadagi islohotlar jumladan, davlat mulkchiligining yakka hukmronligidan voz kechib, mulkchilikning turli shakllariga o'tilish, shuningdek, ma'naviy, madaniy qadriyatlarimizning tiklanish borasidagi o'zgarishlarning mazmun mohiyati haqida tushunchalar berish, ularni erkin fikrlashga, shu mavzu yuzasidan chuqur bilimga ega bo'lishiga ko'maklashish, mavzu asosida yoshlarni vatanparvarlik g'oyasi ruhida tarbiyalash.

Ilmiy mashg'ulotning vazifasi:

O'rgatuvchi: mashg'ulot ishtirokchilarini faol qatnashishlarini tashkil etish, yangi olingan bilimlarini mustahkamlashga ko'maklashish, talabalarni Prezident I.A.Karimovning «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» asaridagi O'zbekiston kelajagini belgilab beruvchi 5 ta tamo- yilni mazmun, mohiyati to'g'risidagi fikrlarini rivojlantirish, mavzuning alohida jihatlarini, boshqa mavzular bilan aloqadalarligini tushuntirish.

- **rivojlantiruvchi:** o'quv adabiyotlaridan to'g'ri foydalanish mavzuga oid muhim muammolar bilan ishlashni o'rgatish, mavzuga oid eng yangi ilmiy natijalar bilan tanishtirish, tushuncha va iboralarni izohlash, talabalarga Prezident I.A.Karimov asarlarida, ma'ruzalarida belgilab berilgan, nazariy jihatdan asoslangan iqtisodiy islohotlar strategiyasi, bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi «o'zbek modeli»ning o'ziga xos jihatlarini keng manbalar, jumladan, eng yangi manbalar asosida tushuntirish, talabalarda O'zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlari haqida bilim va ko'nikmalarini shakllantirish.

- **tarbiya beruvchi:** talabalarni mustaqil ishlashga jalb qilish, sobiq sovet davridagi kommunistik mafkuraning yakka hukmronligi sharoitida o'zbek xalqining milliy ma'naviy qadriyatlarini tahqirlanishi sabablarini tushuntirish, mustaqillik - yillarida kommunistik mafkuraning yakka hukmronligidan voz kechilib milliy va diniy qadriyatlarimizning tiklanishi, milliy istiqlol g'oyasi konsepsiyasining yaratilishi, Prezident I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» asarining mazmun, mohiyatini aniq faktlar asosida talabalarga yetkazish, mavzuni ravon til bilan talabalar uchun sodda usulda tushuntirish, mavzu mohiyatini olib berish jarayonida yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga e'tibor qaratish.

O'rganish texnologiyalari:

- **o'qitish usullari:** ma'ruza, aqliy hujum, klaster, skarbey usullaridan foydalanish jonli muloqot, plakatlarni, tarqatma materiallar, fotosuratlar, ilmiy va badiiy adabiyotlar asosida mavzu mohiyatini talabalarga etkazish;
- **o'rganish turlari:** og'zaki testlar orqali tushuntirish, jamoaviy savol-javoblar, oldindan mavzu bo'yicha qisqacha konspektlar tuzish;
- **o'rganish talablari:** auditoriyalarning texnik vositalar bilan ta'minlanishi, texnik vositalardan unumli foydalanish.
- **monitoring va baholish:** og'zaki nazorat, savol-javoblar, blits-so'rov.

Pedagogik jarayonlar:

- o'quv jarayonida mavzuning ahamiyati va uning o'rnini bilan tanishtirish;
- mavzuning tuzilishi va tavsiya etinadigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar tafsiloti haqida tushuntirishlar berish;
- mavzuning ishlashning uslubiy va tashkiliy xususiyatlarini ochish, baholash muddati va shakli, o'qitish jarayonini tashkillashtirish jarayonining umumiy sxemasini tasniflash;

O'quv faoliyati natijalari:

- mavzuning nomlanishi va vazifalarini belgilash;
- faoliyatidagi alohida usuli va tashkiliy jihatlarni ochib berish;
- mavzuning umumiy va tashkiliy tuzilishlari to'g'risida atroflicha tushuntirish berish;
- Mustaqillik - yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, ma'naviy, madaniy qadriyatlarni tiklanish, ta'lim to'g'risidagi yangi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturini mohiyati xususida bilim va tushunchaga ega bo'lish, talabalarga tarixiy haqiqatni aniq faktlar asosida yetkazilishi, mavzuning asosiy yo'nalishlarini belgilab berilishi;
- nazariy bilimlarning tizimliliigi, amaliyligi;
- amaliy topshiriqlarni bajarishda nazariy bilim va shakllangan ko'nikmalardan foydalana olish;
- mavzuning asosiy mazmuni, yo'nalishi bo'yicha, ularning boshlang'ich bilimlarga ega bo'lishi:

1.2. Ma'ruzaning xronologik kartasi

1-bosqich. O'quv mashg'ulotlariga kirish – 15 daqiqa

- **o'qituvchining faoliyati:** tayyorgarlikni tekshirish, kerakli tarixiy manbalar haqida ma'lumot, ma'ruza haqida tushuntirish berish, o'quv rejasi bilan tanishtirish, adabiyotlar to'g'risida ma'lumot berish, dars davomida talabalar bilimni baholab borish usullari haqida tushuntirishlar berish;
- **talabaning faoliyati:** darsga tayyorgarligi, ma'ruza matni bilan va mavzuga oid rejalar tanishganligi (talabalar soni, tashqi ko'rinishi, o'quv qo'llanmalar va ko'rgazmali qurollar);
- **uslublar, shakllar, usullar:** yo'riqnoma, oldin so'rash, topshiriq kartochkalari

2-bosqich. Asosiy qism – 55 daqiqa

- **o‘qituvchi faoliyati:** mavzuni yoritishga kirilishi, o‘tgan mavzularni takrorlash, ma’ruza matnini tarqatish, uni yaxshi o‘zlashtirib olishni ta’kidlash, mavzu rejalari mavzularining har biriga alohida tushuntirish berish, aqliy hujum, klaster, bumerant usullaridan foydalanish, jonli muloqot, tarixiy atamalarga izohlar berish, ma’ruza matnini o‘qish mobaygida slaydlar orqali atroflicha tushuntirib berish;

- **talabaning faoliyati:** bilimlarni mustahkamlab olish, mavzuni qunt bilan eshitish, muhim joylarini konspekt qilib olish, tushunmagan iboralar bo‘yicha savollar berish, aniqlashtirib olish, mavzuni tahlil qilish;

- **uslublar, shakllar, usullar:** oldindan so‘rash, blits-so‘rov, aqliy hujum, bumerant usulidan foydalanish.

3-bosqich. Yakunlovchi qism-10 daqiqa

- **o‘qituvchi faoliyati:** mavzuni yakunlash, talabalar diqqatini asosiy mavzuga qaratish; dars jarayonida faollik bilan ishtirok etgan talabalarning faoliyatini baholash, mustaqil ish mavzusini berish, baholash;

- **talabaning faoliyati:** o‘tilgan mavzuni tahlil qilish, dars jarayonida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish mustaqil ish mavzusini yozib olish;

- **uslublar, shakllar, usullar:** guruhlarda ishlash, topshiriq kartochkalari.

1.3. O‘quv – uslubiy materiallar

1.3.1. Ma’ruza matni

Mavzu: O‘zbekistonning iqtisodiy, ma’naviy, madaniy taraqqiyoti

Ma’ruza rejasi:

1. Mustaqillik - yillarida O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti
2. Mustaqillik - yillarida madaniy hayot, ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi
3. Respublika milliy istiqlol mafkurasining shakllanishi, va uning aholi ongiga singdirila borishi.
4. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim to‘g‘risidagi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinish, uning ahamiyati.

Tayanch iboralar: Iqtisodiy islohotlar, strategik maqsadlar, xususiylashtirish, mulkchilikning turli shakllari, ko‘p ukladli iqtisodiyot, kichik va o‘rta biznes, agrar islohotlar, bozor infratuzilmasi, mashinasozlik sanoati, yoqilg‘i mustaqilligi, ma’naviy islohotlar, ma’naviy merosning tiklanishi, diniy qadriyatlar, madaniyat ravnaqi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, milliy istiqlol g‘oyasi.

1. Mustaqillik - yillarida O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti

Mustaqillik - yillarida iqtisodiy hayotimizda ro'y bergan yangilanish, tub o'zgarishlarni yoritishga kirishar ekanmiz, avvalo eski mustabid tuzumdan bizga qanday iqtisodiy meros bo'lib qolganligini eslaylik.

O'zbekiston qaramlik davrida o'z tabiiy boyliklariga, yer-suv o'rmon va boshqa resurslariga o'zi egalik qila, olmas edi. Respublika hududida qurilgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar markazga, uning manfaatlariga buysundirilgan edi. O'zbekiston rahbariyati, xalqi o'z hududida qancha mahsulot ishlab chiqarilayotgani, ular qayerda realizasiya qilinayotgani va qancha daromad keltirayotganidan bexabar edi. Moliya-kredit, bank siyosati yuritishda qaram edi, o'zining milliy valyutasiga, valyuta jamg'armasiga ega emas edi.

«Bugun o'sha davr to'g'risidagi haqiqatni xolisona aytadigan bo'lsak, u zamondagi hayotimizni jahon tarixi va amaliyoti bilan taqqoslaydigan bo'lsak, shuni ochiq aytish kerakki, u paytda O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga – markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan yarim mustamlaka mamlakat qatoriga aylangan edi»¹³⁹.

Davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgach, O'zbekiston umumbashariy, jahon sivilizasiyasining katta yo'liga tushib oldi. O'zbekiston bozor munosabatlarini shakllantirishni, milliy an'analarga asoslangan, o'z yo'lini tanlab oldi. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li ishlab chiqildi. Bu yo'lning asosiy qoidalari ya'ni O'zbekiston kelajagini belgilab beruvchi beshta tamo- yil Prezident I.A.Karimovning 1993 - yilda nashr etilgan «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» asarida ko'rsatib o'tilgan. Bu tamo- yillar qo'yidagilardan iborat: 1. Iqtisodiyotni siyosatdan ustuvorligi. 2. Davlatning bosh islohotchi ekanligi. 3. Jamiyatda qonun ustuvorligi. 4. Kuchli ijtimoiy siyosat. 5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma- bosqich o'tish. Bu yo'lga birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olindi. Ikkinchidan, xo'jalik imkoniyatlari, shart- sharoitlari, eski tuzimdan meros bo'lib qolgan muommolar hisobga olindi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda jiddiy muommolarga duch kelish mumkinligi xususida Prezident I.A.Karimov shunday degan edi: «Bozor iqtisodiyotiga o'tish muommolariga tik ko'z bilan qarash kerak. Bozor iqtisodiyotining faqat ijobiy tomonigina emas balki uning salbiy tomonini ham ko'ra bilish kerak. Bozorga, ayniqsa shakllanishi bosqichida uzoq va chuqur iqtisodiy inqirozlar, ishsizlikning o'sishi, pulning qadrsizlanishi, ko'pgina korxonalarning sinishi va ishbilarmonlarning xonavayron bo'lishi, aholining moddiy taminot jihatdan keskin tabaqalashuvi, huquqqa zid hatti- harakatlar va jinoyatlarning o'sishi xosdir. Bozorning bu illatlarini bilish, ularga tayyor turish, ularni bartaraf etish yuzasidan to'g'ri yechimlar topa bilish kerak.»¹⁴⁰

Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi tamo- yili mustaqil O'zbekistonda davlat qurilishini va iqtisodiyotni isloh qilish dasturining o'zagi hisoblanadi. Bu

¹³⁹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent. 1999, - B. 6.

¹⁴⁰ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - t, 1999. –B. 38.

boradagi asosiy qoidalar, shu jumladan, iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi hamda uni mafkuradan xoli etilishi tamoyilining mazmuni Prezident I.A.Karimovning bir qator risola va nutqlarida mufassal yoritilib, berilgan. Uni amalga oshirishning chora-tadbirlari mamlakat hukumatiinning bozor munosabatlarini tarkib toptirishga oid ko'plab me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topgan¹⁴¹.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lidagi maqsadlarini Prezident I.A.Karimov qo'yidagicha ifodalaydi: «Eng muhimi – ijtimoiy larzalarsiz, qat'iyat izchilik bilan bozor munosabatlariga o'tish, jamiki kuch-qudrat va boyliklardan samarali foydalanishni, xalq-xo'jaligining barqaror rivojlanishini respublikaning turmush darajasi yuksak bo'lgan iqtisodi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga chiqib olishni ta'minlaydigan qudratli iqtisodiy negizni vujudga keltirayotgan davlatchilikning mustahkam poydevorini barpo etish kerak»¹⁴².

Iqtisodiy islohotlarning amalga oshirishning asosiy omillaridan biri bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishdan iborat. Shuning uchun islohotlarning huquqiy asoslarini yaratishga alohida e'tibor berildi.

Iqtisodiy sohaga tegishli bo'lgan 100 dan ortiq qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlarni mazmun-mohiyat jihatdan bir qator yo'nalishlarga bo'lish mumkin. 1. Mulkchilik munosabatlari va ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantiruvchi qonunlar. 2. Xo'jalik yuritishini tartibga soluvchi qonunlar ya'ni xususiy lashtirish to'g'risidagi qonunlar. 3. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi huquqiy normalar.

1991 - yil, 18 noyabrda qabul qilingan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to'g'risidagi qonunga muvofiq, davlat mol-mulkini xususiy lashtirish masalalari bo'yicha 20 dan ortiq mahsus dasturlar ishlab chiqildi va ularni amalga, oshirishga davlat boshchilik qildi. Xususiy lashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko'rsatish korxonalarini, qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlovchi xo'jaliklarni davlat tasarrufidan chiqarishdan boshlandi. Bu jarayon «kichik xususiy lashtirish» deb, nom oldi.

Konstitutsiyamizning 36-moddasiga binoan har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli¹⁴³.

Mulkdorlar sinfi avvalo mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishni izchil amalga oshirish hisobiga ham va kichik biznesni hamda xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish hisobiga ham yaratilmoqda. Qishloqda mulkdorlar sinfini yaratishning samarali shakllaridan biri dehqon, fermer va xususiy yordamchi xo'jalilardir¹⁴⁴.

Prezident I.A.Karimovning 2003-yil 24-martdagi «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi farmonida

¹⁴¹ Mustaqillik ilmiy-ommabop lug'at. A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahririda, ikkinchi nashri. T.: Sharq, 2000. B. 79-80.

¹⁴² Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.- t, 1999. -B. 74-75

¹⁴³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.. Toshkent. 2008, -B. 9

¹⁴⁴ Tyurikov B, Shog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi: 100 savolga, 100 javob. Toshkent. 10998, -B. 61.

agrar islohotlarning yangi yo'nalishlarini belgilab berdi. 2007-yilda shirkat xo'jaliklari tugatilib, fermer xo'jaliklari tashkil etildi.

Kichik xususiylashtirish 1994 - yildayoq tugallandi. Davlat ixtiyorida bo'lgan bir milliondan ortiq kvartira yoki davlat uy-joy fondining 95 foizidan ortiqrog'i fuqarolarning xususiy mulki bo'lib qoldi. Bunda har 3 kvartiraning bittasi egalariga imtiyozli shartlar bilan yoki bepul berildi. Urush faxriylari, o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari, ilmiy xodimlar va ijodiy ziyolilarga kvartiralar bepul berildi. 2002 - yilga qadar Respublika uy-joy fondining 98 foiziga yaqini xususiylashtirildi.

1994 - yil, 21-yanvarda e'lon qilingan «Iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi va 1994 - yil, 16 martda e'lon qilingan «Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi Prezident Farmonlari xususiylashtirish jarayoniga yangi turki bo'ldi.

Narxni erkinlashtirish iqtisodiyotda raqobatchilik muhitini vujudga keltirish bilan bevosita bog'lik, 1992 - yil avgust oyida O'zbekiston Respublikasining «Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida»gi qonuni kuchga kirdi. Bu qonun asosida raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ hujjatlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi.

Iqtisodiy islohotlarni birinchi bosqichi yakunlari xususida Prezident I.A.Karimov shunday degan edi: «O'tish davrining birinchi bosqichi isloh qilish jarayonining qiyinchiliklarni, ayni vaqtda tabiiy iqtisodiy munosobatlarni tiklashga yondashishlar bir xil andozada va odatiy emasligini ko'rsatdi»¹⁴⁵.

«Birinchi bosqichda butunlay yangi iqtisodiy tizimning» huquqiy negizlarini yaratishga, davlatchilikni shakllantirish va mustahkamlashga, eskicha fikrlash tarzlarini, ongimizdan chiqarib tashlashga qaratilgan edi. Bu bosqichda yangi tuzum uchun ishonchli poydevor yaratish vazifasi qo' - yildi va hal qilindi»¹⁴⁶.

O'zbekiston xorijiy kampaniyalar bilan qo'shma korxonalar qurishga keng imkoniyatlar yaratildi. Masalan, 1996-yil 19-iyulda Andijon viloyatining Asaka shahrida Janubiy Koreya bilan hamkorlikda yuarpo etilgan «O'zDAEVOO» avto qushma korxonalirin ochilish marosimi bo'ldi. Korxonada dastlab «Damas», «Tiko», «Neksiya» rusumli avtomobillar ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2003-yildan boshlab «Lassetti» rusumli avtomobil ishlab chiqarilmoqda.

O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida huquqiy sharoit va tuzilmalar yaratilgan. Bu Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes – jamg'armasi, «Madad» sug'urta agentligi, biznes inkubatorlardir. 1998 - yil 9 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni yanada rag'batlantirish choralari to'g'risida»gi Farmoni qabul

¹⁴⁵ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. 1991, -B. 185.

¹⁴⁶ O'sha manba. B. 185.

qilingan bo'lib, u xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni jadal rivojlanishiga huquqiy asos bo'ldi.¹⁴⁷

Prezident I.A.Karimov ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2002 - yil, 22-yanvaridagi birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida iqtisodiy sohadagi navbatdagi vazifalar xususida shunday degan edi: «Iqtisodiyotni erkinlashtirishdagi bosh vazifa – eng avvalo, davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik vazifalarini – funksiyalarini qisqartirish, uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga, birinchi galda, xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklashda iborat»¹⁴⁸.

Ayniqsa, xususiy biznesga ko'proq erkinlik berish lozim. Umuman, iqtisodiy faoliyatning bozorga xos mexanizmlariga ko'proq erkinlik berish zarur. Buning uchun tegishli huquqiy zamon, tashkiliy va iqtisodiy shart-sharoit va kafolatlarni yaratishimiz kerak¹⁴⁹.

Iqtisodiy islohotlar bilan hamohang tarzda mamlakatimizda aholining kam ta'minlangan qatlamini ijtimoiy himoyalashga alohida e'tibor berildi. Masalan, 1994-yil, 24-avgustda «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash tug'risida Prezident Farmoni e'lon qilindi. Faqat 2000-yilning o'zida aholining kam ta'minlangan qismiga mahallar orqali 54,3 mln so'm moddiy yordam berishdi. 2007 – yil mamlakatimizda «Ijtimoiy himoya» yili deb, e'lon qilindi.

2008 - yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi tahliliga bag'ishlangan Prezident I.A.Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli kitobi 2009 - yilda nashr etilgan¹⁵⁰.

Prezident I.A.Karimov 2009 - yilning 5 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 - yiliga bag'ishlangan tantanali marosimda qilgan ma'ruzasida 2009 - yil «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi - yili»da amalga oshirilgan ishlar to'g'risida gapirib jumladan, shunday degan edi: «Qishloq xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirish, sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, eng muhim qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini yuksaltirish, yurtimizni obod etish yo'lida toboro hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan fermerlik harakatini samarasini yanada oshirish maqsadida talaygina ishlar qilindi»¹⁵¹.

Prezident I.A.Karimov 2010 - yil, 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatinng qo'shma majlisida qilgan ma'ruzasida vaqt o'tishi bilan qonunlarga, jumladan, iqtisodiyot sohasiga tegishli qonunlarga ham o'zgartirishlar, yangilanishlar bo'lishi zarurligini bildirib, shunday degan edi: «Hozirgi vaqtda yana bir muhim masala mamlakatimiz iqtisodiyotida «kichik biznes, birinchi navbatda xususiy tadbirkorlikning roli va ulushni yanada

¹⁴⁷ Tyurikov B, Shog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi: 100 savolga, 100 javob. T., 10998, B. 61.

¹⁴⁸ Karimov I.A. Ozod va Obod Batan, erkin va faravon hayot-pirovard maqsadimiz. T., 2000, B. 13

¹⁴⁹ O'sha manba. B. 13.

¹⁵⁰ Qarang/ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent. 2009.

¹⁵¹ Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. Toshkent. 2009, - B. 11.

kengaytirishni ta'minlay oladiga qonunlarni qabul qilish masalasi biz uchun dolzarb masala bo'lib qolmoqda»¹⁵².

2. Mustaqillik - yillarida madaniy hayot, ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi

Mustaqillik - yillarida barcha sohalar kabi madaniy sohada ham tub o'zgarishlar ruy berdi. Eng avvalo madaniyat sohasi kommunistik mafkura iskanjasidan xolos etilib, milliy, ming - yillik tarixiy ijodiy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar erkin fikr yuritish tamo- yili tiklandi. Madaniyat¹⁵³ barkamol insonni shakllantirish vositasi hamdir. Bu vazifani bajarishga keng tarmoqli madaniyat o'choqlari: madaniyat uylari va saroylari, kutubxonalar, muzeylar, teatrlar, ma'naviyat va ma'rifat markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari, bolalar va o'smirlar ijodi markazlari, ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar safarbar etilgan. Keyingi - yillarda ular safiga milliy-madaniy markazlar, xalq amaliy san'ati bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalar, xalqaro madaniy-ma'rifiy markazlar, firmalar va xususiy ustaxonalar qo'shilishi xalq ommasining ijtimoiy-madaniy hayotda faol ishtirokini ta'minlaydi¹⁵⁴.

Istiqlol - yillarida badiiy adabiyotda musitaqillikni asrab-avaylash, ozod va obod vatan qurish, barkamol insonni tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash kabi masalalar bosh mavzu bo'lib qoldi.

Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Xurshid Davron kabi ijodkorlarning tarixiy roman, pyesa va qissalarida ulug' bobokalonlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Z.M.Bobur va boshqalarning siymolari umuminsoniy va milliy qadriyatlarga mos tarzda, yangicha talqinda yoritildi. Xalqaro Sholoxov mukofati laureati Tulepbergen Qayipbergenevning «U dunyoga, bobomga hat» asarida, Shukurroloning «Kafansiz qo'milganlar» romanida, Nazar Eshonqulovning «Qora kitob» povestida, O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar», Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» singari asarlarida mustabid sovet davrida xalq boshiga solingan behad kulfatlar, g'am alamlar haqqoni tasvirlangan.

O'zbek xalqi me'morchiligi mohiyat e'tibori jihatidan buyuk bunyodkorlik san'atidir. Mustaqillik - yillarida me'morchilik san'ati yanada rivojlanib, takomillashib bormoqda. Me'morchilikda ikki asosiy tamo- yil ko'zga tashlanadi. Ulardan biri sharqona me'morchilikning an'anaviy qonun-qoidalariga rioya etishdir. Bu tamoyil Temuriylar tarixiy davlat muzeyi, Turkiston saroyi, Oliy Majlis, Senat, Toshkent shahar hokimiyati binolari timsolida o'z aksini topgan.

Me'morchilikdagi ikkinchi tamoyil esa, O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin olish sari intilishini namoyish etuvchi jahon me'morchilikning eng

¹⁵² Qarang// Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Ma'rifat. 2010 - yil, 13 noyabr.

¹⁵³ Madaniyat arabcha «madaniyat» - madinalik, shaharlik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik degan ma'noni anglatadi.

¹⁵⁴ Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahririda ostida. T.: Sharq, 2000. B. 104-105.

yaxshi yutuqlaridan foydalanishida namoyon bo'lmoqda. Bunday binolar jumlasiga «Meridian», «Afrasiyob» (Samarqand) «Interkontinental» mehmonxonalari, «Milliy bank, O'zbekiston davlat Konservatoriyasi va boshqa binolarni kiritish mumkin.

Mustaqillik - yillarida haykaltaroshlik san'ati jadal o'sdi, Haykaltarosh I.Jabborov va K.Jabborovlar tomonidan Toshkentda Amir Temurning otliq haykali, Samarqand va Shahrisabzda Amir Temur haykallari, Farg'ona va Quvada al-Farg'oniy (1998) , Xorazmda Jaloliddin Manguberadi haykallari (1999) va boshqa haykallar bunyod etildi.

Tasviriy san'at va rassomchilik san'atining rivojida 1997 - yilda tashkil etilgan «O'zbekiston Badiiy akademiyasi va «Tasviriy oyina» Respublika ijodiy kyushmasi muhim rol o'ynadi. O'zbekiston xalq rassomlari Malik Nabiyeu, Bahodir Jalolov va boshqalar xalqimiz ongida milliy g'urur Vatanga sadoqat tuyg'ularini uyg'otuvchi qator san'at asarlari yaratdilar.

Jamiyat madaniy-ma'rifiy hayotida, alohida tarixiy xotirani tiklash va mustahkamlashda muzeylarning ahamiyati katta. Shu boisdan ham mustaqillik - yillarida mavjud muzeylarni ta'mirlash ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alohida e'tibor berildi.

1996 - yil, 18 oktyabrda Toshkentda ochilgan Temuriylar tarixi Davlat muzey O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'rifiy va ma'naviy ishlar borasida yirik tarixiy va madaniy yodgorlik ilmiy tafakkur markazi bo'lib qoldi. Muzey eksponatlari juda katta tarixiy qimmatga ega bo'lib, Temuriylar davri ruhini beradi. Muzeiga qo'yilgan tilla buyumlar, o'sha davrga xos jihozlar Amir Temur, Bobur qo'lyozmalari, Ulug'bekning astronomik qurilmalari va boshqa Madaniy boyliklar shular jumlasidandir¹⁵⁵.

O'zbekiston Prezidentining 1998 - yil, 12-yanvardagi «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni va uning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan Respublika hukumatining 1998 - yil, 5 dekabrda qabul qilingan «Muzeylar faoliyatini qullab-quvvatlash masalalari to'g'risida»gi qarori mamlakatimizda muzey ishini rivojlantirish istiqbollarini belgilab berdi.

Mustaqillik - yillarida kino san'ati rivoj topdi. 1996 - yilda tashkil etilgan «O'zbekkino» davlat aksionerlik kompaniyasi, uning davlat tomonidan moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi, kino san'atining rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1991-2002 - yillarda 60 ga, yaqin badiy filmlar yaratildi. 1997 - yil, 22-29-may kunlari XII Xalqaro Toshkent kinofestivali bo'ldi. Unda 32 ta davlat va 8 ta xalqaro tashkilotdan vakillar kino san'ati ustalari qatnashdi.

Sovet mustabid uzumi davrida O'zbekiston tarixi bilan bog'liq jumladan, kino san'ati, tarixi bilan bog'liq masalalariga jiddiy e'tibor berilmagan. Masalan, 1978 - yili Xivada o'zbek kinosi asoschisi X.Devonov yashagan va ijod qilgan uyni

¹⁵⁵ Tyurikov B., Shog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi 100 savol, 100 javob. Toshkent. 1998, -B. 119.

muzeyga aylantirish to'g'risida buyruq chiqarilgan bo'lib, bu buyruq to'liq bajarilmay, uying bir qismi xo'jalik ombori vazifasini o'tab kelgan¹⁵⁶.

Respublika Prezidenti 1995 - yil, 20 oktyabrda O'zbekistonda teatr va musiqa san'atining yanada rivojlantirishni qo'llab quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi, 1998 - yil, 26 martdagi O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risidagi farmonlari asosida teatr davlat byudjeti hisobidan qo'llab-quvvatlandi, 1998 - yilda «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi.

1992-yilda «O'zbekdavlsirk» respublika birlashmasini tashkil etilish sirk san'atining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Toshkent sirki zamonaviy talablar asosida qayta ta'minlandi, unga O'zbekiston xalq artisti Toshkenboy Egamberdiyev nomli berildi.

1997 - yil, 11 martda qabul qilingan respublika hukumatining «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivalini o'tkazish to'g'risidagi qarori musiqa san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish, rivojlantirishda dasturamal bo'lib xizmat qildi. Har ikki - yilda Samarqandda «Sharq taronalari» Xalqaro festivalini o'tkazish an'ana tusini oldi.

Konstitutsiyamizning XV bob, 67-moddasida «Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardir»¹⁵⁷. deb, yozib qo'yilgan. O'zbekistonda mustaqillik - yillarida keng tarmoqli ommaviy axborot vositalari tizimi yaratildi va faoliyat yuritmoqda.

1992 - yil, 5-fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonuni sportni ommaviy ravishda rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi, 46 mingdan ortiq sport inshootlari qurildi.

1992 - yil, yanvarda O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasi tuzildi va 1993 - yil, sentyabrda xalqaro Olimpiya Qo'mitasining 101-sessiyasida e'tirof etildi.

Jamiyat ma'naviyati mamlakat barqarorligi va taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir.

Biron-bir mamlakat o'z ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay va mustahkamlay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Shuning uchun ham, jamiyat, ma'naviyatni yuksaltirishni O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo'nalishi deb, belgiladi.

Eng avvalo, ma'naviy meros davlat himoyasiga olindi. Konstitutsiyamizning 49-moddasida «Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar»¹⁵⁸ deb, yozib qo'yilgan.

Mustaqillik davri milliy istiqlol ma'naviyatini¹⁵⁹ tiklash va rivojlantirish, milliy til va madaniyatni taraqqiy ettirish, milliy o'z-o'zini anglash, milliy his-

¹⁵⁶ Yunusova X. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma'naviy jarayonlar (XX asr 80 - yillar misolida) Toshkent. 2009, - B. 93.

¹⁵⁷ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, T., 2008, B. 13.

¹⁵⁸ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, T., 2008, B. 10.

¹⁵⁹ Ma'naviyat, arabcha «ma'naviyat» - ma'nolar majmui degan ma'noni anglatadi.

tuyg'ular, g'ururni, vatanparvarlikni o'stirish va mustahkamlash bilan bog'liqdir. Mustaqil O'zbekistonning taraqqiyoti jamiyat a'zolarining, har bir shaxs va aynisa yoshlarning ma'naviy kamoloti, istiqlol g'oyalarining kishilar ongiga, kundalik hayotiga chuqurroq singishiga bog'liqdir. Mustaqil taraqqiyot yo'lida milliy ong va milliy o'z-o'zini anglash ma'naviy kamolotning asosiy negizidir¹⁶⁰.

Ma'naviyatning jamiyat uchun o'ta muhim ekanligi xususida Prezident I.A.Karimov shunday degan edi. «Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar o'z yo'liga. Ularni hal qilish mumkin, Xalqning ta'minotini ham amallab turish mumkin. Ammo, ma'naviy islohotlar – qullik va mutelik iskajasidan ozod bo'lish, qadni baland tutish, ota-bobolarimiz udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish – bundan og'irroq va bundan sharafliroq vazifa yo'q dunyoda»¹⁶¹.

Fuqarolar ma'naviyatining pastligi jamiyatda qonunbuzarlikni, ijtimoiy-siyosiy beqarorlikning keltirib chiqaruvchi omillardan biridir. Zero, qonunni buzish, jinoyat sodir etish aksariyat hollarda ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy saviyaning pastligi oqibatida ham yuz beradi¹⁶².

O'zbekistonning yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi. Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- vatanparvarlik¹⁶³.

1994 - yil, 23-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risidagi Farmoni e'lon qilindi.

Mustaqillik sharofati bilan diniy qadriyatlar, diniy e'tiqod qayta tiklandi. 1992 - yil, 27 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ro'za va qurbon hayiti kunini dam olish kuni deb, e'lon qilish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Musulmonlar O'zbekiston xalqi tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har - yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega bo'ldilar. Islom dinini xalqimiz ma'naviyat va ruhiyatida muhim ahamiyatga ega ekanligi xususida Prezident I.A.Karimov shunday degan edi: «Biz islom dini ota-bobolarimiz dini ekanini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanini doimo yuksak qadrlaymiz. Xalqimizning ming - yillik tarixini, bugungi ma'naviy hayotini, dini diyonatimizni muxtasar ifodalab, aytish mumkinki, Alloh bizning qalbimizda, yuragimizda. Dinga hurmat va e'tiqod – biz uchun o'lmas qadriyatdir»¹⁶⁴.

Prezident I.A.Karimov 1998 - yil, iyun oyida bir guruh tarixchilar bilan bo'lgan suhbatda «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» ekanligini, «Tarix

¹⁶⁰ Mustaqillik Izohli ilmiy-ommabop lug'at. A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahririda, ikkinchi nashri. T.: Sharq, 2000. B. 114.

¹⁶¹ Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Toshkent. 1996, T. – 1. B. 202.

¹⁶² Odilqoriev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. Toshkent. Sharq, 2002, - B. 56.

¹⁶³ Karimov I.A. O'zbekiston Buyuk kelajak sari. Toshkent. 1999, -B. 56.

¹⁶⁴ Karimov I.A. Ozod va Obod Batan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. Toshkent. 2000. - B. 20-21

manaviyatning asosi» ekanligi xususida gapirib tarixchilar oldiga o'zbek xalqi va o'zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa sahifalarini holisona ilmiy asosda yoritish vazifasini qo'ydi.

Prezident I.A.Karimov o'zining 2008- - yilda nashr etilgan «Yuksak manaviyat yengilmas kuch» asarida hamma zamonlarda ham eng buyuk boylik bo'lib kelgan manaviyaga quyidagicha tarif beradi. «Manaviyat- insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-etiqodni butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir»¹⁶⁵

3. Respublika milliy istiqlol mafkurasining shakllanishi va uning aholi ongiga singdirila borishi

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi eng asosiy vazifa milliy istiqlol g'oyasini, mafkurasini shakllantirish va odamlar ongiga singdirishdan iboratdir.

Eng avvalo, g'oya va mafkura tushunchalariga ta'rif beraylik: «G'oya-inson tafakkurining mahsuli, inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxshi etadigan, uni ezgu maqsadlar sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir»¹⁶⁶.

«Mafkura esa muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddalari, manfaatlari, orzu-intilishlari, hamda ularni amalga oshirish tamo- yillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalar tizimidir»¹⁶⁷.

O'zbekiston jamiyatining milliy istiqlol g'oyasi millatning o'timishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oya shakli¹⁶⁸.

O'zbekiston jamiyatining milliy istiqlol mafkurasida, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddatlarini ifodalaydigan, uning o'timishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan, asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir¹⁶⁹.

Milliy istiqlol mafkurasida¹⁷⁰ sobiq SSSRda XX asr, 90 - yillarining boshigacha taqiq ostida bo'ldi. Chunki sobiq Sovet davlatida millatlar va elatlarning barcha orzu-umidlari to'la, bekamu-ko'st amalga oshirildi, deyilar edi. Xalbukini, sobiq SSSR respublikalari amalda Markazga tobe edilar va ularning moddiy boyliklari, Markazning ixtiyoridagi mulk bo'lib, ma'naviy-madaniy hayot esa shakl va mazmun jihatdan kommunistik mafkuraning talablariga buysundirilgandi¹⁷¹.

¹⁶⁵ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 2008. -B.19.

¹⁶⁶ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent. 2000. - B. 9.

¹⁶⁷ O'sha manba. B. 9.

¹⁶⁸ Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va astamalar lug'ati, tuzuvchi va mas'ul Q.Hazarov. Toshkent. 2007, -B. 220.

¹⁶⁹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamo- yillar. Toshkent. 2000. -B. 43

¹⁷⁰ Mafkura, arabcha «mafkura – nuqtai nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmui».

¹⁷¹ Mustaqillik Izohli ilmiy-ommabop lug'at. A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahririda, ikkinchi nashri. T.: Sharq, 2000. -B. 129

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov Asosiy qonunimizning bir - yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda O'zbekistonda ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hyech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas, degan Konstitutsiyaviy qoida «bizning oldimizga milliy istiqlol mafkurasini yaratish vazifasini qo'yadi» - deb ta'kidlagan edi¹⁷².

1993 - yil, 23-aprel kuni Prezident I.A.Karimov bir guruh adiblar bilan suhbat qilib, milliy istiqlol g'oyasini yaratishning zaruriyati va ahamiyatini asoslab berdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII sessiyasida 1993 - yil, 7 may kuni nutq so'zlab, Prezident I.Karimov quyidagilarni ta'kidladi:

- milliy istiqlol g'oyasi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim.

- shu bilan birga bu g'oya xalqimizda o'zining qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlariga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi taraqqiy topgan davlatlar orasida teng huquqli asosida munosib o'rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog'i kerak.

«Tafakkur» jurnalining 1998 - yil, 2 sonida jurnal bosh muharriri savollariga Prezident I.A.Karimovning javoblari e'lon qilindi. Mazkur javoblarda milliy g'oyamizning nazariy va amaliy jihatlarini yanada chuqurroq yoritildi. Bugungi kunda sobiq sovetlar zamonida hukmronlik qilgan, odamlarni qullik, mutelik holatiga solgan manqurtga aylantirgan kommunistik mafkurani tanqid qilish, ma'muriy choralar ko'rish yo'li bilan yengib bo'lmaydi. «G'oyaga qarshi faqat qoya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirilishi, olishini mumkin», - degan haq fikrni ilgari surdi. «Jamiyatimizning mafkurasi shu jamiyatning tayanchi bo'lishi oddiy inson va uning manfaatlarini ifoda etish, xalqimizning bexatar, tinch-omon, farovon, badavlat turmushga erishish uchun kuch-g'ayrat manbai bo'lishi lozimligi»¹⁷³, ta'kidlandi.

Milliy istiqlol g'oyasidan kutilgan maqsad nima?

Prezident I.A.Karimov suhbatda «Xo'sh, milliy g'oya, milliy mafkura nimalarni o'zida mujassamlashtirilishi va qanday talablarga javob berish kerak?» degan savolni qo'yadi va unga javob berar ekan, qo'yidagi dasturiy ahamiyatga, molik fikr-mulohazalarni, vazifalarni ilgari surdi:

- milliy mafkura, avvalombor, o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olish shart;

- ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan xilma-xil fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlardan, har qanday toifalar va guruhlarining intilishlari va umidlaridan, har qanday insonning e'tiqodi va dunyoqarashdan qat'iy nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va

¹⁷² Odilqoriev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. T., Sharq, 2002, - B. 300.

¹⁷³ Karimov I.A. Adolat jamiyat sari. Toshkent. 1998, -B. 13.

davlatimizning daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya-mafkura bo'lishi kerak;

- uchinchidan, milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xshagan unsurlardan, boshqa eslat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutloqo xoli bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman jahon hamjamiyatida, xalqoro maydonda o'zimizga munosib hurmat va izzat qozonishida poydevor va rahnamo bo'lishi darkor;

- to'rtinchidan, milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek, oliy janob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur:

- beshinchidan, u Vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqda yo'l ochib beradigan vash u maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oya bo'lishi kerak.

Yurtboshimiz hozirgi zamonda insonlarning qalbi va ongini egallash uchun mafkuraviy kurash borayotganligi, ko'p narsalarni mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar hal qilish mumkinligi, O'zbekistonda ham ba'zi yoshlarni yo'ldan chalg'itayotgan diniy ekstremizm xavfli mavjudligi haqida ogohlantirib kelmoqda. XX-asr 80 - yillarining oxirlarida mamlakatimizga «do'st», «dindosh», «millatdosh» qilib ko'rsatib, go'yo islom dinining sofliqi uchun kurashishga da'vat etuvchi ayrim kimsalar kirib kelganligi ma'lum. Ular muqaddas islom dinimizning asl mohiyatini bilmaydigan odamlarni go'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bizga begona bo'lgan diniy aqidalarini yoyishga urindi, ayrim yoshlarni o'ziga mahliyo qilishga, jaholat va jinoyat botqog'iga tortishga ulgurishdi ham. Namangan, Toshkent va Andijonda sodir etilgan qonli voqyealardan keyingina bu kuchlarning niyati hokimiyat uchun kurash bo'lib, ular din niqobi ostida harakat qilayotgan xalqaro terrorchilik harakatining O'zbekistondagi bir to'dasi ekani oshkor bo'ldi. Mustaqillikning dastlabki - yillarida esa mafkuradan voz kechish natijasida paydo bo'lgan bo'shliq vaziyatida begona g'oyalarning O'zbekistonga xuruji kuchaydi.

Bunday mafkuraviy ta'sirlar salbiy oqibatlariga olib kelmasligi uchun nima qilish kerak?

Buning yo'li – odamlarimiz, avvalambor, yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalashdir. «Farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror tortishimiz, tadbir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur»¹⁷⁴.

¹⁷⁴ Karimov I.A. Milliy istiqlool mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Toshkent. 2000, -B. 12.

Prezidentimiz I.A.Karimov Milliy g'oyaning jamiyat uchun o'ta zarur ekanligi xususida shunday degan edi: «Milliy g'oya bo'lsa, maqsad oydinlashadi. Ezgu maqsad esa har bir kishini safarbarlikka da'vat etadi, jamiyatni yanada birlashtiradi. O'z milliy g'oyasi, milliy mafkurasiga ega bo'lgan davlat mustahkam, qudratli va obod bo'ladi. Shuning uchun bu borada ikkilanish, sustkashlik, o'zibo'larchilik, loqaydlikka aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi»¹⁷⁵.

Shunday qilib, I.A.Karimov O'zbekistonning milliy istiqlool g'oyasini yaratish tashabbuskori va ijodkori bo'ldi. Ma'no-mazmuni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni ta'minlash kabi insonparvar tamo- yillarni o'zida uyg'unlashtirgan milliy istiqlool g'oyasi shakllandi.

Mamlakatimizda milliy istiqlool g'oyasining asosiy tamo- yillari ta'lim va madaniy-ma'rifiy muassasalari, omamviy axborot vositalari, adabiyot va san'at, mahallalar va mehnat jamoalari tomonidan odamlar ongi va qalbiga singdirilmoqda.

Prezident I.A.Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» asarida Milliy g'oyaga qo'yidagicha ta'rif beradi. «Milliy g'oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan shu yurtida yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib, ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng orzu intilish va umid-maqsadlarini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo'lamiz»¹⁷⁶.

4. O'zbekiston Respublikasida ta'lim to'g'risidagi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi

Manaviy- marifiy sohadagi yutuqlarimiz talim tizimidagi tub o'zgarishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xalq talimini isloh qilish, kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlash sohasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Eng avvalo, talim soxasi kommunistik mafkura iskanjasidan xalos etilib, talimda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi taminlandi. 1992 - yilda qabul qilingan qonun sobiq sovet talim tizimi bilan yangi qonun oralig'ida o'ziga xos «kuprik» vazifasini o'tadi. Yangi oliy o'quv yurtlari tashkil etilib, bilimlarning yangi tarmoqlari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Viloyatlar ham yangidan-yangi o'quv yurtlari ochildi. Prezident I.A.Karimovning 1992- - yil 28- fevraldagi farmoni bilan 8 ta viloyat pedagogika institutlariga universitet maqomi berildi. Bu respublika hukumatining izchil madaniy- marifiy siyosatining yana bir dalili bo'ldi. Mustaqillik yilarida eng zarur zamonaviy mutaxassisliklar bo'yicha o'nlab

¹⁷⁵ Mamashokirov S., Tog'ae'v Sh. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy – mafkuraviy masalalari. Toshkent. 2007, -B. 8.

¹⁷⁶ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008 - B. 71.

oliy o'quv yurtlari, Mudofa vazirligi qoshida Harbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi qoshida Ichki ishlar akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya unversiteti, Toshkent aviasiya insituti, Navoiy tog'-konchilik instituti, Toshkent moliya instituti va boshqalar shular jumlasidandir.

Prezident I.A. Karimov o'zini 1992- - yil, avgust oyida nashr etlgan «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida mustaqil O'zbekiston talim tizimidagi vazifalarni quyidagicha belgilaydi: «Umumiy ta'lim olish, kasbni va tegishli maxsus tayyorgarlikni o'tashni erkin tanlashda barchaga barovar huquq berish. Yangi demokratik ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim bo'ladi. Bunda o'zbek xalqning va respublika xududida yashovchi boshqa xalqlarning milliy, tarixiy va madaniy an'analari, ma'naviy tajribasi ta'lim va tarbiya tizimizga uzviy ravishda kiritilishi zarur»¹⁷⁷.

Konstitutsiyamizning 41-moddasida «Har kim bilim olish huquqiga ega» deb, yozib qo'- yilgan¹⁷⁸.

1995 - yil, sentyabr oyida mamlakat Prezidenti huzurida Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi tashkil qilindi. Akademiyadagi jarayon kadrlarni siyosiy, madaniy, ma'naviy hamda kasbiy jihatdan tayyorlash, majmunni o'z ichiga oladi. Akademik ta'lim tinglovchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, keng aql-zavokat, chuqur bilim va mulohaza tashabbus, muammolarni hal etishga ijodiy yondashuv asosida hozirgi fan tafakkurini shakllantirishga qaratilgandir¹⁷⁹.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 - yil, 5 fevralda qabul qilgan «O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari uchun abituriyentlarni test yo'li bilan tanlab olish to'g'risida»gi qarorida muvofiq shu - yildan boshlab oliy o'quv yurtlariga abituriyentlarni qabul qilishda test usulidan foydalanila boshladi va u ijobiy natija berdi¹⁸⁰.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan ta'limni tubdan isloh qilish yo'llari ishlab chiqildi. 1997 - yil, 29 avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida O'zbekiston Respublikasi, «Ta'lim to'g'risida» Qonuni va «kadrlar tayyorlash» milliy dasturi» qabul qilindi. Milliy dasturning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xolos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Ta'lim islohoti va uning istiqbollarini belgilashda qo'yidagi tamo- yillar asos qilib olindi:

- ta'lim – tarbiyaning insonparvarligi va demokratiyaviyligi;
- ta'lim tizimining uzluksizligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi;
- ta'limda umuminsoniy va milliy, madaniy-ma'naviy qadriyatlarning ustivorligi;

¹⁷⁷ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. 1999, - B. 20.

¹⁷⁸ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Toshkent. 2008, - B. 9.

¹⁷⁹ Tyurikov B., Shog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi 100 savol, 100 javob. Toshkent. 1998, -B. 98.

¹⁸⁰ O'sha manba. B. 109.

- millati, e'tiqodi, dinidan qat'iy nazar barcha fuqarolar uchun ta'lim olish imkoniyati yaratilganligi;

- ta'lim muassasalarining siyosiy partiyalar va harakatlar ta'siridan xoliligi.

Mustaqillik - yillarida mamlakatimizda yagona uzluksiz ta'lim tizimi yaratildi. U maktabgacha tarbiya, umumta'lim maktabidan tashqari ta'lim, hunar-texnika ta'limi, o'rta maxsus va oliy ta'lim, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, malaka oshirish tarmoqlarini o'z ichiga oladi.

Respublikada amalga oshirilayotgan qayta o'zgartirishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi xilma-xil sohalarda ishlayotgan mutaxassilardir. Shuning uchun ham davr talabalarini hisobga olgan holda mamlakatda kadrlar tayyorlashga, xalqning boy aqliy merosi va bu sohadagi chet el tajribasi asosida ta'lim tizimini shakllantirishga shunday katta e'tibor berilmoqda. Qabul qilingan kadrlar tayyorlash Milliy dasturida mutlaqo yangi tuzilmalar – o'qish muddati kamida 3 - yil bo'lgan akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari tuzish nazarda tutilgan¹⁸¹.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1998 - yil, 24 fevralda «Akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari tashkil etish hamda ular faoliyatining boshqarish to'g'risida» qaror qabul qildi¹⁸².

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va milliy dastur ta'lim tizimini tubdan isloh qilishni taqozo etadi. Islohotlar bosqichma-bosqich o'tkaziladi.

Birinchi bosqich o'tish davri bo'lib, u 1997-2001 - yillarda davom etadi, ta'limning rivojlanishi uchun huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik, moddiy shart-sharoitlar yaratiladi.

Ikkinchi bosqich 2001-2005 - yillarni o'z ichiga oladi va milliy dastur to'liq amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich 2005 va undan keyingi - yillarda mo'ljallangan bo'lib, unda to'plangan tajribalarni tahlil etish asosida kadrlar tayyorlash tizimi yanada takomillashtiriladi va rivojlantiriladi. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim qo'yidagi turlarda amalga oshiriladi: Maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim; o'rta-maxsus va kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni bajarish umumxalq, umummillat ishiga aylandi. 2001 - yilda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishining birinchi bosqichi yakunlandi.

2001 - yilda respublikamizda 6772 ta maktabgacha ta'lim muassasalarida 608500 nafar o'g'il-qizlar tarbiyalandi. Ularda 6582 nafar pedagog, tarbiyachi va boshqa xodimlar xizmat qildi. 9727 ta umumta'lim maktablarda 440762 nafar o'qituvchi, 6,3 mln o'quvchiga ta'lim bermoqda. Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha barcha o'quv fanlaridan Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi va ular 346 ta maktabda tajribadan o'tkazildi, ta'lim jarayoniga joriy etildi. Davlat ta'lim standartlariga mos o'quv dasturlari va darsliklari yaratildi.

¹⁸¹ Tyurikov B., Shog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi 100 savol, 100 javob. Toshkent. 1998, -B. 100.

¹⁸² O'sha manba. B. 101.

Oliy ta'lim tizimida katta o'zgarishlar qilindi. Oliy ta'lim ikki bosqichdan – bakalavriat va magistraturadan iborat etib qayta tashkil etildi. 62 ta oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan bo'lajak bakalavr va magistrlar soni 2003-2004 o'quv - yilida 254400 nafarni tashkil etdi. Oliy o'quv yurtlarida 18486 nafar professor-o'qituvchilar mehnat qilmoqdalar, ularning 1462 nafarni fan doktori, 7201 nafari fan nomzodidir.

O'zbekiston oliy o'quv yurtlari xorijiy davlatlar uchun ham mutaxassis tayyorlab beradi. Masalan, O'zbekistonning oliy o'quv yurtlarida 1997 - yili jahonning 40 dan ortiq mamlakatlaridan kelgan 1250 dan ziyod chet el fuqarolari ta'lim oldilar. Chunonchi, faqat birgina Toshkent Davlat Universitetida 9 davlatdan kelgan 51 nafar talaba bilim olmoqda¹⁸³.

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati sobit qadamlik bilan olib borilmoqda. Iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, chet elda o'qishni qullab-quvvatlash maqsadida «Respublika bolalar fondi», «Sog'lom avlod uchun», «Iste'dod» jamg'armalari tashkil topdi. «Zulfiya» mukofati ta'sis etildi. Ta'lim sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi. 200 dan ortiq talaba va mutaxassislar chet elda o'qib keldi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish jarayonida maktab ta'limi, ayniqsa umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga e'tiborni kuchaytirish biz uchun kun tartibidagi eng muhim va jiddiy masalaga aylandi.¹⁸⁴

Shu maqsadda yurtimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uzviy va mantiqiy davomi bo'lmish 2004-2009 - yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi qabul qilindi¹⁸⁵.

Ushbu dasturga muvofiq yurtimizda mavjud bo'lgan o'n mingga yaqin umumta'lim maktabining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim jarayonining mazmunini tubdan takomillashtirish, o'qituvchilarning mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha katta ishlar qilinmoqda¹⁸⁶.

Ta'lim sohasiga e'tibor - yildan- yilga yanada kuchaymoqda. Bu borada Prezident I.A.Karimov 2009 - yilning 5 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 - yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida shunday degan edi. Birgina 2009 - yilning o'zida ta'lim sohasidagi ishlarimiz yangi bosqichga ko'tarilib, yurtimiz bo'yicha jami 1 ming 957 ta maktab qurilgan va rekonstruksiya qilingan bo'lsa, ularning 1 ming 622 tasi aynan qishloq joylarda ekanligi diqqatga sazovardir. Shular qatorida 2009 - yilda barpo etilgan 214 ta akademik lisey va kasb-hunar kollejning 170 tasi qishloq tumanlarimizda bunyod etilgani va rekonstruksiya qilinganligini ta'kidlash lozim¹⁸⁷.

¹⁸³ Tyurikov B., Shog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi 100 savolga, 100 javob. Toshkent. 1998, -B. 107.

¹⁸⁴ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008 B. 64.

¹⁸⁵ O'sha manba. B. 64.

¹⁸⁶ O'sha manba. B. 64.

¹⁸⁷ Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. Toshkent. 2009, -B. 20

Mavzu yuzasidan nazorat uchun savollar

1. Mustabid sovet tuzumidan bizga qanday iqtisodiy meros qolgan edi?
2. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishda qanday yo'l tanladi?
3. Chet el sarmoyalarining O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etimish haqida nimalarni bilasiz?
4. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida qanday tadbirlar amalga oshirildi?
5. Aholini ijtimoiy himoyalash siyosati va amaliyoti haqida so'zlab bering?
6. O'zbekistonda mulkni xususiylashtirishni huquqiy asoslari va bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
7. O'zbekistonda mustaqillik - yillarida madaniy sohadagi o'zgarishlar haqida so'zlab bering?
8. Prezident I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» asari mohiyati haqida so'zlab bering?
9. O'zbekiston Respublikasi milliy istiqlol g'oyasi va uning mohiyati haqida nimalarni bilasiz?
10. Mustaqillik - yillarida o'zbek adabiyotida qanday asarlar yaratildi?
11. O'zbekistondagi «Ta'lim to'g'risidagi Qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning mohiyati nimada?
12. Mustaqillik - yillarida O'zbekistonda Oliy ta'lim sohasida qanday o'zgarishlar bo'ldi?

Testlar

- 1. O'zbekistonda «kichik xususiylashtirish» nechanchi - yilda tugatildi?**
 - A. 1993 - yilda
 - B. 1995 - yilda
 - S. 1994 - yilda
 - D. 1996 - yilda

- 2. Prezidentni qaysi asarida Prezident I.A.Karimov tomonidan ilganri surilgan 5 ta tamo- yil o'z aksini topgan?**
 - A. O'zbekiston XXI asr intilmoqda
 - B. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li
 - S. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li
 - D. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida
- 3. Konstitutsiyamizning nechanchi moddasida «Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar» deb yozilgan**
 - A. 52 modda
 - B. 41 modda
 - S. 34 modda
 - D. 49 modda

4. 1994 - yil, 23 aprelda O'zbekiston tarixida qanday muhim voqeya bo'ldi?

- A. Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi tuzildi
- B. Prezident I.A.Karimov milliy istiqlol g'oyasi konsepsiyasini yaratish uchun bir guruh adiblar bilan uchrashdi
- S. Toshkentda «Markaziy Osiyo yadro qurolidan xoli zona» mavzusida konferensiya bo'ldi.
- D. Samarqandda «Markaziy Osiyo tarixini tadqiq etish» instituti ochildi

5. Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasini aniqlang?

- A. Ijtimoiy hamkorlik
- B. Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish
- S. Dinlararo bag'rikenglik
- D. Buyuk va qudratli davlat barpo etish

6. Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi nechanchi - yillarni o'z ichiga oladi?

- A. 2003-2008
- B. 2004-2009
- S. 2005-2009
- D. 2004-2008

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

- takrorlash va mashqlar: takrorlash, o'z-o'zini sinash, tahlil qilish, qayta tayyorgarlik ko'rish, eslab qolish.
- yangi materiallarning mustaqil asosi: yangi adabiyotlar, internet materiallari, qo'shimcha konspekt, mustaqil fikrlar bildirish.
- ilmiy xarakterdagi ishlar: muammoli vaziyatlar, testlar, savollar, topshiriq va slaydlar tuzish.

Mavzu: O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI

1.1. Mashg'ulot topshiriqlar rejasi

O'quv vaqti: 2 soat ma'ruza, 2 soat seminar mashg'uloti

Mashg'ulot turi: ma'ruza o'tilgan mavzularni takrorlab, bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash.

Darsning maqsadi: talabalarga O'zbekiston mustaqillik uchun kurashlar tarixi uzoq o'tmishga borib taqalishini, sobiq SSSRni parchalanishi natijasida mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi, uning tinchliksevar tashqi siyosati asoslarini ishlab chiqilishi, jahon hamjamiyatiga qo'shilish hamda xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligining mazmun-mohiyatini tushuntirish, ularni erkin fikrlashga, shu mavzu to'g'risidagi tushunchalarini yuzaga chiqarish, yoshlarda o'z Vatani bilan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish.

Ilmiy mashg'ulotning vazifasi:

O'rgatuvchi: mashg'ulot ishtirokchilarini faol qatnashishlarini tashkil etish, yangi olingan bilimlarni mustahkamlash, talabalarga mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatini tinchliksevar demokratik tamo- yillarga asoslanganligini, O'zbekiston jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zoligi, jahon hamjamiyati bilan hamkorligining mazmun, mohiyati haqidagi fikrlarini rivojlantirish, mavzuning alohida jihatlari, boshqa mavzular bilan aloqadorligini tushuntirish.

- **rivojlantiruvchi:** o'quv adabiyotlaridan to'g'ri foydalanish, mavzuga oid muhim muammolar bilan ishlashni o'rganish, mavzuga doir eng yangi ilmiy natijalar bilan tanishtirish, tushuncha va iboralarni izohlash, talabalarga har qanday imperiya kabi sovet imperiyasi ham tannazulga yuz tutib barham topishi muqarrar ekanligi, mustaqil O'zbekiston Prezident I.A.Karimov rahnamoligida jahon hamjamiyatida munosib o'ringa ega bo'layotganligi, O'zbekistonni BMT, YuNESKO, YeHHT kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan har tomonlama aloqalarining Prezident I.A.Karimov asarlari, ma'ruzalari hamda keng qamrovli manbalar asosida tushuntirish, ularda vatanparvarlik his-tuyg'usini rivojlantirib borish.

- **tarbiya beruvchi:** talabalarni mustaqil ishlashga jalb qilish, O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi qardosh mamlakatlar bilan har tomonlama hamkorligi, AQSh, G'arbiy Yevropa, Osiyo mamlakatlari bilan har tomonlama va ikki tomonlama hamkorligini O'zbekiston tashqi siyosati tamo- yillari bilan hamohangligini aniq faktlar asosida talabalarga yetkazish, mavzuni ravon til bilan talabalar uchun sodda usulda tushuntirish. Mavzu mohiyatini ochib berish jarayonida yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga e'tibor qaratish.

O'rganish texnologiyalari:

- **o'qitish usullari:** ma'ruza, aqliy hujum, klaster, skarbey usullaridan foydalanish jonli muloqot, plakatlari, tarqatma materiallar, fotosuratlar, ilmiy va badiiy adabiyotlar asosida mavzu mohiyatini talabalarga etkazish;

- **o'rganish turlari:** og'zaki testlar orqali tushuntirish, jamoaviy savol-javoblar, oldindan mavzu bo'yicha qisqacha konspektlar tuzish;

- **o'rganish talablari:** auditoriyalarning texnik vositalar bilan ta'minlanishi, texnik vositalardan unumli foydalanish.

- **monitoring va baholish:** og'zaki nazorat, savol-javoblar, blits-so'rov.

Pedagogik jarayonlar:

- o'quv jarayonida mavzuning ahamiyati va uning o'рни bilan tanishtirish;

- mavzuning tuzilishi va tavsiya etinadigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar tafsiloti haqida tushuntirishlar berish;

- mavzuning ishlashning uslubiy va tashkiliy xususiyatlarini ochish, baholash muddati va shakli, o'qitish jarayonini tashkillashtirish jarayonining umumiy sxemasini tasniflash;

O'quv faoliyati natijalari:

- mavzuning nomlanishi va vazifalarini belgilash;

- faoliyatidagi alohida usuli va tashkiliy jihatlarni ochib berish;

- mavzuning umumiy va tashkiliy tuzilishlari to'g'risida atroflicha tushuntirish berish;

- Prezident I.A.Karimovning 1997 - yilda nashr etilgan «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarining mazmun, mohiyati mustaqil O'zbekistonning xalqaro, hamjamiyatlardagi o'рни va nufuzini anglash, talabalarga tarixiy haqiqatni aniq faktlar asosida yetkazilganligi, mavzuning asosiy yo'nalishlarini belgilab berilganligi;

- nazariy bilimlarning tizimliliigi, amaliyligi;

- amaliy topshiriqlarni bajarishda nazariy bilim va shakllangan ko'nikmalardan foydalana olish;

- mavzuning asosiy mazmuni, yo'nalishi bo'yicha, ularning boshlang'ich bilimlarga ega bo'lishi.

1.2. Ma'ruzaning xronologik kartasi

1-bosqich. O'quv mashg'ulotlariga kirish – 15 daqiqa

- **o'qituvchining faoliyati:** tayyorgarlikni tekshirish, kerakli tarixiy manbalar haqida ma'lumot, ma'ruza haqida tushuntirish berish, o'quv rejasi bilan tanishtirish, adabiyotlar to'g'risida ma'lumot berish, dars davomida talabalar bilimni baholab borish usullari haqida tushuntirishlar berish;

- **talabaning faoliyati:** darsga tayyorgarligi, ma'ruza matni bilan va mavzuga oid rejalar tanishganligi (talabalar soni, tashqi ko'rinishi, o'quv qo'llanmalar va ko'rgazmali qurollar);

- **uslublar, shakllar, usullar:** yo'riqnoma, oldin so'rash, topshiriq kartochkalari

2-bosqich. Asosiy qism – 55 daqiqa

- **o‘qituvchi faoliyati:** mavzuni yoritishga kirilishi, o‘tgan mavzularni takrorlash, ma’ruza matnini tarqatish, uni yaxshi o‘zlashtirib olishni ta’kidlash, mavzu rejalari mavzularining har biriga alohida tushuntirish berish, aqliy hujum, klaster, bumerant usullaridan foydalanish, jonli muloqot, tarixiy atamalarga izohlar berish, ma’ruza matnini o‘qish mobaygida slaydlar orqali atroflicha tushuntirib berish;

- **talabaning faoliyati:** bilimlarni mustahkamlab olish, mavzuni qunt bilan eshitish, muhim joylarini konspekt qilib olish, tushunmagan iboralar bo‘yicha savollar berish, aniqlashtirib olish, mavzuni tahlil qilish;

- **uslublar, shakllar, usullar:** oldindan so‘rash, blits-so‘rov, aqliy hujum, bumerant usulidan foydalanish.

3-bosqich. Yakunlovchi qism-10 daqiqa

- **o‘qituvchi faoliyati:** mavzuni yakunlash, talabalar diqqatini asosiy mavzuga qaratish; dars jarayonida faollik bilan ishtirok etgan talabalarning faoliyatini baholash, mustaqil ish mavzusini berish, baholash;

- **talabaning faoliyati:** o‘tilgan mavzuni tahlil qilish, dars jarayonida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish mustaqil ish mavzusini yozib olish;

- **uslublar, shakllar, usullar:** guruhlarda ishlash, topshiriq kartochkalari.

1.3. O‘quv-uslubiy materiallar

1.3.1. Ma’ruza matni

Mavzu: O‘zbekiston va jahon hamjamiyati

Reja:

1. XXI asr busag’asida dunyo. Xalqaro vaziyat va kuchlar nisbatining tubdan o‘zgarishi

2. Tinchliksevar mustaqil tashqi siyosat asoslarini ishlab chiqilishi

3. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi

4. O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi

Tayanch iboralar: Xalqaro ahvol, tinchlikka xavf soluvchi tahdidlar, ikki qutbli dunyo, ko‘p qutbli dunyo, O‘zbekistonning geosiyosiy o‘rni, yangi mustaqil davlatlar, tashqi siyosat tamo- yillari, mintaqaviy majarolar, ta’sir doiralar, BMT, YuNESKO, xalqaro hamjamiyat MDH mamlakatlari bilan hamkorlik, Osiyo, AQSh, Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik

1. XXI asr bo'sag'asida dunyo. Xalqaro vaziyat va kuchlar nisbatining tubdan o'zgarish

XXI asr bo'sag'asida jahon taraqqiyotining mazmuni tubdan o'zgardi. Ilgari bir-biriga qarama – qarshi bo'lgan SSSR va AQSh yetakchilik qilgan ikki harbiy-siyosiy blok mavjud edi. Dunyoning tinchligi va xavfsizlik tizimi shu ikki tizimning blokning o'zaro muxoliflik muvozanatiga asoslangan edi. Dunyoda «Sovuq urush» siyosati hukmronlik qilardi. Butun insoniyat yadro urushi xavfi ostida yashardi.

XX-asrning 90 - yillariga kelib, socialistik dunyoning yetakchisi bo'lgan ulkan imperiya – SSSR parokanda bo'ldi, socialistik tizim halokatga uchradi. Varshava shartnomasi bloki tarqab ketdi. Dunyoda yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi. Birgina SSSRning parchalanishi natijasida 15 ta mustaqil davlat, jumladan O'zbekiston davlati bunyod etildi. «Sovuq urush» siyosati barham topdi.

Ikki mafkuraviy tuzumning kurashi va bu kurashning xalqaro hayotning hamma sohalariga soya tashlashi ostida o'tgan kuchli qarama-qarshilik barham topdi. Ammo shundan keyin ham bizni qurshab turgan dunyo, ko'plari kutganidek osoyishtaroq bo'lgani yo'q. Unda majarolar kamaymadi. Dunyoda yangi tartiblarni shakllantirish jarayoni mintaqalar ichidagi eskidan saqlanib kelayotgan, zimdan tutab yotgan, har xil tarixiy, etnik, siyosiy, diniy va boshqa sabablarga ega bo'lgan mojalarining keskinlashuvi bilan birga yuz berdi. Bu majarolar ilgari ikki tuzumning dunyo miqyosidagi qarama-qarshiligi doirasida ko'pincha u yoki bu kuchlar qutbining manfaatlari yo'lida «bostirib kelingan» edi. Bundan tashqari yangi mintaqaviy majarolarning vujudga kelishi va ularga turli tashqi kuchlar o'z jo'g'rofiy strategik intilishlari doirasida jalb etilishidan iborat xavflar ham mavjud¹⁸⁸.

«Sovuq urush» davri tugashining asosiy yakuni shu bo'ldiki, insoniyat uchinchi jahon urushidan qutulib qolishga muvaffaq bo'ldi. Mintaqaviy majoralarning, shular qatori Afg'onistondagi mojaralarning va Tojikistondagi qarama-qarshilikning dunyo miqyosida kelib chiqish mumkin bo'lgan oqibatlarini cheklashga va tarqatmaslikka bugungi kunda hammamizning ham aql-idrokimiz, tajribamiz va qat'iyatimiz yetadimi?¹⁸⁹

Xalqaro vaziyatda tub o'zgarishlar sodir bo'lsada, dunyo tinchligiga tahdid qiluvchi xavf-xatarlar, ziddiyatlar saqlanib qoldi. Bu qo'yidagilarda namoyon bo'lmoqda:

Turli darajada rivojlangan mamlakatlar ular o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy notenglik va ziddiyatlar yanada o'sdi. Mamlakatlar o'rtasida ilmiy-texnikaviy bilimlar, ilg'or texnologiya, erkin sarmoyalarni to'plash va joylashtirishda hamon tafovutlar katta. Dunyoning katta qismida iqtisodi zaif, aholisi qashshoq yashayotgan mamlakatlar mavjud.

¹⁸⁸ Karimov I.A. O'zbekiston Buyuk kelajak sari. Toshkent. 1999, - B. 428.

¹⁸⁹ O'sha manba. B. 439.

- Bir qator mintaqalarda, hatto bir mamlakat fuqarolari o'rtasida milliy-etnik va diniy nizolar kelib chiqib majorolarga, qonli urushlarga aylanmoqda. Mintaqaviy mojarolar tufayli 30 millionga yaqin odam o'zi yashaydigan joylarni tashlab boshqa mamlakatlarga qochoq sifatida ketishga majbur bo'lgan.

- Umumii, mintaqaviy va milliy xavfsizlikka terrorizm, ayirmachilik va diniy ekstremizm tahdid solmoqda. Xalqaro terroristlar dinni siyosiylashtirish natijasida vujudga kelgan ekstremistlar, shu jumladan, islom fundamentalistlari odamlar o'rtasida «haqiqiy» va «soxta» dindorlik belgilari bo'yicha qarama-qarshilik, chiqarishga, millatlarni parchalashga, islom sivilizasiyasi bilan boshqa sivilizasiyalar o'rtasida yangi qarama-qarshiliklar mojarolar keltirib chiqarishga urinmoqdalar. Bu xususda Prezident I.A.Karimov shunday degan edi. «Odamlarning diniy e'tiqodlari bilan bog'liq har qanday muammo g'oyat nozik ekanligiga ularning ma'naviy qadriyatlari bilan shiarlardan, xususan, islomni qayta tiklash ishoridan foydalanayotgan muayyan kuchlar ko'zlayotgan, dinga aloqasi bo'lmagan siyosiy va boshqa tajovuzkor miqsadlar o'rtasidagi farqni tushunib olishlariga erishish zarurligiga qaratishni istardim»¹⁹⁰. Xalqaro terroristlarning O'zbekiston, AQSh, Rossiya va boshqa mamlakatlarda sodir etgan terrorchilik urinishlari dunyo ahlini tashvishlantirmoqda.

- «Sovuq urush» siyosatiga chek qo'yilishi natijasida yalpi yadro urushi havfi kamaygan bo'lsada, bu turdagi ommaviy qirg'in qurolining ko'p miqdorda saqlanayotganligi yadro quroliga ega bo'lgan davlatlar sonining ko'payib borayotganligi (Hindiston, Pokiston) dunyo uzra umumiy xavfsizlikka jiddiy tahdid bo'lib kelmoqda.

- Jahon miqyosida atrof-muhitning ifloslanganligi, nosog'lom ekologik vaziyat, jumladan, Markaziy Osiyodagi ekologik tanglik, biogenetik buzilishlar, insoniyat boshiga xavf solib turibdi.

- Toboro kuchayib borayotgan korrupsiya, uyushgan jinoyatchilik giyohvandlik, yashirin qurol oldisotdisi insoniyatni tashvishlashtirmoqda.

Bularning barchasi dunyo hali ilgarigidek mo'rt bo'lib turganligidan dalolat beradi. Bizni qurshab turgan olam g'oyat murakkab va muammoli bo'lib keldi, hozir xalm shunday bo'lib qolmoqda.

Bundan tashqari, olimlar XX-asrning ikkinchi yarimda insoniyat sog'salomatligi va kelajak avlodlar uchun to'rt jiddiy xavfga alohida urg'u berilmoqda. Ularga qarshi kurash jahon bo'ylab barcha davlatlarning va xalqaro tashkilotlarning birga hatti-harakatini talab qiladi.

Bular: SPID¹⁹¹, termoyadro qirg'ini xavfi, ekologiya va narkomaniya, BMT, turli xalqaro tashkilotlar va uyushmalar, ilg'or mamlakatlar, barcha insonparvar kuchlar bu to'rt xavfga qarshi o'z imkoniyatlarini birlashtirmoqdalar. Bu

¹⁹⁰ O'sha manba. - B. 441.

¹⁹¹ O'rttirilgan immunitet tanqisligi sindromi.

masalalarni hal qilishda O'zbekiston faol insonparvar davlat sifatida qatnashmoqda¹⁹².

Bugungi kunda butun insoniyatning taqdiri, ijtimoiy taraqqiyot istiqbollari xalqaro munosabatlarga bog'liq bo'lib qoldi. Xalqaro maydonlari har bir siyosiy tanglik, mojaro barcha mamlakatlar va xalqlar manfaatiga dahldor bo'lib qoldi. Hatto, ayrim olingan mamlakat ichkarisidagi nizoli jarayonlarini, urushlarni bartaraf etish ham jahon hamjamiyatining vazifasiga aylandi.

Davrimizning muhim xususiyati aholi talab ehtiyojlarining g'oyat darajada o'sganligi bilan belgilanadi. Alohida olingan bir mamlakat resurslari bilan uning aholisi talablari, ehtiyojlarini qondirib bo'lmaydi. Hatto rivojlangan mamlakat uchun ham boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy, ilmiy texnikaviy hamkorlik qilish obyektiv zaruriyat bo'lib qoldi.

Xorijiy mamlakatlar bilan har tomonlama aloqalarni kuchaytirishning asosiy sharti xavfsizlikni ta'minlash ekanligi xususida Prezident I.A.Karimov shunday degan edi: «Demokratik va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ma'naviy taraqqiyotga erishish, shuningdek, O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligini kuchaytirishning asosiy sharti va garovi – mamlakatimizning xavfsizligini ta'minlash, jamiyatimizda tinchlik barqarorlik, millatlar va fuqarolar o'rtasida totuvlikni saqlash va ko'z qorachig'idan asrashdir»¹⁹³.

Hozirgi dunyoda biron-bir mamlakat, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi ham, boshqalardan ajralgan xudud emas. Sayyoramiz yaxlit va bo'linmasdir. Shu boisdan, barcha mamlakatlar xalqlar bir-biri bilan bog'langan, o'zaro aloqadadir.

O'zbekiston xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yishi nuqtai-nazaridan va o'z taraqqiyot istiqbollari jihatdan qulay jug'rofiy-strategik imkoniyatga ega Jumladan:

- Qadim zamonlardan Sharq va G'arbiy bog'lab turgan Buyuk ipak yo'li O'zbekiston hududi orqali o'tgan. Bu yerda savdo yo'llari tutashgan, tashqi aloqalar hamda turli madaniyatlar tutashib bir-birini boyitgan. Bugungi kunda ham Yevropa va Osiyoni bog'laydigan yo'llar. Markaziy Osiyodan, uning o'rtasida joylashgan O'zbekistondan o'tmoqda. Markaziy Osiyoda jo'g'rofiy – siyosiy jihatdan markaziy o'rin tutgan O'zbekiston ushbu mintaqada kuchlar nisbati va muvozanatini saqlash, barqarorlikni ta'minlash, hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatlarga ega.

- O'zbekiston Markaziy Osiyoning transport, energetika, suv tizimi markazida joylashgan.

- Aholi soni, ilmiy-texnikaviy va boshqa imkoniyatlari jihatdan mintaqada yetakchi o'rinda turadi.

¹⁹² Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahririda, ikkinchi nashri. T.: Sharq, 2000. B. 173.

¹⁹³ Karimov I.A. Ozod va Obod Batan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. Toshkent. 2000. -B. 28.

- Tabiiy iqlim sharoiti qulay, ulkan mineral xomashyo zahiralari va strategik materiallarga ega, dehqonchilik madaniyati rivojlangan, oziq-ovqat bilan o'zini ta'minlashga qodir.

- O'zbekiston sanoatini bazaviy va zamonaviy tarmoqlariga ega, o'zini neft, gaz, rangli metallar bilan ta'minlabgina qolmay, ularni eksport qilish imkoniyatiga ega.

- Yurtimizning jahonga mashhur boy ma'naviy merosi bor, shu tufayli insoniyat sivilizasiyasida salmoqli o'rin egallab, dunyoning ma'naviy va siyosiy jarayonlariga ta'sir o'tkazish salohiyatiga ega.

Jo'g'rofiy siyosiy jihatdan O'zbekistonda qiynchiliklar to'g'riuvchi omillar ham mavjud. Jumladan:

- O'zbekiston Fors kurfazi, Kaspiy dengizi havzasining neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarim xalqining strategik markazida joylashgan. Shu boisdan, bu xududda dunyoda energiya taqchiligi sharoitida, ko'pgina yirik davlatlarning manfaatlari bir birlari bilan kelishmasligi kuzatilmoqda.

- Yana bir noqulaylik shundan iboratki, O'zbekistonni etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar yukki ostida qolgan mamlakatlar qurshib turibdi.

- Suv resurslarining cheklanganligi, ekologik muammolar, Orol fojiasi ham mamlakatimiz uchun noqulay omildir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida o'z milliy armiyasini shakllantirdi. 1992 – yil.yu 2-iyuolda «Mudofaa to'g'risida» qonun qabul qilindi. 1993-yildan boshlab, «Milliy gvardiya» tashkil etilgan. 14-yanvar-Vatan himoyachilari kuni tsifatida bayram qilinmoqda. Milliy xavfsizlikni mustahkamlash maqsadida 1997-yil, 29-avgustda «O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik konsepsiyasi to'g'risida» Qonun qabul qilindi.

2. Tinchliksevar mustaqil tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo'lni belgilash, jahon ham jamiyatiga qo'shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb vazifa sifatida ko'ndalang bo'lib turar edi. Bu osongina yechiladigan vazifalar emas edi. Masalaning murakkabligi shundan iborat ediki Ittifoq davrida tashqi siyosat yuritish, tashqi dunyo bilan aloqa qilish, tashqi savdoni tashkil etish Moskva, Markaziy hokimiyat tomonidan olib borilar edi. Respublikalar esa, jumladan. O'zbekiston ham tashqi dunyodan ajralgan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qila olmaydigan yopiq mamlakat edi.

O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko'p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish-davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash

iqtisodiy qiynchiliklarni brtaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir¹⁹⁴.

O'zbekiston Respublikasi uchun mustaqil tashqi siyosat yuritish-davlat faoliyatining yangi va amalda qo'llanilmagan yo'nalishlaridan biridir. Yakkahokmilik tizimi sharoitida O'zbekiston xalqaro maydonga to'g'ridan-to'g'ri va ochiq chiqish imkoniyatidan mahrum etilgan bo'lib, o'zining tashqi siyosiy davlat idoralariga, yetarlicha diplomatlarga va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi mutaxassislarga ega emas edi. So'nggi vaqtlargacha respublikada shunday kadrlar tayyorlaydigan bironta ham institut yo'q edi¹⁹⁵. Vaziyat zudlik bilan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini shakllantirishni talab qilmoqda edi.

Prezident I.A.Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» va boshqa asarlarida mustaqil tashqi siyosat yuritish qoidalari nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslab berildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida tashqi siyosat qoidalari qonunlashtirildi va u jahondagi ko'plab mamlakatlar bilan hamkorlik jarayonlarining huquqiy kafolati bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekistonni xalqaro huquq subyekti sifatida belgilaydigan, respublikaning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga soladigan qonunlar qabul qilindi. «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari, to'g'risida»gi, «Chet el investisiyalari va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi va boshqa qonunlar hamda normativ hujjatlar shular jumlasidandir. Bular faol va keng ko'lamli hamokrlik uchun mustahkam huquqiy kafolat yaratib berdi.

Tashqi aloqalarni ta'minlaydigan vazirliklar va muassasalar tashkil etildi. Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, ixtisoslashtirilgan tashqi savdo firmalari shular jumlasidandir. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi va boshqa universitetlarda trashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Tashqi siyosatda tinchlik, barqarorlik, hamkorlik yo'li asos qilib olindi.

Prezident I.A.Karimov tomonidan qo'yilgan qo'yidagi asosiy qoidalar O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining bosh mezoni qilib belgilandi.

Birinchi. O'zini milliy davlat manfaatlarini ustun qo'yishda o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olim. «Bizning mustaqil davlatimiz, deydi I.A.Karimov, - biron – bir buyuk davlatning ta'sir doirasiga tushib qolish niyatida emas. O'zbekiston yana kimgadir buysunish uchun mustaqil bo'lgani yo'q».

Ikkinchi. Xalqlar va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlarni birinchi o'ringa qo'yar ekan, respublika xalqaro doirada tenglik va xavfsizlikni mustahkamlash, nizolarni tinch yo'l bilan tartibga solish uchun

¹⁹⁴ Karimov I.A. O'zbekiston Buyuk kelajak sari. Toshkent., 1999, -B. 22.

¹⁹⁵ O'sha manba. -B. 22

kurashadi. O'zbekiston yadrosiz zona bo'lib qoladi va agressiv bloklar va ittifoqlarga kirish niyatida emas.

Uchinchi. Respublikaning tashqi siyosati teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga asoslangan.

To'rtinchi. Tashqi siyosatda ideologik qarashlarga bog'liq bo'lmagan oshkoralik qoidasini amalga oshirish barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng tashqi aloqalar o'rnatishga yordam beradi.

Beshinchi. O'zining milliy huquqiy tizimini yaratayotgan yosh mustaqil O'zbekiston Respublikasi halqaro huquq normalarining davlat siyosatida birinchiligini tan oladi.

Oltinchi. O'zbekiston xalqaro tashkilotlar doirasida hamokrlikni chuqurlashtirish uchun to'la ishonch prinsiplariga asoslangan ikki tomonlama va shuningdek, ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish uchun kurashadi¹⁹⁶.

O'zbekiston respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamo- yillari qo'yidagilardan iborat.

- Mafkuraviy qurashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- Davlatlarning suveren tengligi va chegaralar dahisizligini hurmat qilish;
- Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;
- Kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- Inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish;
- Ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari va normalarining usutvorligi;
- Davlatning xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdustlikka kirish va ulardan ajralib chiqish;
- Tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;
- Davlatlararo aloqalarda teng huquqlik va o'zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi;
- Tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

Prezident I.A.Karimov ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasi, 2000 - yil, 22 yanvardagi ma'ruzasida O'zbekiston tashqi siyosatining yaqin kelgusidagi ustuvor yo'nalishlari haqida gapirib shunday degan edi: «Biz shunga aminmizki, mamlakatimizda rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan farovon demokratik davlat barpo etishdek oliy maqsadga

¹⁹⁶ Tyurikov B., Shog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi 100 savol, 100 javob. Toshkent. 1998, -B. 162-163.

erishmog'imiz uchun O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga keng miqyosda integrasiyalashuvini ta'minlash zarur»¹⁹⁷.

Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo'lib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati, uni jahonda mustaqil davlat sifatida tezda olinishni ta'minladi. O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini dunyodagi nufuzli davlatlar tan oldi, ularning 120 tasi bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Toshkentda 43 mamlakatining elchixonasi ochildi. Bular jumlasiga, AQSh, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqalarni kiritish mumkin. Shuningdek O'zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda. Dunyodagi 30 dan ortiq davlatda – AQSh, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Pokiston va boshqalarda O'zbekistonning elchixonalari va konsulliklari ishlab turibdi.

3. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilish

O'zbekiston Respublikasi o'zining hohish irodasi va taklifiga ko'ra 1992 - yil, 2-martda jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilot – Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi bo'ldi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993 - yilda bo'lgan 48-sessiyasida ishtirok etish va 27- sentyabrda qilgan ma'ruzasi O'zbekistonni jahonga qo'hna va yosh navqiron davlat sifatida namoyon etdi. O'zbekiston Respublikasi nomidan Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hakmorlik masalalari bo'yicha BMTning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa masalalar bo'yicha bir qator takliflar o'rta qo'yildi.

1993 - yil, 24-oktyabrda Toshkentda BMTning vakolatxonasi ochildi. O'zbekiston rahbariyati va BMT rahbarlarining sa'iy harakatlari natijasida O'zbekiston BMTning Xalqaro telekommunikasiyalar uyushmasi, Xalqaro taraqqiyot uyushmasi, qochoqlar ishi bo'yicha oliy Qo'mitasi, Xalqaro fuqaro aviasiyasi tashkiloti, Xalqaro atom energiyasi agentligi, Aholi joylashish jamg'armasi, narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, sanoat taraqqiyoti tashkiloti, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti singari ixtisoslashgan muassasalariga a'zo bo'ldi.

O'zbekistonning tashabbusi bilan va BMT rahnashishiga 1995 - yil, 5-16 sentyabr kunlari Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan Toshkent kengash-seminari bo'lib o'tdi. Xalqoro kengashda ishtirok etgan 31 davlat va 6 xalqaro tashkilotdan kelgan muxtor vakillar mintaqqa

¹⁹⁷ Karimov I.A. Ozod va Obod Batan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. Toshkent. 2000. -B. 26.

xavfsizligining, majoralarni oldini olish, integrasiya jarayonlarini chuqurlashtirishning ishonchli tizimini barpo etish masalalari yuzasidan o'z fikrlarini, takliflarini aytdilar.

O'zbekistonning BMT bilan hamkorligining yorqin sahifalaridan yana biri Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish masalasida o'z ifodasini topdi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48 sessiyasi minbaridan turib so'zlagan nutqida Markaziy Osiyon yadro qurolidan holi zonaga aylantirish g'oyasini ilg'ari surgan edi. O'zbekistonning bu tashabbusi xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

2000 - yil, oktyabr oyida Toshkentda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, giyohvand moddalar tijorati, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurash mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2001 - yilda BMT xavfsizlik Kengashining terrorizmga qarshi kurash bo'yicha maxsus Qo'mitasi ta'sis etildi. 2002 - yil, 18-20-oktyabr kunlari BMT Bosh kotibi Kofe Ananning O'zbekistonga tashrifi mamlakatimizning xalqaro jamiyatdagi o'rni mustahkamlanib, obro'-e'tibori ortib borayotannini dalilidir.

O'zbekistonning BMT homiyligidagi ta'lim, fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot YuNESKO¹⁹⁸ bilan aloqalari mustahkamlanib bormoqda. 1993 - yil, 29 oktyabrda YuNESKOning Parijdagi qarorgohida O'zbekistonni YuNESKOga a'zolikka qabul qilish marosimi bo'ldi. O'sha kuni Ulug'bek tavalludining 600 - yilligini nishonlash YuNESKO dasturiga kiritildi. 1994 - yil, oktyabrda Parijda Ulug'bek haftaligi tantanalari bo'lib o'tdi. Xiva va Buxoro YuNESKOning jahon madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi. Bu ro'yxatda 411 ta obyekt bor.

1995 - yil, iyul oyida YuNESKO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi. YuNESKO Bosh direktori Federiko Mayorning O'zbekistondagi tashrifi chog'ida 1995 - yil, iyul oyida mazkur institut ochildi. YuNESKO bobomiz Amir Temur tavalludining 660 - yilligini xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qildi va 1996 - yil oktyabrda Parijda Amir Temurga bag'ishlangan bir haftalik xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Amir Temur tavallud topgan Shahrizabz shahri YuNESKO ning madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi.

1991 - yil, 21-dekabrda Ozarboyjon, Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Tukmaniston, O'zbekiston va Ukraina davlat boshliqlari Allatida uchrashib Mustaqil Davlat Hamdustligiga asos soldilar. O'zbekistonning MDH bilan aloqalari xususida I.A.Karimov shunday degan edi: «Mustaqil Davlat Hamdo'stligini tashkil qiluvchi mamlakatlar bilan bevosita va ko'p tomonlama munosobatlarni rivojlantirish tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Hamdo'stlik g'oyasini qo'llab-quvvatladi,

¹⁹⁸ YUHEsko – BMT ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha xalqaro tashkilotning inglizcha qisqartmasi.

uning tashkilotchilari tarkibiga kirdi, barcha qatnashchilarning teng huquqliligi, asosida uni mustahkamlash va rivojlantirish kerakligini qattiq turib yoqlamoqda»¹⁹⁹.

1996 - yilda Shanxayda, 1997 - yilda Moskvada bo'lib o'tgan Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iston, Tojikiston davlat rahbarlarining sammitlarida harbiy sohada hamda chegara hududlarida o'zaro ishonchni mustahkamlash, qurolli kuchlarni qisqartirish to'g'risida shartnomalar imzolangan edi. Shu tariqa «Shanxay forumi» yoki «Shanxay beshligi» tashkiloti tuzilgan edi.

2001 - yil, 14-15-iyun kunlari Xitoyda navbatdagi Shanxay sammiti bo'lib o'tdi. Uning ishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov qatnashdi va O'zbekistonning «Shanxay forumi»ga teng huquqli a'zo bo'lishi to'g'risida bayonot imzolandi.

O'zbekistonning «Shanxay forumi»ga kirishi munosabati bilan uning nomi Shanxay hamokrlik tashkiloti – ShHHT, deb o'zgartirildi. O'zbekiston uning asoschilaridan biri bo'ldi.

2001 - yil, iyunda bo'lgan sammit yakunida Shanxay hamokrlik tashkilotini tuzish to'g'risida deklarasiya hamda terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash borasidagi Shanxay konvensiyasi imzolandi.

2004 - yil, 17 iyun kuni Toshkentda ShHHTga a'zo davlat rahbarlarining sammiti bo'lib o'tdi. Unda ikki asosiy masala-havfsizlik va savdo-iqtisodiy hamokrlik bo'yicha muzokaralar bo'ldi. Sammitda 2004 - yil mart oyida O'zbekistonda sodir etilgan terrorchilik harakati nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida vaziyatni izdan chiqarishga qaratilganligi qayd etildi. Butun dunyoga terrorchilik kuchayib yadroviy, kimyoviy, biologik, elektron terrorchilik xavfli paydo bo'lganligi, terrorchilarning bazalarini yo'qotish, odamlarni ongini zaxarlaydigan, terrorchilikni moliyalashtiradigan markazlarga qarshi keskin kurash olib borish zarurligi ta'kidlanib, unga qarshi kurash rejalari belgilandi.

Xalqimiz azaldan islom dini va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shib kelganligi sababli mamlakatimiz Islom konferensiyasi tashkiloti bilan yaqin munosabat o'rnatgan. Islom konferensiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tuzilmasi AYSEKO tomonidan Toshkent shahrining 2007 - yilda Islom madaniyati poytaxti deb, e'lon qilinganligi ham buning tasdig'idir²⁰⁰.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikast 1992 - yil, fevral oyida Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga (YoHHT) kirdi. Qo'shilmaslik harakati a'zosi hisoblanadi. 1992 - yil oktyabrda O'zbekiston oqsoqol Xalqaro tashkilotlardan biri – Parlamentlararo ittifoqning 119-a'zosi bo'ldi, qator yetakchi xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar – Xalqaro valyuta fondi, Butunjohon banki Xalqaro moliya korporasiyasi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT), Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy hamkorligi, Qora dengiz mamlakatlari iqtisodiy assosiasiyasi, Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari uchun BMTning iqtisodiy va sosial komissiyasi, Qayta

¹⁹⁹ Karimov I.A. O'zbekiston Buyuk kelajak sari. Toshkent. 1999, - B. 25.

²⁰⁰ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008 B. 37-38

qurish (tiklash) va rivojlantirish Xalqaro banki, Xalqaro mehnat tashkiloti. Umumjahon sog'liqni saqlash tashkiloti, qayta qurish va rivojlantirish Yevropa banki va boshqa tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi²⁰¹.

Mustaqil davlat xalqaro tashkilotlarda qanchalik keng qatnashsa, u xalqaro hamjamiyatga shu darajada keng kirib boradi, jahonda tinchlik, osoyshtalik, o'zaro hamokrlik uchun kurashda tegishli darajada faol qatnasha oladi, insoniyat taraqqiyotiga qo'shayotgan ulushini yanada oshirib boradi, jahonning ilg'or davlatlari bilan toboro yaqinlashadi, ularning fan, texnika va texnologiya sohasidagi yangiliklarini samaraliroq qabul qilib oladi. Shu nuqtai nazardan mustaqil O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan o'z aloqalarini - yil sayin kengaytirishi juda katta ahamiyatga egadir. Ayni vaqtda davlatimizning xalqaro tashkilotlarga keng miqyosda kirib borishi mudhish o'tmishning sarqitlari bilan kurash olib borishning ham samarali yo'lidir. Chunki mustabidchilik - yillarida O'zbekiston qizil imperiyaning bir chekkasida joylashgan, Markaziy Osiyoning qa'rida qolib ketgan, ko'plarga noma'lum bir o'lka edi, xolos; xalqaro tashkilotlarda bunday yurt va respublika borligini bilmas edilar, ularga xalqimizning vakillari odatda yo'latilmas edilar²⁰².

Xalqaro tashkilotlarda faol qatnashishi-mustaqil O'zbekistonni jahon miqyosida tanitishning, uning Xalqaro mavqeyini oshirishning muhim va samarali yo'lidir. Buning uchun xalqaro tashkilotlar darajasida fikr yuritib, xalqaro tillarda erkin so'zlab, Vatanimizni ulug'lay oladigan farzandlarning qatorini kengaytirishimiz lozim²⁰³.

4. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatda hamdo'stlik mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamokrlikni yo'lga qo'yishi va rivojlantirish alohida o'rin tutadi. Ikki tomonlama hamokrlik deganda, ikki davlat o'rtasidagi ya'ni O'zbekistonning boshqa bir mamalakt bilan davlalararo aloqalarini yo'lga qo'yish va chuqurlashtirish jarayoni tushuniladi.

O'zbekiston Rossiya Federasiyasi bilan davlatlararo munosabatlar o'rnatish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berib kelmoqda. Bu haqida Prezident I.A.Karimov shunday degan edi: «O'zbekiston aholisini ko'pchiligi Rossiya bilan do'stlikni saqlab qolishni istayotganligini ham hisobga olish zarur. Sobiq markaz bilan, balki ayni Rossiya bilan do'stlikni saqlab qolishni hohlashmoqda. Aslini olganda Rossiya ham sobiq Ittifoqdagi boshqa respublikalar kabi mustaqil emas edi. U endigina mustaqil bo'lib qoldi»²⁰⁴. 1992 - yil, 30 mayda I.A.karimov boshliq O'zbekiston delegasiyasining Rossiyaga davlat tashrifi paytida O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federasiyasi o'rtasida davlatlararo munosabatlarning

²⁰¹ Tyurikov B, Shog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi: 100 savolga, 100 javob. Toshkent. 10998, -B. 164-165

²⁰² Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at. A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahririda, ikkinchi nashri. T.: Sharq, 2000. B. 230-231.

²⁰³ O'sha manba. B. 231.

²⁰⁴ Karimov I.A. O'zbekiston Buyuk kelajak sari. Toshkent. 1999, -B. 28.

asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi, elchixonalar ochildi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning 2001 - yil, 3-5 may kunlari, 2004 - yil aprel oyida Rossiyaga tashrifi va Rossiya Federasiyasi Prezidenti V.Putinning 2004 - yil, iyun oyida O'zbekistonga tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni yangi pog'onaga ko'tardi.

2004 - yil, 16 iyunda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federasiyasi o'rtasida strategik sherikchilik to'g'risida bitim imzolandi. Mazkur 2005 - yil 14 noyabrda ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida shartnoma hujjatlari o'zaro xavfsizlikni ta'minlash, global tahdidlarga qarshi harakat qilish, siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalaridagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan mustahkam poydevor bo'lib xizmat qildi. Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo hajmi 2004 - yilda 1 mlrd 642 mln AQSh dollarini tashkil etdi.

O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasida davlatlararo munosabatlarga asos solishda I.A.Karimovning 1992 - yil, avgust oyida Kiyevga rasmiy davlat tashrifi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Tashrif chog'irda 25 avgust kuni O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov va Ukraina Prezidenti L.Kravchuk O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasidagi davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Shuningdek, ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish to'g'risida protokol va savdo iqtisodiy hamkorlik bitimi imzolandi. 1988 - yil, yanvar oyida O'zbekistonga Ukraina Bosh vaziri V.Pustovoytenko rasmiy tashrif buyurdi²⁰⁵. Tashrif chog'ida har tomonlama aloqalarni rivojlantirish yuzasidan bitimlar imzolandi. I.A.Karimovning 1999 - yil, oktyabrda Ukrainaga safari chog'ida O'zbekiston va Ukraina o'rtasida 1999 - 2008 - yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi.

Muxtasar aytganda, O'zbekiston va Ukraina o'rtasida 1992-2002 - yillarda neftni qayta ishlash, kommunikasiya fan-texnika, sanoat, savdo, axborot almashish, madaniyat va boshqa sohalarida hamkorlik bo'yicha 130 dan ortiq hujjat imzolandi.

1995 - yil, 5 sentyabrda Gruziya davlat rahbari, respublika parlamenti raisi E.Shevarnadze rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi. I.A.Karimov va E.Shevarnadze tomonidan O'zbekiston va Gruziya o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi. Ikki davlat o'rtasida ko'plab sohalar bo'yicha 20 dan ziyod hukumatlararo va muassasalararo hujjatlar imzolandi.

Mazkur bitimni ro'yobga chiqarishda O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning 1996 - yil, may oyida Gruziya Respublikasiga rasmiy tashrifi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston bilan Ozarboyjon o'rtasida davlatlararo aloqalar yo'lga qo'yildi va rivojlanib bormoqda. 1996 - yil, 27 may kuni I.A.Karimov boshliq O'zbekiston davlat delegasiyasi Ozarboyjonda bo'ldi. Ikki davlat Prezidentlari O'zbekiston bilan Ozarboyjon o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma

²⁰⁵ Tyurikov B, Shog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi: 100 savolga, 100 javob. Toshkent. 10998, -B. 170.

imzolandilar. Ikki qardosh mamlakat o'rtasida davlatlararo aloqalar yo'lga qo'yildi. Ikki davlat o'rtasida ko'plab sohalar bo'yicha 20 ga yaqin hukumatlararo hujjatlar imzolandi.

Mazkur bitimni ruyobga chiqarishdan Ozarboyjon Prezidenti H.Aliyevning 1997 - yil, iyun oyida O'zbekistonga rasmiy tashrifi muhim ahamiyatga ega bo'ldi²⁰⁶.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1995 - yil, 6-8 iyun kunlari Davlat tashrifi bilan Latviya Respublikasida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur tashrif chog'ida I.A.Karimov Latviya Respublikasi Prezidenti G.Ulmanis bilan O'zbekiston Respublikasi bilan Latviya Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzoladilar.

Latviya Prezidenti G.Ulmanisning 1996 - yil, 23 mayda O'zbekistonga qilgan davlat safari ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni yanada chuqurlashtirdi.

I.A.Karimovning 1995 - yil, iyun oyida Litvaga tashrif chog'ida Prezident ABrazaukas bilan O'zbekiston Respublikasi hamda Litva Respublikasi o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi ko'shma Deklarasiyani imzoladilar.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning 2002 - yil, 23-25 sentyabr kunlari Litva Respublikasiga tashrif buyurish ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko'tardi.

O'zbekiston tashqi siyosatining ta'sirli yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik, do'stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan. Hamkorlikka intilish shu mintaqa mamlakatlariga tarixan xosdir. Buni umumiy chegaralargina emas, balki avvalo, milliy madaniyatlarining, til, urf-odatlar va an'analarning yaqinligi belgilab beradi²⁰⁷.

Markaziy Osiyo davlatlari Prezidentlarining uchrashuvi 1991 - yil, 13-15 avgust kunlarida Toshkent shahrida bo'ldi. Unda uchrashuv yakunlari xususida Axborot hamda O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalararo Maslahat kengashining tuzish to'g'risida bitim imzolandi. Maslahat kengashining vazifasi beshta mamlakat o'rtasida iqtisodiy hamkorlik qilish uchun shart-sharoitlar yaratishdan, bozor munosabatlariga o'tishda mintaqa manfaatlarini himoya qiluvchi kelishilgan siyosat yuritishdan, iqtisodiyotning umumiy muammolarini hal etishga yagona yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat deb, belgilandi.

1993 - yil, 4-yanvarda I.A.Karimov tashabbusi bilan Toshkentda O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'iston Prezidentlarining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Markaziy Osiyo atamasi tilga olindi va bundan keyin Markaziy Osiyo deganda O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'iston tushuniladigan oldi. Uchrashuv qatnashchilari mintaqa davlatlaridagi siyosiy va iqtisodiy ahvolni muhokama qildilar. Mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar, savdo-iqtisodiy bitimlar qanday borayotganligi tahlil etildi.

²⁰⁶ O'sha manba. B. 170.

²⁰⁷ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. 1991, -B. 29.

1993 - yil, mart oyida Qizil O'rdada Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining Rossiya davlat delegatsiyasi ishtirokida anjumani bo'lib o'tdi. Anjumanda Orol dengizi va Orolbo'yi muammolarini hal etish, Orol mintaqasi ekologiyasini sog'lomlashtirish va ijtimoiy-iqitsodiy taraqqiyotni ta'minlash sohasida birgalikda qilinadigan harakatlar to'g'risida bitim imzolandi. Orol dengizi muammolari bilan shug'ullanuvchi Davlatlararo kengash tuzildi. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sis etildi.

Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlar o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlik bilan birga ular o'rtasida ikki tomonlama aloqalar ham yo'lga qo'yildi. O'zbekistonning Qozog'iston bilan ikki tomonlama munosabatlari 1992 - yil, 24-iyunda Turkiston shahrida O'zbekiston Prezidentining Qozog'istonga rasmiy davlat tashrifi paytida N.Nazarboyev bilan I.A.Karimov tomonidan imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma asosida mustahkamlanib bormoqda. 1998 - yil, 31-oktyabda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida abadiy do'stlik shartnomasi imzolangan.

O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlarning Toshkentda 2000 - yil, 20-21-aprel kunlari bo'lgan uchrashuvida ikki davlat chegaralarini aniq belgilab olishga bag'ishlangan uchrashuvi bo'ldi. Muzokaralar yakunida «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti N.Nazarboyevlar qo'shma bayonoti» imzolandi.

1991 - yilda O'zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari uchrashuvida O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Bu shartnoma ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalarga negiz bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov 1996 - yil, 16-yanvar kuni amaliy tashrif bilan Turkmanistonda bo'ldi. Chorjo'y shahrida S.Niyozov bilan I.A.Karimov o'rtasida va ikki mamlakat delegatsiyalari o'rtasida muzokaralar bo'ldi. Prezidentlar O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnomani, O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasida davlat chegaralarini qo'riqlashda hamkorlik qilish to'g'risidagi va suv xo'jaligi masalalari buyicha bitimlarni imzoladilar.

Prezident I.A.Karimovning 2007, 2010-yillardagi Turkmanistonga ta'rifi, 2008-yil, mart oyida Turkmaniston Prezidenti G.Berdimuhamedovning O'zbekistonga tashrifi o'zaro hamkorlikni yangi pog'onaga ko'tardi.

1991 - yil, 16-19-dekabr kunlari I.A.Karimov boshliq O'zbekiston davlat delegatsiyasi mamlakatimiz mustaqilligini birinchi bo'lib tan olgan mamlakat-Turkiyada bo'lib. Turkiya Prezidenti Turg'ut O'zol, Bosh vazir Sulaymon Demirel va boshqa rahbarlar, ishbilarmonlar bilan amaliy uchrashuvlar, suhbatlar bo'ldi. Safar chog'ida O'zbekiston Respublikasi bilan Turkiya jumhuriyati²⁰⁸ o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari va maqsadlari to'g'risidagi shartnoma

²⁰⁸ Jumhuriya – arab tilidan respublika degan so'zga yaqin ma'no beradi

hamda ko'plab sohalar bo'yicha hamkorlik qilish haqida protokollar va boshqa hujjatlar imzolandi.

Hamkorlikni yanada chuqurlashtirishda Turkiya davlati rahbarlari – Turg'ut O'zol, Sulaymon Demirel, Tansu Chiller, Mesut - Yilmaz Ahmet Sezalarning O'zbekistonga rasmiy tashrifi chog'ida imzolangan hujjatlar katta ahamiyatga ega bo'ldi. I.A.Karimov shunday degan edi. «Biz bilan Turkiya jumhuriyati o'rtasida ayniqsa yaqin va samarali munosabatlar tarkib topmoqda Turkiyaning tajribasi uning iqtisodiyotni, isloh qilish yo'li, bizga o'xshash etnik-madaniy sharoitlarda davlat bilan din o'rtasida uyg'un munosabatlarga erishishidagi yutuqlari o'zimizning ijtimoiy-iqtisodiy va djavlat – huquqiy taraqqiyot yo'limizni belgilash chog'ida zo'r qiziqishga molikdir»²⁰⁹.

Prezident I.A.Karimovning 1992 - yil, 13-14 avgust kunlari Pokiston Islom Respublikasiga, 1992 - yil, 24-25 noyabr kunlari Eron Islom Jumhuriyatiga, 1993 - yil, 17-19 avgust kunlari Hindiston Respublikasiga rasmiy tashriflari natijasida ushbu Osiyo mamlakatlari bilan har tomonlama hamkorlik o'rnatildi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov boshliq davlat delegasiyasi 1992 - yilda rasmiy tashrif bilan Saudiya Arabistoni, Misrda bo'ldi va ular bilan davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risida shartnomalar, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik bitimlari imzolandi. Arab mamlakatlari bilan, avvalo Saudiya Arabistoni bilan qalin aloqalar o'rnatish yo'lida dastlabki qadamlar qo'yildi. O'zbekiston xalqi madaniy va diniy merosdan bahramand bo'lish, savdo-sotiq, turizmni rivojlantirish imkonini oldi²¹⁰.

1992 - yil, mart oyida O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasida diplomatik aloqa o'rnatildi. O'zaro kelishuv asosida 1992-1996 - yillarda «O'zDEU avto» O'zbekiston – Janubiy Koreya qo'shma avtomobil zavodini loyihalashtirish, qurish ishlari amalga oshirildi. Zavod 1996 - yil, 25 mart kuni avtomobillar ishlab chiqarishni boshlab yubordi. Prezident I.A.Karimovni 2012-yil, oktyabr oyi janubiy Koreyaga tashrifi hamda Prezident Li Myon Bak bilan uchrashuvi ikki tomonlama aloqalarni yanada mustahkamladi.

Prezident I.A.Karimov 1992 - yilda davlat tashrifi bilan Malayziya Qirollishda bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi rahbarining Malayziyaga qilgan birinchi rasmiy safari chog'ida asosiy e'tibor ikki mamlakat o'rtasida savdo, iqtisodiy va madaniy sohalaridagi hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalariga qaratilib, tegishli hujjatlar imzolandi²¹¹. Prezident I.A.Karimovning 1992-yil, iyun oyidagi Indoneziyaga, 1992-yil 12-14-mart kunlari Xitoyga, 1994-yil, 16-19 may kunlari Yaponiyaga rasmiy safarlari natijasida ushbu yirik janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan har tomonlama hamkorlik to'g'risida bitimlari imzolandi. Xitoy Xalq Respublikasi raisi Xudzyan Taoni 2010-yil, 9-iyun kuni O'zbekistonga tagrifi munosabatlarni yangi pog'onaga ko'tardi.

²⁰⁹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent. 1991, - B. 30.

²¹⁰ O'sha manba. B. 30.

²¹¹ Azimov O., Xudoyberdiev A. O'zbekiston va Malayziya hamkorlik aloqalarining shalklanish bosqichlari. SamDU axborotnomasi, 2011 - yil, 2 son. B. 50.

O'zbekiston bilan Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida davlatlararo aloqalar mustaqillikning dastlabki - yillaridayoq yo'lga qo'yildi. 1992 - yil, 16-mart kuni Toshkentda birinchi bo'lib AQShning elchixonasi ochildi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning 1996 - yil, 23-28 iyun kunlari AQSh da bo'lishi O'zbekiston va Amerika munosabatlarini yangi pog'anaga ko'tardi. I.A.Karimov AQSh Prezidenti B.Klinton bilan uchrashdi. Tomonlar manfaatlariga dahldor bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik masalalari muhokama etildi. 1996 - yil, 25 iyun kuni O'zbekistonning AQShdagi elchixonasi ochildi.

2002 - yil, 11-14 mart kunlari O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov boshliq davlat delegatsiyasi Prezident J.Bush taklifiga binoan rasmiy davlat tashrifi bilan AQShda bo'ldi. Tashrif yakunida «O'zbekiston bilan AQSh o'rtasida o'zaro sheriklik va hamkorlik asoslari to'g'risida deklarasiya» hamda boshqa bir qator hujjatlar imzolandi,

Prezident I.A.Karimov Yevropa mamlakatlariga qilgan birinchi rasmiy tashrifini 1993 - yil, 28 aprel kuni Germaniyadan boshladi va u besh kun davom etdi. Ikki davlat o'rtasida turli sohalarda hamkorlik qilish bo'yicha bitimlar imzolandi. 1994 - yil, 1 sentyabrda GFR poytaxti Bonnda O'zbekiston Respublikasining Yevropadagi birinchi elchixonasi ochildi. Hozirgi paytda elchixona Germaniya yangi poytaxti Berlinda faoliyat yuritmoqda.

Germaniya Federal kanselyari Gerxard Shrederning 2002 - yil, 9-10 may kunlari O'zbekistonga qilgan rasmiy safarlari O'zbekiston – Germaniya o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Yevropaning Buyuk Britanii, Fransiya, Italiya, Ispaniya kabi boshqa mamlakatlari bilan ham har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish borasida bitimlar imzolagan.

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integrasiya-lashuvida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish va toboro chuqurlashtirish alohida o'rin tutadi. 1996 - yil, 21 iyunda Florensiya shahrida imzolangan O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi «Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim»ning 1999 - yil, 1-iyulda kuchga kirishi mamlakatimizning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlarining huquqiy negizi bo'ldi. Bu xususida Prezident I.A.Karimov shunday degan edi: «Iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalarga, shuningdek, izchil siyosiy muloqatlarga keng imkoniyatlar ochib beradigan Yevropa Ittifoqi bilan shiriklik va hamkorlik haqidagi Bitimning amalga oshirilishiga alohida ahamiyat beramiz»²¹².

Prezident I.A.Karimov 2009 - yilning, 28-30-may kunlari Lotin Amerikasi mamlakatlari ichidagi dastlabki rasmiy safarini Braziliya Federativ Respublikasiga amalga oshirdi. Tashrif chog'ida ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabat o'rnatilib, turli sohalarda hamkorlik bo'yicha bitimlar imzolandi.

²¹² Karimov I.A. Ozod va Obod Batan, erkin va faravon hayot-pirovard maqsadimiz. Toshkent. 2000, -B. 27.

Mavzu yuzasidan nazorat uchun savollar

1. Sobiq SSSR va socialistik tizimni parchalanishi natijasida xalqaro siyosiy vaziyatda qanday o'zgarishlar ro'y berdi?
2. O'zbekistonning geosiyosiy jihatdan qulay imkoniyatlari nimalardan iborat?
3. Qanday geosiyosiy jihatlar O'zbekistonga qiyinchiliklar tug'dirmoqda?
4. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining mazmun-mohiyati xususida nimalarni bilasiz?
5. O'zbekiston nima uchun jahon hamjamiyatiga qo'shilish yo'lidan bormoqda?
6. O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
7. Dunyodagi qaysi davlatlar Toshkentda o'z elchixonasini ochgan?
8. Qaysi mamlakatlarda O'zbekistonning elchixonalari faoliyat yuritmoqda?
9. O'zbekistonning Markaziy Osiyo respublikalari bilan aloqalari haqida nimalarni bilasiz?
10. O'zbekiston va Rossiya o'rtasida davlatlararo munosabatlarning o'rnatilishi haqida so'zlab bering?
11. O'zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan har tomonlama hamkorlik munosabatlari haqida nimalarni bilasiz?
12. O'zbekiston bilan AQSh o'rtasidagi hamkorlik haqida so'zlab bering?

Testlar

- 1. Prezident I.A.Karimovning qaysi asari 1997 - yilda nashr etilgan?**
 - A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.
 - B. Ozod va Obod Vatan erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz
 - S. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat
 - D. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari
- 2. Konstitutsiyamizning nechanchi moddasi O'zbekiston tashqi siyosati masalalariga bag'ishlangan?**
 - A. 21 modda
 - B. 17 modda
 - S. 23 modda
 - D. 19 modda
- 3. O'zbekiston qo'yidagi qaysi tashkilotga a'zo emas?**
 - A. Shanxay hamkorlik tashkiloti
 - B. YuNESKO
 - S. Islom konferensiyasi tashkiloti
 - D. YeHHT

4. YuNESKO qaroriga binoan qachon Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi?

- A. 1997 - yil, mart
- B. 2001 - yil, sentyabr
- S. 1993 - yil, fevral
- D. 1995 - yil, iyul

5. Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining qaysi uchrashuvidan keyin Markaziy Osiyo degan atama O'rta Osiyo va Qozog'iston degan so'z o'rniga ishlatiladigan bo'ldi?

- A. 1992 - yil, 7 mart Alma-Ata
- B. 1993 - yil, 4 yanvar, Toshkent
- S. 1997 - yil, 12 aprel, Bishkek
- D. 2001 - yil, 14 fevral, Ashgabad

6. Qaysi xorijiy mamlakat Toshkentda birinchi bo'lib o'z elchixonasini ochgan?

- A. Turkiya
- B. Germaniya
- S. Hindiston
- D. AQSH

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

- takrorlash va mashqlar: takrorlash, o'z-o'zini sinash, tahlil qilish, qayta tayyorgarlik ko'rish, eslab qolish.
- yangi materiallarning mustaqil asosi: yangi adabiyotlar, internet materiallari, qo'shimcha konspekt, mustaqil fikrlar bildirish.
- ilmiy xarakterdagi ishlar: muammoli vaziyatlar, testlar, savollar, topshiriq va slaydlar tuzish.

YANGI PEDTEXNOLOGIYALARNING AYRIM USULLARI HAQIDA

«Bumerang» texnologiyasi

Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) shakllarni qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarish, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi rolida bo'lishi, kerakli ballni to'plashga imkoniyat beradi.

«Bumerang» texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqini shakllantirishga imkoniyat yaratadi; xotirani, g'oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ta'lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- jamoa bilan ishlash mahorati;
- muomalalik;
- xushfe'llik;
- kunikuvchanlik;
- o'zgalar fikriga hurmat;
- faollik;
- rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
- ishga ijodiy yondoshish;
- o'z faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish;
- o'zini xolis baholash

Asosiy tushunchalar qo'yidagilar.

Ochiq savollar bu savollar muomala so'zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.

Yopiq savollar – bu savollar oldindan «ha» yoki «yo'q» tipidagi to'g'ri, ochiq javoblarni berishni ko'zda tutadi.

Ko'ndalang so'roq – bir biriga guruhlab berishuvchi qisqa savollar qatori bo'lib, bu o'ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir.

Ko'ndalang so'roq paytida munozaraga kirishish mumkin emas. Bu vaqtda faqat savollar beriladi, munozaraga kirishilmaydi.

«Skarbey» texnologiyasi

«Skarbey» interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash

imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqlarni aniqlashga imkon yaratadi.

«Skarbey» texnologiyasi har tomonlama bo'lib, undan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi:

- boshida – o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida («Aqliy hujum»):

- mavzuni o'rganish jarayonida – uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarini ko'rsatish;

- oxirida – olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida

«Skarbey» texnologiyasi o'quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatini fikrlash, bilish xususiyatlari inobatiga olingan holda ishlab chiqilgan. U o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, foal ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega.

Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllaridan foydalanishni ko'rsatish mumkin.

«Skarbey» alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o'quv jamoalarida qo'llanish mumkin.

Ta'limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator, vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.

- o'zgalar fikriga hurmat;

- jamoa bilan ishlash mahorati;

- faollik;

- xushmuomalalik;

- ishcha ijodiy yondashish;

- imkoniyatlarini ko'rsatish ehtiyoji

- o'z qobiliyati va imkoniyatlarini ko'rsatishga yordam beradi;

- «men»ligini ifodalashga yordam beradi;

- o'z faoliyati natijalariga mas'ullik va qiziqish uyg'otadi.

Asosiy tushunchalar qo'yidagilar;

Assosiasiya – mantiqiy bog'liq bo'lib, sezgilar tasavvurlar, idrok qilish, g'oyalar va boshqalar oraisda hosil qilinuvchi mantiqiy aloqadir.

Ranjirlash (muayyan tartib) – ahamiyati, muhimligi, mazmuni, darajasiga qarab tartiblash.

Fikrlar hujumi

Yalpi «fikrlar hujumi» metodi J.Donald Feliks tomonidan ishlab chiqilgan. U katta guruhlarda (20 tagacha bo'lgan) yangi g'oyalar ishlab chiqish samaradorligini sezilarli darajada oshirishni ta'minlaydi. Barcha ishtirokchilar kichik-kichik 5-6 kishidan iborat guruhlariga bo'linadi va har bir kichik guruh hal qilinadigan ijodiy vazifa va muammo bo'yicha 15 daqiqa davomida mustaqil ravishda o'zaro «Fikrlar hujumi» o'tkazadi. Shundan so'ng har bir kichik guruh vakili o'z guruhlarida

ishlab chiqilgan g'oya haqida axborot beradilar va o'qituvchi rahbarligida jamoa bo'lib unga baho beradilar va ulardan eng yaxshilari, betakrorlari tanlab olinadi²¹³.

²¹³ Ishmuhammedov R.J. Innovation texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent. 2004 y. -B. 9-26.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, T., 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., Sharq, 1998.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T., 2011.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
5. Karimov I.A. Jahon moliyviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., 2009.
6. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. T. O'zbekiston, 1992.
7. Karimov I.A. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T., 1993.
8. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., 1995.
9. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., 1999.
10. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsilikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., 1997.
11. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., 1991.
12. Karimov I.A. Ozod va Obod Vatan, erkin va faravon hayot-pirovard maqsadimiz. T., 2000.
13. Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. O'zbekiston, 1998.
14. Karimov I.A. Milliy istiqlool mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., 2000.
15. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T., 1996.
16. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.: O'zbekiston, 1996.
17. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamo-yillar. T., 2000.
18. Usmonov Q va boshqalar. O'zbekiston tarixi. T., Iqtisod-moliya. 2000.
19. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida // Ilmiy muharri M.Jo'rayev. T., Sharq, 2000.
20. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. // Ilmiy muharri M.Jo'rayev. T., Sharq, 2000.
21. Ziyayev H. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlar tarixi. T., 2001.
22. Ziyayeva D. Turkiston milliy ozodlik harakati. Toshkent, 2000.
23. Abdullayev R.M i dr. Turkestan v nachale XX vv. K istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti. -T.: Shark, 2000.
24. Alimova D.A., Golovanov A.A. Uzbekistan v 1917-1990 gody: protivoborstva idey i ideologiy. -Tashkent: 2002.
25. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi (1917-1920) O'quv qo'llanma. T., 2002.
26. Turkiston birligi va mustaqilligi uchun kurash sahifalaridan. T., 1996.
27. Hamroqulov R., G'afurov O. Kilanlarni yondirgan yolqin. S, 2000.

28. Ahmad Zaki Validiy To'g'on. Bo'linganni bo'ri yer. Turkiston xalqlarining milliy mustaqillik uchun kurash tarixidan xotiralar. T. Adolat nashriyoti, 1997.
29. Shamsutdinov R. Istiqlol yo'lida shahid ketgatchilar. T.: Sharq, 2001.
30. Shamsutdinov R. Qishloq fojiasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgunlar. T., Sharq. 2005.
31. Xalq xotirasi oldida bosh egamiz: hujjatlar ma'ruzalar, xotiralar, xatlar. T., Sharq, 2001.
32. Repressiya. 1937-1938 gg. Otvredkator Karimov N.F, Dokumenty i materialy. Vypusk 1. T.: Sharq, 2005.
33. Hasanov B. Nasionalnaya intelegensiya Uzbekistana i istoricheskiye processy 1917 nachala 50 x godov. T., 2000.
34. Xlevnyuk O.V. 1937 y. Stalin NKVD i sovetskoye obshchestvo. Moskva. 1992.
35. Ishmuhammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent. 2004 y.
36. Gafforov Sh. Tarix va taqdir: Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko'chirilganlar. T.: Fan nashriyoti, 2006.
37. Yunusova X. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma'naviy jarayonlar. Toshkent. 2009.
38. Mamashokirov S., Tog'ayev Sh. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy – mafkuraviy masalalari. Toshkent. 2007.
39. Odilqoriyev. H. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. T.: Sharq, 2002.
40. Tyurikov V, Shog'ulomov R. O'zbekiston Respublikasi: 100 savolga, 100 javob. Toshkent. 1998.
41. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommiyot lug'at. A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahririda, ikkinchi nashri. T.: Sharq, 2000.
42. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va Atamalar lo'g'ati. T Toshkent. 2007.

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI	4-6
Mavzu: CHOR ROSSIIYASINING TURKISTONNI BOSIB OLISHI, CHORIZM ZULMIGA QARSHI TURKISTON XALQLARINING MILLIY OZODLIK KURASHI, JADIDCHILIK	6-27
Mavzu: TURKISTONDA MUSTABID SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI VA UNGA QARSHI QUROLLI HARAkat	27-53
Mavzu: SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN QATAG'ONLIK SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI	53-69
Mavzu: IKKINCHI JAHON URUSHI - YILLARIDA O'ZBEK XALQINING FASHIZM USTIDAN QOZONILGAN G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI	69-85
Mavzu: O'ZBEKISTONNING DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO'LGA KIRITISH, HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING BARPO ETILISHI	85-108
Mavzu: O'ZBEKISTONNING IQTISODIY, MA'NAVIY, MADANIY TARAQQIYOTI	108-128
Mavzu: O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI YANGI PEDTEXNOLOGIYALARNING AYRIM USULLARI HAQIDA	128-148
FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR	148-151
	151